



D.V. Alimzarova, F.A. Akramova

FAN VA
TEXNIKA TARIXI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

D.V. Alinazarova, F.A. Akramova

FAN VA TEXNIKA TARIXI

(1-qism)

(Bakalavriat talabalari uchun o‘quv qo‘llanma)

Toshkent – 2024

UO'K: 001:5/6(091)(075.8)

KKB: 72.3+62g ya73

A 49

Alinazarova, D.V. Fan va texnika tarixi (1-qism) (Bakalavriat talabalari uchun o'quv qo'llanma) [Matn] : o'quv qo'llanma / D.V. Alinazarova, F.A. Akramova. – Toshkent: Bayoz, 2024. – 200 b.

Mas'ul muharrir:

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent **A.B. Xolikulov**

Taqrizchilar:

Tarix fanlari doktori, professor **O.P. Kobzeva**

Tarix fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent **M.Yu. Ruzikulova**

Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan ushbu o'quv qo'llanma "Fan va texnika tarixi" fanining predmeti, tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifalari, mustaqil O'zbekistonda fanning rivojlanish yo'nalishlari va muammolari, antik davrda ilmiy tafakkurning paydo bo'lishi, qadimgi Yunonistonda ilmiy bilimlarning rivojlanishi, qadimgi Rimda ilmiy bilimlarning taraqqiy etishi, IX-XI asrlarda Musulmon Uyg'onish davri, Sharq allomalarining dunyo ilmiy tafakkuri taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, Markaziy Osiyolik allomalarning bashariyat ilmiy taraqqiyotiga qo'shgan ulushi, Markaziy Osiyolik qomusiy mutafakkirlarning dunyo sivilizatsiyasida tutgan o'rni kabi masalalarni qamrab olgan.

Данное учебное пособие, предназначено для студентов исторических факультетов высших учебных заведений, в котором охвачено изучение ряда тем, таких как: предмет, цели и задачи "История науки и техники", методы исследования, направления и проблемы развития науки в независимом Узбекистане, возникновение научной мысли в античный период, развитие научных знаний в Древней Греции, формирование научных мыслей в Древнем Риме, эпоха Мусульманского ренессанса в IX-XI веках,

вклад восточных ученых в развитие мировой научной мысли, роль и место центральноазиатских ученых-энциклопедистов в мировой цивилизации.

This textbook is intended for students of the historical faculties of higher educational institutions, which covers the study of a number of topics, such as: the subject, goals and objectives of the “History of Science and technology”, research methods, directions and problems of the development of science in independent Uzbekistan, the emergence of scientific thought in the ancient period, the development of scientific knowledge in Ancient Greece, the formation of scientific thought in Ancient Rome, the era of the Muslim Renaissance in the IX-XI centuries, the contribution of Oriental scientists to the development of world scientific thought, the role and place of Central Asian encyclopedic scientists in world civilization.

UO‘K: 001:5/6(091)(075.8)

ККВ: 72.3+62g ya73

Mazkur o‘quv-qo‘llanma Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti qoshidagi AL-662205481 sonli “Qashqadaryo vohasi tarixiy va madaniy yodgorliklari, ekoturizmiga oid ziyoratgohlarning “i-turism” platformasini ishlab chiqish” mavzusi-dagi 2024-yil 3-yanvardan 31-dekabrgacha mo‘ljallangan amaliy loyiha doirasida bajarildi.

ISBN 978-9910-9128-2-5

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2024 yil 28 iyundagi 9-sonli bayonnoma)

© “BAYOZ” nashriyoti, 2024 y
© D.V.Alinazarova, F.A.Akramova. 2024 y

XXI asr – yuqori texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot iqtisodiyotiga intensiv o'tish asridir. XX asrning kosmik tadqiqotlar, atom energiyasini yaratish, robototexnika sohasidagi yutuqlar ilmiy, texnik va ijtimoiy taraqqiyotning muqarrarligiga ishonchni keltirib chiqardi, ochlik, kasallik, ekologik muammolarni hal qilish umidini oshirdi. Shubhasiz, bugungi kunda fanning rivojlanish darajasi jamiyatning iqtisodiy, madaniy, sivilizatsiyaviy va ma'rifiy zamonaviy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Fan va texnika tarixi fani, fanning yangi nazariyalarini, fanning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish va tadqiq qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, fan va texnika tarixining davlat va jamiyat taraqqiyotidagi rolini tushuntirishga mo'ljallangan. Yangi ilmiy muammoni tadqiq qilishda yoki texnologiyaning yangi obyektini yaratishda, qoida tariqasida, bir nechta farazlar, yechimlar mavjud – fan va texnika tarixini bilish rivojlanishning tabiiy yo'lini tanlashga imkon beradi. Ilm-fan va texnologiyaning rivojlanish tarixini bilish, fan va texnologiyani yanada rivojlantirish uchun to'g'ri alternativani oqilona tanlash (chuqurroq tahlil qilishni taklif qilish) imkonini beradi; o'xshashliklarni (tarixiy), o'tmishda ushbu muammoni hal qilishga urinishlarni taklif qiladi; ilmiy bilish va ilmiy ijodiy usullarni aniqlashga imkon beradi, umuman fan va texnika rivojlanishining qonuniyatlarini bilish imkonini yaratadi.

Fanni o'qitishdan maqsad: “Fan” tushunchasi, uning mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari, fanning shakllanishi, fanning tarkibi va tuzilishi, uni tashkil qilish va boshqarish, fanning tasnifi, fanning ijtimoiy roli va uning rivojlanish istiqbollari, hozirgi zamon fanining o'ziga xos xususiyatlari, fan etikasi va olimlik mas'uliyati, mustaqil O'zbekistonda fanning rivojlanishi va taraqqiyoti kabi masalalarni o'rgatishdan iborat.

Fan va texnika tarixi fanining vazifasi – fandagi yangi nazariyalarni tahlil etish, fanning asosiy yo'nalishlarini tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish, davlat va jamiyat taraqqiyotining rivojlanish omillarini tahlil qilishda fan va texnika tarixi fanining o'rnini

tushuntirishdan iborat.

Fan va texnika tarixi faniga quyidagilar kiradi:

- fan va texnika tarixi voqealari va yaratuvchilari haqida ma'lumot;
- fan va texnika tarixining moddiy yodgorliklari;
- turli madaniy va tarixiy sharoitlarda (kontekstlarda) ilmiy-texnik bilimlarni olish, asoslash jarayonlari;
- ilmiy-texnik bilimlarning tuzilishi va mazmuni.

"Fan va texnika tarixi" fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- "Fan va texnika tarixi" ning metodi, asosiy bosqichlari, ilmiy maktablar haqida ma'lumot oladi;

- qadimgi va o'rta asrlarda akademiyalar va universitetlarning tashkil topishi haqida tasavvurga ega bo'ladi;

- Sharqda va Yevropada Renessans davrida aniq fanlarning rivojlanishi va ilmiy kashfiyotlarni yuzaga kelish jarayonlarini biladi;

- tarixiy jamiyat rivojlanishining ilmiylik va mantiqiylik asosida o'rganadi, Vatanimiz tarixini jahon tarixi bilan uyg'unligini, o'tmish voqelikni tahlil etib holisona baho berishga kirishadi.

Ushbu qo'llanmada barcha mavzular to'liq ochib berilgan degan ta'rifga davo qilmaymiz. Barcha fikr va takliflarni chuqur minnatdorchilik bilan qabul qilamiz.

Mualliflardan

**1-MAVZU: MUSTAQIL O'ZBEKISTON:
RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA
MUAMMOLARI. FANNING PREDMETI,
TADQIQOT DOIRASI, MAQSADI VA
VAZIFALARI**

Reja:

- 1.1. Fan tushunchasi. Uning rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari.
- 1.2. Fanning strukturasi, metodi va tasnifi.
- 1.3. Fanning ijimoiy roli va uning rivojlanish istiqbollari.
- 1.4. Hozirgi zamon fanining o'ziga xos xususiyatlari.
- 1.5. Fan etkasi va olimlik mas'uliyati.

Tayanch tushunchalar: fan, fan tasnifi, etika, olimlik mas'uliyati, fan metodi, fan klassifikatsiyasi

1.1. Fan tushunchasi. Uning rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari

Fan tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiya-larini ishlab chiqaruvchi soha hisoblanadi.

Fan – bu tadqiqot faoliyati sohasi bo'lib, unda tabiat, jamiyat va tafakkur haqidagi yangi bilimlar hosil qilishga qaratiladi.

Fan – bu ijimoiy mehnat taqsimotining natijasidir.

Fan – bu bir tizimga solingan ilmiy bilimlarning majmui bo'lib, ma'lum sohada nazariyalar, konsepsiyalar yaratilganda shakllanadi.

Fan – bu ko'p tarmoqli tabiiy va gumanitar fanlarga bo'lib o'rganiladi. Har ikkala tarmoq o'zaro uzviy holda ilmiy-texnika inqilobi jarayonida ishtirok etadi.

Fan – dunyo haqidagi ob'ektiv bilimlar tizimi hisoblanadi. Fan ijimoiy ong shakllaridan biridir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida, ayniqsa ilmiy-texnika inqilobi davrida fan jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlariga aylana boradi.

Fan – bu tabiat, jamiyat va tafakkur haqidagi yangi bilimlar hosil

qilishdan to ularni amaliyotga tatbiq qilunguncha bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi.

Fan keng ma'noda voqelikni nazariy jihatdan yorituvchi ilmiy mexanizmdir. Fan o'z navbatida ob'ektiv voqelikni o'rganadi, uni baholaydi va mushohada qiladi.

Fan – dunyo haqidagi bilimlar tizimi bo'lib, u ijimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi. Fan yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli bo'lgan olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Fan inson bilimlarining ayrim sohalarni ifodalaydi.

Fanning rivojlanish qonuniyatlari deganda, uning rivojlanishida yuzaga keladigan barqaror tendensiyalar yoki ushbu rivojlanish bosqichlari o'rtasida kuzatilgan muhim aloqalar tushuniladi. Tabiiy bilimlar qonuniyatlari, fanning ilmiy rivojlanish qonuniyatlari ham empirik ma'lumotlarni tushunish va umumlashtirish orqali quriladi.

Fanning rivojlanishida ichki va tashqi omillar mavjud bo'ladi. Tashqi ta'sirlarga odatda, davlatning ta'siri, iqtisodiy va milliy xususiyatlar, olimlarning dunyog qarashi va boshqalarni kiritish mumkin. Ichki omillarga fanning rivojlanish dinamikasi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni eski paradigma – fanning normal rivojlanish bosqichi, fanda inqilob – yangi paradigmanning yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Paradigma ilmiy jamoatchilikda ma'lum bir tarixiy davrda hukmronlik qiladigan ilmiy nazariyadir. Ma'lum bir fandagi asosiy nazariy tushunchalar yig'indisi o'zgarmas bo'lsa, biz fan bilan shug'ullanamiz. Agar ular o'zgaragan bo'lsa, demak bu bilim sohasida ilmiy inqilob yuz bergan va uning natijasida yangi paradigma shakllangan bo'ladi. Shunday jarayon qayta takrorlanib turadi.

Har qanday jamiyatda fan quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Kognitiv¹ funktsiya – bilimlar tizimlari va inson intellektual faoliyatining moddiy mahsulotlarini ishlab chiqarish, ya'ni yangi bilimlarni izlash va ishlab chiqarish nazarda tutiladi.

¹ Kognitiv so'zi inglizcha (latin) "cognitio" so'zidan olingan bo'lib, u bilimog, anglanog, tushunmog va fikrlanog yoki "cognition" – bilish, tushunish kabi ma'nalarni beradi. O'z o'rnida bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog'liq hodisadir.

- Dunyovqarash funksiyasi – ilmiy dunyovqarash va dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish tushuniladi;

- Prognostik funksiya – ilmiy faoliyatni borishini oldindan bilish va ilmiy asoslangan maqsadlarni qo'yish tushuniladi;

- Ishlab chiqarish funksiyasi – ishlab chiqarish tarmoqlariga innovatsiyalar, jarayonlarni tashkil etishning yangi shakllari, texnologiyalar va ilmiy yangiliklarni joriy etish tushuniladi;

- Madaniy (ma'rifiy) funksiya – bu funksiyada insonlarga bilim berish, rivojlantirish va ularni tarbiyalash tushuniladi. Bu yerda fan va ta'lim tizimining o'zaro uyg'unligi namoyon bo'ladi;

- Jitimoiy funksiya – fanning kundalik muammolarni hal qilishda bevosita qatnashishi. Bunda jamoat hayoti va madaniy komponentni rivojlantirish uchun eng yaxshi va eng qulay shart-sharoitlarni yaratish tushuniladi.

Fanning rivojlanish tamoyillarini olimlar to'rtga – universalizm, jamoaviylik, fidoyilik va uyushgan skeptitsizmga bo'ladi. Fanda xulq-atvorni tartibga soluvchi qoidalar va huquqiy qonunlar maqomiga ega emas. Fanlarning o'sishi, tuzilishi va dinamikasi, jamiyatning moddiy hamda ma'naviy hayotini o'rganadigan fanlar majmui bu fannun nosilikdir. Fan rivojlanishining ba'zi sohalarini olimlar diqqatini o'ziga tortgan.

Ilm-fan rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi jitimoiy, ruhiy va boshqa faktorlarni birinchi bo'lib, shveysar botanigi Dekandol o'zining "Fan tarixi va ikki asr olimlari" kitobida 1873 yilda tahlil qilib berishga harakat qilgan.

Birib oling!

Fan tarixi asosiy fan sifatida jitimoiy fanlardan 1892 yil ayrilib chiqdi. Fransiyada birinchi bo'lib, "Fan tarixi" degan kefdra ochildi. Fan tarixini kompleks o'rganish XX asrning birinchi yarimida ilmiy-texnik rivojlanish jarayoni bilan boshlandi. Fan – jitimoiy institut sifatida Yevropada XVII-XVIII asrlarda dastlabki ilmiy jumalalar joriy etilishi bilan shakllana borgan edi.

Fanning sinfy bo'linishi – fanlarni ma'lum tadqiqot prinsiplari asosida o'zaro bog'liqliklarini aniqlash tirish demakdir.

Bu jarayon quyidagi uch bosqichdan iborat:

1. Qadimda va ilk o'rta asrlarda falsafiy bilim rivoji;
2. XV-XVIII asrlarda ilmiy bilimlarning tarmoqlari va differensiyasi;
3. Ilm-fan integratsiyalashuvi jarayoni XIX-XX asrlar.

Fanning asosiy maqsadi o'zining o'rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir.

Fanning maqsadini quyidagi ko'rinishga ega ekanligini anglashimiz zarur:

– fan rivojini tarixiy xarakterini va ilmiy bilimlar majmuasini ko'rsatish;

– ilmiy tadqiqotlarni o'zgarishi va dunyoning rivojlanishini o'rganishda ilmiy inqiloblarning ahamiyatini ko'rsatish;

– zamonaviy, dunyoviy va Vatan tarixiga oid fanlar rivojini ko'rsatish.

1.2. Fanning strukturasi, metodi va tasnifi

Fan o'z o'rnida bilish faoliyati, ya'ni insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog'liq faoliyat turidir. U o'ziga xos tuzilishga egadir. Bular quyidagilardan iborat: maqsad, subyekt, obyekt, faoliyat vositalari.

Hozirgi zamon fanlarning ma'lum bir ichki tuzilishi va tasnifi mavjud. Barcha fanlar ikkita katta guruhga bo'linadi: fundamental va amaliy fanlar. Fundamental fanlarga quyidagilar kiradi: tabiiy (tabiat haqidagi fan), gumanitar (jamiyat va inson ongi haqida) va matematik fanlar. Fundamental fanlarning vazifasi tabiat sohalarida yuz beradigan o'zaro ta'sirini tartibga soluvchi qonunlarni tushunishdan iborat.

Fundamental ilmiy tadqiqotlar fanning rivojlanish istiqbollari belgilaydi. Amaliy fanlarga texnik bilimlar, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va boshqa bilim sohalar kiradi. Ularning bevosita maqsadi fundamental fanlar erishgan natijalarni turli amaliy muammolarni hal qilishda qo'llashdan iborat.

Fanning ilk shakllari kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan

- Dunyogarash funksiyasi – ilmiy dunyogarash va dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish tushuniladi;

- Prognostik funksiya – ilmiy faoliyatni borishini oldindan bilish va ilmiy asoslangan maqsadlarni qo'yish tushuniladi;

- Ishlab chiqarish funksiyasi – ishlab chiqarish tarmoqlariga innovatsiyalar, jarayonlarni tashkil etishning yangi shakllari, texnologiyalar va ilmiy yangiliklarni joriy etish tushuniladi;

- Madaniy (ma'rifiy) funksiya – bu funksiyada insonlarga bilim berish, rivojlantirish va ularni tarbiyalash tushuniladi. Bu yerda fan va ta'lim tizimining o'zaro uyg'unligi namoyon bo'ladi;

- Jitimoiy funksiya – fanning kundalik muammolarni hal qilishda bevosita qatnashishi. Bunda jamoat hayoti va madaniy komponentni rivojlantirish uchun eng yaxshi va eng qulay shart-sharoitlarni yaratish tushuniladi.

Fanning rivojlanish tamoyillarini olimlar to'rtga – universalizm, jamoaviylik, fidoyilik va uyushgan skeptisizmga bo'ladi. Fanda xulq-atvorni tartibga soluvchi qoidalar va huquqiy qonunlar maqomiga ega emas. Fanlarning o'sishi, tuzilishi va dinamikasi, jamiyatning moddiy hamda ma'naviy hayotini o'rganadigan fanlar majmui bu fanshunoslikdir. Fan rivojlanishining ba'zi sohaları olimlar diqqatini o'ziga tortgan.

Ilm-fan rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi jitimoiy, ruhiy va boshqa faktorlarni birinchi bo'lib, shveysar botanigi Dekandol o'zining "Fan tarixi va ikki asr olimlari" kitobida 1873 yilda tahlil qilib berishga harakat qilgan.

Bilib oling!

Fan tarixi asosiy fan sifatida jitimoiy fanlardan 1892 yil ajratib chiqadi. Fransiyada birinchi bo'lib "Fan tarixi" degan kafedra ochildi. Fan tarixini kompleks o'rganish XX asrning birinchi yarmida ilmiy-texnik rivojlanish jarayoni bilan boshlandi. Fan – jitimoiy institut sifatida Yevropada XVII-XVIII asrlarda dastlabki ilmiy jumhurlar joriy etilishi bilan shakllana borgan edi.

Fanning sinfiy bo'linishi – fanlarni ma'lum tadqiqot prinsiplari asosida o'zaro bog'liqliklarini aniqlashdir demakdir.

Bu jarayon quyidagi uch bosqichdan iborat:

1. Qadimda va ilk o'rta asrlarda falsafiy bilim rivoji;
2. XV-XVIII asrlarda ilmiy bilimlarning tarmoqlari va differentsiyasi;
3. Ilm-fan integratsiyalashuvi jarayoni XIX-XX asrlar.

Fanning asosiy maqsadi o'zining o'rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir.

Fanning maqsadini quyidagi ko'rinishga ega ekanligini anglashimiz zarur:

– fan rivojini tarixiy xarakterini va ilmiy bilimlar majmuasini ko'rsatish;

– ilmiy tadqiqotlarni o'zgarishi va dunyoning rivojlanishini o'rganishda ilmiy inqiloblarning ahamiyatini ko'rsatish;

– zamonaviy, dunyoviy va Vatan tarixiga oid fanlar rivojini ko'rsatish.

1.2. Fanning strukturasi, metodi va tasnifi

Fan o'z o'rnida bilish faoliyati, ya'ni insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog'liq faoliyat turidir. U o'ziga xos tuzilishga egadir. Bular quyidagilardan iborat: maqsad, subyekt, obyekt, faoliyat vositalari.

Hozirgi zamon fanlarning ma'lum bir ichki tuzilishi va tasnifi mavjud. Barcha fanlar ikkita katta guruhga bo'linadi: fundamental va amaliy fanlar. Fundamental fanlarga quyidagilar kiradi: tabiiy (tabiat haqidagi fan), gumanitar (jamiyat va inson ongi haqida) va matematik fanlar. Fundamental fanlarning vazifasi tabiat sohalarida yuz beradigan o'zaro ta'sirini tartibga soluvchi qonunlarni tushunishdan iborat.

Fundamental ilmiy tadqiqotlar fanning rivojlanish istiqbollari belgilaydi. Amaliy fanlarga texnik bilimlar, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va boshqa bilim sohaları kiradi. Ularning bevosita maqsadi fundamental fanlar erishgan natijalarni turli amaliy muammolarni hal qilishda qo'llashdan iborat.

Fanning ilk shakllari kishitlik jamiyatining paydo bo'lishi bilan

vujudga kela boshlagan. Dastlabki bilimlar amaliy mazmuniga ega bo'lgan. Tafakkur ilk shakllariatsonalarda Qadimgi Sharq sivilizatsiyalari va Yunonistonda paydo bo'lgan. Mifologiya fanga o'tish bo'sag'asida ma'lum bosqich rolini o'ynagan. Fanning taraqqiyoti jarayonida afsona o'z o'rnini naturfilosofiya (tabiat falsafasi)ga bo'shatib bergan.

Zenon, Demokrit, Aristotel va boshqa qadimgi zamon mutafakkirlari tabiat, jamiyat va tafakkurni goho birgalikda ayrim-ayrim ravishda bayon etishgan. Dunyoni bir butun deb ifodalovchi tushunchalar paydo bo'ldi.

Ellinizm davrida Yevklid, Arximed, Ptolemey tomonidan mexanika, geometriya va astronomiya fanlari sohalarida dastlabki nazariy tizimlar yaratildi.

O'rta asrlarda fan rivojiga qarab, sharq va O'rta Osiyo mutafakkirlari katta hissa qo'shgan. Qadimgi fan yutuqlarini ilmiy asarlarni saqlab qolish, tarjima qilish va ommalashtirishga katta e'tibor berildi hamda yanada rivojlantirildi.

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkir olimlari ilm-fanning yangi tarmoqlarini yaratdilar va yangi qonun-qoidalarini kashf etdilar. Muhammad Xorazmiy tenglamalar haqida fan sifatida algebra va algoritmlarni kashf etdi. Ahmad Farg'oniy astronomiya faniga tizimlilikni kiritgan. Ahmad Marvaziy trigonometriyani boyitdi (IX asr). Abu Nasr Farobiy falsafiy fikrni yuksaltirdi, musiqaning matematik nazariyasini yaratdi (X asr). Mahmud Qoshg'ariy o'z davrining qomusi "Devonu lug'ati turk" asarini yaratdi. Abu Rayhon Beruniy mineralogiya, geodeziya va farmakologiya fanlarini yaratuvchilaridan biri bo'lgan, Abu Ali Ibn Sino meditsinaning ilmiy poydevorini qo'ygan mutafakkirlardan biridir (XI asr).

Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddiy Koshiy, Ali Qushchi sonlar nazariyasiga muhim hissa qo'shdilar va astronomiya fanini rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shdilar.

Yevropada Uyg'onish davri ilm-fan taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XII asr boshlarida Yevropada Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Al-Kindiy, Ibn Rushd va boshqa Sharq Renessansi mutafakkirlarining asarlari lotin tiliga tarjima qilindi. Leonardo da Vinchi, R.Bekon, T.Gobbs, N.Kopernik, J.Bruno, G.Galeley, I.Kepler, R.Dekart kabi

olimlar tabiatni ilmiy bilishning yangi yo'llarini o'rgandilar. Natijada, astronomiya o'rnini astronomiya, alkimy o'rnini esa kimyo egalladi.

Yangi davrda fanning jamiyatda o'rni va ahamiyati yanada ortdi, u madaniyatning muhim sohasiga aylandi. XVI-XVII asrlarda esa klassik fizikaning poydevori qo'yildi. Fanlarning nazariy asoslari mustahkamlanishi, fikrning induktiv va deduktiv rivojlanishiga yo'l ochib berdi.

Isaak Nyuton dinamikaning asosiy qonunini kashf etdi. Uning asosida XVII-XIX asrlarda tabiatshunoslikda yangi qonunlar kashf etildi. J.Lagranj, S.Kovalevskaya va boshqalar ijodiy natijasida mexanikada katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Olamning mexanik talqini dialektik mazmuniga ega bo'ldi. I.Kant, P.Laplas va boshqalar tabiat to'g'risida dialektikaga asoslangan g'oyalarni ilgari surdilar. M.V.Lomonosov moddaning saqlanish konunini kashf etdi.

XIX asrda energiyaning saqlanishi va shaklining o'zgarishi haqidagi qonun kashf etilishi fizika va kimyoning barcha sohalarini umumiy asosga ega ekanligini isbotladi. Xujayraning kashf etilishi barcha jonli organizmlar bir xil tuzilishga ega ekanligini isbotladi. Ch.Darvinning biologiyadagi evolutsiya nazariyasi, jonli tabiatga rivojlanish g'oyasini olib kirdi. Geometriya sohasida muhim ta'limot yaratildi, asrlar davomida hukm surib kelgan Yevklid geometriyasi bilan birga, noevklid geometriya ham borligi N.Lobachevskiy tomonidan bashorat qilindi va keyinchalik isbotlandi. D.I.Mendeleyev davriy sistemasi har xil kimyoviy elementlar orasidagi ichki dialektik bog'lanish mavjudligini isbotladi.

XIX asr o'rtalarida fanning umumiy shakli va metodologiyasi bo'lgan filosofiyada katta o'zgarishlar yuz berdi. Fanning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati ortdi. Fanda qo'lga kiritilgan yutuqlar texnika yutuqlari bilan organik ravishda birlashib, yagona ilmiy-texnika yutuqlariga aylandi. 40-yillarning oxirlarida boshlangan ilmiy-texnika yutuqlari fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga joriy etilishi muddati qisqarishi natijasida fanda, texnikada hamda ishlab chiqarishda silat o'zgarishlari yuz berdi. Fanning ijtimoiy mohiyati o'zgardi. XIX asrning 80-yillarda uni boshqarish muammosi dolzarb ahamiyat

kasb eildi.

O'rta asrlardan boshlab Yevropada universitetlarning fan rivojlanishidagi ishtiroki kengayib bordi. Bu davrda O'rta Osiyoda vujudga kelgan madrasalarda ilohiyot bilan birga ilg'or mudarrislar tomonidan dunyoviy fanlar, ya'ni matematika, astronomiya, geografiya va tibbiyot kabi fanlardan ta'lim berilgan.

Akademiya tarzidagi muassasa va jamiyatlar Sharq mamlakatlarida VIII-IX asrlarda vujudga kelgan. XV-XVI asrlardan boshlab Yevropada bunday muassasa va jamiyatlar ta'sis etilgan edi. Ilm-fan bilan shug'ullanadigan odamlarning umumiy soni ilmiy jamoani tashkil qiladi. Ilmiy hamjamiyat – bu davlat idoralari, jamoat tashkilotlari va norasmiy guruhlarning faoliyat ko'rsatadigan o'zini o'zi boshqaradigan murakkab tizimdan iborat. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, ilmiy yutuqlar natijasida erishilgan obro'ni tan olish darajasi oshib boradi va hokimiyat vakolatlarini mos ravishda kamayadi, bunday holat, odatda davlat va ilmiy jamoatchilik o'rtasidaziddiyatlarini yuzaga keltiradi.

Ilmiy jamoaning eng muhim vazifalari – yangi g'oya va nazariyalarni tan olish yoki rad etish, fanning rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash va yangi tadqiqotchilarni tayyorlashdan iborat. Ilmiy jamoatchilikning asosini olimlar tashkil etadi. Olim – bu ilmiy faoliyati va malakasi ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan, dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish sohasida faoliyat olib boruvchi fan vakilidir. Dunyoning ilmiy manzarasi – bu odamlarga ma'lum bo'lgan dunyoni tasvirlaydigan ilmiy nazariyalar majmui, ko'rinot tuzilishining umumiy tamoyillari va qonunlari haqidagi g'oyalar tizimidir.

Har qanday jamiyatda fan rivojlanishi uchun imkoniyat yaratilishi va uni boshqarishi muhim ahamiyatga ega. Ilmiy muassasalarni bir yerga to'plash va markazlashirish umumijilmiy hamda xalqaro ilmiy tashkilot, markazlarning paydo bo'lishiga olib keldi. XX asrda ixtisoslashtirilgan tadqiqot muassasalari yanada kengaydi. Fan sohalari bo'yicha va kompleks ravishda ish olib boradigan ilmiy markazlar tashkil etildi. Dolzarb ilmiy muammolarni hal qilish uchun maxsus ijodiy uyushmalar tuzildi. Yirik ilmiy muassasa va laboratoriyalar faoliyat ko'rsata boshladi.

Bularni hammasi fan sohalarini rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb eildi.

Xususan, O'zbekistonda matematika va funksional analizdifferensial va integral tenglamalar, sonlar nazariyasi va hisoblash matematikasi sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Ehtimollik nazariyasi bo'yicha "Toshkent maktabi" deb nomlangan ilmiy yo'nalish nafqat bizning mamlakatimizda, balki jahon miqyosida tan olindi. Yadro fizikasi va geofizika, geotexnika va elektronika, gaz dinamikasi yutuqlari xalq ho'jaligining turli sohalariga tadbir qilinmoqda.

Bugungi kunda fan tasniflashirigan. Barcha fanlarni uch toifaga bo'lib tasniflash mumkin. Bular: tabiiy fanlar, ijimoiy va gumanitar fanlar va rasmiy fanlardir. Fanning tasnifi yana quyidagi yo'nalishlarda, ya'ni tarix, falsafa va alohida fanlarning o'zaro munosabatlari asosida namoyon bo'ladi. Bu jarayon uch bosqichga bo'linadi:

1. Bu qadimgi ajralmagan falsafa va o'rta asr falsafasi dastlabki qismidir.

2. XV-XVII asr – differentsiatsiyasi, ya'ni ilm-fanning bir-biridan ajralishi va alohida sohalarga bo'linishi.

3. Fanning alohida sohalari va sintetik fanlarning yuzaga kelishi.

Bugungi kunda fan va bilim ishlab chiqaruvchi kuch sohasidir. Bu soha katta moddiy bazaga va aloqa tizimiga ega.

Zamonaviy fan bizning hayotimizga tobora chuqur kirib kelmogda. Fagatgina ijimoiy institutlarga emas, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga va sanoatga shu qatori siyosat, harbiy soha va har qanday davlatning ijimoiy-iqtisodiy omifi bo'lib, juda katta mablag'sarf qilishni talab etadi. Aniq va texnik fanlar qatorida zamonaviy jamiyatda jamiyatshunoslik, ijimoiy yo'nalishlarni belgilashda va insonni har tomonlama o'rganishda katta ahamiyatga egaadir.

Bugungi kunda zamonaviy fan o'zida murakkab va ayni paytda yaxlit tizimni shakllantiradi. Fan – bu bilimlar tizimidir. Ilm-fanni tizimlashtirish va tasniflash bilan olimlar qadim zamonlardan beri shug'ullanib kelishgan, ammo hanuzgacha uning aniq va mantiqiy uyg'un tasnifi mavjud emas.

Fan va texnika tarixi rivojlanishini quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1. Ibtidoiy davr – Insoniyatning paydo bo'lganidan ilk sivilizatsiyalarning paydo bo'lishigacha bo'lgan davr;

2. Qadimgi Sharqning ilk sivilizatsiyalarida (miloddan avvalgi III-I-ming yilliklar) ilmiy bilimlar vujudga kelish davri;

3. Antik davr – fanning paydo bo'lishidan G'arbiy Rim imperiyasining qulashigacha (miloddan avvalgi VI asrdan – milodiy V asrgacha) bo'lgan davr;

4. O'rta asrlar (V-XIV asrlar) davri;

5. Uyg'onish va ilmiy inqilob (XV-XVII asrlar) davri;

6. San'at inqilobi va fan rivojlanishining tahliliy davri (XVIII asr);

7. Fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi davri (XIX asr);

8. Fizika-texnika davri (XX asrning birinchi yarmi);

9. Ilmiy-texnik inqilob davri (XX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha).

“Metod” tushunchasining ikkita asosiy ma'nosi mavjud:

– bu har qanday faoliyat sohasida (fan, siyosat, san'at va boshqalar)

qo'llaniladigan ma'lum texnika va usullar tizimidir;

– bu yuqorida tavsiflangan tizim haqidagi ta'limot, metodning umumiy nazariyasi, harakatidagi nazariya.

Metodning asosiy vazifasi kognitiv jarayonni tartibga solish yoki faoliyat obyektini amaliy o'zgartirishdir. Metod odamlarning har qanday sohadagi faoliyati uchun vositadir. Shuni yodda tutish kerakki, metodni ikki tomondan ko'rish mumkin (o'quv adabiyotlarida bunday bo'linish odatda amalga oshirilmaydi). Metod ma'lum bir faoliyatning amalga oshiriladigan usuli sifatida (shu jumladan kognitiv). Metod o'ziga xos qoidalar, usullar, texnikalar, bilish va harakat normalarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari sifatida namoyon bo'ladi.

1.3. Fanning ijtimoiy roli va uning rivojlanish istiqbollari

Fan jamiyat farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va shu bilan birgalikda bir qator funksiyalarni bajaradi: yangi bilimlarni yaratish, ta'limni mukammal darajaga ko'tarish va hayot sifatini

yaخشilash kabildir. Fan jamiyat ehtiyojlarini qondirishi va unga global muammolarni yengishga yordam berishi kerak. Avvalo, fanimiz strukturasi keskin o'zgardi. Xususan, ma'naviy fanlar hisoblanuvchi tasavvuf ilmi tiklandi, hadis bilimlarini o'rganishga yo'l ochildi.

Binobarin, ziyolilarning, talabalarning ruhiy dunyosi ancha boyidi, yangi oliy o'quv yurtlari, universitetlar tashkil qilindi. Ilm ahli chet eldagi olimlar bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatdi. Buning natijasida tabiat va texnika-texnologiya haqidagi fanlarimiz ham jahon andozasi darajasiga ko'tarila boshladi. Olimlarimiz ilm-fanning dolzarb sohalarida tadqiqotlar olib borishga kirishdilar. Tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni matematik modellash, informatika va hisoblash texnikasi hamda ehtimollar nazariyasi sohasi, geologik jarayonlarning qonuniyalari, molekular genetik, tibbiyot sohasidagi genetik hujayralar, gishloq xo'jaligi, paxta seleksiyachiligi, moddalarning kompleks fizikaviy-kimyoviy xossalarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan energiya-ning turlarini yaratish ya'ni Quyosh energiyasini kompleks va samarali suratda boshqa turdagi energiyaga aylantirish borasidagi tadqiqotlar ana shular jumlasidandir.

Fanning rivojlanishi uchun imkon yaratish va uni boshqarish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy muassasalarni bir joyga jamlash va ularni markazlashtirish natijasida umummilliy hamda xalqaro ilmiy tashkilot va markazlarning paydo bo'lishiga olib keldi. XX asrda ixtisoslashtirilgan tadqiqot muassasalari keng tarqiqiy etdi.

XX asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnik inqilob sharoitida fan yana bir muhim funksiyani ochib berdi: fan ijtimoiy kuch sifatida harakat qila boshladi. Bu ilmiy tadqiqotlar jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarga tobora ko'proq ta'tbiq etilayotganida namoyon bo'ldi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar fanlar ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida tartibga soluvchi rol o'ynay boshladi.

XX-XXI asrlarning so'nggi o'n yilliklarida fanning yutuqlari va usullari iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy sohada keng ko'lami dasturlarni ishlab chiqish keng qo'llanila boshlandi. Bu turli profildagi olimlarning (psixologlar, iqtisodchilar, sotsiologlar, matematiklar va boshqalar) ishtirokini talab qildi. Bunday rejalar va dasturlarni ishlab chiqish

murakkab bo'lgani bois, bu tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlarning o'zaro ta'sirini talab qildi. Bunday o'zaro ta'sir turli xil boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda samarali bo'ldi.

Fanning ijtimoiy kuch sifatidagi vazifasi zamonaviy jamiyatning global muammolarini hal qilishda yaqqol namoyon bo'ldi. Hozirgi vaqtda atrof-muhit energiya, xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlarida global inqiroz tahdidlari kuchayib borayotgan bir paytda, fanning ijtimoiy roli ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy jamoatchilik global inqirozlarning alomatlarini qayd etib, jamoatchilik, siyosatchilar va iqtisodiy rahbarlarning e'tiborini yaqinlashib kelayotgan tahdidlarga qarata boshladi. Zamonaviy ilm-fan ma'lumotlari va yutuqlariga asoslanib, ushbu tahdidlarni bartaraf etish va shu orqali insoniyatning eng samarali mavjudligi va rivojlanishini ta'minlash yo'llari va vositalarini izlash ishlari olib borilmoqda.

1.4. Hozirgi zamon fanining o'ziga xos xususiyatlari

Ilm-fanning rivojlanishi zamonaviy sivilizatsiya jarayonlarining umumiy dinamikasining bir qismidir. Zamonaviy sivilizatsiya makoni turli mintaqalar va hayotning turli sohalarning murakkab, bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi, jamiyatning juda murakkab texnik jihozlari, sayyoraviy ahamiyatga ega bo'lgan ulkan jarayonlar, ma'lum bir dunyo voqeasiga hamroh bo'lgan reaksiyalarning ko'p bosqichli kaskadlari bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy ilm-fan ham ulkan murakkablik, tezlashtirilgan dinamika va texnik salohiyatni oshirish tomon o'zgarimoqda. Bugungi kunda olimning kasbi, uning turmush tarzi va harakatlari o'zgarib bormoqda. Hozirgi zamon fanining o'ziga xos xususiyatlari orasida quyidagilar ko'pincha tilga olinadi:

- integratsiya;
 - differentsiatsiya;
 - matematiklashtirish;
 - sanoatlashtirish;
 - axborotlashtirish.
- Zamonaviy davrning ushbu muhim tendensiyalari majmuasida ham

ijobiy, ham salbiy tomonlar ajralib turadi.

Ilm-fan integratsiyasi. Integratsiya deganda ilmiy bilimlarni birlashtirish tendensiyasi tushuntiradi.

Matematizatsiya. Bu XX asrning ikkinchi yarmida o'ziga xos intensivlikka ega bo'lgan zamonaviy ilm-fanning markaziy yo'nalishlaridan biridir. Matematiklashtirish – bu matematik yondashuvlar va usullarning ilmiy bilimlarning boshqa sohalariga kirib borishi. Aniq usullarning matematik modellashirish va hisoblash tajribalarining katta usullar, matematik modellashirish sezilari darajada bog'liq bo'lgan usullar, matnaga ma'lum. Matematikaga sezilari darajada bog'liq bo'lgan roli hamмага ma'lum. Matematiklashtirish hodisasi gumanitar fanlar – tabiiy fanlardan tashqari, matematiklashtirish hodisasi gumanitar fanlar, tarix, sotsiologiya, tishunoslik va boshqalarga ham ta'sir ko'rsatdi. Matematikani gumanitar fanlarga kiritishning qiziqarli istiqbollari bir qator matematik sohalarda – to'plan nazariyasi, topologiya, grafika nazariyasi va boshqalarda yangi miqdoriy bo'lmagan yondashuvlarni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lib, bu bizga sifat jihatlari va munosabatlarini aniqroq o'rganishga yaqinlashishga imkon berdi. Matematik mantiqda rasmiylashtirish yondashuvlarining umumiy prinsipi ishlab chiqilgan. Rasmiylashtirish, shuningdek, quyida muhokama qilinadigan axborotlashirish tendensiyasining asosiy nuqtalaridan biridir.

Fanni farqlash. Bu ilmiy sohalarning parchalanishining qarama-qarshi tendensiyasi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, fanlar ichida juda ko'p nozik bo'linishlar paydo bo'ldi (masalan, fizikada: plazma fizikasi, qattiq jismlar fizikasi, doimiy mexanika va boshqalar.). Fanlar ichida ixtisoslashuv tobora ortib bormoqda, bu esa an'anaviy ravishda tashtkil etilgan ilm-fan bir-biridan professional va institutsional to'siqlardan ajratilgan, o'ziga xos murakkab terminologiya va muammolarga ega bo'lgan tor sohalarga qulab tushishiga olib keladi.

Shunday qilib, bugungi kunda faqat geologiyada kamida 80 ta fan mavjud. Bularning barchasi olimlarning sa'y-harakatlarini nuqta joylariga jamlashning ob'yektiv talabidan kelib chiqadi va albatta, bu ilmiy tadqiqotlar samaradorligini sezilari darajada oshiradi. Darhaqiqat, bugungi kunda biz ixtisoslashgan bilimlarning doimiy o'sishini ko'rmogdamiz. Ammo salbiy oqibatlar ham bor – bu ilmiy taraqqiyot uchun strategik qarashlarning yo'qolishi, olimlar o'rtasida o'zaro

tushunishning qiyinligi, axborot yo'qotishlarining ko'payishi (turi yo'nalishlarda bir xil natijalarning kesishishi hodisalari, tor bilimlarga talabning yo'qligi). Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar bir qator ilmiy sohalardagi differentsiya integratsiyadan aniq ustunlik qilishidan xavotirlarni bildirmoqdalar.

Biroq, XX asrning oxiriga kelib, matematiklashtirish imkoniyatlariga nisbatan optimizmining ma'lum bir yo'qolishi sezilarli bo'ldi. Bu, albatta, ushbu tendensiyaning to'xtatilishini anglatmaydi, lekin shunchaki unga bo'lgan munosabat, aytaylik, 1950-1970 yillar davriga nisbatan ancha cheklangan. Masalan, naqshni aniqlash, optimallashtirish usullari, qarorlar nazariyasi, matematik modellashtirish kabi sohalar yanada ehtiyotkor bo'lib qoldi. Tanqidchilar matematikaning aksariyat turlarida shubhasiz afzalliklarini tan olish bilan birga, matematik usullardan foydalanishda bir qator jiddiy cheklovlar mavjudligini ta'kidlaydilar. Shunday qilib, olingan natijalarni talqin qilish va ekstrapolyatsiya qilish jarayoni ko'pincha qiyin kechadi. Model ishlab chiquvchilar – matematiklar va matematik bo'lmaganlar o'rtasida o'zaro tushunish qiyin bo'ladi. Hisoblashda jiddiy qiyinchiliklar mavjud bo'ladi. Muammolarni raqamlar tiliga tarjima qilishga qaror qabul qilishning asosini "xiralashtiradi".

Sanoatlashirish. Ilm-fan va texnika o'rtasidagi aloqalar ushbu fan sohalarining texnologiyaga va texnologiyaning fanga kirib borishiga olib keladi. Bugungi kunda fan kuchli sanoat bazasiga tayanadi. Tajribalar, kuzatishlar va namunaviy tadqiqotlar o'tkazish uchun hozirda ulkan ixtisoslashtirilgan qurilmalar va texnik xizmat ko'rsatish guruhlari talab qilinadi. Albatta, bu tendensiya nafaqat ijobiy tomonlarga ega.

Xususan, gumanitar fanlarda qattiq moliyalashtirishga asoslangan tadqiqot loyhasini keng miqyosda tashkil etish odati, ba'zi tanqidchilar ta'kidlaganidek, qidiruvning haqiqiy ijodiy komponentning pasayishiga olib keladi; qaysidir ma'noda tashkiliy amaliyot kognitiv amaliyotdan ustun kela boshlaydi. Shuning uchun keng ko'lami, texnik jihatdan jihozlangan va qimmat tadqiqot dasturlari ko'pincha paradoksal ravishda kam ilmiy natijalarga olib keladi.

Axborotlashirish. Informatika – bu axborot jarayonlari va ularga

xizmat ko'rsatadigan texnik tizimlarni o'rganish va takomillashtirish bilan shug'ullana-digan fanlar guruhi. Axborotlashirish – bu zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ularni inson faoliyatining barcha muhim sohalarda – fan, menajment, ta'lim, ishlab chiqarish va boshqalarda doimiy ravishda takomillashtirish.

Ma'lumki, axborotlashirishning asosiy voqealari XX asrning 70-yillaridagi mikroprotessor inqilobi, 1980-yillarning boshlarida ochiq arxitektura ega standart IBM PC modelining rivojlanishi va 1990-yillarda ommaviy iste'molchi uchun ochiq bo'lgan global kompyuter tarmog'ining tashkil etilishi edi.

Bugungi kunda kompyuter har qanday fan sohasida zarur vositadir. Kompyuter ishning barcha bosqichlariga quyidagilar: mavzu bo'yicha asosiy ma'lumotlarni izlash, eksperimentni rejalashtirish, eksperiment jarayonini boshqarish, nazariy tahlil, natijalarni taqdim etish, ilmiy aloqa va boshqalar kiritilgan. Axborotlashirish inson imkoniyatlarini keskin oshiradi, unga o'ta murakkab vazifalarni o'zlashtirishga imkon beradi.

1.5. Fan etkasi va olimlik mas'uliyati

Fan etkasi – bu nafaqat boshqaruvga oid qoidalar, balki olimlar o'z ilmiy faoliyatida amal qiladigan va fanning faoliyatini ta'minlovchi ilmiy tamoyillar majmui hisoblanadi.

Fan etkasi – ilm-fan bilan shug'ullanishda olimning faoliyatini jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qadriyatlarga qay darajada mos ekanligini ko'rsatuvchi mezonlar va uning faoliyatidagi mazmuni va ahamiyati jihatdan axloqiy masalalarga, etikaga aloqador masalalarni aks ettiruvchi tasavvurlar tizimi hisoblanadi. Bu fanlarning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi ilmiy tadqiqotlar jarayonida, ilmiy bilishda amal qiluvchi axloqiy normalarni tushuntirish va o'rganishdan hamda fanlarni ilgari siljitish jarayonida jamiyatda ro'y beradigan odob-axloqqa oid masalalarni tahlil etishdan iboratdir.

Fan etkasida fanlarning manfaatparastlik maqsadlariga xizmat qilishining oldini olish; ilmiy tadqiqot va eksperimentlarning shaxsga, jamiyatga, ekologik muhitga destruktiv ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik; insoniyatning, jamiyat va tabiatning kelajagini ta'minlash

2. <https://www.youtube.com/watch?v=ecqwj4-bam4> havolasi orqali “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efitrga uzatilgan “Botanika tarixi va rivojlanish bosqichlari” mavzusidagi “Meros va mas’uliyat” ko‘rsatuvini ko‘ring va tahlil qiling.



3. <https://www.youtube.com/watch?v=z6ivnu dvdi> havolasi orqali “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efitrga uzatilgan “Fan va tarix” loyihasi doirasidagi “Umumiy va noorganik kimyo institutining tarixi va buguni” ga bag‘ishlangan ko‘rsatuvni ko‘ring va tahlil qiling.



Glossariy

Fan – olam haqidagi bilimlar tizimi (olam, jamiyat, inson).

Fan – yangi bilimlarni egallashdagi inson faoliyati.

Fan – jamiyat, davlatni tashkil qilish shakli (institut)laridan biri.

Texnika – moddiy boyliklarni ko‘paytirish hamda odamlar va jamiyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida inson atrofidagi tabiatga ta’sir qilishga imkon beradigan vositalar va ko‘nikmalar majmuidir.

Prezentizm – o‘tmishni hozirgi zamon tilida tushuntirishi.

Antikvarizm – o‘tmishning to‘liq manzarasini hozirgi zamonga bog‘lamasdan tiklash.

Kognitiv so‘zi inglizcha (lotin) “cognize” so‘zidan olingan bo‘lib, u bilim, angalamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki “cognition” – bilish, tushunish kabi ma’nalarni beradi. O‘z o‘rnida bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog‘liq hodisadir.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Fanning metodi haqida so‘zlab bering.
2. Fan klassifikatsiyasini “mind map” metodi bo‘yicha bajaring.
3. Fanning rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari haqida nimalarni bilasiz?
4. Fanning strukturasi to‘g‘risida gapirib bering.
5. Fanning tasnifi nimalardan iborat?
6. Sizingcha fanning ijtimoiy roli va rivojlanish istiqbollari nimalarda aks etadi?
7. Hozirgi zamon fanining o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
8. Sizingcha fan etikasi va olimlik mas’uliyati nimalardan iborat?

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Ushbu mavzu bo‘yicha tarixiy manbalardan birini tahlil qiling.
2. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha taqdimot tayyorlang.
3. Ushbu mavzuning kalit so‘zlari uchun krossword yarating.
4. Mavzu bo‘yicha Internet-saytlar katalogini tuzing.
5. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha case study-ni ishlab chiqing.

1-mavzu bo‘yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Matkarimova S. Fan va texnika tarixi. Uslubiy qo‘llanma. – Urganch, 2014.
2. Сахаров А.Д. Ответственность ученых // Сохранение сочинений. 8-том. – Москва: Наука, 2014.
3. Шермухамедова Н. Фalsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent, 2005.
4. Ураков Д.Д., Бйкузиев А.А. va boshq. Jahon tarixi. I-tom II-qism Qadimgi Yumoniston va Rim tarixi. Darslik. – Toshkent: Metodist, 2023. - 368 b.
5. Ураков Д.Д., Хайназаров Б.В. va boshq. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Darslik. – Toshkent: NIF MSU, 2024. - 316 b.
6. Ураков Д.Д., Холлиев А.Г. va boshq. Jahon tarixi. I-tom I-qism Qadimgi Yumoniston va Rim tarixi. Darslik. – Toshkent: Metodist, 2023. - 368 b.
7. Yakubov A. Fan va texnika tarixi. – Samarqand, 2024.

8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni. 2020 yil 29 oktabr.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni. 2023 yil 11 sentabr.

1-mavzu bo'yicha testlar

1. Fan nima?

- A) Tabiat va jamiyat qonunlarini ochib beruvchi bilimlar tizimi
- B) Atrofdagi muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi
- C) Rivojlanish qonuniyatlar tizimi
- D) Jamiyatga ta'sir etuvchi omillar tizimi

2. Nechanchi yilda "Fan tarixi" asosiy fan sifatida ijtimoiy fanlar tarkibidan ajralib chiqdi va birinchi bo'lib "Fan tarixi" degan kafedra qayerda ochildi?

- A) 1892 yil Fransiyada
- B) 1893 yil Angliyada
- C) 1894 yil Germaniyada
- D) 1895 yil Italiyada

3. Fanning rivojlanish qonuniyatlari deganda nimalar tushuniladi?

- A) Fanning rivojlanishida yuzaga keladigan barqaror tendensiyalar yoki bosqichlar o'rtasida kuzatilgan muhim aloqalar tushuniladi.
- B) Fanning rivojlanishida yuzaga keladigan ziddiyatlar tushuniladi.
- C) Fanning rivojlanishidagi muhim bosqichlar tushuniladi.
- D) Fanning rivojlanishida kuzatiladigan muhim omillar tushuniladi.

4. Fan va texnika tarixi nimalarni o'rganadi?

- A) Ilmiy bilish va texnik ijodning tarixiy jarayonlarini o'rganadi.
- B) Fan olamida mavjud bo'lgan barcha bilimlar tizimini o'rganadi.
- C) Fanning yo'nalishni belgilab beruvchi tendensiyalarni o'rganadi.
- D) Barcha javoblar to'g'ri

5. Olimlar fanning rivojlanish tamoyillarini nechta turga bo'ladi?

- A) 4 ta
- B) 5 ta
- C) 4 ta
- D) 3 ta

6. Ilm-fan integratsiyasi deganda nima tushuniladi?

- A) Ilmiy bilimlarni birlashtirish tendensiyasi tushuniladi.
- B) Ilmiy bilish va texnik ijodning uyg'unlashuvi tushuniladi.
- C) Fan olamida mavjud bo'lgan barcha bilimlar tizimini tushuniladi.
- D) Fanning yo'nalishini belgilab beruvchi tendensiyalar tushuniladi.

7. Har qanday jamiyatda fan nechta funksiyalarni bajaradi?

- A) 6 ta
- B) 5 ta
- C) 4 ta
- D) 3 ta

8. "Fan tarixi va ikki asr olimlari" kitobining muallifi kim?

- A) Dekandol
- B) Levensguk
- C) Gerodot
- D) Menve

9. Fanning sinfiy bo'linishi deganda nima tushuniladi?

- A) Fanlarni ma'lum tadqiqot prinsiplari asosida o'zaro bog'liqliklarini aniqlash
- B) Fanlarni tadqiqot prinsiplari asosida bog'liqliklarini aniqlash
- C) Fanlarni o'zaro bog'liqliklarini aniqlash
- D) Fanlarni ma'lum bir tizimga solish va aniqlash

10. Fanning sinfiy bo'linishi nechta bosqichda amalga oshiriladi?

- A) 3 ta
- B) 4 ta
- C) 5 ta
- D) 6 ta

2-MAVZI: ANTIK DAVRDA ILMIIY TAFAKKURNING PAYDO BO'LISHI

Reja:

- 2.1. Insonlarning ilk jamiyati va ilmiy bilimlar manbasi.
- 2.2. Qadimgi Mesopotamiyada fan.
- 2.3. Qadimgi Misrda fan.
- 2.4. Qadimgi Hindistonda fan.
- 2.5. Qadimgi Xitoyda fan.

Tayanch tushunchalar: Mixxat yozuvi, Qadimgi Mesopotamiya, yetti gavdati zikkuratlar, Misrliklarda kaf, barmoq, garich va tirsak uzunlik o'lehovlari, Misrdagi Semmut maqbarasi, Edfu va Dender ibodatxonalari, Qadimgi Misr, Misr tabiblari – Erazistrat, Xerofil, Imxoteb va Kosik Filipp, "Tutmos III yilhomasi", papiruslar, "Tarix" kitobi, "Misr – Nil tuhfasi", Qadimgi Hindiston, "Maxabxarata", "Ramayana", "Pancha tatra", "Kalila va Dimna", Qadimgi Xitoy, iyeroglif, Kichik shohcha belgisi "daraxt", ikkita shohcha "o'rmon", uchta shohcha "chakalakzor".

2.1. Insonlarning ilk jamiyati va ilmiy bilimlar manbasi

Jamiyat taraqqiyoti yuksalib borishi bilan kishilarning bilim doirasi kengayib, tafakkuri rivojlanib borgan. Boshqacha aytganda bilimlar tizimi, insoniyat taraqqiyotini harakatlantiruvchi mexanizmiga aylanib boradi. Eng qadimgi odam "homa habilis" tafakkuri, xuddi o'z miya qobig'i kabi tor edi. Uning tafakkurini tabiatdagi unga g'ayritabiiy tuyulgan hodisalar kengaytiradi. "Homa habilis" bu narsa va hodisalarni qandaydir g'ayritabiiy kuchlar boshqarmogda deb hisoblaydi. U bundan qo'rqgan, jazavaga tushgan, quvongan va uning mohiyatiga yetishga harakat qilgan. Bunda unga qiziqish yordam bergan. "Neanthrop" o'z manzilini yaxshi bilgan, qo'shniyatini tanigan. Qumga, po'stloqqa belgi qo'ygan. Bir-biriga chizib ko'rsatgan, bu esa geografik bilimlarini

"Sinanrop" odami olovni kashf kurtagi ochila boshlaganini ko'rsatadi. Hayvonlarni ovlashda va go'shtini elgan. Go'shtni pishirib yedi. Hayvonlarni sohasidagi boshlang'ich nimalashga e'tibor bergan. Bu zoologiya sohasidagi boshlang'ich bilimlar edi. Termachilik esa botanika fani uchun turtki bo'ldi. U davolash hususiyatini bilgan. U o'z tanasini bilishga harakat qilgan, malham, poroshok tayyorlagan. Mezolitda massaj, kompress va amputatsiya qilish yog'li bilan qo'lni kesib tashlashni bilgan. Arxeolog olimlarning fikricha paleolit davrida odamlar quyoshga, oyyga qarab kalendar tuzgan 280 kundan iborat bu yillar 10 oydan bo'lingan ekan. Ammo, bularning hammasi sehrgarlik, mifologiya bilan qorishib ketgan. Ilmiy bilimlarni kengayishi afsona va rivoyat asosida to'planib borgan. Magiya va sehrgarlik kabi diniy tasavvurlarda bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam bergan.

2.2. Qadimgi Mesopotamiyada fan

Mesopotamiya xalqlari erishgan yutuqlardan biri yozuvning ixtiro etilishi edi. Mesopotamiyada dastlabki yozuv mil. avv. I ming yillikda



Shumer yozuvi

Shumerda kashf etilgan. Shuning uchun u Shumer yozuvi ham deyilgan. Bu yozuv suratlari bo'lib, aytilmogchi bo'lgan so'z va iboralar rasmlar, belgilar orqali ifoda etilgan. Bu iyeroglif yozuvlari deyilgan. Masalan, qush so'zi qushning tasviri, suv so'zi uch qator to'lginsimon chiziq, yulduz esa yulduz tasvirlari bilan ifoda etilgan. Ammo suratlari yozuv bilan ko'p so'z va tushunchalarni ifoda etib bo'lmagan. Shu bois shumerliklar mil. avv. III ming yillikda ponasilson shakldagi mixxat yozuvini kashf etganlar. Ponasion mixxat yozuvi maxsus tayyorlangan, qotmagan loy lavhalar satxiga uyib yozilgan. U 600 ga yaqin belgilardan iborat bo'lib, bu yozuvning kashfiyotchilari shumeriyalar bo'lishgan. Keyinchalik bu yozuv Bobilga, Ossuriyaga, butun Old Osiyoga, hatto Misrga ham yoyilgan. O'sha zamonlardan boshlab ruhoniy va mirzolar mamalakatda sodir bo'lgan muhim voqea va hodisalarni mixxat yozuvida sopol, teri, qotmagan loy lavha va boshqa buyumlarga yozganlar.

Mesopotamiyaning Ur, Uruk, Babil, Ashshur, Lagash, Kish, Larsa kabi shahar, davlatlarda ponasimon mixxat bilan yozilgan kitoblarni saqlanadigan kutubxonalar bo'lgan. Bu jihatdan Ossur podshosi Ashshurbanipalning Ninceiyadagi kutubxonasi diqqatga sazovordir.

Qadimgi Mesopotamiyada maktab va ma'orif ishlari alohida e'tibor berganlar. Mamlakatdagi maktablarda podsho, ruhoniylar, amaldorlar, badiiyat va o'ziga to'q kishilarning bolalari o'qiganlar. Shuningdek maktabda oddiy jamoa orasidan chiqqan o'qishga havasmand bolalar ham o'qigan bo'lishlari kerak. Maktablarning aksariyati ibodatxona va saroylar qoshida bo'lib, ularni ruhoniylar boshqarganlar. Boshlang'ich sinflarda, yozuv, til, adabiyot va grammatik bilimlar o'rgatilgan. Mesopotamiyaning deyarli barcha shahar va qishloqlarida maktablar juda ko'p bo'lgan. Mari shahrini kavlash vaqtida yer ostidan o'tindiqalar o'tnatilgan maktab sinf xonasining qoldig'i topilgan. Mesopotamiyadagi maktablarda davlat uchun xo'jalik, savdo, ma'muriy idoralar va harbiy ishlarini boshqaruvchi xodimlar tayyorlangan. Maktablarda mirzolar tayyorlashga ham katta ahamiyat berilgan. Maktablarda inlizom katiq bo'lib, dangasa bolalar qatiq jazolangan. Har bir maktabda "xivich bilan savalovchi" maxsus nazoratchilar bo'lgan. O'qituvchilar o'qivchilarni qunt va saboq bilan o'qishga undaganlar.

Qadimgi Mesopotamiyada matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot, tarix va boshqa fanlarga qiziqish ancha erta boshlangan. Yer o'lash, kanal qazish, suv omborlari qurish, masofani aniqlash hosini hisoblash, me'morchilik va harbiy ishda matematika va geometriya fanlari kerak bo'lgan.

Qadimgi Mesopotamiyada astronomiya faniga ham katta ahamiyat berilgan bo'lib, u yerda oliy-yeti qavatli zikkuratlar – rasadxonalar qurilgan ekan. Olimlar rasadxonalarda quyosh, yer, oy va boshqa osmon jismlarining harakatlarini kuzatganlar. Mesopotamiyalik olimlar quyosh va oy tutilishi hodisalarini oldindan aytib berganlar. Ular astronomiya taqvimlari tuzib, quyosh yili 365 kun, oy yili 354 kun ekanini aniqlaganlar.

Miloddan avvalgi III ming yillikdayoq shumer tilida astronomiyadan ilmiy asar va qo'llanmalar yaratilgan ekan. Mesopotamiyada tarix faniga

ham katta ahamiyat berganlar. Ossur podshosi Ashshurbanipalning hujjatxonalaridan Qadimgi Mesopotamiya va qo'shni xalqlar tarixiga va geografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar topilgan. Shuningdek, Mesopotamiya olimlari Misr, Urtu, O'rayer dengizi, o'z o'lkalari va atrofdagi qo'shni mamlakatlarning geografik xaritalarini tuzganlar. Mesopotamiya olimlari zirotchilik, iqlimshunoslik va boshqa sohalarda ham katta-katta yutuqlarga erishganlar.



Sohli o'rtilgan qoni boshli. Mesopotamiya, mil. avv. 2-ming yillikning birinchi yarmida.

Qadimgi Mesopotamiyada haykaltaroshlik, tasviriy san'at, raqs va musiqada san'atlar ham rivoj topib, ular o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Mesopotamiya haykaltaroshligining asosiy mavzusi xudolar va hukmdorlardan iborat bo'lgan. Har bir ish yanada mukammal individualizatsiya qilingan va aksariyat hollarda aks ettirilgan personaj nomini o'z ichiga olgan. Monumental va parietal, stela, emalif g'isht va muhr eng yengil usullar edi. Ikkinchisi ularda to'liq tarixni rivojlantirishga imkon berdi. Mesopotamiyada odamlarni tasvirlashda rassomlar deyarli mukammal mulanosiblikni izlamaganlar. Kontseptual realizm deb nomlangan uslubda bosh va yuz mulanosib edi. Jismlar, aksincha, umuman nosimmetrik edi. Yana bir takrorlanadigan mavzu yirik bugalarning vakili edi. Bunday holda, haykaltaroshlar realizmini tanladilar. Ushbu hayvonlar mintaqada himoya daholari deb hisoblangan. Qadimgi Mesopotamiya haykallari deyarli Misr san'atiga xos bo'lgan statiklik va muvozanatdan mahrum edi. Bu davrda saroylarning relyeflari va rasmlari, hukmdorlar yoki hayvonlarning qadimgi haykallari harakatda tasvirlangan.



Faklar tasvirlangan tarakda (mil. avv. 2077-1763)

Qadimgi Mesopotamiya issiq mamlakat bo'lib odamlar tez-tez kasallikka chalinib turganlar. Mamlakatda bo'lib turadigan qoni janglar natijasida ko'p odamlar yarador bo'lganlar. Kasalliklarni va jarohatlarni davolash tabobat ilmini erta rivojlanishini taqozo etgan. Tabiblar bemor va jarohatlanganlarni alohida guruhlariga bo'lgan holda davolaganlar. Tabiblar bemorlarning kasalini aniqlashda tomir urishi, harakat va



Bemorlarni davolash jarrovi

boshqa jihatlariga alohida e'tibor berganlar. Mesopotamiyada bemorlarni davolashda shifobaxsh giyoh, meva, ildiz va turli xil jonivorlarning ba'zi bir qismlaridan tayyorlangan sodd va murakkab doridarmonlar ishlatilgan. Mesopotamiyada tabobat ishlari bilan asosan ruhoniylar tabobat ishlari bilan birida jarroh haqida: "Agar shug'ullangan. "Xammurabi" qonunlarining birida jarroh haqida: "Agar jarroh bemorning xastalangan joyini noto'g'ri kesib qo'ysa, yoki noto'g'ri davolasa jarrohning qo'li kesib tashlanishi" yozilgan ekan.

2.3. Qadimgi Misrda fan

Qadimda Misrliklar dehqonchilik, savdo-sotiq, hunarmandchilik, chorvachilik va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun juda ko'p harakat qilganlar. Ularga ilmiy-amaliy bilimlar juda ham zarur bo'lgan. Shuning uchun ham Misrda matematika, geometriya, geografiya, astronomiya, tarix, tibbiyot, yer bilimi, veterinariya va qishloq xo'jaligi bilimlari ancha erta rivoj topgan. Qadimgi va O'rta podshoik davrida misrliklar matematika sohasida jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Misrliklar 1, 10, 100, 1000 lik va hokazo-lardan iborat bo'lgan son-sanog tizimini kashf etganlar. Bu sonlar uchun alohida belgilar bo'lgan. Yarim doira o'rni, o'rtilgan argon yuzni, nilufar guli belgisi esa ming raqamini bildirgan. Misrliklar geometriya – "yerni o'lchash" sohasida ham katta yutuqlarga erishganlar. Chunki, kanallar qazish, dalalarni paykallarga ajratish, binolar qurish, sath va hajmlarni o'lchashda geometriya fani ularga zarur bo'lgan.



Misr ehtimollari

Misrliklarda kaft, barmoq, qarich va tirsak uzunlik o'lchovlari sifatida xizmat qilgan. Osmon jismlari va ularning harakatini o'rganuvchi fan astronomiya deyilgan bo'lsa, bu sohaning olimlari esa "astronomlar" deyilgan. Qadimgi Misr astronomlari osmon jismlarini, yulduzlar va sayyoralar harakatini o'rganib, o'z davrida katta yutuqlarga erishganlar. Ma'lumki, Misrda qishloq xo'jaligi ishlari boshlanishidan avval Nil

daryosi toshgan. Bu vogea ravshan yulduz Sirius etalabki shafaqda ko'ringandan ikki-uch kun o'tib sodir bo'lar edi. Astronomlar Siriusni ko'rishlari bilan Misr aholisini Nining toshishi va ekish mavsumi boshlanishi haqida xabardor qilar edi. Demak, Nil daryosining toshish mavsumini hisoblash ehtiyoji Misr astronomiyasini yaratdi. Misr astronomlari dunyoda birinchi bo'lib, yulduz va sayyoralar xaritasini tuzganlar. Yulduz va sayyoralarining joylashuvini ko'rsatadigan qadimgi xaritalar Misrdagi Semmut maqbarasi, Edfu va Dender ibodatxonalarining shiplarida saqlanib qolgan. Astronomik bilimlar mamlakatning ichki va tashqi savdosida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Misr astronomlari dunyoda birinchi bo'lib, o'zlarining alohida quyosh kalendar – taqvimlarini tuzganlar. Taqvimga ko'ra, bir yil 365 kun bo'lib, u 12 oyga bo'lingan. Har bir oy esa 30 kundan iborat bo'lib, qolgan 5 kuni bayram hisoblangan. Qadimda Misrliklar tungi vaqtni yulduzlarga, kunduzgi vaqtni esa quyoshga qarab belgilaganlar. Qum va suv soatlari ham ilk bor Misrda kashf etilgan. Demak, Qadimgi misrliklar Nil vaqtini bilish, kanal, to'g'on qurish va dalalarni ekishga hozirlashda astronomiya ma'lumotlariga tayanganlar.



Nil daryosi

Misrliklar daryo va dengizlarda suzganlarida, uzoq safarlarga chiqqanlarida asosan astronomiya bilimlariga suyanganlar. Astronomiya fani nafaqat qishloq xo'jalik ishlarida, balki savdo-sotiq aloqalari va harbiy harakatlarda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Qadimgi Misr issiq mamlakat bo'lganligi uchun turli kasalliklar ko'p bo'lgan. Misr tarixidagi ko'pdan-ko'p janglar, istilolar va ichki urushlar natijasida ko'plab aholi hamda jangchilar jarohatlanganlar. Ularni davolash ehtiyoji Misrda tabobatning juda erta shakllanishiga turtki bo'lgan.

Qadimgi Misr solnomalarida Misrda mil. avv. IV ming yillardayoq dastlabki shifoxonalar mavjud bo'lganligi haqida hikoya qilinadi. Miloddan avvalgi 3600 yilda Memfis shahrida afsonaviy tabib Imxoteb sharafiga maxsus ibodatxona qurilgan. Bu yerda bemorlarga tibbiy yordam berish uchun alohida xonalar ajratilgan. Shifoxonada tabobatni yaxshi biladigan tabib – koinlar ishlaganlar va ular bemorlarga tashxis

qo'yib ularni davolaganlar. Misrning Sais, Geliopolis kabi shaharlarida tabiblar tayyorlaydigan maxsus tibbiy maktablar bo'lgan. Ayni paytda misrlik tabiblar tabobatga bag'ishlangan kitoblar ham yaratganlar. Misr tabiblari mumiyolash uchun odamning ichki a'zolarini jarrohlik yo'li bilan ochganlar. Shu sababli ham ular odamning hamma a'zolarini puxta bilganlar. Tabib – hakimlar kasallikni aniqlashda kishining tashqi holati va tomir urushiga alohida e'tibor qaratganlar.

Qadimgi Misrda tabiblar ko'z, bosh, tish, ichki, ruhiy kasalliklar, singan-chiqqan va boshqalar bo'yicha ixtisoslashganlar. Ular jarohatli bemorlarni jarrohlik yo'li bilan davolashda maxsus mis va jez asboblardan foydalanganlar. Qadimgi Misrda Erazistrat, Xerofil, Imxoteb va Kosik Filipp kabi mashhur tabiblar faoliyat ko'rsatganlar. Tabiblar bemorlarni davolashda shifobaxsh o'simlik, meva va turli xil hayvonot mahsulotidan tayyorlangan dori-darmonlardan keng foydalanganlar. Shuningdek, Misr tabobati jahon tabobatida alohida o'rinni egallagan. Misrliklar veterinariya sohasida ham muayyan bilimga ega bo'lganlar.

Qadimda Misrliklar tarixiy va geografik bilimlarga juda qiziqib qaraganlar. Misr tarixiga oid dastlabki tarixiy ma'lumotlar shifer lavhalariga, fil suyagi bo'laklariga, qora yog'och taxtachalariga, Palenos toshi, ibodatxona devorlariga bitilgan yozuv va yilnomalarda saqlanib qolgan. Bu jihatdan esa "Tutmos III yilnomasi" qimmatidir. Qadimgi Misr haqida papiruslarga yozilgan har turli ma'lumotlar ham muhimdir. Qadimgi Yunon tarixchisi Gerodot o'zining "Tarix" kitobida Qadimgi Misr haqida juda ko'p ma'lumot beradi. U o'z kitobida "Misr – Nil tuhfasi" deb yozgan edi. Qadimda Misrliklar geografiya fani sohasida ham ma'lum bilimlarga ega bo'lishgan. Ular yerning chetlari tog'lar bilan o'ralib, atrofi oqib turadigan okean suvidan iborat deb tasavvur qilganlar. Misrliklar yerning Nil oqib keladigan tomoni janub, O'rta yer dengizi tomoni shimol, daryoning so'l tomoni g'arb, o'ng tomoni sharq deb hisoblaganlar. Qadimgi Misr geograflari o'z o'lkalari va Arabiston yarimoroli xaritasini ham chizganlar. Arabiston cho'llari va Arabiston yarimoroli xaritasini ham chizganlar. Arabiston cho'llari va Arabiston yarimoroli xaritasini ham chizganlar. Arabiston cho'llari va Arabiston yarimoroli xaritasini ham chizganlar.



Fiton Tutmos III ning murra qiyofasi

ridagi oltin konlari belgilangan xarita zamnamizgacha saqlanib qolgan.

Qadimgi Misrliklar konchilik, ob-havo, iqlimshunoslik va boshqa sohalarida ham ancha bilimlarga ega bo'lganlar.

Bilish oling!

- ❖ Nil vodiysida paleolit davridanoy mehnat qurollari ishlangan.
- ❖ Keyinchalik neolit davrida (miloddan avvalgi 5 ming yillik) aholi ovchilikdan chorvachilik so'ngi ahliqanchilikka o'tishi bilan tash, suyak va yog' ochidan ishlangan dastlabki qishloq xo'jaligi asboblari – cho'kachi, o'raq va boshqa paydo bo'lgan.
- ❖ Miloddan avvalgi 4 ming yillikdan boshlab, mis ishlatila boshlangan. kulochilik dastgohi paydo bo'lgan.
- ❖ 3 ming yillikdan shishaosozlik rivojlanma boshlagan. 2-ming yillikdan jezdan foydalanila boshlangan.
- ❖ Temirdan yasalgan ilk buyumlar miloddan avvalgi 2-ming yillik o'ralariga oidlar.
- ❖ Misrliklar oltin va kumushdan haqiqiy san'at asarlarini yaratganlar.
- ❖ San'iyatning urishidan keng foydalanilgan, kanal va to'g'onlar bunyod etilgan.
- ❖ Yangorivga san'at chiqarish uchun laylak (harroza-shaduf), chig'ir (sakatsiydan foydalanilmishgan).
- ❖ Ilk pabrholik davrida omoch paydo bo'lgan.

2.4. Qadimgi Hindistonda fan



Sanchi monastiri

vatani ham hisoblanadi. Hind astronomlari va matematiklari bir yilni 365 kunga, 12 oyga bo'lishgan va shundan 5 kunini esa bayram hisoblaganlar. Hindlarning hisobida bir yil foydalanganlar. Hind astronomi Aryabxata V asrdayoq yerni sharsimon ekanligini va yerning o'ziga tortish qonunini, ayni paytda u o'z o'qi atrofida aylanish farazini aytgan edi. Hindistonda tabobat ilmi ham ancha rivoj topgan edi. Tabiblar asosan shifobaxsh o'simlik, ho'l meva, hayvon a'zolari va boshqa narsalardan tayyorlangan hamda murakkab dorilar bilan davolaganlar.



Vishnu

Hind vohasi va Panjobda yashagan hind xalqlarining eng qadimgi ajdodlari o'z yozuvlariga ega bo'lganlar. Arxeologlar Xarappa va



Kishik yozuvlari belgilgan tosh asoslar

Moxendjo Darodan hayvon va qandaydir rasm – belgilar tushirilgan muhrlar hamda spool idishlarning parchalarini topganlar. Tilshunos olimlar esa Hind vohasidagi yozuvlarni tekshirib ko'rganlar. Ba'zi tilshunoslarda hind yozuvi 400 belgi – rasmdan iborat desalar, boshqalari 250 va yana o'zgalari 300 belgi – rasmlardan iborat deb, - o'yaydilar. Ammo, hanuzgacha qadimgi hind yozuvlari to'laligicha o'rganilmagan. Ba'zi olimlar hind yozuvini shumerlarni yozuvlariga o'xshatsa, boshqa olimlar esa xett yozuviga o'xshash deydi. Lekin, miloddan avvalgi V asrdan boshlab Hindistonda braxmi, kxaroshkti, aramey, gupita va boshqa yozuvlardan foydalananganlar.

Qadimgi Hindistonda xalq og'zaki ijodi va uning davomi hisoblangan yozma adabiyot ham erda rivoj topgan. Hindlilar maqol, matl, erak, hikoya, doston, diniy qo'shiqlar va ajoyib afsonalar yaratganlar. Vedalar – bular jinlar, qo'shiqlar, afsungarlik va diniy duolardan iborat katta to'plamdir. Qadimgi Hind adabiyotining eng nodir asarlari qatoriga “Maxabxarata”, “Ramayana”, “Pancha tatra”, “Kalila va Dimna” kabi asarlarni kiritish mumkin. “Ramayana” dostonida o'gay onasining bergan azoblariga chiday olmagan shahzoda Ramaning o'z shahri Ayodxiyani tashlab ketib o'zga yurtlarda boshidan kechirgan sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Hikoya qilinishicha seylonda devlar Ramaning xotini Sitani o'g'irlab ketadilar. Rama ayiq va maymunlardan qo'shin tuzib, devlarni tor-mor etib, xotinini ozod qiladi. Nihoyat Rama o'z vatani qaytib, otasi taxtini egallaydi va uzoq davr davlatni adolat bilan boshqaradi.



Shiva Xudosi sig'irlari bilan: tibbiy uchlik, ko'bra va bosh.

“Maxabxarat” dostonida Bxarata podsho urug'ining ikki avlodi – Kauravlar va Pandavlarning toj-taxt va boylik talashib olib brogan

kurashlari hikoya qilinadi. V asrda yashagan Kalidasa ajoyib drama asarlari yozgan mashhur adib. U yozgan drama asarlaridan eng mashhuri “Shakuntala” dir.

2.5. Qadimgi Xitoyda fan

Qadimgi Xitoyliklar boshqa Sharq mamlakatlari kabi o'zining qadimiy, ko'p qirrali madaniyatiga ega bo'lgan. Qadimgi Xitoy ko'hna Mesopotamiya va Misr singari o'z yozuvi va adabiyotiga ega bo'lgan mamlakatdir. Qadimgi Xitoyliklar hozirgi kunimizdan 3,5-4 ming yil ilgari o'zlarining yozuvlarini yaratganlar. Xitoyliklarning yozuvi ham misrliklarniki singari rasm – belgilardan – iyerogliffardan iborat bo'lgan. Har bir iyeroglif – belgi butun bir so'zni ifoda etgan. Bir kichik shohcha belgisi “daraxt”, ikkitasi “o'rmon”, uchtasi esa “chakalakzor” kabi ma'nolarni bildirgan.



Buyuk Xitoy davori



Xan Fen-Szi

Xitoyda dastlabki yozuv miloddan avvalgi II ming yillikda kashf etilgan. Bu Shan-In davlati davriga to'g'ri kelgan. O'shanda yozuvlar soni 2000 ga yaqin bo'lgan edi. Xan davrida esa iyerogliflarning soni o'n sakkiz mingga yetgan. Xitoy yozuvlari asrlar mobaynida ayrim o'zgarishlarga duch kelgan edi. Ammo u o'zining asosiy belgilarini hanuzgacha saqlab qolgan. Xitoyliklar xatni dastlab suyak, yog'och, cho'p, teri va bambuk tanasidan tayyorlangan maxsus taxtachalarga yozganlar. Miloddan avvalgi IV-III asrdan boshlab esa ipakdan tayyorlangan shoyi parchasiga yozganlar. Matnlar o'ngdan chapga tomon ustunlar tarigisida yuqoridan pastga qarab yozilgan. Yozuvda bo'yoq cho'p, qush patlari va cho'tkachalardan foydalanilgan. Miloddan avvalgi I asrda va milodiy I asr chegarasida xitoylar qog'ozni kashf etishgach, yozuvlar ana shu qog'ozlarga yozilgan.

Xitoyliklar dunyoda birinchi bo'lib qog'ozni kashf etishgan ekan. Qadimgi Xitoyliklar o'zlarining ajoyib adabiyotiga ega bo'lganlar.

Qadimgi Xitoy adabiyotining shakllanishi xalq og'zaki ijodiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Yozuv kelib chiqqach, yozma adabiyot shakllangan va rivoj topgan. Xitoyda "Shi-Szin", "Chun-Syu" – (Bahor va kuz) kabi asarlar yaratilgan.

Xitoylar ajoyib afsona, erak, rivoyat, qo'shiq, topishmoq va ko'plab maqollar yaratganlar. Dostonlar Xitoyning qadimgi adabiyotidan katta o'rin olgan. Xitoy adabiyotida diniy, tarixiy va falsafiy mavzular keng o'rin olgan. Xitoyda miloddan avvalgi IV milodning IV asrlaridan Soy Yuan, Sima Syan kabi mashhur yozuvchi va shoirilar ijod etishgan. Qadimgi Xitoylik iste'dodli shoirlardan biri Syuy Yuan bo'lib, u miloddan avvalgi IV asrda Chu podshohligida yashab ijod qilgan. Bu davrda yashagan yana bir xitoylik mashhur adib, tarixchi Sima Syan bo'lib, u miloddan avvalgi 145-90 yillarda yashab ijod qilgan. Sima Syanning "Tarixiy xotiralar" nomli mashhur asari bizgacha yetib kelgan.

Qadimgi Xitoyda musiqqa, rags va qo'shiq san'atiga qiziqish erta boshlangan. Xitoyliklarda musiqqa asboblarning torli, urib, puflab chalinadigan turlari keng tarqalgan. Milodiy I-II asrlarda Xitoyga qo'shni O'rta Osiyo xalqlarining arfa kabi musiqqa asboblari kirib borgan.



Qadimgi Xitoy musiqqa san'ati

Qadimgi Xitoyda ishlab chiqarish xo'jaligining rivojlanishi borishi bilan ilmiy-amaliy bilimlar ham ravnag topgan. Ular matematika, geometriya fanlari sohasida jiddiy yutuqlarga erishganlar. Bu jihatdan miloddan avvalgi II asrda tuzilgan "Matematikaning to'qqiz kitobi" degan asar diqqatga sazovordir. Kitobda matematikaning asoslari tushuntirib berilgan. Bu kitob dehqon, olim, hunarmand, tarixchi, astronom, chorvador va me'morlar uchun uzoq vaqtgacha asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Xitoy olimlari astronomiya sohasida ham jiddiy yutuqlarga erishganlar. Davlat, xo'jalik ishlarini yuritish, savdo ishlari, vaqtni hisoblash va taqvim tuzish zaruriyati astronomiya bilimlarini to'plashni va bilishni taqozo etgan. Xitoy astronomlari mil. avv. II ming yillikdayoq astronomik kuzatishlarni boshlaganlar. Miloddan avvalgi 145-90 yillarda

yashagan Xitoy tarixchisi Sima Syanning "Tarixiy xotiralar" kitobining bir bo'limi osmon jismlari masalasiga bag'ishlangan.

Tarixchi Ban Gunning "Xan tarixi" kitobida 783 yulduzning nomi keltirilgan. Milodning II asrida yashagan Chjan Xenning astronomiya va matematikaga oid asarida esa 124 yulduz turkumi, 2500 yulduzlarning nomi eslatib o'tilgan. Bu davrda planetalar harakatini kuzatishga ham katta ahamiyat berilgan. Xitoy astronomlari bir yilni 365 kun ekanligini mustaqil aniqlaganlar. Ular bir yilni 12 oyga bo'lganlar va quyosh-oy taqvimini tuzganlar. Xitoy astronomlari quyosh va oynning qachon tutilishini oldindan aytib berishgan. Ular fizika sohasida ham jiddiy yutuqlarga erishib, dunyoda birinchi bo'lib kompasni kashf etganlar. Ular kompasni temirdan to'rtburchak qilib ishlaganlar. Uning harakatlanuvchi ko'rsatgichi doimo janubni ko'rsatib turgan.



Van Shu Xe

Qadimgi Xitoyda tabobat ham ancha yaxshi rivojlangan. Tabiblar bemor tomirlarini ushlab ko'rib, ularning kasalliklarini aniqlab, tekshirib, tashxis qo'yib, so'ng davolashga kirishganlar. Qadimgi Xitoyda Van Shu Xe, Ban Sio va Xua Tu kabi mashhur tabiblar yashaganlar va faoliyat ko'rsatganlar. Van Shu Xe tabobatga oid "Ney-Szi", – "Odam tabiati va hayoti", Ban Sio esa "Qiyinchilik haqida kitob" kabi asarlar yozishgan. Ular bemorlarni davolashda meva, o'simlik va hayvonlarning ayrim qismlaridan tayyorlangan sodd va murakkab dorilardan foydalanganlar. Xitoy tabiblari dunyoda birinchi bo'lib, tomirdan shifobaxsh suyuqlik dori yuborib davolash usulini qo'llaganlar. O'sha vaqtlarda Xitoyda dori-darmonlarning 1000 dan ortiq turi ma'lum bo'lgan. Qadimgi Xitoyning tarkibiy qismi bo'lgan Tibbetda tabobat ilmi yuksak darajada rivojlangan.

Xitoyliklar harbiy qurol hisoblangan porrxni ham kashf etganlar. Xitoyda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi va mamlakatni ma'muriy viloyatlarga bo'lish geografik bilimlarga ega bo'lishni talab etgan. Miloddan avvalgi VIII asrlarda Chjou davlatining yerlari 9 viloyatga bo'lingan edi. Sin va Xan podshohliklari davrida mamlakat 6 viloyatga bo'lingan edi. Podsho va viloyat hokimlari o'zlari yashab

turgan viloyatni puxta bilishlari kerak edi. Buni geografiya fani o'rgatar edi. Qadimgi Xitoy tarixchilar vataniidir.

Miloddan avvalgi 145-90 yillarda yashagan mashhur Sima Syan “Tarixiy xotiralar” degan asar yozgan. Bu kitobda Xitoyning eng qadimgi davridan mil. avv. II asr oxirigacha bo'lgan tarixi bayon etilgan. Milodning 32-92 yillarida yashagan tarixchi Ban Gu esa “Xan podsholari tarixi” asarini yozgan va unda Katta Xan podsholigi tarixi bayon etilgan.

Bilib oling!

Xitoyliklar qog'ozni bambuk, latta va po'stloq aralashmasidan tayyorlaganlar. Tarixiy manbalarga ko'ra, Xitoyda qog'ozni kashf etgan kishi milodiy II asrda yashagan Say Lungo degan fikrlar ham bor. Ehtimol bu shaxs qog'oz tayyorlash usulini shakllantirgan bo'lsa kerak. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, yangi milodiy yilning birinchi asridayoq qog'oz barcha yozuv vositalarini sigib chiqargan va kundalik hayotda keng qo'llanilgan.

Mustaqil ta'lim uchun

1. <https://www.youtube.com/watch?v=swqADpBYzLA> havolasi orqali “Buni biladizmi?” kanalida “Piramidalar siri nimada?” mavzusidagi ko'rsatuvni ko'ring va tahlil qiling.



2. <https://www.youtube.com/watch?v=Z6lYnUpVdI> havolasi orqali “Aniq fakt” kanali orqali efirga uzatilgan “Yunoniston haqida siz bilmagan ajoyib faktlar/ Yunoniston afsonalari/ Yunoniston ma'budlari” mavzusiga bag'ishlangan ko'rsatuvni ko'ring va tahlil qiling.



Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Insonlarning ilk jamiyati va ilmiy bilimlar manbasi haqida soʻzlab bering.
2. Qadimgi Mesopotamiyada fan qaysi davrlarda rivojlandi?
3. Qadimgi Misrda fanning yoʻnalishlari haqida nimalar deya olasiz?
4. Qadimgi Hindistondagi fan haqida nimalarni bilasiz?
5. Qadimgi Xitoyda dori-darmonlarning qancha turi maʼlum boʻlgan?
6. "Qadimgi Sharqda ilmiy tafakkurning rivojlanishi" mavzusida esse yozing.
7. "Qadimgi Xitoyda fan" mavzusida ilmiy referat tayyorlang.
8. "Qadimgi Hindistonda fanning rivojlanishi" mavzusida taqdimot tayyorlang.

Mustaqil taʼlim mavzulari

1. Ushbu mavzu boʻyicha tarixiy manbalardan birini tahlil qiling.
2. Oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha taqdimot tayyorlang.
3. Ushbu mavzuning kalit soʻzlari uchun krossvord yarating.
4. Mavzu boʻyicha Internet-saytlar katalogini tuzing.
5. Oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha swot tahlilni ishlab chiqing.

2-mavzu boʻyicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Gʻarb falsafasi. – Toshkent, 2004.
2. Matkarimova S. Fan va texnika tarixi. Uslubiy qoʻllanma. – Urganch, 2014.
3. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent, 2005.
4. Urakov D.J., Biykuziyev A.A. va boshq. Jahon tarixi. I-tom II-qism Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi. Darslik. – Toshkent: Metodist, 2023. - 368 b.
5. Urakov D.J., Xaynazarov B.B. va boshq. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Darslik. – Toshkent: NIF MSH, 2024. - 316 b.
6. Urakov D.J., Xolliyev A.G. va boshq. Jahon tarixi. I-tom I-qism Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi. Darslik. – Toshkent: Metodist, 2023. - 368 b.
7. Yakubov A. Fan va texnika tarixi. – Samarqand, 2024.

2-mavzu boʻyicha testlar

1. Qadimda termachilik qaysi fanni rivojlanishiga turtki boʻldi?

- A) Botanika
- B) Geografiya
- C) Tarix
- D) Tibbiyot

2. Shumerliklar mixxat yozuvini qachon kashf etdilar?

- A) Mil. avv. III ming yillikda
- B) Mil. avv. I ming yillik
- C) Mil. avv. II ming yillikda
- D) Mil. avv. IV ming yillikda

3. Ossuriya podshosi Ashshurbanipalning kutubxonasi qayerda joylashgan?

- A) Nineviyada
- B) Midiyada
- C) Kalxuda
- D) Dur-Sharrukinda

4. Qadimgi Messopotamiyadagi maktablarni kimlar boshqargan?

- A) Ruhoniylar
- B) Vazirlar
- C) Harbiylar
- D) Amaldorlar

5. Qadimgi Messopotamiyadagi maktablarning boshlangʻich sinflarida qanday bilimlar oʻrgatilgan?

- A) Yozuv, til, adabiyot va grammatika
- B) Adabiyot, ritorika va matematika
- C) Yozuv, falsafa va astronomiya
- D) Til, tarix va tibbiyot

6. Nil daryosining toshish mavsumini hisoblash ehtiyoji qaysi fanni yaratilishiga sabab boʻldi?

- A) Misr astronomiyasi
- B) Matematika

C) Geometriya

D) Fizika

7. Hind faylasufari tomonidan asos solingan Charvak ta'limotiga ko'ra ilmning bosh manbai nima deyilgan?

A) Tajriba

B) Izlanish

C) O'z fikrni anglash

D) Harakat qilish

8. Qadimgi Hind adabiyotining eng nodir asarlari qatoriga qaysi asarlarni kiritish mumkin?

A) "Maxxarata", "Ramayana", "Pancha tatra", "Kalila va Dimna"

B) "Go'ro'g'li", "Kalila va Dimna", "Oshiqnoma"

C) "Maxxarata", "Alpomish", "Shakuntala", "Kuntug'mish"

D) "Kalila va Dimna", "Ramayana", "Rustamxon", "Malikai ayyor"

9. Qadimgi Xitoyda dastlabki yozuv qachon kashf etilgan?

A) mil. avv. II ming yillikda

B) mil. avv. III ming yillikda

C) mil. avv. I ming yillikda

D) mil. avv. IV ming yillikda

10. Qadimgi Xitoy tabiiy Van Shu Xening tabobatga oid asarini ko'rsating?

A) "Odam tabiati va hayoti"

B) "Qiyinchilik haqida kitob"

C) "Tib qonunlari"

D) "Xammurapi qonunlari"

3-MAVVU: QADIMGI
YUNONISTONDA ILMiy
BILIMLARNING RIVOJLANISHI

Reja:

3.1. Qadimgi grek mifologiyasining mohiyati. Argonavtlar haqida afsona. Gomerning "Iliada" va "Odysseya" dostonlari. Prometei afsonasi.

3.2. Qadimgi Gretsiyada tabiat haqidagi fanlarning rivojlanishi. Ioniya grek fanining markazi.

3.3. Gerodot "Tarix otasi" ning "Tarix" kitobi va uning qadimgi dunyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

3.4. Demokrit — Yunon faylasufi. Gippokrat va uning tibbiyot fani rivojiga qo'shgan hisssasi.

3.5. Aristotel, Pifagor va Sugrotlarning qadimgi dunyo ilmiy tafakkuri rivojida tutgan o'rni. Platon akademiyasi.

3.6. Strabon va uning "Geografiya" asari. Ibtidoiy grek maktablari va gimnaziyalar.

Tayanch tushunchalar: Gay Yuliy Sezar, grek mifologiyasi. "Argonavtlar haqida afsona", Gomer. "Iliada", "Odyssey", Prometei afsonasi, Ellin yozuvlari, Gerodot, Demokrit, Gippokrat, Pifagor, Sugrot, Strabon, Platon akademiyasi, Aristotel, Ibtidoiy grek maktablari va gimnaziyalar. Grek tragediyalari.

3.1. Qadimgi grek mifologiyasining mohiyati. Argonavtlar haqida afsona. Gomerning "Iliada" va "Odysseya" dostonlari. Prometei afsonasi

Yunon mifologiyasining mohiyati dunyoni bita ulkan qabila jamoasining hayoti sifatida qabul qilgan va afsonada insoniy munosabatlar hamda tabiat hodisalarining barcha xilma-xilligini umumlashtirgan yunonlarning ibtidoiy umumiy tizimining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniq bo'ladi. Yunon mifologiyasiga

tanish va harakatsiz rasm (garchi chiroyli bo'lsa ham) sifatida emas, balki qadimgi dunyoning doimiy o'zgarib turadigan ijtimoiy va tarixiy sharoitiga qarash kerak.

Yunon tarixining boshlanishi eʼtloklar zulmatida yashiringan. Gretsiya aholisi Yevropadan Osiyoga koʻchib kelgan oriy qabilalaridir. Birinchi koʻchmanchilar pelasgiyaliklar va ellinlar edi. Pelasgiyaliklarning asosiy xudosi Zevs edi va uning ibodatining asosiy shahri qadimgi Orakula bilan Dodona edi, uning ruhoniylari oʻzlarining bashoratlarini muqaddas eman barglarining shitirlashidan yoki u yerda oqayotgan oqimning shovqinidan olishgan.

Ellinlar pelasgiyaliklardan jangovar korxonasi bilan farq qilar edilar. Gomera Troyani gamal qilgan yunonlar "Argives", "Axeylar", "Danayaliklar" deb nomlangan. Qahramonlik davrida qahramonlar haqidagi afsonalar mavjud boʻlgan. Yunon mifologiyasi haqidagi maʼlumotlar bizga juda koʻp yozma adabiyot — badiiy va ilmiy yodgorliklarda yetib kelgan. Yunon mifologiyasini oʻrganishning asosiy manbalari biri bu — Gomerning "Iliada" va "Odysseya"idir. Gomer afsonasi obʼyektiv hodisa sifatida taqdim etilgan, muallif uning haqiqatiga shubha qilmaydi. Yunon polis tizimi va mafkurasiining shakllanishi davrida yashagan Gesiod mifologiyaga boshqacha munosabatta boʻlgan. U xudolarning afsonalari va nasabnomalarini toʻplaydi va birlashtiradi, kosmogonik tizimni xudolarning kelib chiqish tarixi ("Teogoniya") bilan bogʻliq holda va xtonik mifologiyaga katta moyillikni ochib beradi. Mifologiya oʻz-oʻzini his qilish vositasi boʻlib xizmat qiladigan klassik lirikada (miloddan avvalgi VII-V asrlar) afsonaning oʻzi katta darajada yoʻqoladi, ammo Gomer va Gesiod uchun nomaʼlum lahzalarni ligari suradi.

Gomer



Yason va Argonavtlar haqidagi afsona taxminan miloddan avvalgi 1400-yillarda paydo boʻlgan. Ammo u aniq shaklni faqatgina miloddan avvalgi IV asrda, yaʼni Apollon Rodosskiy oʻzining "Argonavtlar" nomli asarini yozganida oldi. Apollon Rodosskiy oʻzining "Argonavtlar" nomli asarini yozish jarayonida asardagi qahramonlarning haqiqiy bosib oʻlgan

yoʻllarini kuzatgan. Apollon Rodosskiyning bu ishi yuqori baholanib, u dunyo moʻjizalaridan biri boʻlgan Buyuk Iskandariya kutubxonasining boshqaruvchisi boʻldi.

Yunon mifologiyasida Yason Volos shahri yaqinida joylashgan Fessaliyadagi qadimgi Iolka shahrining hukmdori boʻlgan Esonning oʻgʻli hisoblanadi. Esonning akasi Peliy taxtni egallab oladi va Yasonni Pelion togʻida yashovchi kentavr Xironning tarbiyasiga beradi. Yason oʻzib ulgʻayganida, Peliy unga afsonaviy Oltin moʻyna uchun Kolxida yurtiga sayohatga borishni buyuradi. Albatta, Peliy jiyani sayohatga joʻnatish bilan birga uni boshqa hech qachon koʻrmaslikni kutgan edi. Yason "Argo" nomli korablni yasadi va 50 kishidan iborat boʻlgan jamoani toʻpladi. Ular orasida Gerakl, Orfey, Tezey, Kastor va Polluks kabi shunday qahramonlar bor edi.


Butun sayohat davomida qahramonlar jasorat bilan boʻronlarni yengishadi, yirtqich hayvonlarni magʻlub etishadi va vasvasalarga qarshi kurashadilar. Ogʻir mashhaqatlar va son-sanogsiz xavf-xatarlardan keyin ular nihoyat oʻz manziliga, yaʼni Kolxidaga yetib borganlarida, u yerlarni boshqargan hukmdor Eet bilan uchrashadilar. U Yasonga Oltin Moʻynani berishga rozi boʻladi, ammo Yason hukmdor Eetning shartini bajarishi va uning sinovidan oʻtishi kerak edi. U ikkita olovdan nafas oluvchi bugani yengishi, dalaga ajdaho tishlarini ekishi va bu tishlar qachonki jangchilarga aylanganda ularni barchasini oʻldirishi kerak edi. Biroq, Yason Eetning qizi sehrgar Medeyani muhabbatini qozonadi. Medeya Yasonga Oltin Moʻynani olishga yordam beradi. Yason va Medeya birga Kolxida yuritidan qochib ketishadi. Argonavtlar Iolkaga qaytishadi.

Peliy oʻldiriladi, lekin uning oʻgʻli Yason va Medeyani shahardan haydab chiqaradi. Ular oltin qoʻchqor jumi — yapogʻini Beotidagi Orxomen shahriga olib ketishadi va oʻzlari Korinfga joylashadilar. Ordan bir gancha vaqt oʻtgach, Yason shoh Krcomning qizi Glavkami sevib qoladi va Medeyani tark etadi. Medeya oʻzining hiyonakor eri uchun qasos oladi. U raqibini yoqib yuboradigan sehrli libos tikadi va uni yoqib yuboradi. Medeya oʻz bolalarini ham oʻldiradi. Yasonning sodiqlik qasamini buzganligi uchun uni jazolaydi va u kekka odamga aylanguncha satson-sargardon boʻlishiga majbur qiladi. Keyin u oxirgi marta Korinfga

Keladi va u yerda vafot etadi. "Oltin mo'yna" haqidagi afsona qo'lyunglari tog' oqimlaridan oltin donalarini tutish uchun ishlatilganligi sababli paydo bo'lgan. Qo'lyunglari yopishgan tilla donalari uni tilla yungga aylantirgan. Qadimgi yunonlar "Troya" shahrini "Hion" deb ham ataganlar.

Binoberin, "Iliada" dostonining nomi ostida Hion qissasi "Hionnoma" degan ma'nolarni anglatmoq lozim. Biroq bu nom asarning mazmuniga unchalik monand emas. Chunki doston asosan Yunon-Troya urushidagi kichik bir voqeani bayon etmay balki, shu yagona voqea atrofida mazkur urushning ba'zi hodisalariga yo'l-yo'lakay to'xtatilib o'tiladi.

Gomer nomi bilan bog'liq bo'lgan birinchi asar – "Iliada" dostoni deb nomlanadi. "Iliada" dostoni 15700 misradan iborat bo'lgan yirik asardir. Qadimgi olimlar yunon alifbosini soniga qarab, poemani 24 bobga, qo'shigga bo'lganlar. Rivoyatlarning hikoya qilishicha Troya shahzodasi Paris Sparta podshohi Menelayning yurtiga mehmon bo'lib keladi. Menelay Parisni izzat-ikrom bilan kutib oladi, uning sharafiga shohona hazinlar uyushtiradi. Shunday hazinlarning birida Paris Menelayning xotini Yelenani ko'rib unga oshiq bo'lib qoladi. O'z navbatida Parisning kelishgan qaddi-qomati, egnidagi sharqona liboslari Yelenani ham maftun etadi. Kunlarning birida Menelay uzoq safarga ketganida Paris Yelenani yo'ldan urib, Sparta mamlakatining barcha boyliklarini olib Troya shahriga ketadi. Safardan qaytgan Menelayni xazinaning o'g'irlangan, xotinining bevafoqligi qattiq ranjitadi va raqibidan qasos olish maqsadida Yunon mamlakatidagi barcha podshohlar o'z askarlari bilan alamyda Menelayning akasi Miken podshohi Agamemnonni sarkarda ko'tarib bir qancha kemalar bilan Troya ustiga bostirib boradilar. Bular orasida Yunonistonning buyuk bahodirlaridan Axill ham bor edi. Yunon lashkarlari o'n yil davomida Troya shahrini gamal qiladilar. Asar voqevalari tavsifiga kirishdan oldin, shoir ilhom parisiga murojaat qilib, o'z dostonining bosh mavzusi – Axill g'azablarini kuylashda undan madad tilaydi. Poemaning birinchi qo'shig'i shu g'azabning sabablariga bag'ishlangan.



Gomer nomi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi asar – "Odisseya" dostoni deb nomlanadi. Bu dostonda Troya urushining bosh qahramonlaridan biri Itaka podshohi Odisseyning sarguzashtlari hikoya qilinadi. Troya jangi tugagach Odisey o'z bahodir yigitlari bilan kemalarga o'tirib Itaka shahriga yo'l oladi. Biroq Odisseyning dushmani bo'lgan dengiz ma'budi Poseydon uning yo'lida dahshatli to'lqinlar ko'tarib pahlavonning boshiga ko'p musibatlar soladi. Shu tariqa yana o'n yil davomida o'z vatanga qaytolmasdan dengiz to'lqinlarida begona yurtlarda sarson-sargardon daydib yuradi, uning boshidan qanchadan qancha mojarolar o'tadi.

Dostonning birinchi boblarida biz qahramonning Ogigeya orolida parizod Kalipso qo'lida tutqinlikda ko'ramiz. Odisseyga oshiq bo'lib qolgan parizod necha yillar mobaynida uning o'z yurtiga qaytish istaklariga qulog solmay keladi. Bu orada Odisseyning Itaka orolida gongan rafiqasi Penelopanning boshidan nihoyatda og'ir kunlar kechadi. Yillar o'tib podshoh safardan qaytmagach hamma uni o'ldiga chiqarib qo'ygan. Shu sababli Itaka boyvachchalaridan bir nechasi Penelopanning payida Odisseyning saroyiga kirib olib tunu-kun bazm qiladilar, malikaning holi joniga qo'ymay o'zlaridan birortasiga erga tegishni so'raydilar. Erining muqarrar kelishiga amin bo'lgan vafodor rafiqaga turli-tuman vaj-bahonalar bilan jazmanlarini laqillatib vaqt o'tkazaveradi.



Essil

Essil jahon adabiyotida san'at guloji tragediya-ning otasi sifatida tanilgan. Perikl davrida yashab ijod etgan Essil o'zing nodir asarlari bilan jahon adabiyotida ulkan iz qoldirdi. Essil ijodining cho'qqisi "Zanjirband Prometey". Shoir Asgar Qosimov ushbu asarni tarjima qilgan ekan asarning hur fikrligi, falsafiy mushohadalarga boyligi, inson ruhiy olamining sirli qatlamlarini dadil ko'rsatib bera olgan.

Prometey afsonasi. "Zanjirband Prometey" asarida Prometey obrazi orqali inson mag'rurligi sabot va matonati ulug'lanadi. Inson

qadr-qimmatini martabasining g'oyat ortishi uyg'onib kelayotgan insonning qudrati, go'zalligi, uning ichki va tashqi dunyosini ta'riflash Esxil tragediyalarining asl mohiyatidir. Odam bolhasining og'ir qismatiga, yer yuzidagi zulm va adolatsizliklarga qarshi haqiqiy isyon "Zanjirband Prometei" tragediyasida ayniqsa kuchli jaranglaydi. Bu asar Esxilinggina emas, balki butun jahon adabiyotining ozodlik va insonparvarlik shaniga bitilgan buyuk yodgorligidir. Bu tragediya "Halos etilgan Prometei va Olashbardor Prometei" birga qo'shilib yaxlit uchlik asarni tashkil etadi. Har uchala tragediyaning voqealari qadimgi Yunonistonda keng tarqalgan Prometei afsonalaridan olingan. Prometei qadimgi ma'budlar nasliga mansub titanlardan bo'lgan.

Zevs o'z otasi Kronosni Olimp taxtidan ag'darib, o'zini ma'bud va yer kurrasining hokimi etib tayinlaydi. Zevsga qarshi barcha titanlar bosh ko'tarib chiqadi. Yolg'iz Prometei Zevs tomonida bo'lib, titanlar bilan urishadi. Zevs o'z dushmanlarini yer qa'riga gumdon qilib, ko'ngli tinchigach, odamzodning zurriyodini quritib, o'miga yangi nasl yaratmoqchi bo'ladi. Buni payqab qolgan Prometei Olimp mehrobidan muqaddas olovni o'g'irlab, odamlarga keltirib beradi va bu jasorati bilan odamzodni halokatsidan qutqarib qoladi. Biroq Prometeining odam bolhasiga qilgan bu yaxshiliklaridan qattiq xafa bo'lgan Zevs va ma'budlar ulug' titanning boshiga bitmas-tuganmas kulfatlar yog'diradi.

3.2. Qadimgi Gretsiyada tabiiat haqidagi fanlarning rivojlanishi.

Toniyva grek sanining markazi

Miloddan avvalgi IV asr oxirlariga kelib yunonlar orasidagi yangicha dunyoqarash – kosmopolitiz yuzaga keldi. U yunoncha "kosmopolites" – "dunyo fuqarosi" ma'nosini bildirgan. O'tagan klassik davrda har bir yunon o'zini shahar fuqarosi hisoblagan bo'lsa, endilikda ellin polislari keng tarqaldi. Shu bois, ellinlar dunyosining keng hududlarida yoyilib ketgan yunonlar – askar, hunarmand va savdogarlar o'z qarashlari polis doirasidan chekkaga chiqib, tobora kengayib bordi. Natijada ellinlar dunyosi kosmopolitizm muhim g'oyaga aylandi. Bu g'oya esa ellinlashgan ekspluatatorlar mavqeini mustahkamlagan. Ellinlarga xos bo'lgan hodisalar bilan birga butun ellinizm madaniyati

Sharqda keng tarqaldi. Iskandariyada Ptolemeylar homiyligida g'oyat katta kutubxonaga asos solingan. U yerda ellinlar davrining so'nggi yillari 700 mingga yaqin papirus o'rani mavjud bo'lgan. Bu kutubxonada yunon-sharq donishmandlarining o'sha zamonga qadar to'plangan asarlari saqlangan. Saroy yonida kutubxonadan tashqari, Museyon – ilmiy muassasa ham tashkil qilinib, unda olimlar uchun yotoqxonalar bo'lgan. Bu ilmiy muassasa muzalar himoyasiga topshirilgan. Ellin davrida ilm-fan alohida sohaga bo'linib, tizimlashtirilgan.

Aristotelning shogirdi va muhlislari – peripatetiklar tarixi tizimlashtirish jarayoniga yaqqol misol bo'la oladi. Peripatetiklar falsafiy maktabiga Aristotelning shogirdi Teofrast (miloddan avvalgi 370-285 yillar) rahbarlik qilgan. U nafaqat faylasuf, balki ko'pchirali olim ham edi. U "botanikaning otasi" deb nom chiqargan. Teofrastdan keyin maktabni Straton boshqardi. Qadimda u "fizik" laqabini olgan. Straton fizik hodisalarni tadqiq qilishda eksperiment usullarini qo'llagan. Uning shogirdlari orasida Aristarx Samoskiy (miloddan avvalgi 310-230 yillar) ajralib turgan. U yer va boshqa sayyoralar, Quyosh tizimining geliotsentrik (ya'ni sayyoralar Quyosh atrofiga aylanishi) to'g'risida farazni ilgari surgan. Iskandariyada esa Yevklid (miloddan avvalgi III asr) geometriyaning dastlabki poydevoriga asos soladi. U mavjud matematik, geometrik negizlarni asoslab bergan.

Shuningdek, Iskandariyada Museyon kutubxonasining mudiri kirenalik Eratosten (miloddan avvalgi 275-208 yillar) ham faoliyat olib bordi. U geografiya, astronomiya va matematika fanlari bilan chuqur shug'ullangan. Olim yer shari aylanasining uzunligini katta aniqlik bilan hisoblab chiqdi va fizik-matematik geografiya asoslarini yaratdi. Eratosten Kirenskiy birinchi bo'lib "geografiya" terminini ishlatgan.

Miloddan avvalgi II asrda nineyalik atqqli astronom va geograf Gipparx Nikeskiy yashab o'tgan. U bir qancha astronomik asboblarni takomillashtirgan va ixtiro qilgan. Kecha va kunduzning baravarligini aniqlagan. Gipparx harakatsiz yulduzlar katalogini tuzgan. Bu katalogdan 900 ga yaqin yoritgich o'rin olgan. Gipparx Yerdan Oygacha bo'lgan masofani, Yer va Quyosh massasini aniqlagan va ekvatori 360 ga taqsimlab uzunlik va kenglik tushunchasini joriy qilgan.

Miloddan avvalgi III asrda tibbiyot ancha taraqqiy etdi. Yunon tibbiyot nazariyasi va praktikasi qadimgi Sharq tajribasi bilan qo'shilib, Iskandariya tibbiyot maktabi sifatida o'z ifodasini topdi. Bu maktab asoschisi Gerofl (miloddan avvalgi III asrning birinchi yarimi) hisoblanadi. U insonning tasviriy anatomiyasini yaratgan, diaqnoz metodlarini aniqlagan, dori-darmonga g'oyat katta ahamiyat bergan. Keyinchalik uning ishini Erasistrat davom ettirgan.

Ellin falsafiy maktabining yana bir asoschisi – Epikur (miloddan avvalgi 341-272 yillar) Zenonga qarama-qarshi o'laroq materialistik dunyoqarashni yoqlab chiqqan. Epikur ta'limotiga ko'ra, odamlar ob'yektiv surarda tashqi olamni sezgilari orqali biladilar. Sezgilarning jamlanishi asosida – umumiy tushuncha hosil bo'ladi.

Ioniya grek fanining markazi. Yunonistonda materializm haqidagi dastlabki falsafiy ta'limotlar miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Milet shahrida paydo bo'lgan. Bu ta'limot asoschilari ioniyalik Fales, Anaksimandr, Anaksimendardir. Adabiyotlarda yozilishicha, Milet maktabi faylasuflarini ioniyalik faylasuflar ham deb atashgan. Kichik Osiyoning Ioniya shahrida yuzaga kelgan barcha falsafiy ta'limotlarni ioniya falsafasi deb atashgan.

Ioniya qadimgi yunon dunyosida ijimoiy va madaniy jihatdan yetakchi o'rinni egallab kelgan. Iqlimi yumshoq, yeri serunumligi tufayli qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan hamda dengiz bo'yida savdo yo'li chorrahasida joylashganligi uchun ham hunarmandchilik va savdo-sotiq ancha rivojlangan edi.

Ioniyaliklar Yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiqni yaxshi yo'lga qo'ygandligi tufayli ilm-fan va madaniyat tez ravnaq topa boshlagan edi. Ioniya'dan chiqqan faylasuflar nafaqat Ioniya davlatida yashab, ijod qilibgina qolmay, balki boshqa shahar – davlatlarda ham yashab, u yerlarda ijod qilganlar.

Xususan, kolofonlik Ksenofan Italiya, Stitsilyada, Pifagor Yunonistonning Kroton shahrida, klazomenlik Anaksagor Afinada, miletlik Fales, Anaksimandr va Anaksimendlar esa Milet kabi shahar – davlatlarda yashab ijod etishgan.

3.3. Gerodot "Tarix otasi" ning "Tarix" kitobi va uning qalinqi dunyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati

Tarixiy proza asari bizga qadar to'la holda yetib kelgan tarixiy prozaning eng birinchi nomiyondasi Gerodotdir. U taxminan 485 yilda Kichik Osiyodagi Galkarnas shahrida tug'iladi. Uning otasi o'z davrining anchagina badavlat odami bo'lgan. Gerodot yoshlik payrlaridan o'z vatanning siyosiy faoliyatida faol qatnashadi, keyinchalik ma'lum sabablarga ko'ra ona yurini butunlay tark etib, sayohatlarda yuradi. Mistr, Eron, Bobil, Finkiyani, Qora dengizning shimoliy qirg'og'idagi Yunon mustamlakasi Skifiyani, Yunoniston tuprog'idagi qancha-qancha shaharlarni kezadi, ammo uning eng sevinli oshiyoni va ma'naviy vatani Afina shahri bo'lgan.

Gerodot bu yerda ko'pdan-ko'p do'stlar orttiradi, Perikl hamda Sofokl bilan yaqin munosabatlarda bo'ladi. 444 yili Italiyaning janubidagi Yunon mustamlakasi Furiyaga ko'chib ketadi va 425 yilda shu yerda vafot etadi. Gerodoldan qolgan asarlar ichida eng muhimi va qimmatli ma'lumotlar bilan jahon tarixini boyitib kelayotgan asarining nomini "Tarix" ya'ni "Tadqiqot" deb atagan. Aleksandriya olimlari bu asarni to'qqiz bobga bo'lib, har birini yunon mifologiyasidagi to'qqizta muza nomi bilan ataganlar. Mazkur asar bo'lib o'lgan Eron-Yunon urushiga bag'ishlangan. Biroq, yozuvchi eroniyalar bilan yunonlar o'rtasidagi urush tarixini boshlashdan oldin, ana shu xalqlarning uzog o'timishlari, ularning qaysi xalqlar bilan munosabatlarda bo'lganliklari va kimlar bilan urushganliklari haqida to'la ma'lumot berib o'tadi.

Binoabarin, o'sha zamonlarda yunonlarga tanish bo'lgan xalqlarning tarixlari ham ma'lum darajada aks ettirilgan bo'lib, bu holat Gerodot asarini jahon tarixi darajasiga ko'taradi. Yozuvchi eroniyalar bilan yunonlarning dastlabki to'qnashuvlarini ko'rsatish maqsadida birinchi kitobni Kichik Osiyodagi Lidiya davlatining Eron podshohi Kir tomonidan bosib olinish voqealaridan boshlaydi. Yozuvchi Kirning urushlari haqidagi bayonotini davom ettirib, Bobilning zabt etilishi va



Gerodot

nihoyat Kaspий dengizining sharqiy tomonida Sir va Amu daryolari o'rtasidagi bepxon sahroda yashovchi ko'chmanchi massagelar bilan bo'lgan urushda Kirning vafotidan so'ng Eron taxtiga o'tirgan shahzoda Kambiz otasining bosqinchilik siyosatini davom ettirib Misr ustiga yurish boshlaydi.

Gerodot bu mamlakat tarixiga ham muassas to'xtalib, yana Eron tarixiga qaytadi. Doroning podshoh bo'lib ko'tarilishi va Skiffar mamlakatiga lashkar tortib borishi haqida gapiradi va bu yurtning ham to'liq tarixini yoritib beradi. Gerodotning Skiffar haqidagi ma'lumotlari biz uchun nihoyatda qimmatlidir, mamlakatimizning g'arbiy-janubida Dnepr hamda Don daryolari sohillarida Qora dengiz qirg'oqlarida yashagan eng qadimgi xalqlar to'g'risida gapirganimizda avvalo ulug' yunon muarrixining shahodatlariga murojaat qilamiz. Doroning skiffarlarga qarshi boshlagan urushi munosabati bilan Kichik Osiyo xalqlari, ayniqsa yunon qabilalari o'rtasida Eron hukmronligiga qarshi kuchli g'alayonlar boshlanadi.

Gerodot voqealarni shu tariqa tasvirlab kitobxonni asta-sekin o'z asarining asosiy mavzusi Eron-Yunon urushiga olib keladi. Asarini 478 yil voqealari bilan bayonotini to'xtaladi. Bevaql o'lim asarni oxiriga yetkazishga imkon bermagan bo'lsa kerak. O'ra Osiyo tarixini o'rganish borasida Gerodotning asari ayniqsa juda muhim o'rin tutadi. Muarrix bu tomonlarga qadam bosmagan bo'lsada, yurtimizning uzqoq o'limishi haqida yaxshigina ma'lumotlar beradi.

Gerodotning aytishicha, Kaspий dengizi sohillaridan boshlab Sirdaryoning o'rtalariga qadar cho'zilib boradigan keng sahroda massaget deb atalgan ko'chmanchi qabilalar yashagan, ular hech qanday ekin ekmasdan, faqat chorvachilik bilan kun kechirganlar, ovqatlari mol go'shi va baliq bo'lgan, ular temini bilmagan, hamma asboblari misdan yasalgan, ayollari erkaklar bilan birga janglarda qatnashgan, hatto qabila boshlig'i ham eritb saylanar ekan.

Gerodotdan minnatdor bo'lishimizning yana bir sababi bu adabiyoti-mizning eng qadimgi yodgorliklaridan biri bo'lgan "To'maris" qissasi faqat shu odam tufayli bizning zamonnga qadar yetib kelgan.

3.4. Demokrit – yunon faylasufi. Gippokrat va uning tibbiyot fani rivojiga qo'shgan hisssasi

Abderalik mashhur faylasuf Demokritning (miloddan avvalgi 460-370 yillar) butun koinot, shu jumladan, yerimiz, barcha buyumlar, odamlar, hayvonlar ham modda jihatidan bir xil, lekin shakl va hajm jihatidan turlicha eng mayda zarra – atomlardan iborat, degan ta'limoti qadimgi yunon falsafasining cho'qqisi bo'lgan. Demokrit ta'limotiga ko'ra, atom – abadiy va o'zgarmas materiyaning eng mayda bo'lagi bo'lib, uning o'zi bo'limaydi ("atom" – qadimgi yunon tilida "bo'linmas" degani). Demokrit, koinotda faqat abadiy harakat qiladigan atomlar va bo'shliq mavjud deb hisoblagan. Atomlar o'z harakatida to'qnashib, koinotda, turli-tuman qo'shimchalarni hosil qiladilar. Demokritning fikricha, bu narsalar to ularni tashkil etuvchi atom qo'shimchalari parchalanib kelguncha mavjud bo'ladi. Demokritning atom nazariyasi fan va falsafaning keyingi taraqqiyotiga g'oyat katta ta'sir ko'rsatdi. Demokrit harakat materiyaning azaliy xususiyati degan qoidani birinchi bo'lib ifodalab berdi.



Demokrit



Gippokrat

Gippokrat miloddan avvalgi 460-370 yillarda yashagan. Uning asari "Corpus Hippocraticum" (Gippokrat to'plami) miloddan avvalgi 430-330 yillarda yozilgan. Uning ayrim qismi boshqa olimlar tomonidan yozilgan degan faraz mavjud. Ushbu asarning birinchi qismi "Klyatva Gippokrata" deb nomlanadi. Unda vrachning ustoz shogird va bemor oldidagi javobgarligi, bemorga zarar yetkazmaslik, abortdan voz kechish, vrachlik kasb sirlarini saqlash kabi masalalar olgan.

Gippokratning ta'limotiga ko'ra, vrach kasalni odamdan quvish kerak emas, balki kasalni yengishda odam organizmiga yordam berishi lozim, - deb hisoblagan. Gippokrat ta'limotidagi to'g'ri ovqatlanish, doridarmon va operatsiyalar haqidagi asarlari zamonaviy tibbiyot fanini rivojlantirishga qo'shilgan munosib hissa bo'lib xizmat qildi.

3.5. Aristotel, Pifagor va Sugroining qadimgi dunyo ilmiy tafakkuri rivojida tugʻan oʻrni. Platon akademiyasi

Mashhur Aristotel yoki Arastu (miloddan avvalgi 384-322 yillar) qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi va olimi boʻlib, Makedoniya shohlari saroy tabibining oʻgʻli edi. Aristotel falsafasida ham materialistik, ham idealistik qarashlar uygʻunlashgan. U real mavjud olamni tan olgan. Aristotel shakl va mazmun haqidagi



Aristotel

taʼlimotni yaratib, hodisaning mohiyati bilan hodisa qobigʻi shaklni oʻzaro farqlagan. Mazmun va shakl munosabatini Aristotel dialektik anglagan va izohlagan. Platonning gʻoyalari taʼlimotini Aristotel qatʼiy tanqid qiladi.

Aristotelning koʻrsatishicha, moddiy olam abadiy va obʼyektiv hususiyatga ega boʻlib, Platon “gʻoyalarga” muhtoj emas. Tabiat moddiy asosga ega boʻlgan narsa va hodisalar yigʻindisidan iborat, u har doim harakat va oʻzgarishdadir.

Aristotel, Demokrit singari moddiy dunyoni tabiatni bilishning predmeti va sezgilarimizning obʼyektiv manbaidir, kishi ongidan tashqaridagi moddiy olam sezgilarni vujudga keltiradi deb eʼlon qildi. Platon singari, Aristotel ham davlat toʻgʻrisida oʻz taʼlimotini yaratdi. Lekin u bu muammoga butunlay boshqacha qaradi. Aristotel ideal davlat haqida soʻzlashdan oldin real mavjud davlatlarni oʻrganish kerak deb hisoblagan. Shu sababli u oʻz shogirdlari bilan birgalikda Yunoniston va undan tashqaridagi davlat qonunlarini oʻrganish va yozib chiqish boʻyicha gʻoyat ulkan ishini amalga oshirdi. Uning oʻzi “Afina poliyasi” – Afina davlat tuzumi haqidagi asarni yozdi. Shundan soʻng olim toʻplangan va tizimlashtirilgan materialni umumlashtirishga kirishdi. Davlat tuzumi va ijtimoiy munosabatlar toʻgʻrisidagi oʻy-fikrlarning natijasi oʻlaroq Aristotelning “Politika” nomli tarixiy-ijtimoiy asari yuzaga keldi. Aristotel uch tipdagi davlat: monarxiya (yaʼni bir shaxsning hukmronligi), aristokratiya (yaʼni bir guruh shaxslarning hukmronligi) va demokratiya (yaʼni koʻpchilik hukmronligi) mavjud degan xulosaga keldi. Shu bilan birga u mazkur davlat shakllarining

barini, xalq baxt-saodati uchun qaygʻursa yaxshi deb hisoblardi. Lekin uning fikricha, shu bilan birga davlatning bu shakllardan har biri zararli boʻlishi va buzilib, boshqarishning eng yomon shakliga aylanishi mumkin. Chunonchi, buzilish oqibatida monarxiya tiraniyaga, aristokratiya oligarxiyaga, demokratiya oxlokратиya, yaʼni olomon hukmronligiga aylanib ketishi mumkin. Aristotelning oʻzi Afina demokratiyasini hush koʻrmas, uni aynan oxlokратиya deb hisoblardi. U bir guruh shaxslar – aristokratlar idora usulining tarafdori boʻlgan. Aristotel asarlarida oʻsha zamon madaniyati yutuq va kamchiliklari aks etirgan. Aristotel falsafaning asosiy muammolariga dialektik nuqtai nazar bilan qarar, u bir qancha fanlarga asos solgan. Butun tabiiy taraqqiyotni u goʻyo qachonlardir “olamiy aql” tomonidan amalga oshirilgan dastlabki turki bilan izohlagan. Aristotelni qadimgi Yunonistonning eng yirik esteti ham deyish mumkin. U “Poetika” – sanʼat mohiyati va uning jins va nurlarga boʻlinishi haqidagi asarini yaratdi. Aristotel “Poetika”si sanʼatning tabiatiga oid keyingi barcha taʼlimotlar uchun asos boʻlib xizmat qildi.



Pifagor

Pifagor Yunonistonning sharqiy qismidagi Somos shahrida zodagonlar oilasida miloddan avval 580 yil dunyoga kelgan. Pifagor zolim podshoh Polikrat bilan chiqisha olmay, Falesning maslahati bilan ilm olgani Misrga joʻnaydi. U yerda 22 yil Misr koinlaridan taʼlim-tarbiya oladi. Miloddan avvalgi 525 yili Misr forslar tomonidan zabt qilingach, forslar koʻpgina misriklarni asir olib, Sharqda tomon joʻnaydi. Ularning orasida Pifagor ham bor edi. U Bobilga kelib, 12 yil davomida u yerdagi koinlardan taʼlim oldi. Apuleyning taʼkidlashicha, Pifagor hind donishmandlaridan ham taʼlim olgan. Pifagor 34 yil muhojirlikda, Misr, Bobil va hatto Hindistonda ham yashagan. Yunonistonning Kraton shahriga kelib joylashib, oʻzining Pifagorchilar ittifoqini tuzadi.

Tarixiy manbalarda koʻrsatilishicha, Pifagor oʻz taʼlimotini ogʻzaki tarzda qilib, Qadimgi Yunonistonda shuningdek mafkuraviy falsafa ham mavjud boʻlib, u olamning ibtidosini tabiat va uning hodisalarida emas, balki gʻoyalarda deb bilgan. Miloddan avvalgi VI asrda Stisifiyada

yashagan Pifagor ana shunday idealist faylasuf edi. Pifagor yunon matematikasining asoschilaridan biridir. Pifagor sonlarni o'rganib, shuning uchun uning nazariya olma muayyan sonlar va ularning o'zaro munosabatlaridan iborat bo'lgan. U Sitsiliyada asosan aristokrat oilalardan kelib chiqqan muhislari, izdoshlari jamoasini tuzgan.

Pifagor va pifagorчилarning ta'limotiga ko'ra, olam uzluqlikdir. Olamning asosida mavhum sonlar va bo'shliq yotadi. Mavhum sonlar pifagorчилar ta'limotining asosini tashkil etadi. Ular Miliet maktabining materializm ta'limotlariga qarshi chiqib, olamdagi narsa va hodisalarning asosida mavhum sonlar yotadi, deyishadi. Bir raqami – sonlarning asosi – nuqtadan iborat. Bir raqami geometrik shakllar va jismlarning yuzaga kelishining asosidir. Ularning turli xil geometrik shakllar bilan bog'liq bo'lgan juft va toq sonlar haqidagi ta'limoti alohida ahamiyatga ega edi. Nuqtada bir raqamni tashkil etsa, ikki raqami to'g'ri chiziqni, uch raqami tekislikni, to'rt raqami jismini tashkil etgan. Olam va undagi narsalar raqamdan yuzaga kelgan.

Atoqli faylasuf Sokrat yoki Sugrot (miloddan avvalgi 471-399 yillar) sofistlar orasidan ajralib chiqqan. Sugrot ham aql ham inson muamosiga qiziqar, o'z umri davomida bironta ham asar yozmaganligiga qaramay, uning falsafasi juda mashhur va ko'plab shogirdlarga ega bo'lgan. Sugrot maktabda dars bermas, ma'ruza o'qimas, balki shahar, bozor, odam gavjum joylar, afinaliklarning sevadigan sayilgohi Propileya va boshqa joylarni aylanar va shogirdlari bilan suhbat qurardi. Sugrotning nafqat aristokrat va boylardan, balki oddiy kishilar orasidan ham shogirdlari ko'p bo'lgan.

Sugrot fikricha, o'z ruhiy apparati mexanizmini tahlil qilishni tugallagan donishmand hayot muammosini to'g'ri hal qilishi, ob'yektiv mavjud ruh mohiyatini tushunishi, ya'ni ob'yektiv mavjud haqiqatni anglashi mumkin edi. Shundan keyin donishmand mazkur haqiqatni mumkin qadar ko'proq kishilarga o'rgatishi talab etilgan. Haqiqatni bilish mumkin emas degan sofistlardan farqli o'laroq, Sugrot haqiqat bahs-munozarada yuzaga chiqadi deb hisoblagan. Donishmand ehtiyot bo'lib, ustalik bilan eslatuvchi savollar berish bilan bahs jarayonida



Sugrot

hamsuhbatlariga g'oyalarni uqitardi, natijada ularda haqiqatni o'zimiz bilib olib, degan tasavvur hosil bo'ladi. Bahs-munozara yuritishning bunday usuli "Sugrotecha mulqot" nomini oldi. Sugrot o'z umumlashmalarini induksiya usuli asosida, ya'ni ko'p juz'iy hodisalarni o'rganish asosida umumiy xulosalarga kelardi.

Sugrot o'z ta'limotida odamlarni tenglashtirishga qarshi chiqib, ularni haqiqatni bilganlar va bilmaganlarga ajratadi. Uning ta'limoti ba'zi ularni haqiqatni bilganlar va bilmaganlarga ajratadi. Uning ta'limoti ba'zi hususiyatlari bilan Afina demokratiyasiga qarshi oligarxlarga ma'qul bo'lgan. Shu sababli Afina quldorlik demokratiyasi qayta tiklangandan keyin Sugrot xudosisizlik, mavjud tuzumni qo'porish va yoshlar ahloqini buzishda ayblanib miloddan avvalgi 399 yilda qatl etildi. Sud hukmiga muvofiq unga zahar ichirildi.



Platon

Platon akademiyasi. Idealistik falsafa miloddan avvalgi IV asrning birinchi yarmida yashagan atoqli faylasuf Platon yoki Aflotun (miloddan avvalgi 427-347 yillar) asarlarida yanada rivojlantirildi. Platon zodagon va boy oiladan bo'lib, yaxshi tarbiya va ma'lumot olgan. Platon Sugrotning shogirdi bo'lib, ustozining suhbatlarini qog'ozga tushirib olgan. Platon ob'yektiv idealist bo'lib, ya'ni ob'yektiv olamning mavjudligini tan olar, lekin uni faqat narigi dunyoga xos real g'oyalar olamining in'ikosi, malsulfi deb hisoblardi. Uning fikricha, masalan, narigi dunyoda ot g'oyasi mavjud bo'lib, u bu dunyoda real ot shaklida gavdalangan. Masalan, stol, turli hayvonlar kabi g'oyalar mavjud, ammo real buyumlar ularning in'ikosi, gavdalanishi, xolos. Platonning fikricha haqiqat alohida emas, balki faqat umumiydir. Otlar turlicha, ular tug'iladi, o'ladi, ammo ot g'oyasining o'zi abadiy va o'zgarماس. Platon-ning fikricha, g'oya narsalarning nihoyasiga yetgan umumlashuvdir.

Platon falsafasi antik ob'yektiv idealizm qoidalarini yaqqol ifodalab berdi. Miloddan avvalgi V asr oxiri – IV asr boshlarida avj olgan quldorlik polistizimining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozi sofistlar va Sugroti ham ijtimoiy munosabatlarga e'tibor berishga majbur etdi. Miloddan avvalgi IV asrda faylasuflar ijtimoiy muammolar bilan ko'proq qiziqdilar. Platon ham bu muammolarga astoydil qiziqish bildirdi. Afina

quddorlik demokratiyasiga qarshi va aristokratik hamda oligarxik tuzum tarafdori bo'lgan Platon ideal davlat – polis loyhasini taklif etib, unga ideallashtirilgan Sparta tuzumi asos qilib olingan edi.

Platon fikricha, uning ideal davlati fuqarolari uch guruhga bo'linadi: 1) faylasuflar; 2) askarlar; 3) hunarmandlar. Quillar eng og'ir jismoniy mehnatni bajarish uchun kerak. Ayollarni Platon aql-idrokda erkaklar bilan teng deb hisoblar, shuning uchun ham ular erkaklar bilan tamoman teng huquq va vazifalarga ega edilar.

3.6. Strabon va uning "Geografiya" asari. Ibtidiy grek maktablari va gimnaziyalari

Qadimgi yunon geografi va tarixchisi Strabon (miloddan avvalgi 64/63 – milodiy 23/24) Kichik Osiyo-ning Amasiya degan shahrida o'ziga to'q oilalardan birida tavallud topgan. Uning yaxshigina bilim olishiga va uzoq-yuqin sayohatlarga chiqishiga imkoniyati yetarli bo'lgan. Strabon bir necha yil Rim shahrida yashagan, Aleksandriyadagi mashhur kutubxonada ilm bilan shug'ullangan. Strabon falsafiy bilimlarni mukammal egallagan. Strabonning Qora dengizda va Nil daryosida suzganligi va umuman ko'p sayohat qilganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi.



Strabon

Xususan, Yunoniston, Kichik Osiyo, Italiya va Misr kabi bir necha davlatlarga ham sayohat qiladi. Strabon antik davr geografik bilimlari yakuni bo'lgan "Geografiya" va "Tarix" ("Tarixiy xotiralari") nomli asarlar yozgan. Strabonning 17 jildlik "Geografiya" asari to'latilgicha saqlanib qolgan. Markur asarda G'arbiy va Markaziy Yevropa, Kichik Osiyo, Shimoliy va Sharqiy Qora dengiz sohillari haqida geografik ma'lumotlar to'plangan. Shu bilan birga asarda ko'plab tarixiy, etnografik va maishiy tafsilotlar keltirilgan. Xususan, Qrim yarim oroli va Dnepr bo'yiga kelib joylashgan qabilalar, skiflar, roksoylanlarning xo'jaligi va maishiy turmushi haqida, Shimoliy va Sharqiy Qora dengiz sohillarida joylashgan antik shaharlarning qurilishi, turmushi, xo'jaligi, tarixi,



Bospor davlatining tarixi va xo'jaligi haqida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan.

"Geografiya" asarida, shuningdek, qadimgi O'rta geografiyasi, unda yashagan qabilalar (saklar, parfyanlar, baquriyaliklar, daxlar va boshqalar) va ularning urf-odat, tili, Buyuk Ipak yo'li o'tgan joylar haqida qimmatli ma'lumotlar ham uchraydi. Strabonning "Tarix" haqida "Tarixiy xotiralari" nomli asari 43 jildidan iborat bo'lib, unda Karfagenning tugatilishidan to'g'ri Gay Yuliy Sezarning (mil. avv. 146-94 yy.) vafotigacha bo'lgan davrlar tarixi o'z aksini topgan. Ushbu asar bizgacha yetib kelmagan.



Qadimgi Yunonistondagi podshohlar va gimnaziyalar

Tarixiy manbalarga ko'ra, Makedoniyada podshohi Aleksandr Aristotelni tabiiy-ilmiy tadqiqot ishlarini keng olib borishi uchun moddiy jihatdan ta'minlab turgan. Ana shu imkoniyatlar tufayli Aristotel miloddan avvalgi 335 yili Afina shahrida o'zining xususiy maktabi – Likeyni ochishga muvaffaq bo'ladi. Bu maktab Appolon Likey ibodatxonasi yaqinida ochilgan bo'lib, unda ucha Likey deb nom beradi. Aristotel maktabining bog'ida har doim o'z shogirdlari bilan sayr qilgan holda shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan. Keyinchalik uning sayr qilish ma'ruza tinglovchi shogirdlarini perepateitlar (ya'ni sayr qilish yuruvchilar) deb atashgan. Aristotel tashkil etgan maktabda juda katta kutubxona ham mavjud bo'lgan.

Mustaqil ta'lim uchun

1. <https://www.youtube.com/watch?v=swqADpBYzLA> havolasi orqali "Buni biladizmi?" kanalida "Piramidalar siri nimada?" mavzusidagi ko'rsatuvni ko'ring.



2. https://www.youtube.com/watch?v=Z6fYnU_pVdI havolasi orqali “Aniq fakt” kanali orqali efitra uzatilgan “Yunoniston xaqida siz bilmagan ajoyib faktlar/ Yunoniston afsonalari/ Yunoniston ma’budlari” mavzusiga bag’ishlangan ko’rsatuvni ko’ring va tahlil qiling.



Glossariy

Mif – (yunon. *mithos* – afsona, rivoyat, asotir) qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui

Mifologiya – muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmui

Antik davr – (lotin. *antiquus* – qadimiy) qadimgi yunonlar va rimliklar madaniyatiga xos davr. Uyg’onish davrida yuzaga kelgan atamadir.

Ellinizm – Makedoniya, Yunoniston, O’rta dengizning sharqiy sohillari, G’arbiy Osiyo, Qora dengiz atrofidagi mamlakatlar tarixining Aleksandr Makedonskiy istilosidan miloddan avvalgi 30-yilda Misr, Rim qo’shinalari tomonidan ishg’ol etilgan paytgacha o’tgan davri tushuniladi.

Ellin – bu atama ilmda dastlab nemis olimi I.G.Droyzenning “Ellinizm tarixi” asarida qo’llanilgan va ushbu atama orqali ellnlarning Sharq mamlakatlaridagi hukmronligi va ular madaniyatining Sharq xalqlari madaniyati bilan uyg’unlashib hosil qilgan yangi madaniyat tushunilgan.

Tragediya – (yunon. τραγῳδία, τραγός, tragos – “echki” va ᾠδή, ᾠδή – “qo’shiq” so’zlaridan so’zma-so’z – “echki qo’shig’i”), fojia – adabiyotning dramatik tur janrlaridan biri.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Qadimiy grek mifologiyasining mohiyati haqida nimalar deya olasiz?
2. Gomerning “Iliada” va “Odiseya” dostonlarini qisqacha mazmuni

haqida so’zlab bering.

3. Prometey afsonasi haqida nimalarni aytib bera olasiz?
4. Qadimgi Gretsiyada tabiat haqidagi fanlarning rivojlanishi hamda Ioniya grek fanining markazi haqida ilmiy ma’ruza tayyorlang.
5. Gherodot “Tarix otasi” ning “Tarix” kitobi va uning qadimgi dunyo tarixini o’rganishdagi ahamiyati nimada?
6. Demokrit – yunon faylasufi. Gippokrat va uning tibbiyot fani rivojiga qo’shgan hisssasi haqida gapirib bering.
7. Pifagor va Sugrotning qadimgi dunyo ilmiy tafakkuri rivojida tutgan o’rni haqida taqdimot tayyorlang.
8. Platon akademiyasi olimlari ro’yhatini tuzing.
9. “Aristotel – antik olamning yirik mutafakkiri” mavzusida klaster tayyorlang.

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Ushbu mavzu bo’yicha tarixiy manbalardan birini tahlil qiling.
2. Mavzu bo’yicha Internet-saytlar katalogini tuzing.
3. O’rganilayotgan mavzu bo’yicha mind mapni ishlab chiqing.
4. “Sugrot buyuk mutafakkir” mavzusida tarixiy badia tayyorlang.
5. “Platon ulug’ mutafakkir alloma” mavzusida maqola yozing.
6. “Aristotel antik dunyoning universal aql egasi” mavzusida ma’ruza tayyorlang.
7. Platon maktabiga kiruvchi allomalarning ro’yhatini tuzing.

3-mavzu bo’yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Matkarimova S. Fan va texnika tarixi. Uslubiy qo’llanma. – Urganch, 2014.
2. Urakov D.J., Xaynazarov B.B. va boshq. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Darslik. – Toshkent: NIF MSH, 2024. - 316 b.
3. Urakov D.J., Biykuziyev A.A. va boshq. Jahon tarixi. I-tom II-qism Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi. Darslik. – Toshkent: Metodist, 2023. - 368 b.
4. Urakov D.J., Xolliyev A.G. va boshq. Jahon tarixi. I-tom I-qism Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi. Darslik. – Toshkent: Metodist, 2023. - 368 b.
5. Yakubov A. Fan va texnika tarixi. – Samarqand, 2024.

3-mavzu bo'yicha testlar

1. "Argonavtlar" asarining muallifi kim?

- A) Apollon Rodosskiy
- B) Srtabon
- C) Gerodot
- D) Pleniy

2. Gomerning mashhur dostonlari ko'rsatilgan qatorni toping?

- A) "Iliada" va "Odisseya"
- B) "Yason va Argonavtlar"
- C) "Zanjirband Prometey"
- D) "Encida"

3. Esxlining jahon adabiyotida ulkan iz qoldirgan asarini toping?

- A) "Zanjirband Prometey"
- B) "Ilohiy shahar haqida"
- C) "Sevgi davosi"
- D) "Baxtli hayot haqida"

4. Yunonlar finikiyaliklar yozuvi asosida necha harfdan iborat bo'lgan o'z yozuvlarini yaratishdi?

- A) 24 ta
- B) 25 ta
- C) 26 ta
- D) 27 ta

5. Elin davrida Museyon – ilmiy muassasasi qayerda tashki etildi?

- A) Iskandariyada
- B) Ioniyada
- C) Miletida
- D) Krotonda

6. Yunonistonda materializm haqidagi dastlabki falsafiy ta'limotlar asoschilari kimlar edi?

- A) Fales, Anaksimandr, Anaksimenes
- B) Suxrot, Lukresiy, Fales,

- C) Demokrit, Gerodot, Avgustin
- D) sitseron, Epikur, Anaksimenes

7. Demokrit ta'limotiga ko'ra atom haqida nima deyilgan?

- A) Atom – abadiy va o'zgarmas materiyaning eng mayda bo'lagi bo'lib, uning o'zi bo'limaydi.
- B) Atom – bu o'zgarmas materiyaning eng katta bo'lagi bo'lib, u alohida bo'linadi.
- C) Atom – abadiy bo'lib, uning o'zi bo'limaydi.
- D) Atom – o'zgarmas materiyaning eng kichik bo'lagi hisoblanadi.

8. Gerodotning bizgacha yetib kelgan mashhur asarini ko'rsating?

- A) "Tarix"
- B) "Qiyinchilik haqida kitob"
- C) "Geografiya"
- D) "Tarixiy xotiralar"

9. Gippokratning ta'limotiga ko'ra vrachlar haqida nimalar deyilgan?

- A) Vrachlar kasalni odamdan quvish kerak emas, balki kasalni yengishda odam organizmiga yordam berishlari lozim deyilgan.
- B) Vrachlar kasalni odamdan quvish kerak deyilgan.
- C) Vrachlar odamlarga yordam berishi kerak deyilgan.
- D) Vrachlar kasal odamlarga yaxshi narsalar haqida so'zlashi lozim deyilgan.

10. Platon fikricha, uning ideal davlati fuqarolari necha guruhga bo'linadi?

- A) 1. Faylasuflar 2. askarlar 3. hunarmandlar
- B) 1. Ziyolilar 2. hunarmandlar 3. askarlar
- C) 1. Amaldorlar 2. tabiblar 3. hunarmandlar
- D) 1. Ruhoniyalar 2. ziyolilar 3. faylasuflar

4-MAVZU: QADIMG'I RIMDA ILMIY BILIMLARNING TARAQQIY ETISHI

Reja:

- 4.1. Qadimg'i Rimda ilmiy bilimlarning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.
- 4.2. Sitseron, Seneka, Mark Avreliy, Avgustin Avreliy, Boetsiy va Pliniylar Rim ilmiy dunyog'arashining peshqadam vakillaridir.
- 4.3. Eranizmdan avvalgi I asrning oxiri va eranizning I asri boshlari Rim she'riyatining "Oltin asri".
- 4.4. Rimda teatr, kutubxonalar, ko'priklar va vodoprovodlar qurilishida aniq fanlarning o'rni.

Tayanch tushunchalar: legion, ellinizm, Varro, Sitseron, Manilius, Vitruviy, Pliniy, Kolumella, grammatika, dialektika, ritorika, musiq, arifmetika, geometriya, astronomiya, me'morchilik, tibbiyot, "Vitruviy odami", Strabon, "Yaxshilik va yomonlikning chegaralari to'g'risida", "Davlat to'g'risida", "Qonunlar to'g'risida", "Majburiyatlar to'g'risida"; Sitseron, Seneka, Mark Avreliy, Avgustin Avreliy, Boetsiy, Kvint Goratsiy Flakk, Publiy Ovidiy Nazon.

4.1. Qadimg'i Rimda ilmiy bilimlarning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar

Miloddan avvalgi III asrda Rim qudratli davlatga aylanadi. Rim davlati faol tashqi siyosat olib boradi va erishgan g'alabalarning asosiy sabablaridan biri qo'shinning legionlar asosida qurilishi edi. Qadimda Rimliklarning istilochilik urushlari natijasida pax Romana "Rim dunyosi" deb atalgan



Kolizey (Angliyan), Rim

yangi madaniy muhit yuzaga keladi. Rim Yunoniston va Mismri bosib olganidan keyin, yunon madaniyati hamda Museyning fan sohasidagi

erishgan yutuqlarini faol o'zlashtirishi jarayoni boshlanadi. Miloddan avvalgi I asrga kelib O'rta yer dengizi havzasida Rimning mutlaq hukmronligi o'rnatiladi.

Qadimg'i Rim davlati Yevropa, Shimoliy Afrika va Sharqiy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi maqomini oladi. Fan va texnika taraqqiyotida Rim boshqichi boshlanadi (mil. avv. I asr – milodiy V asr). Shu bilan birga miloddan avvalgi II asrda fan olamida Iskandariya va Afina markazi bo'lgan ellin fanining nufuzi ham saqlanib qolinadi. Ikki madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, Qadimg'i Rimning fan olamidagi o'rni va nufuzini yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.



Qadimg'i Rim shahri

Miloddan avvalgi I asrda Iskandariyada fanning rivojlanishiga davlat tomonidan ko'rsatilib kelingan moddiy yordam to'xtatilganidan keyin, markaz asta sekin Rimga ko'chadi. Respublika davrida Rimda madaniyat ikki tili ta'sirida rivojlanadi. Imperiya davriga kelib yunon tili umumiy qabul qilingan fan tili bo'lib qolaveradi, lotin tili esa davlat tili maqomini oladi. Falsafa fanining qadimg'i dunyodagi mavqei saqlanib qolingan bo'lsa ham, Rimda ellinizm davri fanidan ehtiyojlari va qadriyatiga mos keladigan yutuqlar qabul qilinadi. Shuning uchun qadimdan Rimda fan taraqqiyoti darajasiga ko'ra ellinizm davri fani pastligi, mustaqil emasligi, manbalardan olinganligi (kopiyativligi) va kitobiy yozilganligi to'g'risida noto'g'ri tasavvur paydo bo'lgan. Rimda amaliyot bilan aloqador fanlar va tajribaga ustuvorlik berildi. Ilmiy tadqiqotlarda yangi g'oyalarni yaratish emas, ularni tavsiflash ilmiy ishlarining asosiy metodiga aylandi.

Qadimg'i Rimning atiq olimlari Varro, Sitseron, Manilius, Vitruviy, Pliniy, Kolumella shu usulda ijod qildilar. Fanda jamiyatni o'rganish, xususan huquq va boshqaruv ilmidagi rimliklarga teng keladigan yo'q edi. Fanda yangi kashfiyotlar bilan maqtana olmasa ham, qurilish, harbiy soha, qishloq xo'jaligi texnologiyalarini rivojlantirishda hamnadan ustun bo'lgan. Maorif va ilm sohaslarida ham erishilgan yutuqlar salmoqli edi. Ta'lim tizimi yunonlar tajribasi asosida tashkil

Sitseron o'zining fikrlarini isbotlash maqsadida Demosten ijodiga murojaat qilib Atika so'z san'atining ulug' namoyondasi faqat oddiy va sodda uslubnigina emas, balki jo'shqin va hayajonli nutqning beqiyos ustasi bo'lganligini misol keltiradi.



Seneka

Seneka Lusiy' Amey (taxminan miloddan avvalgi 4. Kordova, Ispaniya – milodiy 65, Rim, Italiya) Rimning axloqshunos-faylasufi, yozuvchisi va davlat arbobi bo'lgan. Seneka Rim imperatori Neronning tarbiyachisi va maslahatchisi ham bo'lgan. Keyinchalik Neron tomonidan o'limga hukm qilingan. Seneka stoisizmning yirik vakillaridan biri bo'lgan. U tabiat va inson mohiyati haqida keng bilimlarga ega bo'lgan, adabiy uslubni juda yaxshi egallagan. Senekaning falsafiy qarashlari ziddiyatli bo'lgan. U falsafani hayotda axloqiy-diniy qo'llanma deb bilgan. Uning "Lutsilyuga axloqiy maktublar" falsafiy asari, "Himmat haqida", "Rahmshafqat haqida", "Ruhiy hotirjamlik haqida" kabi risolalarida tarkidunyo qilish, o'lim va taqdimni nazar pisanid qilmaslik, ehtiroslardan holi bo'lish, kishilarning ahloqiy tengligi masalalari yoritilgan. Uning "G'azab haqida", "Baxtli hayot haqida" singari axloqshunoslikka doir risolalari ham ko'pchilikka ma'lum.

Senekaning fikriga ko'ra, dunyo moddiy, biroq, unda gandaydir jonli ibtido hukmrondir. Uni aql-idrok deymizmi, tabiat, bashorat yoki taqdir deymizmi uning ahamiyati yo'q, muhimi shuki, uning yozgani albatta amalga oshadi. Faylasuf fazilatlarining ma'nosini taqdiridan rozilikda, uning zarbalariga insoniy qadr-qimmatni yo'qotmay, mardona va chidam bilan dosh berishda ko'radi. U o'limni sovuq, tund, lekin ozodlikning kafolati sifatida talqin etadi. Ozodlikni o'z-o'zini o'ldirishda ko'rish, shubhasiz, u yashagan davrning g'oyatda fojialiligi bilan bog'liq.

Seneka qul bilan ozod kishining ma'naviy tengligini ta'kidlaydi: "Ular qullarmi? Yo'q, odamlar. Ular qullarmi? Yo'q, ular uyingdagi qo'shnilar. Ular qullarmi? Yo'q, sening itoatkor do'stlaring. Ular qullarmi? Yo'q, ular sening qulliqdagi birodarlaring, negaki, sen ham, ular ham taqdirning qullarisiz". Albatta, bu o'rinda Seneka ijimoiy-iqtisodiy tenglikni emas, balki qul bilan quldorning ahloqiy tengligini

nazarda tutadi. Faylasufning aytishicha, ruh ozodligi – shaxs uchun o'z-o'zini qadrlash va g'urrur-iftihor manbaidir. Kimki botiniy ozodlikka erishgan ekan, u taqdir ko'rigiliklariga bo'yusummaydi, qismat zarbalarini mardona kutib olishga tayyor turadi.

Mark Avreliy (121-180 yy.) – Antoninlar sulolasidan chiqqan Rim imperatori, faylasuf-stoik va yozuvchi bo'lgan. U doimo senatorlar tabaqasiga suyangan. Armanistonda Rim hukmronligini tiklagan. Parfiyaliklar bilan bo'lgan urushda (162-166 yy.) Mesopotamiyani bosib olgan. 166-180 yillarda Markoman urushini olib borgan. Mark Avreliy so'nggi stoisizm vakillaridan biri bo'lgan. Uning "O'ylar" nomli falsafiy asari va aforizmlar shaklida yozilgan "O'zim to'g'rimda o'zim" nomli risolasi mavjud.



Mark Avreliy

Mark Avreliy "O'zim to'g'rimda o'zim" nomli risolasida ijimoiy-siyosiy hayot, moddiy va ma'naviy olam, axloq-odob muammolari haqida o'zining fir'k-mulohazalarini qisqacha bayon qilib yozib qoldirgan. Uning dunyoqarashidagi amaliyotchi ustuvorligi mulohaza obyekt bo'lgan muammolarga yarim ishonch, yarim ilohiylik qarashlari bilan qorishib ketganligi izchil stoikdan boshqa falsafiy aqidalarga, xususan, Epikur ta'limotiga, yangi Aristotelechiilik (peripatetik) g'oyalariga, kiniklar qarashlariga moyillik alomatari bilan aralash holda ifodalangan. Mark Avreliy o'zi yashagan tarixiy davrda sodir bo'layotgan barcha voqea-hodisalarni ilohiy kuch-quvvatning ifodasi bo'lgan tabiat in'ikosi sifatida talqin etadi. Uning iloh-tabiat mutanosibligidagi oqil, faol, moddiy hislatlarga ega bo'lgan ibtido butun olamni qamrab olgan va undagi barcha qism-bo'laklarni yagona markazga birlashtirib turuvchi kuch-qudratga egadir.

Mark Avreliy qarashlarida uning diniy ishonch-e'tiqod asoslari ham olamni iloh deb tan olishda namoyon bo'ladi, shuning uchun ham u boshqa har bir odamning ham olam kuch-qudrati bilan hamkorlik qilishi ob'yektiv zaruriyat ekanligini uqdiradi. Insondan hohis bo'lgan tashqi olam bilan unga to'la itoat etadigan shaxsiy ichki olam o'rtasida muayyan farqlar mavjudligini ta'kidlab o'tadi. Mark Avreliy inson

o'zining baxt-saodatiga o'z xulq-atvori, his-tuyg'ulari va qarashlarini umumtabiat qonuniyatlariga amal qilib namoyon bo'ladigan tashqi olamga hamohang bo'lishiga yetishgandagina erisha oladi. Mark Avreliy qarashlarida stoiklik doirasidan chiqib, ayrim hollarda inson aql-zakovati ilohiy kelib chiqadigan yoki uning ichki ilohiy ruhi bilan tenglashadigan kuch-qudratga ega bo'lishini tan oladi.

Mark Avreliy esa o'z qarashlarida fatalistik g'oyalarni ilgari suradi. Inson Xudoga to'la bo'ysunadi. Shuning uchun u o'z hayotida biron narsani o'zgartirishga qodir emas deydi. "Butun insoniyat tutundan iborat", "Inson hayotining muddati – bir lahz, uning mohiyati – doimiy oqim, sezgilar – hira, tananing umumiy tuzilishi – foniy, ruh – beqaror, taqdir – sirli, shon-sharafga ishonib bo'lmaydi... hayot – bu kurash va o'zga o'lkalarda sarson-sargardonlikda yurishdir... o'lgandan keyingi sharaf unutilguvchidir", - deydi Mark Avreliy. Umuman, Mark Avreliyning ahloqiy qarashlari umidsizlik va zaiflik ruhi bilan sug'orilgan.



Avgustin Avrely

Avgustin Avreliy (354 yil, Tagast shahri, Shimoliy Afrika – 430 yil, Gippon shahri, Shimoliy Afrika) – ilohiyotchi, adib va faylasufdir, shu birga u "cherkov otalari"dan biri hisoblanadi. Katolitsizm aqidalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Gippon shahri uskufi (yepiskopi) martabasiga erishgan. Diniy-falsafiy ruhdagi qator va'z va risolalari saqlanib qolgan. Avgustin Avreliyning "Tavba" (400 yil), "Ilohiy shahar haqida" (413-427 yillar, 22 kitobdan iborat) gi asarlari juda mashhurdir. "Ilohiy shahar haqida" asarining yozilishiga Rim imperiyasi poytaxti gollar tomonidan bosib olinib, vayron qilinishi turki bo'ldi. Asarda bu vayrongarchilik rimliklar asrlar mobaynida o'zga xalqlarga nisbatan o'tkazgan bosqinchilik va zo'ravonlik siyosati uchun xudo tomonidan yuborilgan jazo sifatida talqin qilinadi. Asarning 10 ta kitobi Rim tarixiga, 12 ta kitobi insonlar jamiyati va davlatning mohiyatiga bag'ishlangan. Avgustin Avreliy dunyoni ikki saltanatga bo'ladi: 1. "Zamin shahri" – yovuzlik, zo'ravonlik va shayton saltanati. 2. "Ilohiy shahar" – ezgulik va rahmon saltanati. *Birinchisi* – inson xudbinligi asosiga qurilgan va ilohiylikni rad etadi, *ikkinchisi* – ilohiy

mehr asosiga qurilgan bo'lib, insonning moddiy ehtiyojlardan yuz o'girishini taqozo qiladi.

Avgustin Avreliyning ta'limotiga ko'ra, "ilohiy shahar"ning yer yuzidagi timsohi cherkovidir, unga samoviy cherkovga tayyorgarlik vositasi sifatida qaralishi lozim. Avgustin Avreliy qadimgi yunon mushriklik davri qadriyatlarini masixiylik nuqtai nazaridan keskin tanqid qiladi, inson o'z irodasi bilan ezgulikka erisha olmaydi, inson gunohlardan faqat xudoning inoyati va cherkov tufayli forig' bo'ladi, deb hisoblaydi. Avgustin Avreliyning fikriga ko'ra, "yagona tangri barcha go'zallikning haqiqati va eng oliy go'zallikdir". Avgustin Avreliy "e'tiqodsiz bilim ham, haqiqat ham yo'q", deb hisoblaydi. Avgustin Avreliy ta'limoti Yevropada deyarli ming yil davomida ilm-fanning cherkovga tobe holda qolishiga muayyan darajada nazariy zamin bo'ldi va cherkov hokimiyatining qudratli kuchga aylanishiga ko'maklashdi.

Anisiy Manly Severin Boetsiy (480 yil Rim, Italiya – 524 yil Paviya, Italiya) Rimlik faylasuf, davlat arbobidir. Boetsiy go'dakligidayoq olasidan yetim galdi. Uni Rim shahrining hokimi Kvint Avreliy Memmiy Simmax o'z tarbiyasiga oldi. Simmax o'sha davrdagi eng ma'rifati va olijanob mansabdorlardan biri bo'lgan. Boetsiy Arastuning mantiqiy asarlari va Porfiriyning "Arastu toifasiga kirish" deb atalgan



Boetsiy

go'lyozmasini tarjima qildi hamda sharhlab berdi. Boetsiy VI asrning boshidayoq Aflotun va Arastu asarlarini lotin tilida to'liq nashr etishni niyat qilgandi. U Arastuning bir nechta asarini tarjima qilib ulgurdi. Ammo, Aflotunning ijodiga go'l urishiga bevaqt ajal halaqit berdi. Boetsiy qirq yoshga yaqinlashib qolganda hukmdor Teodorix saltanatidagi eng oliy martabalardan birini egallab, qaynotasi Simmax bilan birgalikda senatdagi eng nufuzli shaxsga aylandi. Uning falsafaga bo'lgan qiziqishi, yuksak so'zlash va eshitish qobiliyati hamda keng ko'lamli madaniy va siyosiy bilimlari ko'pchilikda havas uyg'otardi. Boetsiy "falsafa do'stlari"ning to'garagini ochdi. Bu to'garakka Simmax va papa Ioann I ham a'zo bo'lib kirishdi.

Hukmdor Teodorix saltanatida shuhrat cho'qqisiga erishgan

Boetsiyning saodati kunlari uzoqqa cho'zilmadi. Saroy a'yonlaridan biri Kiprian Teodorixga senator Albin go'yoki Vizantiya imperatoriga yashirincha maktab jo'natib turishi haqida xabar yetkazdi. Senat majlisiga zudlik bilan yetib kelgan Boetsiy bu chaquvni qat'iy rad etib, nutq so'zladi. Pirovardida aybdorlik soyasi senator Albinga tushgudek bo'lsa, uning do'sti – Senat raisi Boetsiy ham chetda qolmasdi. Boetsiyning Senatda so'zlagan matonatli nutqi uning dushmanlariga yaxshi dastak bo'ladi. Hasadgo'ylar hukmdor Teodorixning huzuriga borib, Boetsiyni yolg'on guvohlik berganlikda va falsafa bilan mashg'ullikda ayblaydilar. Boetsiy ma'ruzasining Senat tomonidan sukut bilan qo'llab-quvvatlanishi sershubha Teodorixni havotirga solib qo'yadi. Ustiga-ustak, saroydagi advokatchi va fitnachi kimsalar Teodorixning shubhalarini yanada alangalatib, Boetsiy va uning to'garakdosh do'stlariga qarshi turli tuhmatlar, ig'vo-bo'htonlar targatishadi. Tuhmatchi va g'alamis mansabdorlarning bo'htonlari hukmdor Teodorixni talvasaga solib qo'yadi. U yuzidagi ma'rifa-parvar hukmdor niqobini yechib tashlashga majbur bo'ladi. U asliga – gonxo'r, johil podshohga aylanadi. Uning buyrug'iga binoan, Albin va Boetsiy hiyonakorlikda ayblanadilar. Senatorlar qo'rquv ostida bu ayblovni tasdiqlab, qo'llab-quvvatlashadi. Boetsiy va Albin hibsga olinadilar. Albin tez orada qatl etiladi. Boetsiy esa bir necha oy zindonda saqlab, so'ng dorga osishadi. Oradan ikki yil o'tgach, hukmdor Teodorix ham o'z qilmishidan pushaymon bo'lib, olamdan o'tadi. Boetsiy zindonda hukm ijrosini kutib, "Falsafa tasallisi haqida" asarini yozib tugatdi.



Gay Pliniy Sekund

Gay Pliniy Sekund (miloddning 22/24-yili Noviy Kom, Italiya – 79-yili Stabiya, Italiya) – qadimgi Rimning iste'dodli yozuvchisi bo'lgan. U "Tabiat tarixi" deb nomlangan antik davrning eng yirik qomusiy asari mual-lifi sifatida tanilgan. Boshqa asarlari saqlanib qolmagan. Pliniy Rim imperiyasining shimoliy chegarasida joylashgan armiyada xizmat qilib, Rimga qaytgach, adabiy faoliyat bilan shug'ullanadi. Imperator Vespasianing o'g'li Tit bilan harbiy xizmatni o'tagan. 77-78-yillarda u Tita bag'ishlangan 37 kitobdan iborat bo'lgan "Tabiiy tarix" asarini

nashr etdi. Pliniy ilm olish uchun har qanday imkoniyatdan unumli foydalanган. Vaqtini bekorга va hatto uyquga ham sarflamaslikka harakat qildi. Zero, aqliy ishga sarflamagan vaqtni, befoйда yo'qotish deb hisoblagan. U ko'plab asarlar yozgan, 37 kitobdan iborat "Tabiiy tarix" asari ijodining gultoji bo'ldi.

4.3. Erannizdan avvalgi I asrning oxiri va erannizning I asri boshlari Rim she'riyatining "Oltin asri"

Rim adabiyoti yunon adabiyoti erishgan barcha yutuqlardan va shu bilan birga, ellinizm davri adabiyotining bu xazinaga qo'shgan qator yangijiliklaridan to'la-to'kis foydalanib, ham shakl, ham mazmun jihatidan yana bir daraja yuqori bosqichga ko'tariladi va keyinchalik, yangi dunyo Yevropa adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan qudratli bir adabiyotga aylanadi. Uyg'onish davrining qalam ahllari, XVII asr yozuvchilari o'z faollatlarida yolg'iz Rim adabiyoti namunalariga taqlid ettilar. Faqat XVIII asrga kelib burjua gumanistlari (Lisseng, Gyote, Shiller) bevosita yunon adabiyotiga murojaat qila boshlaydilar. Binobarin, qariyb besh asr davomida Yevropa xalqlari badiiy ijodining shakllanishida asosiy rolhni yunon adabiyoti emas, balki Rim adabiyoti o'ynaydi.

Antik dunyo adabiyotlariga bo'lgan munosabatning bu tariqa keskin o'zgarib ketishi natijasi o'laroq, XIX asr olimlari orasida "Rim adabiyoti faqatgina taqlidchilikdan, Yunon adabiyoti bilan Yevropa adabiyoti o'rtasida vositachilik qilishdan boshqa narsa bo'lmagan" deganga o'xshash fikrlarni tug'diradi. Yunon adabiyotidan allagancha keyin paydo bo'lgan Rim adabiyotining rivoj topishida taqlidchilik katta o'rin tutganligini inkor etib bo'lmaydi, ammo, shunga qaramay, Rim adabiyoti Yunon adabiyotidan ko'chirilgan tuzsiz bir nusxa emas, balki o'zining bir talay muhim xususiyatlari bilan ulkan og'asidan ajralib turadigan mustaqil adabiyotdir.

Kvint Goratsiy Flakk (mil. avv. 65-yil, Venuziya – mil. avv. 8-yil, Rim) Vergiliyning zamondoshi hamda do'sti, Avgust davrining ikkinchi ulug' shoirilaridan biri bo'lgan. Goratsiy miloddan avvalgi 65 yilda Italiyaning



Kvint Goratsiy Flakk

janubidagi Kichkinagina Venuziya shahrida tugʻiladi. Goratsiyning asarlari bizga qadar toʻla holda yetib kelgan. Bular "Epodlar" (17 ta sheʼrdan iborat boʻlgan toʻplam), "Satiralar" (18 ta sheʼrdan iborat boʻlgan 2 ta toʻplam), "Qasidalar" (103 ta sheʼrdan iborat boʻlgan 4 ta toʻplam), "Nomalar" (23 sheʼrdan iborat boʻlgan 2 ta toʻplam), "Bayram madhi" (1 ta sheʼr) kabi sheʼriy toʻplamlardir.

Goratsiyning yangi original va yuksak badiiy asarlar yaratgani "Epodlar" toʻplamining hamma sheʼrlarida aniq sezilib turadi. Toʻplamdagi sheʼrlarning barchasi zamonasidagi siyosiy, ijtimoiy va hayotiy masalalarga bagʻishlangan. Shu mavzular orasida urush va tinchlik, Rim davlatining istiqboli masalalari shoirni ayniqsa koʻproq bezovta qiladi. Masalan, 7-epodda qahr-gʻazabga toʻlib, uzluksiz ichki urushlarni qattiq qoralaydi, figʻon chekadi. Uning taʼbiriha, yer yuzini, dengizlarni gonga belagan odamlarning vahshiyiligini, hatto qoplonlar va boʻrlarning yirtqichligi bilan ham tenglashirish mumkin emas.

Goratsiy satiralarning mavzulari xilma-xildir. Avval Epikur soʻngira Stoya falsafalari muhlisi boʻlgan shoir shu falsafiy taʼlimotlar pozitsiyasida turib hammadan burun odam bolasining eng yaramas ehtirosi – davlat ortirish hissiga qarshi kurashadi. Uning aytishicha, jamiki jirkanch istaklarning onasi boʻlgan davlatmandlik ishtiyogi oʻz navbatida ochkoʻzlik, taʼmagirlik, shuhratparastlik, maishatbozlik, isrofgarchilik kayfiyatlarini tugʻdiradi, odamning tinchligiga, samimiy-ligiga putur yetkazadi. Shu nuqtai-nazardan ikkinchi toʻplamning 5-satirasi nihoyatda xarakterlidir.

Goratsiy yoshlarga maslahat berib, sevgi ishlarida ehtiyot boʻlishlikni, ayniqsa eri xotinlarga aylanishmaslikni uqtiradi. Ana shu oʻgilarga shoirning oʻzi aslo amal qilmashigini, jinoyat ustida qoʻlga tushib sharmanda boʻlishni oʻylamasdan, choponiga oʻralib kechalari birrovlarning eshigi tagida pisib yurishni, begonalarning xotinlari bilan hufyona bazm qurishni ham qattiq qoralaydi. Qul bir oʻrinda xoʻjasining har qadamda erkinlikni kuylashga, mustaqillikni madh etishga qaramasdan, oʻzining boshqalarga malay misoli qoʻgʻirchoq boʻlib yurganini achchiq kinoya qiladi.

Goratsiyning toʻplamlaridagi satiralarning uchtasi adabiyot

mavzulariga bagʻishlanadi. Goratsiyning qasidalarida koʻproq tarannum qilingan masala – Avgustning axloq va odob sohasidagi siyosati boʻlgan. Yunon poeziyasi erishgan yutuqlardan ijodiy foydalanib Goratsiy lotin tilida muhtaqo yangi lirika yaratadi. qasidalaridagi fikriy teranlik, shakliy rang-baranglik, uslubning nafisligi, ixchamligi, sodd va ravonligi – ulugʻ shoir tomonidan Rim sheʼriyatiga kiritilgan ana shu yangi-liklarning yorqin namunasidir. Goratsiy ijodining eng soʻnggi mahsuli "Nomalar"dir. Rim adabiyotida Goratsiyga qadar noma yozganlar ularning barchasi nomalarini nazmda, sheʼriy shaklda talaygina, Biroq, nomalarni birinchi boʻlib nazm shakliga koʻchirib, yozganlar. ularga yuksak badiiy tus bergan va maxsus adabiy janr sifatiga koʻtargan shoir Goratsiydir.

Publiy Ovidiy Nazon (miloddan avvalgi 43-yil – milodiy taxminan 18-yil) – Avgust zamonasining oxirgi ulugʻ shoiri, elegiyanavis shoirilarning eng soʻnggi buyuk vakili Sulmon shahrida qadimgi suvoriyalar urugʻiga mansub badavlat xonadonda tugʻiladi. Rim shoiri ijodini ishqiy sheʼrlar bilan boshlagan. Uning "Ishqiy elegiyalar" (milodiy I-II yillardan oldin), "Sevgi sanʼati", "Sevgi davosi" kabi dostonlari (ikkalasi ham taxminan miloddan avvalgi 20-yil – milodiy 1-yil) didaktik ruhda yozilgan boʻlib, ularda Rim hayoti lavhaları ifodalangan.

Ovidiyning elegiyalarida Tibull hamda Propersiy asarlarida boʻlgani kabi chuqur muhabbat tuygʻularini, ogʻir iztirob alamlarini, sevgi yoʻlida fidoyilik va samimiylikni axtarish ham befoyyda. Shoirning oʻz tili bilan aytganda u faqat "Xurram muhabbatning xushchahqach kuychisi" boʻlgan. Ovidiyning oldingi shoirlardan yana bir farqi shundaki, bu adib Vergiliy ijodida boshlangan usulni davom ettirib, oʻzining ijodida notiqlik sanʼati qoidalaridan keng foydalanadi va shu yoʻsin Rim poeziyasining kelgusi taraqqiyoti yoʻlida yangi davrni boshlaydi.


Ovidiy talantining barcha fazilatları, ruhiy mushohadalarning oʻtkirliги, manzaralarning hayotiyliги, tilining nafisliги, misralarning silliqliги butun toʻplam boʻylab, sochilib ketgan ajoyib qochiriq gaplar hazil-mutoyibalar shu birinchi toʻplamdayoq roʻyi-rost namoyon qilinadi,



Publiy Ovidiy Nazon

ular kitobxonni matn etadi, muallifning nomini muhabbatning ulug' kuychisi darajasiga ko'taradi. Mashhur "Memoriozalar" nomi mifologik eposi (15 kitobdan iborat, taxminan milodiy 1-8-yillar) – Ovidiy ijodining cho'qqisi bo'lgan. Ovidiy axloq hususidagi dadli fikrlari uchun imperator Avgust tomonidan Tomi shahri (hozirgi Rumininyaning Konstansa portiga surgun qilingan va o'sha yerda umrining oxirigacha yashab (taxminan 10 yil) "G'ussali elegiyalar" (5 kitob, taxminan milodiy 8-yildan keyin) va boshqa asarlarini yozadi.

4.4. Rimda teatrlar, kutubxonalar, ko'priklar va vodoprovollar qurilishida aniq fanlarning o'rni



Mansella teatri

Teatr san'atining vujudga kelishi hosi bayramlari tantanalari bilan bog'liq bo'lgan. Miloddan avvalgi taxminan 33 yillarda xalq hayriy tomoshalari vujudga kelgan. Bunday tomoshalar – atellanalar ko'pincha to'rt doimiy personajdan iborat bo'lib, dastlabki paytlarda niqob kiygan yoshlar, keyinchalik professional artistlar jirosida namoyish qilingan. Miloddan avvalgi 240 yillarda yunon originallari asosida ilk dramalar, keyinroq yunon mualliflarining tragediya, komediyalari sahnalashtirilgan.

Miloddan avvalgi II va I asr boshlarida qiyi tabaqalarga mansub Rim fuqarolarining hayoti aks ettirilgan tomoshalar ko'rsatila boshlandi. Ilk tosh teatr binosi miloddan avvalgi 55-52 yillarda quriladi. Artistlar ozod qilinganlar va qullardan iborat bo'lib, tuppalarga uyushtgan bo'ladi.

Zilvan mozaikasidan yasalgan gladiatorial Erkaklar ayol rollarini ham bajarishgan. Respublikaning so'nggi asrida tragik aktyor Ezop va komik aktyor Rossiy shuhrat qozongan. I-II asrlarda raqslar sahnalashtirildi, siyosiy voqealarga oid tomoshalar ham ko'rsatila boshladi. Asta-sekin maishiy kichik kurimishlar murakkab syujetli spektakllarga aylana bordi.



Zilvan mozaikasidan yasalgan gladiatorial

Sirkalarda tomoshalar, amfiteatrlarda gladiatorialning janglari bilan bir qatorida o'chilarning hayvonlar bilan olishuvlari, ommaviy o'v lavhalarini, dengiz janglari va boshqalar ham ko'rsatila boshlandi. Imperiya davrida badiiy dramalar o'rninga qon to'kiladigan tomoshalarga ishtiyok kuchaydi. Rim teatri, ayniqsa, dramaturgiyasi jahon teatri va dramaturgiyasi rivojiga katta hissa qo'shdi. Rim respublikasi davrining lotin ilmiy adabiyoti yodgorliklari juda ham kam edi.


Miloddan avvalgi I asrda Aristotel asarlariga sharxlar yaratilgan. Astronomiya va matematikaga juda katta qiziqish ortdi. Ptolemeyning mashhur "Almagest" asarida (II asr) olamning geotsentrik tizimi bayon etildi. Sharqda astrologiya keng tarqalgan. Dianfanning "Arifmetika" si (taxminan III asr), Papp Aleksandriyskiyning "Matematika to'plami" (III-IV asrlar) asarlari mashhur bo'lgan. Bu davrda ilmiy-texnika (adabiyotlari, asosan, veterinariya va harbiy texnikaga bag'ishlandi.

Miloddan avvalgi I asr oxirida *Vitruviyning* adabiyotlari, asosan, veterinariya va harbiy texnikaga bag'ishlandi.

"Arxitektura haqida 10 kitob" asari shuhrat qozondi. Harbiy texnika sohasidagi boy tajriba: lager va gal'alar qurish masalalari adabiyotlarda yoritildi. Dioskoridning 600 dorivor o'simlik haqidagi bayoni o'rta asrlarda ham keng foydalanildi. Vrach, anatom, fiziolog Galen butun Yevropada tibbiyot rivojida katta rol o'ynadi. Ilmiy adabiyotlar qiziqarli qilib badiiy yozilganligi bilan ham diqqatga sazovoridir. Rim davlatining hududiy o'sishi miloddan avvalgi III-I asrlarda geografiya bilimlari taraqqiyotiga imkon berdi. Imperator Avgust davrida jahonning katta geografik xaritasi ham ishlandi. Miloddan avvalgi 37 yilda I ta jamoat kutubxonasi tashkil qilindi, imperiyaning



Vitruvij



Kutubxonasi

oxirgi asrida ularning soni 28 taga yetdi.

Arxitektura san'ati, tasviriy va amaliy bezak san'ati antik badiiy madaniyatning so'nggi, yakunlovchi davri hisoblanadi. Rimda arxitektura, haykaltaroshlik va rassomlik san'atida realizm kuchayadi, ularda Yunoniston san'atidagidek afsonalar emas, tarixiy shaxslar, voqealar ko'proq aks ettiriladi. Rim san'atining qadimgi davrida Etruriya

Glossariy

Diopter – ob’ekt yo’nalishni aniqlash moslamasi – zamonaviy teodolining protonushasi

Odometr – yo’llarning uzunligini o’lchash moslamasi

Arbalet – o’zi o’qlanadigan kamon

O’r o’chirish pompasi – pojar nasosi kabi moslama

Akveduk – (suv o’tkazgich) turli landshaftlar orqali yotqizilgan sug’orish kanallari tizimidir

Legion – (lotin.) – Qadimgi Rim armiyasidagi asosiy tashkiliy va taktik birlik (4,5-10 ming kishidan iborat bo’lgan).

Dialektika – (yunon. *dialektike (techné)*) – subbat olib borish, bahslashish san’ati) – borliqning vujudga kelishi, uning taraqqiyoti haqidagi falsafiy ta’limot hamda voqelikni bilish va unga asoslangan tafakkur ushbu.

R ritorika – (yunon. *rhetorike* – notiqlik) – notiqlik san’ati; keng ma’noda esa umuman badiiy nasr haqidagi fan.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Qadimgi Rimda ilmiy bilimlarning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar haqida so’zlab bering.
2. “Siseron, Seneka va Mark Avreliylar Rim ilmiy dunyoqarashining peshqadam vakillaridir” mavzusida taqdimot ishi tayyorlang.
3. “Avgustin Avreliy va Boesiyalar Rim ilmiy dunyoqarashining peshqadam vakillari” mavzusida taqdimot ishi tayyorlang.
4. Eramizdan avvalgi I asrning oxiri va eramizning I asri boshlari Rim she’riyatining “Oltin asri” haqida esse yozing va tahlil qiling.
5. Vergiliyning “Eneida” dostonini qisqacha so’zlab bering.
6. Lukresiyning dunyoqarashi haqida nimalar bildingiz?
7. Pleniyni 37 kitobidan iborat “Tabiiy tarix” kitobi haqida nimalar bilasiz?
8. “Rimda teatr, kutubxonalar, ko’priklar va vodoprovodlar qurilishida aniq fanlarning o’rni” mavzusida “Mind map” chizing va izohlab bering.

Mustaqil ta’lim mavzulari

1. Ushbu mavzu bo’yicha tarixiy manbalardan birini tahlil qiling
2. O’rganilayotgan mavzu bo’yicha taqdimot tayyorlang
3. Ushbu mavzuning kalit so’zlari uchun krossvord yarating.
4. Mavzu bo’yicha Internet-saytlar katalogini tuzing
5. O’rganilayotgan mavzu bo’yicha case study-ni ishlab chiqing.
6. Mavzu bo’yicha adabiyotlar bibliografiyasini tuzing.

4-mavzu bo’yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Matkarimova S. Fan va texnika tarixi. Ushbu yo’llanma. – Urganch, 2014.
2. Jo’rayeva S. 100 mumtoz faylasuf (taqdir, hikmatlar, aforizmlar). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2018.
3. Urakov D.J., Bijkuziyev A.A. va boshq. Jahon tarixi. I-tom II-qism Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi. Darslik. – Toshkent: Metodist, 2023. - 368 b.
4. Urakov D.J., Xolliyev A.G. va boshq. Jahon tarixi. I-tom I-qism Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi. Darslik. – Toshkent: Metodist, 2023. - 368 b.
5. Urakov D.J., Xaynazarov B.B. va boshq. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. Darslik. – Toshkent: NIF MSH, 2024. - 316 b.
6. Yakubov A. Fan va texnika tarixi. – Samarqand, 2024.

4-mavzu bo’yicha testlar

1. Rimning atoqli olimlari ko’rsatilgan qatorni toping?

- A) Varro, siseron, Manilius, Vitruviiy, Pliniy, Kolumella
- B) Pleni, Gomer, Essil, Vitruviiy, Aristotel, Gerofil
- C) Pliniy, Varro, Kolumella, Strabon, Yevklid, Fales
- D) Siseron, Ptolomey, Manilius, Gipparx, Anaksimandr

2. Mark Pollio Vitruviiy tomonidan ishlab chiqilgan loyihalarni toping?

- A) Fano shahrida qurilgan Bazilika va Rim akvedukilari
- B) Iskandariyada tashkil etilgan Museyon – ilmiy muassasasi
- C) Milet shahridagi Milet maktabi
- D) Afina shahrida joylashgan Platon akademiyasi

3. Quyidagi mashhur asarlardan qaysi biri yunon olimi Strabonga tegishli?

- A) "Geografiya"
- B) "Qonunlar to'g'risida"
- C) "Davlat to'g'risida"
- D) "Himmat haqida"

4. Rimning siyosiy arbobi va yozuvchisi bo'lgan Sitseron Mark Tulliy asarlari ko'rsatilgan to'g'ri javobni ko'rsating?

- A) "Davlat to'g'risida", "Qonunlar to'g'risida", "Majburiyatlar to'g'risida"
- B) "Yaxshilik va yomonlikning chegaralari to'g'risida", "G'azab haqida"
- C) "Davlat to'g'risida", "Himmat haqida", "Katilinaga qarshi nutqlar"
- D) "O'yalar", "Rahm-shafqat haqida", "Tavba", "Falsafa tasallisi haqida"

5. Rimning arbobshunos-faylasufi, yozuvchisi va davlat arbobi bo'lgan Seneka Lutsiy Anney asarlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

- A) "Himmat haqida", "Rahm-shafqat haqida", "Baxtli hayot haqida"
- B) "Ruhiy botirjamlik haqida", "Orator", "Ilohiy shahar haqida"
- C) "Lutsiyga axloqiy maktublar", "Davlat to'g'risida", "O'yalar"
- D) "G'azab haqida", "Majburiyatlar to'g'risida", "Qonunlar to'g'risida"

6. Rimning mashhur imperatori, faylasuf-stoik va yozuvchisi bo'lgan Mark Avreliy asarlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- A) "O'yalar", "O'zim to'g'rimda o'zim"
- B) "Ruhiy botirjamlik haqida", "Lutsiyga axloqiy maktublar", "Tavba"
- C) "Sevgi san'ati", "O'yalar", "Katilinaga qarshi nutqlar", "Ilohiy shahar haqida"
- D) "G'azab haqida", "O'zim to'g'rimda o'zim", "Majburiyatlar to'g'risida"

7. Avgustin Avreliy dunyoni nechta salanatga bo'ladi?

- A) 1. "Zamin shahri", 2. "Ilohiy shahar"
- B) 1. "Ilohiy shahar", 2. "Ideal shahar"
- C) 1. "Ideal shahar", 2. "Zamin shahri"
- D) 1. "Ilohiy shahar", 2. "Adolati shahar"

8. Rimlik faylasuf va davlat arbobi bo'lgan Boesiy qanday to'garakka asos soladi?

- A) "Falsafa do'stlari"
- B) "Qadriyatlar o'chog'i"
- C) "Notiqlik san'ati"
- D) "Madaniy va siyosiy bilimlar"

9. Rim she'riyatining "Oltin asri" nechanchi asrlarga to'g'ri keladi?

- A) Eramizdan avvalgi I asrning oxiri va eramizning I asri boshlari
- B) Eramizdan avvalgi I asrning oxirlari
- C) Eramizning I asri boshlari
- D) Eramizdan avvalgi II asrning oxiri

10. Rimda ijod qilgan mashhur shoirlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- A) Kvint Goratsiy Flakk, Publiy Ovidiy Nazon, Publiy Vergily Maron
- B) Publiy Ovidiy Nazon, Gomer, Mark Pollio Vituviy
- C) Tit Lukresiy Kar, Gerodot, Gay Pliniy Sekund
- D) Publiy Vergily Maron, Apollon Rodoskiy, Essil

**S-MAVZU: IX-XII ASRDA MUSULMON
UYG'ONISH DAVRI. SHARQ
ALLOMALARINING DUNYO ILMIY
TAFAKKURI TARAQQIYOTIGA
QO'SHGAN HISSASI**

Reja:

- 5.1. Islom mintaga xalqlari madaniy munosabatlarini bog'lovchisi sifatida. Musulmon Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlari.
- 5.2. Bag'doddagi "Bayt-ul-hikma" va unda dunyoviy fanlarning rivojlanishi.
- 5.3. Sharqda ilk madrasalarning vujudga kelishi. Samarqanda Ibrohim Tamg'achxon tomonidan ilk madrasaning bunyod etilishi. Buxorodagi Farjatk madrasasi.
- 5.4. Musulmon Sharqi olimlari asarlarida ilmlar tasnifi muammosi. Islom sivilizatsiyasining G'arbiy Yevropaga ta'siri.

Tayanch tushunchalar: Xorazmiylar, Buxoriylar, Termiziyilar, Nasafiyar. Samarqandiyar, Xoja Ahmad Yassaviy, Abduholiq G'ijdivoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, islom, ilm, Yusuf Hamadoniy, Mashhiy, Habash al-Hosib, Bayhaqiy, Is'hoq al-Buxoriy, Daqiqiy, As-Suxxayliy al-Xorazmiy, Abdulla Xorazmiy Abu-l-Fadl, Al-Xorazmiy al-Adoliy, Ahmad al-Axsikotiy, Saolibiy al-Muzaffar al-Naysaburiy, Rashiddiddin al-Vatvot, Zakariya al-Farobiy, "Bayt ul-hikma", falsafa, tabobat, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, diniy ilmlar, Dor ul-hikma, Imom G'azzoliy, Ibrohim Tamg'achxon.

5.1. Islom mintaga xalqlari madaniy munosabatlarini bog'lovchisi sifatida. Musulmon Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlari

IX-XII asrlar davri nafagat dunyoviy fanlarning yuksaklab borishi bilan, shu bilan birga islomiy madaniyat va ma'naviyatning shakllanib, chuqur ildiz otib borishi, bu sohada talay yetuk olimu ulamolarning yetishib chiqib, Vatanimiz sha'nini ulug'laganligi bilan ham tavsiflanadi.



Bayt ul-hikma

Islom dini Arabistonda vujudga kelgan bo'lsa-da, biroq yangi ilohiy ta'limot Markaziy Osiyoda ravnaq topdi va takomiliga erishdi. Musulmon dunyosiga Xorazmiylar, Buxoriylar, Termiziyilar, Nasafiyar, Samarqandiyar tahalluslari bilan ijod qilgan ko'plab noyob iste'dod sohiblarini yetishtirib berdi. Islom va uning asosiy ta'limoti aks etgan "Qur'oni Karim" g'oyalarining o'lka hayotiga kirib kelishi va keng yoyilishi, shuningdek, mahalliy xalqlarning musulmonchilik tamoyillari va udumlarini qabul qilishi hamda ularga e'tiqod bog'lashi davomida asta-sekin islom madaniyati shakllanib, chuqur ildiz otib bordi. Bunda shu yurt zaminidan yetishib chiqqan buyuk islomshunos allomalarning xizmati beziridir.

Bizning zaminimizdan yetishib chiqqan islom olamining buyuk siymolari: Ismoil al-Buxoriy Hadis ilmining asoschisi, Abu Iso al-Termiziy Hadis ilmining peshvolaridan, Abu Mansur Moturidiy Moturidiya tariqati asoschisi, Abu Mu'iyin an-Nasafiy Kalom ilmining yirik namoyandasi, Xoja Abduxoliq G'ijdivoniy Tasavvuf ilmining asoschilaridan, Najmiddin Kubro Kubraviya asoschilaridan, Xoja Ahmad Yassaviy tariqati asoschisi, Xoja Ahmad Yassaviy Yassaviya tariqati asoschisi, Bahouddin Naqshband Naqshbandiya tariqati asoschisi, Xoja Ahror Valiy esa Naqshbandiya tariqati ning yirik namoyadasidir. Yurtimizda islomiy madaniyatning yuksalib borishi barobarida uning ulug'vor g'oyalari, asl maqsadlarini keng tashviq, targ'ib qilish, ayniqsa hadis ilmini asosli tadqiq etish kuchayib bordiki, bunda sarzaminimizdan chiqqan gator buyuk muhaddis olimlarning xizmati katta bo'ldi.



Xoja Abduxoliq G'ijdivoniy muqbarasi

Hazrati payg'ambarimiz Muhammad Alayhivassalom nomi va u zoti sharifning muborak so'zlari bilan bog'liq "Qur'oni Karim" oyatlari mazmunini, mohiyatini teran tushunish va anglab yetishga muhim kalit bo'lib xizmat qiladigan hadissunoslik ilmi IX asrda jiddiy rivoj topdi.

Butun musulmon olamida eng ishonchli manbalar deb tan olingan 6 ta ishonchli Hadislar to'plami (As-sihoh as sitta) xuddi shu davrda yaratildi. Ular orasida Hadis ilmida "Amir al-mo'minin" degan sharaflari nomga sazovor bo'lgan Imom Ismoil al-Buxoriy (810-870) nomi yorqin ko'zga tashlanib turadi.



Imom Ahmad ibn Hanbal

Yuqsak aql-zakovat sohibi al-Buxoriy, Sharqning yirik ilmiy va ma'rifiy markazlaridan biri – Buxoro sharifida tug'ilib, juda erta yoshligidan diniy bilimlarni chuqur egallaydi. Imom Buxoriy o'z safarlari davomida turli shaharlardagi 90 ga yaqin ustozlardan ta'lim olgan. Imom al-Buxoriyning o'zi ham son-sanogsiz shogirdlarga ustozlik qilgan. U shogirdlari orasida Is'hoq ibn Muhammad ar-Ramodiy, Muhammad al-Masnadiy, Xalaf ibn Qutayba, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr



Al-Marwazi

al-Marvaziy, Imom Ahmad ibn Hanbal kabi zukko olimlar nomi alohida ajralib turadi. Imom Buxoriy go'zal insoniylik sifatlariga ega bo'lishi bilan birga uning quvvai xoffizasi, xotirasi ham nihoyatda o'tkir bo'lgan. Manbalarda Imom al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisi yod bilganligi qayd etilgan. Imom al-Buxoriy keyingi nasllar uchun o'zidan katta, boy ilmiy meros qoldirgan. Uning qalamiga mansub noyob asarlar ro'yxati 20 dan oshadi. Bu asarlar orasida

"Al-jome' as-sahih" asari (U "Sahiyh al-Buxoriy" nomi bilan ham yuritiladi) o'zining mukammalligi, ahamiyatining behoyaligi bilan ajralib turadi. Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. Eng muhimi shundaki, bu sharaflari ishini birinchi bo'lib al-Buxoriy boshlab bergan bo'lsa, keyinchalik boshqa olimlar unga ergashib, hadislar to'plamini yaratganlar. Imom al-Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" asari asrlar davomida butun musulmon dunyosida yuksak qadrlanib, necha bor nashr etilib, yer yuzi musulmonlari uchun dasturlamal qo'llanma bo'lib kelmoqda. Uning 1325 yilda ko'chirilgan 8 jiddan iborat mukammal

nus'hasi hozirda Istanbul (Turkiya)da saqlanmoqda. Uning asarlarida ifodalangan mehr-muhabbat, sahilylik, ochiq ko'ngillik, kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, beva-bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, halollik, pokizalikka da'vat etuvchi yuksak insoniy fazilatlar, olijanob tuyg'ular hamisha insonlarga ma'naviy oziqa bag'ishlab kelgan.

Imom al-Buxoriyning zamondoshi va shogirdi, o'z davrining mashhur allomasi – Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892) ham hadissunoslik ilmini yuksak bosqichga ko'targan yorqin siymolardandir. O'rta asrlar davrining yirik madaniy markazlaridan sanalgan Termiz shahri atrofiga (Bug' qishlog'i – hozirgi Sherobod tumani) tavallud topgan bo'lg'usi alloma o'z ona yurtida dastlabki ma'lumot olganidan so'ng O'rta Osiyoning Urganch, Buxoro, Samarqand kabi yirik shaharlarida bilimni takomillashtiradi. Bundan ham yetarli ganoat hosil qilmagan, hamisha tilga chanoq at-Termiziy Sharq mamlakatlariга sayohatga chiqadi. Shu tariqa, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka, Madina singari shaharlarda yashab, ilm-fanning turli sohalaridan-ilm alqiroat, ilm al-bayon, fikh, tarix va ayniqsa hadis ilmidan o'sha zamoning yirik ustozlari buzruklaridan ta'lim oladi.



O'sha davrda Imom at-Termiziyning o'zi ham yuzlab shogirdlarga mehribon ustoz bo'lib, ularning hadis ilmining bilimdonlari sifatida shuhrat topishlariga katta homiylik ko'rsatgan. At-Termiziydan bizgacha katta ilmiy merosi yetib kelgan. At-Termiziyning asosiy asarlari sirasiga "Al-Jome'" ("Jamlovchi"), "Al-ilal fi-l-hadys" ("Hadislardagi og'ishmalar"), "Risola fi-l-xilof va-l-jadad" ("Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola"), "At-tarix" ("Tarix") kabilarni nisbat berish mumkin. Biz timga olayotgan tarixiy davrning yana bir muhim jihati shundaki, bunda islom dini va uning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tadqiq etish hamda rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan, tasavvuf va tariqat ilmidan benazir bo'lgan vatandosh allomalarimiz faoliyatiga ham bir nazar tashlab o'tmog'imiz joiz bo'ladi.



Naimuddin Kubrro

O'sha davrda Imom at-Termiziyning o'zi ham yuzlab shogirdlarga mehribon ustoz bo'lib, ularning hadis ilmining bilimdonlari sifatida shuhrat topishlariga katta homiylik ko'rsatgan. At-Termiziydan bizgacha katta ilmiy merosi yetib kelgan. At-Termiziyning asosiy asarlari sirasiga "Al-Jome'" ("Jamlovchi"), "Al-ilal fi-l-hadys" ("Hadislardagi og'ishmalar"), "Risola fi-l-xilof va-l-jadad" ("Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola"), "At-tarix" ("Tarix") kabilarni nisbat berish mumkin. Biz timga olayotgan tarixiy davrning yana bir muhim jihati shundaki, bunda islom dini va uning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tadqiq etish hamda rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan, tasavvuf va tariqat ilmidan benazir bo'lgan vatandosh allomalarimiz faoliyatiga ham bir nazar tashlab o'tmog'imiz joiz bo'ladi.

Avvalo, tasavvuf – bu odamlarni halollikka, poklikka undovchi barcha musulmonlarning o'z halol mehnati bilan kun ko'rishini, boshqalar kuchidan foydalanmaslikni, jitmioy adolat qoidalariغا rioya etishni targ'ib etuvchi ta'limotdir. Unga' ajdodlarimiz – Xoja Ahmad Yassaviy, Abduholiq G'ijdivoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiyar ana shu ruhdagi g'oyalarni ilgari surgan edilar. Zero, "Yassaviya", "Kubraviya", "Naqshbandiya" tariqalarida insonlar Alloh yo'lida, haq yo'lida tinimsiz toatibodat, tavba-tazarri qilish barobarida ularning peshona terisini to'kib, halolu pok mehnat qilish, doimiy sa'y-harakatlarda bo'lishlari kerakligi urg'ulanadi. Jumladan, "Yassaviya" ta'limotida poklik, halollik, to'g'rilik, mehri-shafqat, o'z qo'l kuchi, halol mehnati bilan hayot kechirish, Alloh visoliga yetishish yo'lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashitirish kabi ilg'or unuminsoniy qadriyatlarining ifodalanganini ko'ramiz. Bu hol boshqa islomiy ta'limotlar uchun ham birdek xosdir.

Musulmon Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlari. Arablar VIII asrga kelib Markaziy Osiyoni istilo qildilar va ular o'z'lari bilan yangi din – Islomni olib keldilar va bosib olingan xalqlar orasida turli yo'llar bilan bu dini targ'atga boshladilar.

Bu davrda Markaziy Osiyo qadimgi Sug'd, Xorazm, Farg'ona, Ushrushana, Chag'oniyon kabi o'lkalardan iborat bo'lib, G'arb bilan Sharq manlakatlarini bog'lovchi "Ipak yo'li" markazida joylashgan va madaniy jihatdan ancha rivojlangan mintaqani tashkil etar edi.

Bosib olingan o'lkalarni boshqarish uchun halifalar tayin etila boshlandi. Islomning vujudga kelishi bilan bog'liq holda yangi shakllangan arab davlati – Halifat nomini oldi. VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyo ham arablar tomonidan (Qutayba ibn Muslim boshchiligida) bosib olinib, halifaga bo'yusundirildi. VIII asrning oxirlarida Atlantika okeanidan Tyan-Shangacha, Kavkazdan Hind okeanigacha bo'lgan ulkan hududda, turli tilda gaplashuvchi xalqlarni o'z ichiga olgan Arab imperiyasi vujudga keldi. Albatta, Markaziy Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishi osonlik bilan bo'lmadi. Ular bosqinchilik siyosatini yuritish bilan birga qadimgi madaniyat, dinlar, yozuvlar, bilimdonlarga qarshi ham keskin kurashni avj oldirdilar.

Islom orqali bu yerlarda arab tili va arab yozuvi ham targ'aldi. Qadimgi yozuvlar: xorazm, so'g'd, turk yozuvlari yo'qotilib, ularning himoya-chilari jazolandilar.

Arab bosqinchilariga qarshi Abu Muslim, Muganna, Hamza al-Xorij, Rafi ibn Layslar boshchiligida qator xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olonlar ayrim hollarda diniy tus oldi, ayniqsa, Muganna boshliq "Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni mustaqillik uchun olib borilgan uzoq yillik harakat sifatida xalq ongida chuqur iz qoddirdi. VIII asr oxiriga kelib Osiyoda arab halifaligining hukmronligi va islom dini uzil-kesil o'rnatilib, mustamlakaga aylantirildi.

Islom dini o'rnatilgan Osiyoning juda katta hududi keyinchalik musulmon Sharqi nomini oldi. Halifalik kuchsizdanib, fagat Yaqin Sharq doriasi bilan chegaralanib qolsada, islomning boshqa xalqlar orasida targ'alishi davom etdi.



Sug'ud

VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab islom ichida shialar, sunniylar, mutaziliylar, mutakallimlar, ismoiliylar kabi turli oqimlar vujudga keldi. XI asrlarda islom va boshqa ta'limotlar ta'sirida tasavvuf shakllandi va musulmon Sharqiga targ'aldi. Arab tili musulmon Sharqida, xususan Markaziy Osiyoda fors va turkiy tillarni chetlab o'tib, umumiy din va ilm-fan tiliga aylanib, turli xalqlar madaniyatining o'zaro aloqasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Arablar Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi boy vodiyni Movarounnahr deb atay boshladilar. VIII asr oxiri IX asr boshida halifalikning markazi Bag'dodda ilm-fan rivojlandi, qadimgi yunon olimlari Platon (Aftotun), Aristotel (Arastu), Sokrat (Sugrot), Gippokrat (Bugrot), Galen (Jolinus), Yevklid (Iklidus) kabilarining asarlari arab tiliga tarjima etildi. Xristian va islom olimlari o'rtasida hamkorlik ishlari amalga oshirildi. Halifa Xorun ar-Rashid o'limidan (813 yil) so'ng, uning o'g'li al-Ma'mun halifa etib tayinlandi. U ilm-fan, madaniyatga qiziqqan odam bo'lib, unga qadar halifalikning Markaziy Osiyo va Xuroson bo'yicha vakili sifatida Marvda (harobalari hozirgi Mari yaqinida)



Gippokrat

narsalarni o'rganish farzi ayndir. Har bir musulmon bu ishni qilishi shart, qilmagan odam gunohkor bo'ladi. Musulmonlar jamoasi uchun kerakli bo'lgan hunar va ilmlarni talab qilish esa, farz kifoyadir. Hayotning har bir sohasidagi barcha ilmlar bo'yicha yetarli mutaxassislarni tayyorlab olish Islom jamiyatining barcha a'zolariga farz bo'ladi. Ehtiyojni qondiradigan darajada va adadda mutaxassis tayyorlagan jamiyat a'zolari bo'yindan mazkur umumiy mas'uliyat soqit bo'ladi. Bu farz endi o'sha mutaxassislar zimmasiga o'tadi. Agar jamiyatda ularning sohasi bo'yicha kamchilik yuzaga kelsa, gunohi o'sha mutaxassislariga bo'ladi.

5.2. Bag'doddagi "Bayt-ul-hikma" va unda dunyoviy fanlarning rivojlanishi



Bag'doddagi "Bayt-ul-hikma"

O'rta asr Sharq xalqlari fani va madaniyati tarixida Bag'dodda bunyod etilgan "Bayt ul-hikma" so'zsiz, yirik ilmiy voqea sanaladi. "Bayt ul-hikma" o'zbek tilida "Hikmatlar uyi" degan mazmunni anglatadi. Bu iboradagi "hikmatlar" ortida o'sha davrdagi qator fanlar, jumladan, falsafa, tabobat, falakiyot, rivoziyot, adabiyot, diniy ilmlar tushuniadi. Binobarin, "Bayt ul-hikma" birinchi navbada, ushbu sanab o'tilgan fanlar qolaversa, boshqa fan yo'nalishlarida ham ish olib borilgan ilm va tarjimalar dargohi bo'lgan. Mohiyatan avvaliga kutubxona sifatida bunyod bo'lgan "Bayt ul-hikma" ko'p vaqt o'tmay, u yerda jamlangan kitoblarni arab tiliga tarjima qilish markaziga aylandi. Keyinchalik esa, bu markaz tevaragida o'z davrining eng yirik olim va tarjimonlari to'planib, ijod qildilar.

Ibn al-Qiftiyning bu markaz haqidagi fikrlari ham nihoyatda diqqatga sazovor. U shunday deb yozadi: "Haqiqatan, "Bayt ul-hikma" turli ilmiy yo'nalishlar markazi bo'lib, Horun ar-Rashid bu institut haqidagi fikrining ibtidosi edi. Uning o'g'li halifa al-Ma'mun bu ishni amalga oshirdi. "Fikmat" so'zi musulmon olimlarining fikriga ko'ra ilohiy ilmlar, hisob, tabobat va falakiyotni qamrab olgan". Bag'dod

halifalari Horun ar-Rashid va o'g'li Ma'mun tadqiqotlar olib borish, yangi ilmlarni kashf qilish borasida alohida e'tibor bilan qaraganlar. "Bayt ul-hikma"ni tashkil qilishda halifa Ma'mun 200 000 dinor sarflagani bunga yorqin dalil bo'ladi (1 dinor 4,25 gramm oltinga teng). "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlik uyi") dastaval halifa Horun ar-Rashid (hukmronligi mil. 786-809) davrida "Xizanat ul-hikma" nomi ostida kutubxona ochish bilan boshlangan. Kutubxonaga san'at va ilm-fanga oid turli tillardagi to'rt million jildan iborat noyob qo'lyozmalar va kitoblar to'plangan.

G'arb olamidagi kutubxonalar bilan qiyoslab aytadigan bo'lsak, IX asrda Konstanta kutubxonasida bor-yo'g'i 356 ta, XI asrda Benediktbeuerenda 100 ta, 1130-yili Bambergdagi kutubxonada undan o'zgina kamroq 96 ta kitob bo'lgan.

Horun ar-Rashidning 30 yillik hukmronligi davomida shunchalar ko'p kitob yig'ildiki, uning o'g'li halifa Ma'mun dastlabki binoga qo'shimcha ravishda imoratlar qurib kengaytirishiga to'g'ri keladi. Majmua qurib bitkazilgach, unga "Bayt ul-hikma" nomi beriladi va akademiyada turli-tuman ilmlarni o'rganish ishlari boshlanadi.

"Bayt ul-hikma" IX asrning o'rtalarida dunyodagi eng katta kutubxona bo'lgan. Majmua matematika, astronomiya, tibbiyot, kimyo, zoologiya, geografiya va kartografiya kabi ilmlar o'rganiladigan markaz hisoblangan. Halifa al-Ma'mun davrida "Bayt al-hikma" qoshida osmon jismlarini kuzatish uchun ikkita rasadxona ham bunyod etilgan. Birinchisi 828 yilda Bag'dodning ash-Shammosiya mintaqasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Qasiyun tog'ida 831 yilda qad ko'targan.

Ibn al-Faratinig so'zlariga ko'ra, kutubxonada noyob va bebaho kitoblar saqlangan bo'lib, ulardan istagan talaba kelib foydalanishi mumkin edi. Kitoblardan foydalanish jarayonida qog'oz va siyohdon bilan ham ta'minlangan. "Bayt ul-hikma" erkagu ayol bo'lsin, boshqa millat, boshqa din bo'lsin, dunyoning turli burchaklaridan kelgan ilmga oshno barcha uchun xazina bo'lgan. Ular yillar bo'yi izlagan narsalarini shu yerdan topganlar. "Bayt ul-hikma"da faoliyat yuritgan olimlar tez-tez bahs-munozara o'tkazish uchun yig'ilib turishgan. "Bayt ul-hikma"da olimlar bir necha tillarda so'zlashganlar va ma'ruzalar o'qiganlar.

Xunayn ibn Is'hoq tarjimonlar yetakchisi bo'lgan. U o'zing davrida bir nechta tilarda bemalol so'zlasha olgan. Olim juda ko'plab g'arb olimlarining asarlari o'qib, ularni arab tiliga o'giran. Bag'doddagi akademiyada faoliyat ko'rsatgan olimlar orasida Banu Muso ibn Shokir al-Munajjim (astronom), Yalyo ibn abu Mansur al-Munajjim al-Ma'mun (halifa Ma'munning astronomi), Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (matematik), Said ibn Horun al-kotib (yozuvchi), Xunayn ibn Is'hoq al-Ibodiy va o'g'ri Is'hoq, Sobit ibn Qurra va Umar ibn Farruhon al-Munajjimlar shuhrat qozongan. Bag'dodda muvaffaqiyat bilan ochildigan akademiyaning dovrug'i butun dunyoga jarangladi. Shu tufayli boshqa musulmon o'lkalarida ham mazkur ta'lim an'anasiga alohida e'tibor berildi. Natijada, 1005-yili Qohirada ham halifa al-Hakim tomonidan shunday Dor ul-hikma qad ko'tardi. U 165 yil davomida talabalarga ziyo ulashgan.

1258-yili Bag'dod mo'g'ullar xoni Xulagu tomonidan egallangach, "Bayt ul-hikma" buzib tashlangan, undagi noyob qo'lyozmalar daryoga oqizib yuborilgan. "Bayt ul-hikma"ga oid arxeologik ma'lumotlar juda oz saqlanib qolgan. U haqidagi asosiy ma'lumotlar tarixchi Tabariy va Ibn Nadinning manbalarida batafsil keltirilgan.

Ilm – o'zi nima? Ilm – bu haqiqatni voqe'likdagidek idrok qilishdir. Bugungi kunda diniy ilm, dunyoviy ilm degan so'zlarni ishlatayotganlar bir narsani tushunishimiz kerak. Ajdodlarimiz ilmlarni diniy yo dunyoviy deb ajratishmagan. Biz bugunga kelib, diniy ilmlar va dunyoviy ilmlar degan masalalarni ko'taryapmiz, aslida bir bunga boshqacharoq qarasaq, o'rinishroq bo'lardi. Din bilan ilmi, e'tiqodimizga qarshi qo'yish noto'g'ridir.

Alloh taolo Qur'onda 779 marta ilm kalimasini ishlatgan ya'ni ilmga targ'ib qilgan. Misol uchun Qur'oni Karimning birinchi surasi Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamga xiro tog'ida tushgan "Iqro" surasining boshidagi 5-oyati: 1. "O'qing (ey Muhammad! Butun borliqni) yaratgan zot bo'lmish Robbingiz ismi bilan! 2. (U) insonni laxta qondan yaratdi. 3. O'qing! Robbingiz esa karamlidir. 4. U insonga qalam bilan (yozishni ham) o'rgatdi. 5. U insonga bilimagan narsalarini bildirdi" deyilgan. Bundan tashqari

payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ilm haqida bir gancha hadisleri bor. Masalan: "Har bir mo'min musulmon kishiga beshikdan to qabrgacha ilm izlash farzdir" deganlar. Yana boshqa hadislarida esa "Bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro'zadan afzal" deganlar. Qani shu o'rinda ilmi dunyoviyga ajratayotganlar aytin qaysi dunyoviy kitobda ilmga bunchalik targ'ib bor? Biz Imom al-Buxoriy va Imom al-Termiziyalar bilan bir gatorada Ibn Sino, Ulug'bek, Beruniy, Xorazmiy, Zamahshariylar avlodi ekanligimiz bilan ham faxrlanamiz va bunga haqlimiz. Lekin ular din olimi bo'lganmi? yoki dunyo olimimi degan hayolga borishning o'zi noto'g'ri bo'ladi. Aslida bizning yurtimizdan o'tgan davrlarda shunchalar ko'plab olimi-ulamolarning chiqishi va dunyoga ustozlik qilganliklarining eng katta sabablaridan biri Bobolarimiz hammalari oldin yoshligidan Qur'oni yod olishgan. Diniy tarbiya olishgan, ya'ni dini puhta o'rganishgan. Misol uchun Mirzo Ulug'bekning "Ziji jadidi ko'ragoni" kitoblari haqida ko'p gapiramiz. U zot ushbu olamshumul kitoblarini nima bilan boshlaganlar? "Osmonlarda burjlarini yaratgan, Oy va Quyoshni yaratgan Alloh taolo aybu nuqsonlardan pokdir, ulug'dir muazzamdir" degan ma'noni beruvchi Qur'on oyati bilan boshlangan. "Biz Mirzo Ulug'bekning avlodimiz", deb maqtanar ekamiz, qachon e'tiqodimiz ham mustahkam bo'ladi", yoki bobomizga qachon loyiq nevara bo'lamiz? Hatto Amir Temur bobomizning "Temur tuzuklari" kitobi ham "Mehribon va rahimli Alloh nomi ila" boshlangan bo'lib, Amir Temur ham Qur'onsiz bir kuni o'lmagan. Chunki haqiqiy haqiqat shuki dunyo dinsiz bo'lmaydi! Yoki dunyo dinsiz turmaydi!

5.3. Sharqda ilk madrasalarning vujudga kelishi. Samarqandda

Ibrohim Tang'achxon tomonidan ilk madrasaning buniyod etilishi.

Buxorodagi Farjok matrasasi

Markaziy Osiyoda ilk fan markazlari madrasalar Somoniylar davridan qurilishi yo'lga qo'yildi. Buxoroda ayrim ma'lumotlarga ko'ra VIII asrda Kovushdo'zon bozori yonida Farjok madrasasi qurilgan. Madrasa bizga qadar saqlanib qolmagan. Buxoroda 937 yilda yong'in

natijasida bezirib tashlangan. Ikk madrasalardan bir Samarqand- dagi Tamg'achxon (1040-1068) madrasasi haqidagi vaqf hujjatida (1950-yillarda topilgan) ma'lumot berilgan. Uning faoliyati to'g'risida boshqa ma'lumotlar yo'q. Shu davrda Samarqandda Mahmud Qoshg'oriy va Yusuf Boloso'g'uniy ijod qilgan. Hukmdorning buyrug'i bilan aholiga bepul tibbiy xizmat ko'rsatadigan shifoxona tashkil etildi.

Qoraxoniylar sulolasi vakillari orasida Ibrohim Tamg'och Bog'rxon ahvolda e'tiborga ega. Manbalarda qayd etilishiga ko'ra u mamlakarda zo'ravonlikka yo'l qo'ymagan, aholining manfaatlariga mos siyosat yuritgan hamda ularning hurmatini qozongan ideal hukmdor edi. Samarqand shahrida qurilgan bir qancha yirik binolar uningbuyrug'i bilan berpo etilgan. Ularning qatorida uning farmoni bilan madrasa (Navbahor darvozasi yonida) va shifoxona (Rivdar ko'chasida) qurildi. Shifoxona harajatlarini ta'minlash uchun shaharning beshta karvonсарo'yi vaqf mulkiga o'tkazildi.

Madrasalarda milliy ziyolilar tayyorlangan. Ularning xon, eshon va xususiy turlarimavjud edi. Muassis uni ta'minlash uchun maxsus mulk - vaqf ajratib, muavviali tomonidan boshqarilgan. O'quv yurtiga maktabxonani tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo'lgan. Talabalar yotoqxonada yashash huquqiga ega kunduzgi va darslarga erkin qatnovchi sirtqi bo'lim talabalar toifalaridan iborat edi. O'quv dasturlari X-XII asrlarda ishlab chiqildi va takomil- lashtirilib borilgan. Mashg'ulotlar, odatda, sentabr oyida boshlanib, may kashitirilib borilgan. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod oyigacha olib borilar edi. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod nomozidan keyin) boshlangan. Madrasalarda ta'lim 3 bosqichda: boshlang'ich (adno), o'ra (avsat) va yuqori (a'lo) guruhlarda olib borilgan. Adno bosqichi "Aqoid" kitobini o'qishga o'g'uncha davom etgan, avsat bosqichi "Aqoid" kitobini o'qishdan boshlanib, "Sharti mulla" kitobini o'rganuncha bo'lgan va undan keyingi murakkab qo'llanmalarni o'rganuvchilar a'lo bosqichi talabalari hisoblangan. O'qish talabalar iqidoriga qarab, 7-12 yilni tashkil etar edi. Talabalar arab va fors tilida yozilgan kitoblardan foydalananganlar. O'quv kursi, odatda, "Avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasi o'zlashtiriladi. Keyin arab tili grammatikasi (arab tili morfologiyasi -

sarfi va sintaksisi-nahvi "Bidon", "Ko'fiya" kabi darsliklar asosida) sarfi va sintaksisi-nahvi "Bidon", "Ko'fiya" kabi darsliklar asosida) o'qitilgan. Arab tili grammatikasidan so'ng o'quv kursi ikki bo'limga: unumta'lim kursi - mushkulot va fiqh kursi - masala bo'limlariga ajratilgan. Fiqh kursining faroiz - meros huquqi qismi bilan bigra matematika fani ham majburiy o'quv kursiga kiritilgan. Talabalar o'z xohish-istaklari va qobiliyatlariga qarab mushkulot yoki masala bo'limlaridan birini, agar istasalar har ikki bo'limni o'qib tamomlashlari mumkin. Madrasalarda to'liq kursni o'qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 darslik - qo'llanmani o'zlashtirish zarur edi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri vujudga kelishi uchun barcha shart-sharoit mavjud bo'lib, uning natijasida ijtimoiy hayotda katta o'zgarishlar amalga oshirildi.

XI asr o'rtalarida Buyuk Qoraxoniylar saltanati ikki qismga G'arbiy va Sharqiy xonliklarga ajralib ketadi. Movarounnahr, Buxoro va Samarqand bilan Farg'onaning G'arbiy qismlari G'arbiy hogo'nlk taktig'a kirib, Tamg'achxon unvonini olgan Qoraxoni'y, Tamg'ach Bug'roxon Abu Is'hoh Ibrohim ibn Nasr Qoraxoniylar saltanatining G'arbiy qismining poytaxtini O'zganddan Samarqandga ko'chirdi hamda Sharqiy Qoraxoniylardan mustaqil davlat siyosatini olib bora boshladi. Qoraxoniylar (990-1212 yy.) davlati Sharqiy Turk hogo'nligi, Uyg'ur, Qarluq davlatlarining ingitirozi davrida tashkil topgan ulkan imperiya davlati bo'lib, uning asosiy xalqi o'troqlashgan turklardan iborat edi. Ularning yoppasiga islom dinini qabul qilishlari Bag'dod yilnomasiga ko'ra 950-yillar deb ko'rsatiladi. Ammo Movarounnahr turklarining musulmon dinini qabul qilishlari VIII asr boshlarida, G'arbiy Turk hogo'nligi davridayoq yuz bera boshlagan deb hisoblaymiz.

Samarqand Qoraxoniylarining birinchi hukmdorlaridan bo'lgan Ibrohim Tamg'achxon (hukumronlik yillari - 1052-1068) Bo'ri Tegin o'ta dindor, musulmon dini va madaniyatini qat'iq turib himoya qiluvchi hukmdor bo'lib, u tarixiy manbalarda: "...buyuk hogo'qon adolatlarni quvvatlovchi, davlat tayanchi, millatning toji, zafar quchuvchi, muhtaram podshoh, Alloh taolloning halifasi, mo'minlar amiri va qilichi" sifatlari bilan ulug'langan.

tadqiqotida keltirilishicha, vaqfnomalardan parchalar ilgari ham fransuz, rus tillarida M.Xadr, O.D.Chevovich, A.A.Semenovlar tomonidan amalga oshirilgan, jumladan, ushbu satrlar muallifi ham dashtlab shunday fikrda bo'lgan.

Ammo manbashunos tarixchi olim K.Kattayev to'g'ri ta'kidlaganidek, bu ikki madrasa qurilgan davri bo'yicha 100 yil farq qilib, ikki turkiy sulolaning ikki madrasasidir. Qadimiy vaqfnomaga ko'ra, Ibrohim Tamg'achxon madrasasi Qusam ibn Abbos maqbarasining g'arb tomoniga joylashgan bo'lsa, - deb yozadi olim, Sulton Sanjar tomonidan qurilgan.

Qusamiya madrasasi Samarqand qal'asi devori yaqinida tepalikda qurilgan, bular umuman boshqa-boshqa madrasalardir. Hozirda Ibrohim Tamg'achxon madrasasi ham arxeologik jihatdan ham vaqfnomalar bo'yicha tadqiq etilgan bo'lsa, "Qusamiya" madrasasi o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Endi N.Nensevaning arxeologik tadqiqotlari I.I.Bekmirzaev tarjima qilgan vaqfnoma ma'lumotlari asosida fikr yuritsak, avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, madrasa, honaqoh va boshqa binolar mo'g'ullar hukmronligi davridan oldingi davrga oid ilk ilim-maskanlaridan bo'lib, u 44x55 metr o'lchamli, bir qavatli, kirish portali – hashamatli 12-13 metrlar atrofida, uning sharqiy yoni-devori Qusam ibn Abbos kompleksining g'arbiy qismidan 6-8 metrlar chamasi uzozlikda bo'lgan, to'rt ayvonli, ikki gumbazli, saroy-ayvon kompozitsiyasidagi bino bo'lgan. Olima N.B.Nemseva uning madaniy qatlam ostida saqlanib qolgan poydevorlari asosida to'la ko'rinishini tiklagan. Vaqfnomada keltirilishicha, madrasa Masjid, darsxonalar, Qur'on ta'limi uchun mo'ljallangan kutubxona, Qur'on o'qishni o'rgatadigan muallim o'tiradigan joy, odamlarga ta'lim-tarbiya beradigan, xalqaxonalar bo'lgan, hovli-joyli bir madrasa bo'lgan. Uning Shohi-Zinda majmuasida madaniy qatlam shaklidagi xarobalari tadqiq etilganda tuzilishi yanada aniqlanib, quyidagilardan, ya'ni "Machit, darsxona (dars al ilm) – ilm bilan shug'ullanadigan joy; Qur'oni o'qish joyi (maktab); Qur'on o'qiladigan yirik, katta xona bino (majlis mukra); "Odob" darsi o'qiriladigan bino, xona (majlis); hovli atrofidagi kichik xonalar – hujralar; hovli (sahab) va bog' (bo'ston) qismlaridan iborat bo'lgan.

Vaqfnomada ham o'sha davr tarixiy toponomikasiga mos holda madrasa o'rni aniq keltirilgan: "Madrasa tomonlarining bir cheti ko'chaga, ikkinchi tomoni esa Tarxonbekning qizi Malika xotunga tegishli hovliga tutashgan. Uchinchi tomoni ahli ilmlar o'tiradigan uylarga (vaqf qilingan uylarga) hamda Malika xotunga qarashli karvonsaroyga, to'rtinchi tomoni shaxsiy hovli va amir-Nizomuddavla honaqohi, Malika Turkon xotuning hovllariga tutash" bo'lgan.

Vaqf hujjatiga ko'ra, 5 ta karvonsaroylar hujralari bilan, xonalar, o'choqxona, og'lixona, pichanxona hamda to'rtta savdo do'konlari, Jarma'ad qishlog'idagi barcha dehqon uylari, tikuvchilik uyi, uzumzorlar, omborxonalar ekinzor va g'allazorlar, ularga tutashib kelgan yaylovlar madrasaga vaqf qilingan. Ekinzor yerlar bir yiliga ijara olinishi, foydalanish maqsadida o'n sakkiz oydan oshiq bo'lmagan muddatga shartnoma bilan foydalanilishi mumkin.

Hujjatning keyingi qismlarida vaqf mulklaridan keladigan daromadlar – pullarning ish boshqaruvchiga, Mudarrisga (360 dirham bir yilda) tolibi ilmlarga nafaqa (stipendiya) tarzida to'lash uchun (18.000 dirham) hujjatda talabalarga beriladigan nafaqa oyiga 30 dirhamdan oshmasligi, barcha mudarris va muallimlarga xodim va xizmatchilarga beriladigan yillik maoshlar miqdori belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, har bir ashur oyida ushbu puldan 50 miskin va kambag'allarni kiyintirish hamda ularga ziyofat uyushtirish uchun 1000 dirham ajratilgan. Vaqfnomaga ko'ra, unga ajratilgan vaqf mulklardan tushgan pul daromadlari yana quyidagi kishilarga bo'lib berilgan: Vaqf mulklarini boshqaruvchiga, Abu Hanifa mazhabi bo'yicha dars beradigan Mudarrisga va uning izdoshlari bo'lgan tolibi ilmlarga (ularga beriladigan pul mudarrisning xohishi bilan ozaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin bo'lgan), talabalarga belgilangan pulni tarqatishga mas'ul shaxsga, odob-axloqdan dars beradigan tartibchiga, Qur'ondan dars beradigan muallimga, odamlarga Qur'on o'qib beradigan Qur'on rivoyatlari va qiroat imidan xabardor bo'lgan Qoriga (Qur'on o'quvchilar to'rtta) Madrasa, xonaqoh, masjid va tolibi ilmlarning darsxonalarini, qandil, chiroq, moychiroqlar uchun, ramazon oylarida beriladigan ziyofatlar, go'sht va non mahsulotlari uchun, Ramazon oyida

bo'ladigan Xatmi Qur'on kechalarida har yili yoqiladigan sham va chiroqlar uchun, Qurbonlik kunlarida, sotib olishga arziydigan, Qurbonlikka yaraydigan mol sotib olish uchun berilgan. Madrasa hovlisini supurih-sidirib chiroqlarni yoqib turadigan mas'ul ikki xodimga, mudarris tomonidan fiqhni biladigan kishilar orasidan tanlanib madrasa va xonqohga javobgar, unda doimiy yashaydigan kishiga, bu ishni mudarris ikki kishiga ham topshirishi, birinchisi, kutubxonaga ikkinchisi, boshqa ishlarga mas'ul bo'lishi mumkin.

Ya'ni, ushbu parchada vaqfdan tushgan daromadlarning taqsimlanishida madrasa va xonqohga mas'ul xodimlar soni aniqlanadi. Madrasaning barcha ishlari moliyasini boshqarish Abu Tohir Abd ar-Rahmon ibn Hasan al-G'azzoliyga topshirilgan.

Buxorodagi Farijak madrasasi. Islom dini ilm dinidir. Payg'ambarimiz alayhissalomga nozil qilingan Alaq surasining avvalgi besh oyati bo'lib, ilm olishga buyurilgan. Rasullulloh sallallohu alayhi vasallam davrida masjidlar qurilgan. Mazkur masjidlar ham ibodatgoh, ham ta'lim maskani vazifasini bajarib, ilm majlislari shu yerda tashkil qilingan. Islom dinining VII asrda Movarounnahrda, xususan Buxoro zaminiga kirib kelishi natijasida Buxoroda masjidlar qurildi. Ushbu masjidlarda dastlab ilm majlislari olib borildi.

Masjidlarda ko'p sonli Buxoro ahlining ibodatlarini ado etishi va ilm majlislari (subhatlar, bahslar, munozaralarda) ishtiroki alohida ta'lim maskani qurish zaruratini yuzaga keltirdi. Shunga ko'ra islom olamidagi ilk madrasa Buxoroda IX asr boshida hanafiy mazhabfi faqihlaridan Abu Hafs Kabir Buxoriy (767-832 yy) rahnamoligida asos solingan. Bu madrasa manbalarida "Forjak" madrasasi deb zikr qilingan. Madrasa so'zi arab tilidan olingan bo'lib, lug'atda: "dars o'qiladigan joy, darsxona" ma'nolarini bildiradi. Musulmon mamlakatlarida o'rta va oliy diniy o'quv yurtlari "madrasa" deb atalgan. Movarounnahr va Xurosonda, Shom, Ko'fa, Bog'dod, Hijoz, Misr kabi o'lkalarda minglab madrasalar ishlab turgan.

Ushbu madrasalarda ilmlar diniy va dunyoviylikka ajratilmasdan, Qur'on, hadis, fiqh, aqida kabi ilmlar qatorida falsafa, tibbiyot, jug'rofiya, handasa, adabiyot kabi bir nechta fanlar o'qitilgan. Mana shu

madrasalarning ibtidosi Buxoro zaminida yuzaga kelishi yuksak e'tirofga sazovordir.

Ushbu "Forjak" madrasasi tarixi ko'pgina manbalarida "Abu Hafs madrasasi" deb, zikr qilinadi. Jumladan: Tojiddin Subukiyning "Tabaqot ash-shoffiya al-kubro", Ibn Kasirning al bidoya van nihoya asarlarida. Nishopurlik olim, Muhammad ibn Ahmad ibn Ali ibn Shahriyoh Abu Bakr Al-O'zi Al-Farisiy (hijriy 361/971 yil vafoti) Nishopurda bir muddat imom bo'lib, so'ng Buxoroga kelib, "Abu Hafs madrasasi"da dars berganligi ta'kidlanadi. Bu madrasa ko'pgina Imom Buxoriy, Ibn Sino, Farobiy va juda ko'plab Buxoro zaminiga kelib ilm olgan kishilarga ilm maskani sanalgan.

Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida keltirilishicha, Abu Hafs tomonlaridan asos solingan "Forjak" madrasasi 937 yil Buxoroda sodir bo'lgan katta yong'in oqibatida yonib ketganligi quydagicha hikoyat qilinadi:

"Hikoyat. Yana Amiri sa'id Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil davrida uch yuz yigirma beshinchi yil rajab oyida (may-iyul 937) Buxoroga o't tushib hamma bozorlar kuydi. O't bir halimpazning do'konidan boshlangan. U do'kon Samarqand darvozasida bo'lib, halimpaz halim qozoni tagidagp kulni tomga olib chiqib, tomda chuqurlik bor ekan, uni to'lg'izmoqchi bo'lgan, kul orasida bir bo'lak cho'g' bor ekan, halimpaz uni sezmagani va shamol cho'g'ni olib borib qamishdan yasalgan bir uyga uingan. U uyni o't olib, undan hamma bozorlarga o't ketgan va Samarqand darvoza mahallasi butkul kuygan. Olov osmonda bulutdek suzib yurgan. "Ko'yi bikor" — "Qizlar ko'chasi", bozorning timchalari, Madrasayi Forjak, kovushdo'zlar timi, sarroflar va bazzozlar bozori, (xullasi) Buxoroning ana shu tomonida to anhor labiga borguncha nimaiki bo'lsa hammasi kuygan. Bir parcha olov sachrab Masjidi Moxni o'ti oldi va u (ham) tomonan yonib ketdi. Olov ikki kecha-kunduz yonib, buxoroliklar uni o'chirishdan gijz qoldilar, ko'p mashagat chekdilar va nihoyat, uchinchi kuni o'chirdilar. U yog'ochlar tuproq tagida bir oygacha kuyib turdi. Buxoroliklarga yuz ming dirxamdan ortiq ziyon yetdi. Shundan keyin Buxoro imoratlarini hech qachon unday (ilgarigisidek) qilib qura olmadilar".

Madrasalar haqidagi dastlabki ma'lumot X asrda yashagan Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida uchraydi. Madrasalar Sharq me'morchilik san'atining ajoyib an'analarini o'zida mujassamlashtirgan. Odatda ular to'rtburchakli bo'lib, atrofi devor bilan o'ralgan. O'rtada ayvon, hovlining gir aylanasi bo'ylab darsxona, mudarris, masjid imomi, mutavalli uchun xonalar qurilgan. Hujralarning eshik va derazalari madrasa hovlisiga qaragan. Derazalarga oyna qo'yilmay, yuqqa oq qog'oz yopishtirilgan. Issiq ovqat hujradagi o'choqda tayyorlangan. Qishda hujralarga sandal o'rnatilgan. Har bir madrasada albatta yon-atrofdagi namozxon aholi ham sig'adigan masjid bo'lgan. Madrasalar ko'pincha uni qurgan odam, joy nomi yoki oxirgi marta ta'mir qilgan kishining ismi bilan atalgan. Shayhulislom va qozikalon madrasalar ustidan umumiy rahbar hisoblangan. Mutavalliboshi esa madrasaning xo'jalik faoliyatini nazorat qilib borgan va vaqf mulkidan maosh olgan.

Ilm olish istagidagi har bir kishi mulkiy holatidan qat'iy nazar, madrasaga kirib o'qishi mumkin bo'lgan. Hozirgi O'zbekistonning barcha shahar va qishloqlarida o'nlab madrasalar qurilgan va ishlab turgan.

Diniy rahnamolar, eshonlar, pirlar qurdirganlari eshon madrasalar deyilgan. Keyingi davrlarda yirik yer egalari, boylar, savdogarlar tomonidan qurdirilgan madrasalar xususiy madrasalar bo'lgan. Bundan tashqari, vaqf mulkining miqdori, daromadi va hujralarning soniga qarab, madrasalar yirik, o'rta va masjid madrasalarga ham bo'lingan.

Madrasalarda o'qitiladigan ilmlarning to'liq tizimi XI-XII asrlarda shakllangan. Madrasalarning o'quv dasturidan arab tili grammatikasi, morfologiyasi (sartf), sintaksisi (nahvi), etimologiya, notiqlik, din tarixi, g'iroat ilmi va munozara madaniyati, ilohiyot va qonunshunoslik, hadis, fiqh, aqoid, meros taqsimoti, falsafa, mantiq, riyoziyot (matematika), jo'g'rofiya, geometriya, tib ilmi, kimyo va boshqa fanlar o'rin olgan. Talabalarga fiqh (islom huquqshunosligi) mukammal o'rgatilgan. Islom fiqhi musulmonlarning huquq va burchlarini bayon qilib, shaxsiy va jamiyat hayotidagi tartiblarni qaror toptirgan. Bu ilm hayotdagi hamma masalalarni aniq va tushunarli yechib bergan.

Madrasalarda mantiq ilmlarning debochasi deb qaralgan. Bu fan "Shamsiya" va "Sulla" asarlari asosida o'rgatilgan. E'tiborga sazovor joyi shundaki, madrasalarda qadimgi yunon va hind falsafasi asosida shakllangan falsafa darsini o'qitish alohida o'rin egallagan. Bundan tashqari madrasalarda hadis va Qur'on tafsiriga oid Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Qozi Bayzoviy va Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk olimlarning kitoblari o'qitishga ham alohida ahamiyat berilgan.

Madrasalarda aniq dars jadvali bo'lmagan. Dars vaqti ham mudarris va talabalarning o'zaro kelishuvi asosida belgilangan. Darslar asosan bomidod namozi o'qilganidan so'ng boshlangan. O'quv haftasi ikkiga – tahsil (shanba, yakshanba, dushanba, seshanba) va ta'til (chorshanba, payshanba, juma) kunlariga bo'lingan. Madrasalarda o'qish 20-25 yilga cho'zilsa ham, o'zlashtirish talabi qat'iq bo'lib, agar talaba bir kitobni yaxshi o'rganib, sinovdan o'tmasa, unga navbatdagi bosqichda o'qish nasib etmagan.

Madrasada ta'lim beruvchi mudarrislar soni turlicha bo'lgan. Madrasalarning katta-kichikligi, vaqf mulki va talabalar soniga qarab bir, ikki mudarris ishlaydigan madrasalar ham bo'lgan. Madrasalarning asosiy qismi yirik shaharlarda joylashgan. Keyinchalik Farg'ona vodiysida (Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, O'sh), Shahrisabz va Kirob shahrida, Xivada ham bir qator madrasalar bunyod etiladi. Hattoki, kichikroq shaharlar va qishloqlarda ham ko'plab madrasalar ochilib, faoliyat yuritga boshlaydi.

5.4. Musulmon Sharqi olimlari asarlarida ilmlar tasnifi muammosi. *Islom sivilizatsiyasining G'arbiy Yevropaga ta'siri*

Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad Tusiy Abu Homid G'azzoliy Tus viloyatining (hozirgi Mashhad) Tobaron nomli shaharida hijriy 450-sanada tavallud topganlar. Otasi ahli solih va kambag'al odam bo'lib, jun yigirish bilan kun ko'rar edi. U, ulamolarni sevar, hurmat qilar va ularning xizmatida bo'lib, imkoni boricha ularga mol ham sarflar edi. Ulamolarning suhbatlarini tinglaganda, yig'lab o'tirar va Allohdan



Abu Homid G'azzoliy

o'ziga olim bo'ladigan o'g'il tilar edi. Alloh taolo uning duosini ijobat qildi va unga bir emas, ikki o'g'il berdi. Ota o'g'illaridan biriga Muhammad, boshqasiga Ahmad ismini qo'ydi. Vafotidan oldin ota o'g'illarini o'zining so'fiy og'aynisiga-vasiyat qilib qoldirdi. So'fiy ularning ta'lim-tarbiya siga kirishdi. Bu ish belalarning otasi qoldirgan mol tamom bo'lguncha davom etdi. Pul tugagandan Keyin so'fiy ularni boga olmay qoldi va "Men sizlarga olangiz qoldirgan molni sarfladim. O'zining pulim yo'q. Endi sizlar madrasaga borib yashasangiz, yaxshi bo'ladi", - dedi.

G'azzoliy yoshligida ona yurtida Ahmad ibn Muhammad Rozkoniyan fiqh ilmini oldi. So'ngra Jurjonga safar qilib, imom Abu Nasr Ismoilning huzurida ta'lim oldi va ko'plab narsalarni yozib oldi. O'sha yozib olingan narsalari o'sha vaqt tilida "Ta'liyg'a" deb nomlanar edi. Keyin G'azzoliy ona yurti Tusga qaytdi. Yo'lda ajoyib hodisa yuz berdi. U haqda G'azzoliyning o'zi quyidagilarni aytdi:

"Yo'lho'sarlar yo'limizni to'sdilar va ular mening bor-budimni olib qo'ydilar. Kelayotganlarida orlaridan ergashdim. Shunda ularning boshig'ini menga qarab: "Organgga qayt! Sho'ring qursini! Bo'lmasa, halok bo'lasan!" - dedi. "Men Undan salomatlikni tilaydigan Zot nomi bilan so'rayman, faqat ta'liyqalarimni qaytarib ber. Baribir, sizlarga ulardan foyda yo'q", - dedim.

"Ta'liygang nima?" - dedi u.

"Anavi xalqadagi kitoblar. Men ana o'shalarni eshitaman, yozib olaman va ichidagi ilmni olaman deb hijrat qilganman", - dedim. U kulib yubordi-da:

"Qandog' qilib sen ulardagi ilmni bilibsan? Biz ularni sendan tortib oldik-ku! Sen ulardan judo bo'lding! Ilmingdan ajrab qolding!" - dedi. So'ngra u odamlaridan biriga amr qilgan edi, u xalqani menga qaytarib berdi. O'sha odamning tili bilan Alloh taolo meni to'g'ri yo'lga irshod qilishni iroda qilgan bo'lsa, ajab emas. Tusga yetib borganimdan keyin, uch yil harakat qilib, barcha ta'liyqalarimni yod olib, yo'lho'sarlar ilmimni tortib ololmaydigan bo'lib oldim.

Keyinchalik G'azzoliy o'sha paytda saljuqiylarning poytaxti va Bag'doddan keyingi katta ilmiy markaz hisoblangan Naysoburgga borib,

eng mashhur ulamolardan biri bo'lgan Imomi Haramayniga shogird tushdi. G'azzoliy bu ulug' ustozning huzurida o'ta tirishqoqlik bilan o'qib, fiqh, usul, xilof va jadal kabi zamoning keng tarqalgan ilmlarida peshqadam olim bo'lib yetishdi.

G'azzoliy Imomi Haramayni juda ham yaxshi ko'rar va uni maqlab: "G'azzoliy tubsiz dengizdir", der edi.

Hijriy 478-sanada Imomi Haramayni vafot etganidan keyin G'azzoliy yigirma yetti yoshida vazir Nizomulmulkning oldiga bori. O'sha vaqtda G'azzoliyning fazli zohir bo'lib, ilmiy shuhrati dong taratgan edi. Nizomulmulkning majlisi esa ahli ilming oliy kengashiga aylangan edi. Barcha majlislarda, hatto molam marosimlarida ham fiqh, ilmi kalom va boshqa ilmlardan munozaralar bo'lar edi.

G'azzoliy Nizomulmulkning majlisida ko'plab ulamolalar bilan bahs va munozaralar qilib o'zining kimligini namoyish qildi. Hamma unga tan berdi. Oxiri, vazir Nizomulmulk G'azzoliyning "Nizomiya" madrasasining bosh mudarrisi etib tayinladi. Bu o'sha vaqtning eng obro'li diniy mansabi edi. G'azzoliy bu mansabga hijriy 484-sanada, o'ttiz to'rt yoshida erishdi va bunday sharafiga sazovor bo'lgan eng yosh olim bo'ldi.

"Nizomiya" madrasasidagi darslar olimning shuhratiga shuhrat qo'shdi, uni imomlik darajasiga olib chiqdi. Imom G'azzoliyga na'fatat ahli imlar, balki ahli davlatlar va ahli hukmlar ham bo'yin egdilar. Xalifalar ham imom G'azzoliyga yaqin bo'lishga intildilar. Abbosiy xalifalardan Muqtadiy billah u kishidan ba'zi ishlarni iltimos qildi. Xalifa Mustazhir billah imom G'azzoliyning o'ziga do'st tutar edi. Uning iltimosiga binoan imom G'azzoliy botiniylarga raddiya kitobini yozdi va kitobni "Mustazhiriy" deb nomladi.

Shundog' qilib, imom G'azzoliy barcha tarafdin obro'-e'tiborning cho'qqisiga chiqdi. U kishi uchun bu dunyoda intilishi mumkin bo'lgan mansab, martaba, shuhrat yoki ulug'lik qolmagan edi. Bugungi kun ta'bir bilan aytilganda, inson bolasining qo'li uzatgan yerga yetadiganiga aylangan edi.

Ammo imom G'azzoliyning ko'ngillari g'ash edi. U kishi hali ilmi yaqiyng'a erishmagan edi. Ichlarida nafsoniy kurash borar edi. Hamma

haqiqatni anglab yetishga harakat qilardi. Shuning uchun, barcha shon-shuhratdan o'zini olib qochib, chuqur va atrofiicha ilmiy bahslar va izlanishlar olib borishga qurur qildi. Bu maqsadga erishish uchun Bag'dodni tark qilib, to'liq saodatni izlab ilmiy safarga chiqdi.

Imom G'azzoliy o'sha vaqtda odamlar mashg'ul bo'lib turgan ilmlarni birma-bir o'rganib chiqish uchun ularga nazar soldi. O'sha paytda odamlar, asosan, ilmi kalom, botiniyya, falsafa va tasavvufga qiziqar edilar. Imom G'azzoliy mazkur ilmlarni chuqur egallashga va ulardan qaysi birini tanlash maqsadga muvofiq ekanini aniqlashga kirishdi.

Nizomulmulk "Nizomiya" madrasasini o'z hisobidan qurdirib, bolalarni o'qitar ekan. Bir kuni u sarflayotgan mablag'lari xayr kelitirayptimi-yo'qmi, bolalar nima uchun ilm o'rganayotganini bilish uchun madrasaga kelib, tolibi ilmlarni so'roqqa tutibdi. Vazirni yuzidan tanimagan bolalar rostini aytishibdi.

- Mening olam muftiy, bir kun otam o'lsa, o'rniga men muftiy bo'laman, - debdi bir bola.

- Men mahkamada ishlaydigan qozining o'g'iliman. Ilm o'qiyversam, bir kuni men ham otamning o'rniga qozi bo'laman, - debdi ikkinchi bola.

- Ularning javobidan xafsalasi pir bo'lgan Nizomulmulk mening xizmatlarim zo'ye ketyapti ekan, madrasani yopaman degan niyadda xonaqohdan chiqayotib, kitob o'qib turgan kichkina bolani uchratibdi. Undan ham nimaga ilm o'rganayotganini so'rabdi.

- Aqliy va naqliy dalillar bilan menga ma'lum bo'ldiki, bu dunyoning Egasi bor ekan. U zotning bandalari ustiga to'xtovsiz rahmatlari yog'iltarkan. Uning ne'matlari hech qachon uzilmas ekan. Shuncha ne'matlari shukriga biz ham U zotni rozi qilishimiz kerak ekan. Dunyolar sohibi bo'lgan Zotni qanday rozi qilsa bo'lar ekan, deb ilm o'rganayapman, - debdi haligi bola.

Shunda Nizomulmulk xursand bo'lib, birgina bolaning niyati sofligi menga kifoya qiladi, madrasani aslo yopmayman, degan ekan. O'sha aqli javob egasi Imom G'azzoliy edilar.

Islom sivilizatsiyasining dunyo mamlakatariga ta'sirini o'rganish chun dastlab uning xususiyatlariga e'tibor qaratushimiz talab etiladi.

Uning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Dunyoviy ma'rifatga intilish;

- O'rinishda xalqimizning erishgan yutuqlaridan keng ko'lamda

foydalanish;

- Tabiatga murojaat qilish, uning boyliklarini o'rganish, uning sirlarini ochishga va ulardan foydalanishga intilish;

- Ratsionalizm, gumanizm, universallik, gommusiylik;

- Islomning ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolish.

- Islomning ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolish.

- Islomning ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolish.

Sharq Uyg'onish davri G'arbiy va Sharq Uyg'onish davrining atqoli vakillari gumanizm falsafasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Ular vakillari imkoniyatlariga ishongan, uni olamning yeng yuksak ijodiy insonning imkoniyatlariga ishongan. Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari arab namunasi deb bilgan. Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari arab halifaligida shon-sharaf qozongan allomalarning madaniy an'analari davomchisi edi. Uyg'onish davri adabiyotning atqoli vakillari ijodi tilarning rivojlanishi va boyishiga yordam berdi. Markaziy Osiyoning yirik markazlari sifatida nom qozongan Samarqand va Hirot shaharlari fan va san'at markaziga aylandi. Ular madaniyatning rivojlanishida Sharqiy Florensiya vazifasini bajardilar.

Uyg'onish davri san'ati badiiy obrazlarda gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam yetgan O'rta Asrlar davrida va qolaversa bugungi kunda ham faylasufar, shoirlar va rassomlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmogda. Uyg'onish davri atqoli vakillarining ijodi insonning qadr-qimmatiga bo'lgan ishonchi butun dunyoda demokratik qadriyatlarining bosqichma-bosqich o'rnatilishidagi xizmati beqiyos. Uyg'onish davri san'ati vaqt oralig'ini "bosib o'tdi" va bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini saqlab qoldi, chunki u har doim odamlarni hayajonlantiradigan abadiy mavzularni ko'taradi. Uyg'onish davri o'rta asrlardan to hozirgi zamongacha bo'lgan o'tish davri edi. Bu san'atning gullab-yashnashi, fanlarning shakllanishi, kitob bosib chiqarishga o'tilishi davri edi. Uyg'onish davrida qadimgi madaniyat va demokratiya idealari va qadriyatlarini qayta tiklandi. Odamlar insonparvarlik, erkinlik, tenglik kabi qadriyatlar haqida o'yay boshladilar.

Musulmon Uyg'onish davri mutafakkirlari aniq fanlarni rivojlantirishda katta yutuqga erishib, G'arbda fan va texnikani yuksalishi uchun

zamin tayyorladi. Muso Xorazmiyning "Ziji al-Xorazmiy", "Al kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobila" va "Al-jam va tafrik bi-hisob al-hind" asarlari XII asrlarda ehet el olimlari tomonidan o'rganilib, lotin tiliga ham tarjima qilingan. Ular uch asrdan so'ng Yevropada astronomiya, matematika, jug'rofiya, meditsina fanlarini tarqalishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Allomaning asarlari Yevropada keng tarqalgan bo'lib, darslik sifatida foydalangan. Rim papasi Silvestr II buyrug'i bilan Xorazmiy raqamlari Yevropada joriy qilindi, ammo uning keng tarqalishi XIII asrga taalluqlidir.

Professor B.D.Petrovning yozishicha: Yevropani Aristotel ta'limoti bilan tanishtirish xizmati Farobiyga taalluqlidir. U boy meros qoldirdi. Asarlarida falsafa fanining asosiy tamoyillari, bilish nazariyasi, mantiq, psixologiya, tabiat va insonlarning o'zaro munosabatlari masalalari o'z yechimini topgan. Uning asarlari Ovrupada mashhur bo'lgan. Farobiy "al-muallim al-soniy" degan fahriy unvonga sazavvor bo'ldi.

Falsafada Farobiy asos solgan yo'nalishni deyarli to'liq qabul qilgan, davom ettirgan va takomillashtirgan olim Ibn Sinodir. Mutafakkir Sharqda "shayx" yoki "shayxur-ra'is" ilmiy unvoni bilan e'zozlanadi. Ibn Sino o'z davri ilmining deyarli hamma sohalarini bilan shug'ullangan qomusiy mutafakkirdir. Uning "Al-Qonun fit-tib" asari jahon miqyosida shuhrat keltirdi. Ibn Sinoning "Qonun"i shuhrati jahonda tez tarqaldi. U Yevropaning hamma universitetlarida to XVIII asrgacha tibbiyot bo'yicha asosiy qo'llanma sifatida xizmat qilib keldi. Uning musiqqa haqidagi ta'limoti Yevropa musiqqa fanining poydevorini tashkil etdi. Ibn Sino o'rtta asrlarda Gippokrat va Gelen bilan bir galorda eng buyuk shifokor deb hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy butun umrini ilm-fanga sarfladi. Fanining turli sohalarini yuqori darajaga ko'tardi. Olimning astronomiyadagi ulkan xizmatlari joylarning jug'rofiy uzunligi, kengligini aniqlash usullari, astronomiya o'lchovlarini aniqlashni ishlab chiqish, geofitsentrizm g'oyasini tadqiq qilish kabilaridir. Geodeziya muammolarini hal etishda katta ishlar qildi. Yerdagi turli masofa va azimutni aniqlash usulini ishlab chiqdi, yer hajmini o'lchadi. Matematikada sinus va tangenslar jadvalini ishlab chiqdi. Jug'rofiy olim sifatid dunyoda birinchi bo'lib yer tasviri,

yani globusni yaratdi. Bularidan tashqari geologiya, minerologiya sohalarida birinchi bo'lib mineral va madanlar og'irligi, ularni aniqlash metodlarini ishlab chiqdi, formakogeneziya sohasida katta ishlar qildi. Bir qancha mashhur asarlar yaratdi. She'riyat haqida tadqiqotlar yaratdi.

Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining qadimiy davrda va o'rtta asrlar tarixini ilmiy jihatdan ishlab ko'rsatdi. Jahon fani va madaniyatining yaratilishida barcha xalqlarning hissaları bor. Markaziy Osiyo ham bashariyat sivilizatsiyasi rivojiga ulkan ulush qo'shgan. O'rtta asrlarda ushbu hududdan ko'plab allomalarning yetishib chiqqanligi hamda bir necha ilmiy maktab, markaz va akademiyalarning faoliyat yuritgani mamlakatimizning bashariyat fani rivojida faol ishtirokidan dalolat beradi. XI asrda asos solingan Xorazm Ma'mun akademiyasi mana shunday markazlardan biri edi.

2006 yil 2 noyabrda Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yiliga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov nutq so'zlab, uning ahamiyatini yuqori baholadi va "Bundan ming yil avval Xorazm zaminida "Dorul-hikma" deb atalgan Xorazm Ma'mun akademiyasining paydo bo'lishi bu ko'hna vohada necha-necha asrlar mobaynida kechgan buyuk tarixiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning qonuniy hosilasi va natijasi, desak, ayni haqiqatni aytilgan bo'lamiz", - dedi.

Shunday qilib, XI asr boshida Markaziy Osiyo, xususan, Xorazmda kimyo sohasida bu ilmining keyingi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan muhim ilmiy natijalar qo'lga kiritildi. X-XI asrlarda Markaziy Osiyoning Buxoro, Samarqand, Gurganch kabi yirik madaniyat va ilm markazlarida o'z davrining peshqadam olimlari tib sohasida antik mualliflarning asarlaridan olingan nazariy bilimlarini mahalliy ilmiy an'ana elementlari bilan boyitgan holda ulkan ishlarini amalga oshirdilar.

Xususan, bu vaqtda Xorazmdagi tibbiy bilimlarning shakllanishi va rivojiga Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Muhammad al-Xorazmiy (IX-X), Ma'muniylar davrida esa al-Masihiy, Abu-l-Xayr Hammor, Abu Ali Ibn Sino hamda Abu Rayhon Beruniylar beqiyos hissa qo'shganlar. Xulosa qilib aytganda, dunyoviy ma'rifatga intilish, insonning

imkonitlariga ishonch, insonparvarlik, qomusiylik, universallik, dinining ijtimoiy hayotdagi o'rmini mustahkamlash orqali Musulmon Renessansi jahon fani rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Mustaqil ta'lim uchun

1. <https://youtu.be/0e0nbVV1zkk?si=V7izgIWuMdwmmZFG4> havolasi orqali "O'zbekiston tarixi" telekanalida efitrga uzatilgan "Ma'mun akademiyasi" mavzusidagi "Mavzu" ko'rsatuvini ko'ring va o'z fikringizni bildiring.



2. <https://youtu.be/R25yUWcTYy?si=1CoPHXmOFEKFEZn> havolasi orqali "O'zbekiston tarixi" telekanalida efitrga uzatilgan "Birinchiligi uyug'onish davri" mavzusidagi "Buyuk siymolar" ko'rsatuvini ko'ring va tahlil qiling.



Glossariy

Geliotsentrizm – (yunon tilidan. *helios* – quyosh va lotin tilidan *centrum* – markaz). Quyoshni sayyoralar harakatlanadigan markaz sifatida qabul qildigan nazariya.

Gumanizm (Humanizm) – (lotin. *humanitas* – "insoniylik", "odamiylik") insonni oliy qadriyat deb baholovchi dunyoqarashdir. Humanizm axloqning dinga bog'liq bo'lib qolishiga qarshi chiqadi, zero din insonni g'ayritabiiy mavjudotlar borligiga ishonitirib, ularga hayotni to'g'ri anglash g'oyasini singdiradi. Humanistlar dunyoviy axloq normalarini targ'ib etishadi.

1. Nima sababdan Markaziy Osiyo ilm-fanida yuz bergan yuksalishni musulmon Renessansi deb ataladi?
2. Nima sababdan Arab halifaligida johiliya davri ilmiy yutuqlarini qayta tiklashgahomiylik qilindi?
3. Nima sababdan islom aholi madaniyati, tili, an'ana va urf-odatlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa ham uning mohiyatini o'zgartira olmadi?
4. Musulmon Renessansining xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Nima sababdan Musulmon Renessansi davrida fan rivojiga katta hissa qo'shgan olimlarni mutafakkirlar deb ataymiz?

Mustaqil ishlar mavzusi

1. Ushbu mavzu bo'yicha tarixiy manbalardan birini tahlil qiling.
2. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlang.
3. Ushbu mavzuning kalit so'zlarini uchun krossword yarating.
4. Mavzu bo'yicha Internet-saytlar katalogini tuzing.
5. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha solit test-ni ishlab chiqing.

5-mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Немсева Н.Б. Медресе Тамгач-Богра-хана в Самарканде (Из археологических работ в ансамбле Шахи-Зинда). В книг.: Афрасиаб вып. № III. – Т.: Фан, 1974. – С. 99-145, 130, 134, 139.
2. Valixo'jayev B. Samarqandda Oliy ta'lim madrasasi oliya – universitet tarixidan lavhalar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2001. – B. 184.
3. Komilxon Kattayev. Samarqand madrasalari va ilmiy fan rivoji. – Samarqand: Zarafshon, 2007. – B. 9-16.
4. Hasanov A. O'limshda madrasa ta'limi. // Islom nuri, 2020. - № 16.
5. Xolmurodov R. Birinchi Renessans allomalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 192 b.
6. Sadullayev A., Sotliqov A. Xorazm Ma'mun akademiyasining tarixiy idizlari. – Urganch, 2003.
7. Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. – T.: O'zbekiston, 2020. - 424 b.

5-mavzu bo'yicha testlar

1. "Qur'oni Karim" necha yil davomida nozil bo'lgan?
 - A) 23 yil
 - B) 24 yil
 - C) 25 yil
 - D) 26 yil
2. "Qur'oni Karim" birinchi bo'lib nechanchi yilda kim tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi?
 - A) 1991 yil Alouddin Mansur
 - B) 1992 yil Ziyauddin Mansur
 - C) 1991 yil Abdulaziz Mansur
 - D) 1992 yil Zaxriddin Mansur
3. Hadis ilmidagi "Amir al-mo'minin" degan sharafli nomga sazovor bo'lgan muhaddis alloma kim edi?
 - A) Imom al-Buxoriy
 - B) Imom at-Termiziy
 - C) Imom G'azzoliy
 - D) Imom al-Moturidiy
4. Horun ar-Rashid hukmronligi davridagi kutubxonani toping?
 - A) "Xizanat ul-hikma"
 - B) "Bayt ul-hikma"
 - C) "Bayt ul-donish"
 - D) "Xazinat ul-donish"
5. "Nizomiya" madrasasi kim tomonidan qurdirilgan?
 - A) Nizomulmulk
 - B) Imom al-Buxoriy
 - C) Xorun ar-Rashid
 - D) Ismoil Somoniy
6. "Al-jome' as-sahih" asari kimga tegishli?
 - A) Imom al-Buxoriy
 - B) Imom al-Moturidiy
 - C) Imom G'azzoliy
 - D) Imom at-Termiziy

7. Yusuf Hamadoniy ta'limoti asosida qanday tariqat vujudga keladi?
 - A) "Xoiagon" tariqati
 - B) "Yassaviya" tariqati
 - C) "Kubrovviya" tariqati
 - D) "Naqshbandiya" tariqati
8. Qaysi halifa davrida "Bayt ul-hikma" qoshida osmon jismlarini kuzatish uchun ikkita rasadxona bunyod etiladi?
 - A) Halifa al-Ma'mun davrida
 - B) Halifa Tohir ibn Husayn
 - C) Halifa al-Ma'mun
 - D) Halifa an-Nasr
9. 1005-yili "Dor ul-hikma" gaysi halifa tomonidan bunyod etiladi?
 - A) Halifa al-Hakim tomonidan Qohirada
 - B) Halifa Horun ar-Rashid tomonidan Bag'dodda
 - C) Halifa an-Nasr tomonidan Damashqda
 - D) Halifa al-Ma'mun tomonidan Qohirada
10. Buxoroda IX asr boshida Abu Hafs Kabir Buxoriy tomonidan qanday madrasaga asos solinadi?
 - A) "Forjak" madrasasi
 - B) "Tang'achxon" madrasasi
 - C) "Nizomiya" madrasasi
 - D) "Ulug'bek" madrasasi

6-MAVZU: MARKAZIY OSIYOLIK
 ALLOMALARNING BASHARIYAT ILMIY
 TARAQIYOTIGA QO'SHGAN ULUSHI

Reja:

- 6.1. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk daholar. Fan va texnika tarixida "Daholik fenomeni".
- 6.2. Imon al-Buxoriy va uning "Al-Jome' as-sahih" asari.
- 6.3. Abu Iso Muhammad al-Termiziy va uning "Al-Jome'", "Ash-Shamoil an-Nabaviya" kabi asarlari va ularning musulmon olamidagi ahamiyati.
- 6.4. Qaffol ash-Shoshiy buyuk musulmon qonunshunosi.
- 6.5. Abu Mansur al-Moturdiy kalam ilmining bilimdonlaridan.

Tayanch tushunchalar: Markaziy Osiyo, buyuk daholar, daholik fenomeni, buyuk muhaddis allomalar, hadis ilmi, olin davr, Imon al-Buxoriy, "Al-Jome' as-sahih", Abu Iso Muhammad al-Termiziy, "Al-Jome'", "Ash-Shamoil an-Nabaviya", Qaffol ash-Shoshiy, Abu Mansur al-Moturdiy, kalam ilmi, Moturdiyva oqimi.

6.1. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan buyuk daholar. Fan va texnika tarixida "Daholik fenomeni"



Muso al-Xorazmiy

Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy (783-850 yy.). Buyuk mutalakkir va olim al-Xorazmiy-ning arifmetika va algebraga doir "Kitob al-jabr val muqobala" (To'ldirish va qarama-qarshi qo'yish haqida kitob) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo'ldi. "Hind arifmetikasi haqida kitob" asari tufayli avval Sharq xalqlari, so'ngra esa Yevropa xalqlari ham Qadimiy Hindistonning katta yutug'i-o'nlil pozitsiyasi hisoblash sistemasi bilan tanishdilar.

"Kitob surat al-arz" (yerning surati) asari Al-Xorazmiyning "Astronomik jadvallari" astronomiyaga oid bo'lib, ular geografiyaga, "Astronomik jadvallari" astronomiyaga oid bo'lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, "Quyosh soatlari to'g'risida risola", "Tarix risolasi", "Usturlab haqida risola", "Musiqqa risolasi" singari ajoyib asarlari olimga katta shuhrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi. Al-Xorazmiyning "Al-jabr val muqobala" asari keyinchalik Yevropada "Algebra" deb yuritila boshlandi. Uning astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki G'arbda ham astronomiya fani rivojida katta rol o'ynadi.

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Al-Farg'oniy (taxminan 798, Farg'ona – 865, Misr). Al-Farg'oniyning tarjimai holiga doir ma'lumotlar tarixda kam saqlanib qolgan. Al-Farg'oniy astronomiya, matematika, geodeziya, gidrologiya fanlarining bilimdoni Bag'dod va Damashqdagi rasadxona qurilishlarida faol g'atnashdi va u yerda Ptolemeyning "Yulduzlar jadvali"dagi astronomiyaga oid "Astronomiya negizlari" asarida astronomiyaga oid ma'lumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Ahmad al-Farg'oniy astronomiyaga oid "Astronomiya negizlari" asarida astronomiyaga oid bilimlarni tartibga soldi, o'zining yangi natijalari bilan boyirdi. O'sha davr an'anasiga muvofiq manlakatlarni etti iqlimga bo'lib urgandi. Quyosh soatlarini bayonini berdi, astronomik asboblari yaratdi. Quyosh soatlarini bayonini berdi, astronomik asboblari yaratdi. Farg'oniyning bu asari Nikolay Kopernik davriga qadar Yevropada astronomiya fanidan asosiy qo'llanma sifatida foydalanildi.



Ahmad al-Farg'oni

Abu Nasr al-Farobiy (873-950 yy.). Abu Nasr



Abu Nasr al-Farobiy

Farobiy O'trorda tug'ilgan, boshlang'ich ma'lumotni Shosh, Buxoro, Samarqandda olgan so'ng Bag'dodda uzoq yashab, zamonasining olimlari bilan ilmiy mulog'otda bo'lgan. Ilmning turli sohalariga oid 160 dan ortiq risolalar yozgan. Uning musiqqa nazariyasiga bag'ishlangan "Musiqqa haqida katta kitob" nomli mashhur asari bu soha tarixiga bag'ishlangan eng dastlabki tarixiy manbalardan biridir. Abu Nasr Farobiy serqirra, qomusiy olimdir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy.) Beruniy Xorazmda tavallud topgan bu mutafakkir, serqirra olim astronomiya, tarix, tibbiyot, rivoziyot, jug'rofiya, geodeziya, meteorologiya, etnografiya, falsafa, filologiyaga oid 150 ga yaqin asarlar yaratgan. Bu asarlar Beruniy nomini jahonga taratdi. Shuningdek, uning



Abu Rayhon Beruniy

hikoyalar, she'rlar bitganligi ham ma'lum. Beruniy o'rta asrda birinchi bo'lib globusni yaratdi. U arab, fors, hind turkiy tillarni mukammal bilgan. Uning "Farmokanaziya", "Geodeziya", "Hindiston", "Minerologiya", "Ma'sud qonuni", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarlari o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Maxmud G'aznaviy saroyda ham xizmatda bo'lgan. U Ibn Sino bilan ham zamondosh edi.



Abu Ali Ibn Sino

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yy.) Ibn Sino falsafa, mantiq ruhshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyat, musiqa, geologiya, minerologiya, fizika, matematika, tibbiyot, astronomiyaga oid yuzlab asarlar yaratdi. Abu Alining ilmiy qiziqishlari doirasi shu qadar keng bo'lganki, uning 40 dan ziyod tibbiyotga, 30 ga yaqin astronomiya va tabiatshunoslik fanlariga, 185 ta falsafa,

mantiq va ijtihotga bag'ishlangan asarlar yaratgani ma'lum. *Ahmad Yassaviy (1105-1165 yy.)* Ahmad Yassaviy Yassi (Turkiston) shahrida tug'ilgan. Olasi Ibrohim Sa'yram shahrida ko'p yillar shayxlik qilgan. Ahmad Yassaviy asli kelib chiqishi Toshkentdan bo'lgan mashhur turk mashoyixi Arslonbob Toshkandiyydan tahsil olgan. Uning valofidan so'ng Yusuf Hamadoniydan ilm o'rgangan. Yassaviydan bizgacha yetib kelgan yagona meros – bu uning "Devoni hikmat"idir. Unda Yassaviyning sermazmun xikmatlari, munofiatnomasi, "Faqmoma" risolasi o'z aksini topgan. Ahmad Yassaviy tasavvufda Yassaviya tariqatiga asos soldi.



Ahmad Yassaviy

Sulaymon Bagdirg'omiy (1186 yilda vafot etgan). Ahmad Yassaviyning munosib shogirdi, uning ishini davomchilaridan biridir. Xorazmning

Bagdirg'on degan joyida tug'ilgan. Turkiy xalqlar orasida hakim ota laqabi bilan ham mashhur bo'lgan. Uning din va tasavvuf, ishq va ahloqdan saboq beruvchi asarlari butun Turkiston hududlarida sevib o'qilgan. Uning "Bagdirg'on kitob" nomli yirik asari keyingi yillarda o'zbek kitobxonlariga ham e'tib keldi.



Najmiddin Kubro

Najmiddin Kubro (1145-1221 yy.) Shoir va olim.

O'rta Osiyodagi yirik sufiylik ogimi – Kubraviyaning asoschisi. Xiyada tug'ilgan. O'rta va yaqin Sharq o'lkalariga, O'rta Osiyo, Hindiston, Eron, Afg'oniston hududlariga keng tarqalgan ogimdir. U o'zining qator risolalarida Kubraviya birodarligi goidalarini ishlab chiqargan. Najmiddin Kubro 76 yoshida Urganchga hujum qilgan Mo'g'ullarga qarshi lashkar to'plab chiqib xalqni hujumga boshlab borgan. Islom dinining mamlakada asosiy din sifatida tan olinishi, boshqa diniy e'tiqodlarning oyoq-osti qilinishi, mehnatkash xalq ommasi turmush tarzining og'irlashishi, ularning orasida bo'lib ularni og'irini yengil qilishga yordam beruvchi g'oyani qidirishga majbur qila boshladi. Bu g'oya tasavvuf g'oyasi bo'ldi.

Imom Ismoil al-Buxoriy (810-869 yy.) Buyuk hadisshunos olim Imom al-Buxoriy hayoti davomida 600 ming hadis to'plab, ulardan 7275 hadisni o'zining 4 jildlik "Ishonarli to'plam"iga kiritdi. Islom dunyosining yirik olimi, hadisshunoslikda eng yuqori pog'onaga chiqqan Imom Ismoil al-Buxoriyning 1205 yiligi 1998 yil xalqaro miqyosda tantanali nishonlandi va u vatol etgan Samarqand atrofidagi Chelak shahrida nihoyatda hashamatli ziyoratgoh qurildi. Bu erga jahonning turli joylaridan minglab odamlar ziyoratga kelmoqdalar.



Imom al-Buxoriy

Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-894 yy.) Islom dunyosida mashhur bo'lgan hadischi olim Imom at-Termiziy Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida tug'ilgan. 26 yoshidan boshlab Samarqand, Buxoro, Xijoz, Iroq, Nishopur shaharlarida mashhur muhandis olimlar bilan uchrasha boshladi. Uning buyuk hadischi olim bo'lib, yetishishida Imom Ismoil al-Buxoriy ustozligi katta o'rin tutadi. Umrini hadislar to'plashga

bag'ishlagan At-Termiziydan katta ilmiy meros, jumladan: "Kitobi al-Jom' e as-sahih", "Kitob ul ilm", "Kitobi al-Tamoyili an-Nabaviy", "Kitobi az-zuxl", "Kitobul ismi val xuma" kabi asarlar qolgan.

Burxoniddin Marg'inomiy (1197 yilda vafot etgan). To'liq ismi Burxoniddin Marg'inomiy Ibn Abu Bakr al-Farg'oniy al-Rishtoniy. Burxoniddin fiqh ilmiya (din, shariat haqidagi fan) oid bir nechta risolalarni "Bidoyatul muhtadiy" (ilmga-kirishuvchi dastlabki asos) "Al mazid" (zvyoda qilish) "Kitobul faroz" (farzlar haqida kitob) va boshqa asarlarni yozib qoldirgan. Burxoniddin Marg'inomiyning "Hidoya fi furu' al-fukh" (Fikh sohalari bo'yicha qo'llanma) asari 56 kitobdan iborat bo'lib, bu asar shariat kodeksi deb ataladi.

Fan va texnika tarixida "Daholik fenomenini" tushunchasiga to'xtalib o'tishdan oldin dahlo, daholik va fenomen kabi tushunchalariga ta'rif berish lozim bo'ladi. Dahlo – bu dunyoning rivojlaniruvchi, ilm-fan ingilobchisi, inson uchun bargaror farovon hayotni tufha qilishga qodir bo'lgan favqulodda tafakkur sohibi hisoblanadi. U o'zgarimas qarashlar, g'oyalari va mafkuralarni ijodiy tusga kirita oladi yoki uni butunlay parchalab yuborishi mumkin. U barcha tamaddunlarning murabbiysidir.

Daholik esa, intellektual yoki ijodiy faoliyatning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Bu ularning ajoyib ilmiy kashfiyotlar, ijtimoiy-falsafiy g'oyalar, texnik va texnologik ixtirolar, noyob adabiyot va san'at asarlari yaratishda namoyon bo'ladi.

Dahlo aql-idrok, tezkor fikr yuritish qobiliyati va kuchli iroda fazilatlariga ega bo'ladi. Uning har bir izlanish va harakatlari mahsuli insoniyat taraqqiyotiga samarali, ijodiy ta'sir etib, fan etikasi qoidalarida yangi sahifalarni yaratadi. Qadimgi Rim mifologiyasida "Ihom, iste'dod" kabi so'zlar ma'nolari dahlo terminini bilan bog'langan.

Xususan, Oktavian Avgust davrida o'ta nodir fazilatli, ko'plab yutuqlarga erishgan, tug'ma qobiliyat sohiblariga nisbatan qo'llanila boshlangan. Aftotun daholarni xudolar va odamlar o'rtasidagi vositachilardir degan. Ular bevosita xudolarning "ichki ovoz" orqali so'zlarini eshitib yoki tushida ayon bo'lgan topshiriqlarni odamlarga yetkazgan. Shuningdek, ularni so'z san'atining egalari, mastona shoirlar ham deb atashgan. Oddiy obyektning she'rda juda go'zal va ulug'vor

qilib tarflashganiga – daholar uchun berilgan ma'budlar inomi deb bilishgan.

Vaqtlar o'tgani sari ilohiy daholar saifga amaliy san'at vakillarini ham kirgizishib, ularni ulug'lash boshlangan. Haykaltarosh, rassom, bosh yo'nuvchi, duradgor va so'z ustalaridan notiq, yozuvchi, go'shigchi, sozanda hamda sarkarda va quruvschilar orasidan ong mahoratilarini dahlo darajasiga olib chiqishgan. Biroq, cherkovning bosimi susayishi va zarbli madaniyatlar to'qnashuvi sodir bo'lmaguncha XIX asrgacha daholik nazariyalarini alohida tadqiq etishga hech kim jazm etmagan. Fagatgina Immanuel Kantdan boshlab o'ta iste'dodli va qobiliyati odamlarni daholar deb tarflashi, ilk "daholik" g'oyalari haqida bosh qotira boshlashgan.

Dahlo (arabcha) – favqulodda kuchli aql, xotira va ijodiy iste'dod egasi, bilim saviyasi va dunyogarashiga ko'ra o'z davri darajasidan ilgari ketgan shaxs tushuniladi. Daholar fan-texnika, madaniyat, xususan badiiy ijodiyot sohasida muayyan millat, davlat miqyosida emas, balki umumbashariy, jahon miqyosidagi muhim kashfiyotlar qilishga, ilmiy, badiiy asarlar yaratishga qodir bo'ladi. Masalan, Markaziy Osiyo hududidan yetishib chiqqan Ibn Sino (tabobat), Farobiy (falsafa, matematika), Xorazmiy (matematika), Beruniy (matematika, astronomiya, geografiya), Farg'oniy (astronomiya, matematika, geografiya), Imom Buxoriy (hadis ilmi), Imom al-Termiziy (hadis ilmi), Ahmad Yassaviy (tasavvuf) va boshqa bir qator benazir allomalimiz ilm-fanda, e'tiqodda buyuk kashfiyotlar yaratganlar. Ularni haqli ravishda buyuk daholar deb atasak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'z navbatida bunday buyuk daholar tomonidan yaratilgan nodir asarlar muayyan sohada juda katta burilish yasagan va yangi yuqori bosqichlarga o'tish uchun xizmat qilgan. Chunki, ular ilgari ilm-fanda, ijodda muallago nomajum yangiliklarni ochganlar. Daholik buyuk iqtidor va yuksak ijtimoiy ong mahsuli ham hisoblanadi. Qadimda daholik (geniallik) ilohiy marhamat sifatida baholangan.

Fenomen (yunoncha "phainomenon" – sodir bo'luvchi) bu – g'ayri-oddii, kamdan kam bo'ladigan hodisa, dalil demakdir. Fenomen – his-tuyg'u tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi falsafiy

tushunchadir.

Fenomen tushunchasini Aristotel "ko'rinuvchi", "tuyuluvchi" ma'nosida ishlatgan. Leybnis esa bu so'zni tajribadan ma'lum bo'lgan dalillarga nisbatan qo'llagan. Immanuel Kant esa fenomen tushunchasi yordamida mohiyatni hodisadan keskin ajratishga uringan va hodisani bilish mumkin, mohiyatni esa bilish mumkin emas deb hisoblagan.

Mutafakkirlar uzoq vaqtdan beri dahollik tabiati haqida o'ylashgan. Dahollik, ehtimol, eng sirlı hodisalardan biridir. Dahoning tug'ilishini rejalashtirish yoki bashorat qilish mumkin emas, bu har doim to'satdan sodir bo'ladi va, qoida tariqasida, insoniyat tarixida chuqur iz qoldiradi. Bunday odamlar ilm-fan, san'at va hayotning boshqa muhim sohalari haqidagi har qanday g'oyalarni o'zgartirishga qodir. Har birimiz ularning ismlarini bilamiz: Volfgang Amadeus Mozart, Isaak Nyuton, Leonardo da Vinchi, Logann Gyote, Blez Paskal – bu insoniyat rivojiga ta'sir ko'rsatgan daholalarning bir nechtasi.

Ushbu hodisaning tabiati uzoq vaqt davomida yaqindan o'rganilgan, ammo asl savolga ham aniq javob yo'q: daho nima?

Daho fenomeni nima? Dahoni rivojlantirish mumkinmi? Daho va iqtidor va iste'dod o'rtasidagi farq nima? Daholar tug'iladimi yoki bo'ladimi? Bu va boshqa masalalar kitobsevarlarning "chuqur o'qish" mavzusiga aylandi.

6.2. Imom al-Buxoriy va uning "Al-Jome' as-sahih" asari

Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan IX asrda hadishunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan. Chunonchi, butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan olita ishonchli hadislar to'plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar.

Imom al-Buxoriyning hayot yo'li. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810 yil, Buxoro – 870 yil, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'i) – islom olamining yirik mutafakkiri va buyuk muhaddisidir. Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislaridan, Molik ibn Anasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot

etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan. Imom al-Buxoriy 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (sav)ning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi.

Taniqli muhaddislar – al-Doxiliy, Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azzaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan keyingina ham hadis safarga o'tlanishi mumkin edi. Imom al-boshqa shahar yoki mamlakatga safarga o'tlanishi mumkin edi. Imom al-Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, halifalikning turli viloyatlari tomon yo'l oladi.

Imom al-Buxoriy 825 yili onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o'zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan mashoyixlarning ilmiy yig'ini qatnashadi. 827 yili Madinaga boradi. Madinadagi mashur ulamolardan Ibrohim ibn al-Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan mulog'otda bo'lib, ulardan hadislar bo'yicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammad (s.a.v.)ning hadislarini to'plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilarg edi.

Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, al-Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan rihlati 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hiro, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to'pladi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa'yu ko'shishlari bu vaqtda Buxoroda hukmdorlik qilgan Holid ibn Ahmad az-Zuhliygga xush kelmaydi. Shu sababli Imom al-Buxoriy Buxoroni tark etib, Poykendga, keyin esa Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'iga kelib yashashga majbur bo'ladi va shu yerda 870 yilda vafot etadi.

Imom al-Buxoriy butun faoliyati davomida ilm kishilarini ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. U tijorat qilganda topgan

daromadidan o'ziga besh yuz dirhamdan faqiru miskinlarga, ilmu toliblarga sarflagan. Shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va sarf-harajatlarga yo'l qo'ymagan.

Imom al-Buxoriy umr bo'yi hadislarini to'plash va tizimga solish bilan shug'ullangan, ularni sahib (to'g'ri, ishonchli) va g'ayri sahib (xato, zaif)ga ajratgan. Bu ishni hadis roviylarining maishiy hayotlari, yashash joylari, tug'ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan qilgan o'zaro mulog'otlarini o'rganish bilan bog'liq holda olib borgan. Al-Buxoriy jami 600 mingga yaqin hadis to'plagan bo'lib, shundan 100 ming "sahih" va 200 ming "g'ayri sahib" hadisni yoddan bilgan. Imom al-Buxoriy o'zining no'yob qobiliyati, iqtidori, quvvai hofizasining o'ta kuchliligi bilan ilm ahllarini lol qoldirgan. Hadis ilmiga o'ta fidoyilik, aq-zakovatini baxshida etish Imom al-Buxoriyga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi.

Imom al-Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" ("Ishonchli to'plam") deb nomlangan 4 jild (juz) dan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. "Al-Jome' as-sahih" asari bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shu jumladan, bu asar o'zbek tiliga ham tarjima qilinib, 1991-1996 yillarda 4 jildda nashr etildi.

Imom al-Buxoriy yaratgan "Al-Adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to'plamdir. 1322 hadis va xabar jamlangan bu asar Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Uning o'zbekcha tarjimasi 1990 yili Toshkentda nashr qilingan. Roviylarning kunyalariga bag'ishlangan "Kitob al-kuna" ("Kunyalari haqida kitob") 1940 yili Hindistonda chop etilgan. Al-Buxoriyning "At-Tarix al-Kabir" ("Katta tarix") kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo'lyozmasining ba'zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi.

Shuningdek, "At-tarix as-sag'ir" ("Kichik tarix") ham hadis tarixiga oid qimmatli asar hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan "Kitob al-favoid" ("Foydali ashyolar haqida kitob"), "Al-Jomi' al-kabir" ("Katta tayanch"), "Xalq af'ol

al-ibod", ("Alloh bandalari ishlarining tabiati"), "Al-Munad al-kabir" ("Katta tayanch"), "Al-tafsir al-kabir" ("Katta tafsir"), "Kitob al-hadith" ("Hayr-ehson haqida kitob") va boshqa asarlarning ba'zilarini bizgacha yetib kelmagan, ba'zilar jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor. Imom al-Buxoriyning boshqa asarlari orasida "Tafsir al-Qur'on" ("Qur'on tafsiri") kitobini ham alohida ta'kidlash kerak. Imom al-Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va doriifunlarida payg'ambar (as) sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolalar va din peshvolari al-Buxoriy asarlariga tayanch ish tutadilar.

Istiqbol sharofati bilan Imom al-Buxoriyning o'lmas merosi e-lyurti bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida"gi Qarori (1997 yil 29 aprel) asosida al-Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998 yil 23 oktabrda Samarqandda yubiley to'y tantanalari bo'lib o'tdi. Alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui ochildi.

Imom al-Buxoriyning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan 1998 yil 4 noyabrda Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi tuzildi. Jamg'armaning asosiy vazifasi Qur'oni karim va Buxoriyning "Al-Jomi' as-Sahih"i tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o'tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an'alarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000 yildan boshlab mazkur jamg'arma o'zining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adebiy "Imom al-Buxoriy saboqlari" jurnalini nashr eta boshladi. Jurnal xalqimizni milliy-ma'naviy merosimizdan bahramand etish, milliy, diniy qadriyatlarimizning sog'lom idrok etilishiga yordam berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'zbekistonda Imom al-Buxoriyning xotirasi munosib tarzda abadiylashtirilgan.

Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag'ishlab bir necha tillarda kitob-albom, ikki qismli film (1995), "Hadis ilmining sultoni" to'rt qismli kinogissasi (1998) yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2017 yilning 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, "Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom al-Buxoriy mangu qo'nim topgan ushbu maskanda o'ziga xos ma'naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuuga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o'ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o'rganib ketсин. Shunda ularning qalbida ulug' ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas'uliyatini his etadi", - degan edi.

Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asari islom olamida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi manba sifatida e'tirof etiladi. Bu asar dunyo ilm ahli nazdida hanuzgacha ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. "Al-Jome' as-sahih" asari o'z yo'nalishida takrorlanmas yagona yo'nalishga ega durdona asar bo'lib, 97 kitob, 3881 ta bob va takrorlari bilan qo'shib hisoblaganda 7563 ta hadisdan tarkib topgan.

Imom al-Buxoriy "Al-Jome' as-sahih"da birinchi "Yahiy" kitobini, ikkinchi "Imon kitobi"ni va uchinchi "Ilm kitobi"ni keltirgan. Imom Buxoriyning eng muhim va mashhur asari "Al-Jome' as-sahih" asaridir. Bu asarning to'liq nomi "al-Jome' al-musnad as-sahih al-muxtasar min umuri Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) va sunanibi va ayyamih" deb nomlagan. Asar hadis ilmidagi va musulmonlar orasida qisqacha "al-Jome' as-sahih", aksar hollarda esa "Sahihul Buxoriy" nomi bilan mashhur ekani ma'lum. Ulamolar bu asarni Qur'oni Karimdan keyingi eng sahif kitob deb biladilar. Hadis kitoblarining o'ttizdan ortiq turlari mavjud. Ular o'zlarining yo'nalishlari va maqsad qilingan mavzularining qamroviga qarab o'zaro farqlanadi.

Birinchi tur hadis kitobi "Jome'" deyiladi. O'zida sakkiz mavzudagi hadislarini jamlagan hadis kitobi "jome'" deb nomlanadi. O'sha sakkiz mavzu quyidagilar: Siyrat, odob, tafsir, aqoid, fitnalar, qiyomat belgilari,

fiqhiy hukmlar va manobiklardir. Imom Muslimning "Sahih" to'plami yuqorida zikr qilingan ko'plab ilmlarga oid hadislarini o'z ichiga olsa-da, tafsir va qiyomat belgilariga oid hadislar mavjud bo'lmagani bois u "Jome'" deb atalmasligini Muborakfurij "Tuhta Ahvaziy" asarida qayd etib o'tadi.

Abu Iso Muhammad ibn Iso Terniziyning "Sunan" nomi bilan mashhur bo'lgan "al-Jome' al-muxtasar min as-sunan an Rasulillah (sollallohu alayhi vasallam)" asari yuqorida ko'rsatilgan sakkiz mavzuning barchasini o'z ichiga oladi. Bu asar shu jihatdan Imom Buxoriyning asariga o'xshaydi. Shundan kelib chiqib uni "Jome'" deysish ham mumkin bo'ladi. Shu bilan birga uning boblari fiqh kitoblarining tartibiga muvofiq bo'lgani uchun "Sunan" ham deb nomlanadi.

Bu haqda Shoh Valiyulloh Dehlaviy quyidagilarni aytadi:
"Abi hadislar hadis ilmini devonga kiritib, tasnif qilganlarida uni to'rt fandan iborat qilganlar:

Sunnat fani. Ya'ni fiqhga oid narsalar. Molikning "Muvatto'si va

So'fyonning "Jome'"siga o'xshash kitoblar.

Tafsir fani. Ibn Jurayning kitobiga o'xshash.

Siyrat fani. Muhammad ibn Is'hoqning kitobiga o'xshash.

Zuhd va Raqiq. Ibn Muborakning kitobiga o'xshash.

Imom Buxoriy mazkur to'rt fanni bir kitobda jamlashni iroda qildi. Shu bilan birga, imom Buxoriy o'zidan oldingi va zamondosh ulamolar sahnligi haqida hukm qilgan hadislarimgina olishni yo'lga qo'ydi. Sanad Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga yetib boradigan hadislarimgina olishni ravo ko'rdi. Kitoblardagi ba'zi asarlar va shunga o'xshash narsalar hadisga tobe bo'lgan holdagina kelgan, asl bo'lib kelmagan. Shuning uchun ham uning kitobi "Al-Jome' as-sahih al-musnad" deb nomlangan. Imom Buxoriy o'z zamonasida mavjud bo'lgan barcha hadis to'plamlarini rioyasi qilgan, ularni jamlagan holda faqat sahif rioyatlardan iborat asarni vujudga keltirdi.

Ibrohim ibn Ma'qaldan rivoyat qilinadi: "Imoni Buxoriyning hadislarini to'plashga undagan narsa haqida o'zi: "Biz Is'hoq ibn Rohavayhni huzurida edik, Is'hoq ibn Rohavayh: "Bizga ba'zi do'stlarimiz: "Agar sizlar Rasululloh (sallallohu alayhi vasallam)ning sunnat hadislarini

jamlaydigan muxtasar bir kitob yozalaringiz"; deb aytdi", dedi. Mana shu gap meni qalbmga o'rashib qoldi va o'sha kitobni jamlashga kirishdim", deydi.

Hofiz ibn Hajar Asqaloni: "Imom Buxoriy ustozidan eshitgan bu gap sahnhadislarni jamlashga bo'lgan azmini quvvatladi", deydi. Ibn Hajar yana bir sabab aytdi: "Biz imom Buxoriydan sobit bo'lgan sanad bilan rivoyat qildik: "Imom Buxoriy aytdi: "Men Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamni tushimda ko'rdim. Men u zotning oldlarida edim. Qo'limdagi yelpig'ich bilan u zotdan hasharotlarni haydab turardim. So'ngra bu tushni tush ta'birini biladigan kishilardan so'radim. Ular: "Sen Rasululloh sallallohu alayhi vasallamni u zotga nisbat berilayotgan yolg'onlardan himoya qilyapsan" - deb aytdilar. Ana o'sha tush meni "Al-Jome' as-Sahih" asarimni yozishga undadi".

Demak, ushbu zikr qilingan ikki sabab ham Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" asarini tasnif qilishga undagan deb bilamiz. Bu ikki sabab bir-biriga muoriz kelmagani uchun bir vaqtda ikki sabab jam bo'lishi mumkin bo'ladi. Imom Buxoriy: "Bu "Al-Jome' as-Sahih" asarini o'n olti yilda yozganman va olti yuz ming hadisdan chiqarib olganman va bularni o'zim bilan Allohning o'rzasida hujjat qildim" - deb aytgan. Jome'da 97 ta kitob, ya'ni mavzu bor va uning boblari esa 3918 ta. Mavzuga aloqasi bo'lgani uchun ba'zida mavzu ichiga oyatlarni ham keltirgan.

Imom Buxoriy Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) dan ekanligi sahnh bo'lgan hamma hadislarni jamlashni maqsad qilmaganlar. Chunki bu ish juda uzog vaqt va mehnat talab qiladi. Imom Buxoriy buni o'zlarini ochiq-oydin aytadilar: "Bu kitobimga faqat sahnh hadislarni kiritdim va yana sahnh hadislardan ko'prog'ini tark qildim". Lekin Imom Buxoriy bir bobdagi asl hadisni tark qilsa, albatta uni o'ziga boshqa bir hadis keltirgan.

"Al-Jome' as-Sahih" asarida jamlangan hadislarining adadi borasida bir oz hilof bor. Hofiz Abu Amr Usmo ibn Abdurahmon "Muqadimatu ibn Saloh" kitobida: "Buxoriyning sahnidagi hamma hadislar yetti ming ikki yuzi yetmish besh ta. Agar undan takrorlanuvchi hadislarini chiqarib tashlansa, to'rt ming ta qoladi", deydi. Hofiz Ibn Hajar "Al-Jome'

as-Sahih" asarini bobma-bob to'liq o'rganib chiqib aytdi: "Al-Jome' as-Sahih" asarida yetti ming uch yuzi to'qson yettita hadis bor. Takrorlar, as-Sahih va mavqur hadislarini chiqarganda ikki ming besh yuzi o'n uchta ta'liq va hadis bor".

"Al-Jome' as-Sahih" asarida jamlangan hadislarining adadi borasida mazkur ixtiloflar uni o'rganuvchi imomlarning nazari turli bo'lganidan kelib chiqishi mumkin. Ba'zi imomlar mutobiat hadislarini bo'lganidan oldingi hadisga qo'shib hisob-kitob qilsa, boshqalar uni o'zidan oldinga hisoblagan. Yana "Al-Jome' as-Sahih" asarining nusxalari turli alohida hisoblagan. Yana "Al-Jome' as-Sahih" asarining nusxalari turli bo'lganligi ham mazkur ixtilofga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Aslida hadislarining raqami imom Buxoriy tomonidan qo'yilmagan, shuning uchun mazkur ixtiloflar kelib chiqishi tabiiy narsa bo'ladi. Bugungi nashr uchun mazkur ommaviy tarqalgan nusxalarda 7563 hadis raqamlangan qilingan ham qayd qilish kerak. Shu o'rinda "Al-Jome' as-Sahih" asari ekanligini ham qayd qilish kerak. Hadis sahnh bo'lishi imom o'zida sahnh hadislarini o'zida jam qilgan ekan, hadis sahnh bo'lishi imom Buxoriyning o'z shartlari borligini ham bilishimiz kerak. Mustalahul hadis ilmi ulamolari istihida "Sahnh hadis - sanadi boshidan oxirigacha adolatli va zobtli kishi o'ziga o'xshagan adolatli va zobtli kishidan muttasil (uzluksiz) sanad ila naql qilgan hamda shoz va illatli bo'lmagan hadisdir".

"Sanadning muttasil bo'lishi". Hadisning Roviyalaridan har biri o'zidan oldingi roviydan to'g'ridan to'g'ri olgan bo'lsin. Sanadning avvalgi roviydan boshlab oxirigisigacha xuddi shunday bo'lishi kerak. Orada biror kishi tushib qolmasligi shart. Imom Buxoriy yuqoridagi ta'rifga qo'shimcha ravishda: "Roviy o'z shayxi bilan bir mara bo'lsa ham uchrashishi sobit bo'lishi kerak", deydi. Imom Muslim esa roviyning o'z shayxi bilan uchrashishi mumkinligining o'zini shart qiladilar, uchrashgani sobit bo'lishi shart emas. Hatto imom Muslim bu borada ijmo' qilinganini ham da'vo qilgan. Shunga ko'ra imom Muslim va uning fikrini qo'llab-quvvatlaydigan muhaddislar muttasillik borasidagi mana shu tushunchalarga binoan sahnh, deb aytgan hadislarini imom Buxoriy sahnh deb bilmagani.

Hadisni sahnh bo'lishida roviyning adolatli bo'lishi. Adolat lug'atda to'g'rilik, mustahkamlik va odillikni ifoda etadi. "Adolatli odam"

deganda gapidan va hukmidan rozi bo'lmadigan odam tushuniladi. Ulamolar istilohida esa: "Adolat kishidagi uni gunohlardan va muhoh paskashliklardan qaytaradigan malakadir". Boshqa bir ta'rifda esa "Adolat dindorlikni lozim turishda va taqvo hamda muruvvatni muhofaza qilishga olib boruvchi malaka bo'lib, o'z egasining sodiqligi va omonatiga ishonch qozontradi". Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asari bugun islom olamining barcha o'lkasida mazkur sanadlar bilan o'qib, o'rganiladi. Uning yuzdan ortiq shart va hoshiyalari bor. "Al-Jome' as-sahih" asari Imom al-Buxoriyning o'z zamonasidagi shayxlar tomonidan qabul qilingan va turli maqovlar bilan zikr qilingan.

6.3. Abu Iso Muhammad at-Termiziy va uning "Al-Jome'", "Ash-Shamoil an-Nabaviya" kabi asarlari va ularning musulmon olamidagi ahamiyati

Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn az-Zahhoq Abu Iso as-Sullamiy az-Zariyr al-Bug'iy at-Termiziy 824 yilda Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani hududida joylashgan) qishlog'ida o'ta hol bir oilada tavallud topgan. Markaziy Osiyolik mashhur tarixchi Abu Saad Abdulkarim as-Sam'oniy (1113-1167) at-Termiziy Bug' qishlog'ida vafot etganligi uchun al-Bug'iy tahallusi bilan ham atalganini, olimning ko'p yig'laganidan umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligidan az-Zariyr (ko'zi ojiz) taxallusini olganligini ham qayd qiladi.

Lekin el orasida Abu Iso Muhammad at-Termiziy nomi bilan mashhur bo'lishiga sabab uning butun hayoti va faoliyati (yoshligidan boshlab) Termiz shahri bilan chambarchas bog'liq bo'lganligidan, shuningdek, olim tug'ilgan Bug' qishlog'i Termiz shahriga yaqin bo'lib, ma'muriy-idoraviy jihatdan unga mansub qishloqlardan ekanligidan deb izohlash mumkin.

Abu Iso Muhammad at-Termiziyning oilasi va ota-onasi haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Tarixchilar uning "Bobom asli mar'at edi, u kishi Lays ibn Sayvor zamonida yashagan, so'ng u yerdan Termizga ko'chib kelgan", - degan fikrini keltirish bilan chegaralanadilar. Shuningdek, Imom at-Termiziyning ko'zi ojizligi

ham yozma manbalarda turli-tuman ma'lumotlar keltirilgan. xususida ham yozma manbalarda turli-tuman ma'lumotlar keltirilgan. Ba'zi mualliflar uni tug'ma ko'zi ojiz bo'lgan desa, ko'pchilik mualliflar olimning keyinchalik, umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligini yozadilar.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy yoshligidan o'ta tirishqoq, idroqli va zakovatli bo'lganligi bois o'z tengdoshlari ichida ajralib turgan. Ilmga o'ta qiziqishi tufayli o'sha davrning ko'pgina ilmlarini, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan. Termiz, Samarqand, Marv va Markaziy Osiyoning boshqa yirik shaharlarida istiqomat qilgan mashhur ulamo va muhaddislar asarlarini qunt bilan o'rgangan, qo'shni Balx va Hayraton shaharlaridagi ilm ahllari bilan ilmiy aloqalar o'rnatilishiga munosib hissa qo'shgan olimlardan biridir. Yoshligidan ilm-fanga tashna at-Termiziy 850 yildan, ya'ni yigirma olti yoshidan boshlab uzoq yurtlarga, qator xorijiy mamlakatlar va shaharlarga safar qiladi. Jumladan, u Hijozda — Makka va Madina, Iroq, Xurosonning qator shaharlarida ko'plab muhaddis, ulamolalar bilan mulqotda bo'lib, ulardan ta'lim oladi, qizg'in ilmiy munozara va bahslarda ishtirok etadi. Tarixchi Shamsuddin az-Zahabiyning ta'kidlashicha, at-Termiziy Misr va Shomni shaxsan ziyorat qilmagan, shu boisdan ham bu mamlakatlar ulamolalaridan bitvosita hadislar rivoyat qilgan. Uzoq yillar davom etgan safarlari chog'ida Imom at-Termiziy nafaqat hadis ilmidan, balki ilm al-qiroat, al-bayon, fiqh, tarix kabi fanning boshqa sohalarida hamda ko'plab ustozlardan saboq oladi.

Shu bilan bir qatorda Imom at-Termiziy payg'ambar alyhissalom hadislarini to'plashga alohida e'tibor bilan qaraydi. Bu borada u har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradi. U o'zi o'qigan yoki biror roviydan eshitgan hadisini alohida qog'ozlarga qayd etib borar, ularning asli va isnodini izchillik bilan aniqlab to'g'riligiga to'liq ishonch hosil qilishga maxsus qog'ozlarga qayd etardi. Hadislarining to'g'riligiga shubha bo'lganda ularni alohida ajratib yozardi. Shu tariqa hadislar sahih (to'g'ri, ishonchli), hasan (yaxshi, ma'qul), zaiyf (bo'sh, ishonchsiz), g'ariyb (g'alati) kabi xillarga ajratilgan.

Hadis ilmini egallashda va takomillashtirishda Imom at-Termiziy o'z davrining mashhur muhaddislaridan tahsil oldi. Uning ustozlaridan Imom

al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Dovud, Qutayba ibn Sa'id, Ishoq ibn Muso, Mahmud ibn Gi'ylon, Said ibn Abdurrahmon, Muhammad ibn Bashshor, Ali ibn Hajar al-Mar'aziy, Ahmad ibn Munir, Muhammad ibn al-Musanno, Sufyon ibn Vaqiy' va qator tanig'li muhaddislarni ko'rsatish mumkin.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy o'z davrining yetuk muhaddisi sifatida ko'pgina shogirdlarga ustozlik ham qilgan. Uning shogirdlaridan Maqbul ibn al-Fazl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Abu ibn Muhammad an-Nasafyun, Hammud ibn Shokir, Xaysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy, Abul-Abbos Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiy kabi yetuk olimlarni ko'rsatish mumkin. Yugorida ta'kidlab o'tilganidek, at-Termiziyning ustoz va shogirdlari orasida turli mamlakat va elat vakillari borligi sezilib turibdi. Shu nuqtai-nazardan qaralganda, uzoq o'limshda ham ilm-fanning taraqqiyoti va ma'rifat urug'larini targatish borasida turli o'lkalarning vakillari yakdli bo'lib faoliyat ko'rsatib samarali hamkorlik qilganliklari, umumbashariy qadriyatlar ravnaqi yo'lida haqiqiy baynalmillatlik ruhi mavjud bo'lganligi hozirgi davrimiz uchun ham ibratli bir holdir.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy zehning o'kirligi hamda quvvai-hofizasi kuchligi xususida tarixiy manbalarda ko'plab misollar, rivoyatlar keltiriladi. Jumladan, arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning (1274-1347) "Tazkirat ul-huffoz" ("Hofizlar haqida tazkira") nomi asarida quyidagi hikoya keltiriladi: Abu Iso Muhammad at-Termiziy Makkaga hajga borayotganida yo'lida mashhur muhaddislar bilan mulogotda bo'ladi va ularning biridan hadislardan saboq berishini iltimos qiladi. U olim: "Bo'Imasa qog'oz-qalam o'", degan. Aksiga olib shu payt Imom at-Termiziy qalam topa olmagan va olim ro'parasida o'itrib eshitgan hadislarini yozib olayotgandek qog'oz ustida qo'lmi harakat qildirayotgan. Olim esa turli-tuman hadislardan yetmishga yaqinini hikoya qilgan. Shu orada olim qog'ozga qarab unda hech qanday yozuv yo'qligini ko'rgan va at-Termiziyning bu ishidan jahli chiqqan. At-Termiziy shunda bannaylixo'ir "Siz aytgan hadislaringizni yoddan aytib beraymi?", - deganu hozirgina olimdan eshitgan hadislarining hammasini birin-ketin takror aytib bergan. Imom at-Termiziyning

xotirasi kuchligidan o'sha olim hayratga tushib qoyil qolganligini bildirgan.

Bu xususda yana bir hikoya Imom at-Termiziyning so'ziga asoslanib keltiriladi: Makkaga ketayotganida bir shayx to'plagan hadislardan ikki qismini yozib olgan edim. Tasodifan o'sha shayx bilan uchrashib goldim. Yozib olingan hadislar mazmunan ularga o'xshash-u, biroq boshqa hadislar ekan. Salom-alikdan so'ng hadislarini aynan uning o'z og'zidan eshitishni iltimos qildim. U rozi bo'lib, hadislarini hikoya qila boshladi. Keyin menga qarab qo'limdagi oq qog'ozni toza, ya'ni hech narsa yozilmagan holda ko'rgach: "Bu qilg'ing uchun mendan narsa yozilmaganmi?", - dedi. Men ma'zurona holda bor haqiqatni aytib: "Siz uyalmayasanni?", - dedi. Men ma'zurona holda bilaman", dedim va hikoyat qilgan hadislarining hammasini yoddan bilaman", dedim va uni birin-ketin so'zma-so'z aytib berdim. Shayx esa so'zlarimga ishonqiramasdan "Nima, mening huzurimga kelishdan oldin ularni maxsus yodlagan edingmi?", - dedi. "Yo'q", deb javob qilib: "Agar so'zlarimga ishonmasangiz, boshqa hadislardan aying", dedim. Shunda u o'zining g'aroyib hadislaridan qirqlasini hikoya qildi. Men unga ularni ham boshdan oxir birma-bir aytib berdim. Shunda u: "Senga o'xshaganini hech qachon ko'rmagan edim", - dedi.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy ko'plab xorijiy mamlakatlarga qilgan safar chog'ida hadislarini to'plab, kitoblar ta'lif qilishga ham kirishgan. Safardan qaytgach, olimu fuzalolar bilan ilmiy munozaralarda gahashadi, ko'plab shogirdlarga ustozlik qiladi. Ayniqsa, mashhur muhaddis alloma al-Buxoriy bilan ko'plab ilmiy bahslar yuritib undan istifoda qiladiki, bu haqda at-Termiziy o'zining "Al-Ilal" kitobida ham yozadi. Imom at-Termiziyning ko'pchilik tasniflari, jumladan, uning mashhur asari "Al-Jome'" ham o'z vataniga qaytganidan keyin yaratilgan. Imom at-Termiziy 892 yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida vafot etgan va shu joyda dafn qilingan.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy ijodiy faoliyati davrida o'ndan ortiq asarlar yaratdi. Uning madaniy merosida, shubhasiz, "Al-Jome'" asari katta ahamiyatga egadir. Bu asar "Al-Jome' as-sahih" ("Ishonchli to'plan"), "Al-Jome' al-kabiy" ("Katta to'plan"), "Sahih at-Termiziy", "Sunan at-Termiziy" ("Termiziy sunnatlari") nomlari bilan

ham yuritiladi.

Abu Iso Muhammad at-Termiziyning yirik asarlaridan yana biri "Ash-shamoil an-nabaviyya" ("Payg'ambarning alohida fazilatlari")dir. Bu asar "Ash-shamoil muhammadiyya", "Ash-shamoil fi shamoiil an-nabiy salloho alayhi vassallam" nomlari bilan ham ataladi. Ushbu asar Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan vatandoshimiz Said Mahmud Taroziy (u 1992 yili vafot etgan) tomonidan o'zbekchaga o'g'irilgan (arab alifbosa va kirilchada Toshkentda bir necha bor nashr qilingan). "Kitob al-ta'rix", "Kitob al-lal as-sag'iyr va al-lal al-kabiyr", "Kitob uz-zuhd" ("Ta'qvo haqida kitob"), "Kitob al-asmo val-kuna" ("Roviyning ismi va laqablari haqida kitob"), "Al-lal fil-hadiys" ("Hadislardagi ilatlar yoki og'ishlar haqida"), "Risola fil-xilof val-jadat" ("Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola"), "Asmo us-sahoba" ("Payg'ambar sahobalarining ismlari") shular jumlasidandir.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy zamonidagi olimlar uning hadis ilmidagi xizmatlarini yuqori baholagan. Ulardan biri Imom Termiziyning "Hadis ilmidagi iqtido qilinadigan yagona olim" deb yozsa, boshqa biri esa uni "Birinчилardan bo'lib hadislarini sahib, hasan, zafifga taqsim qilganiga guvohlik beradi". Ayniqsa, Imom at-Termiziyning asarlaridagi ravonlik faqat ziyoli kishilar uchun emas, balki har bir inson tushunishi mumkin bo'lishiga sabab ekanini alohida ta'kidlash joiz. Dunyo ulamolari buyuk ilm sohibi bo'lgan hamda yuksak e'tirofga munosib ko'rilgan bobokalonimizning ibratli hayot yo'llari va boy ma'naviy merosini har tomonlarga o'rganish biz yoshlar uchun ham ilmiy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Xulosa sifatida shuni ta'kidlab o'tish joizki, yurtimizdan yetilish chiqqan yetuk muhaddislarning avlodi bo'lish har birimizning zimmanizga ulkan mas'uliyatni yuklar ekan, jamiyatimizning har bir a'zosi, ayniqsa yoshlarimiz ularga munosib avlod, ilm-ma'rifaat nurini taratuvchi mayoq bo'lishlari ham qarz, ham farzdir.

Abu Iso Muhammad at-Termiziyning "Al-Jome'" asari va uning ahamiyati. Abu Iso Muhammad at-Termiziyning ijodiy faolligida yaratilgan asarlari ichida "Al-Jome'", ya'ni "Al-Jome' as-sahih" ("Ishonchli to'plam") eng asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida

qayd qilganimizdek, "al-Jome' al-kabiyr", ("Katta to'plam"), "Sahih at-Termiziy", "Sunan at-Termiziy" ("Termiziy sunnati") kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi Ibn Xajar al-Asqaloniyning yozishicha, at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba ortirib, imomlik darajasiga oltmish yoshidan keyin yozib tugatgan.

Ushbu asar qo'lyozmalari dunyoning bir qancha shaharlarida, shuningdek, o'zimizda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomi Sharqshunoslik institutida ham saqlanmoqda. Muhim manba sifatida "Al-Jome' as-sahih" bir necha marta nashr qilingan. Bunga dalil sifatida 1283 (1866) yili Mithoda, 1292 (1875) yili Qohirada, shuningdek, 1980 yili Bayrutda nashr etilganligini ko'rsatish kifoya. At-Termiziyning bu muhim asariga bir qator sharhlar ham yozilgan bo'lib, ulardan ibn al-Arabiy (vafoti 543 hijriy, 1148 melodiy yili) nomi bilan mashhur bo'lgan imom hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Abdulla al-Ashbilyning "Oridat al-Ahvaziy" ala kitob at-Termiziy" nomli 13 juz' (qism)dan iborat sharhlarini keltirish mumkin. Ushbu sharh dastlab 1931 yilda Qohirada nashr qilingan. Imom Hofiz Abu Ali Muhammad Abdurrahmon ibn Abdurrahim al-Muborakfuriy (1283-1353) qalamiga mansub yana bir sharh ham "Tuhfat ul-Ahvaziy bisharhi at-Termiziy" deb ataladi. To'rt juz'dan iborat bo'lgan bu asar 1979 yilda Bayrutda nashr qilingan (Hindiston nashri ham mavjud). Misrlik olim va adib Jamolidin Abdurrahmon ibn Abu Bakr as-Suyutiyning (1445-1505) at-Termiziy asariga yozgan sharhi "Qul al-mug'aziy ala Jome' at-Termiziy" (undan ikki qismi nashr qilingan), deb atalgan.

Bulardan tashqari Muhammad ibn Abdugodir Abu at-Tayyib al-Madaniyning "Sharh Sunan at-Termiziy", Ahmad Muhammad Shokirning "Tahqiq va sharh Jome' at-Termiziy" (o'ndan ikki qismi 1937 yilda Mustafa al-Bobiy al-Halabiy tomonidan nashr qilingan), Muhammad Yusuf al-Bannuriyning "Maorif sunan sharh sunan at-Termiziy" (uning birinchi qismi 1963 yilda Pokistonda nashr qilingan), Siroj Ahmad as-Sarbandiyning "Sharh sunan at-Termiziy" nomli forscha sharhi, shuningdek Rashid Ahmad al-Kanuhiyning

“Al-Kaykab ad-duriy ala at-Termiziy” (Hindistonda chop etilgan), Muhammad Anvarshoh al-Kashmiriyning ikki juz’dan iborat “Al-Uhr ash-shariy ala Jome’ at-Termiziy” (bu asar ham Hindistonda chop etilgan) va nihoyat Abul-Hasan Muhammad ibn Abdulbodiy as-Sanadiyning (u 1138 yilda vafot etgan) “Hoshiya ala sunan at-Termiziy” kabi shartlarini ko’rsatish mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, hijriy uchinchi asr (milodiy to’qizinchi asr) hadis ilmining rivojida olin davr hisoblanadi. Dastlab bu davrda yashab ijod qilgan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim kabi alomatlarning semahsul faoliyati katta ahamiyat kasb etadi.

O’z ustozlari Imom al-Buxoriy, Imom Muslim asos solgan hayri ismi Imom at-Termiziy chuqur mas’uliyat va katta idrok bilan davom etirdi. Hadisshunoslikning ilmiy asosda rivojlanishiga ulkan hissa qo’shib, musulmon dunyosidagi eng nufuzli muhadislardan biri darajasiga ko’tarildi. Abu Iso at-Termiziyning shoh asari bo’lmish “Al-Jome’ as-sahih” olim mashhaqqati mehnatining mahsuli sifatida hadis ilmidagi katta ahamiyatga ega. Eng avvalo shuni aytish kerakki, hadis ilmidagi katta ahamiyatga ega. Eng avvalo shuni aytish kerakki, muallif o’z asarini alohida-alohida boblarga bo’ladi, imkoni boricha har bir hadis roviyalarini keltiradi. Har bir hadisdan keyin uning ishonchli yoki ishonchsizlik darajasini aniqlab alohida ko’rsatadi. Oldinroq biz asarini “As-sunan” (“Sunatlar”) nomi bilan (“Sunan at-Termiziy”) atalishini ham eslatib o’tgandik. Bu nom bilan atalishiga asosiy sabablardan biri – unda fiqh masalasiga doir ahkom hadislar juda ko’p keltirilgan. Shular bilan bir gatorada asarda pand-nasihah, ahloq-odob, go’zal xulqu fazilatlar xususida ham juda ko’p hadisi shariflar keltirilganki, bu darajadagi hadislar hech bir muallif asarida uchramaydi, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Tarkibiy jihatdan asar quyidagi boblarga bo’linadi. Undan tashqari, sarak (namoz), zakot, ro’za, haj, janaza, nikoh, emizish, taloq, savdo-sotiq, qozilik ahkomlari, tovon bo’lash, me’yor, sayd, qurbonlik, nazar-nazar, rymon, siyratlar, jihod, kiyim-kechak (libos), taomlar, ichimliklar (al-ashribah), hayr-ehson va shokovat, tabobat, farzlar, vasiyatnomalar, hayriyatlik va taqdir, hurnaju finalar, boshoratlar, shahodatlar, zohidlar, jamoat va jahannam sifatleri, ilm, izn so’rash, odob va axloq, masallar,

Qur’on fazilatleri, qiron, tafsir, duolar, mamuqiblar (fazilatlar), ilmlar haqidagi boblar keltirilgan.

Mana shu boblar asarda sarlavha tarzida bo’lingan bo’lib, bobga doir hadislari bo’lim mazmunini to’la-to’kis ifodalaydi. Ushbu bobga doir masala bo’yicha muallif bir qancha hadislarini keltiradi, so’ng bu masala yuzasidan boshqa ulamoyu faqihlarning fikrlarini ham batartib bayon etadi. Undan keyin rivoyat qilingan hadisning sahih, hasan, zaif yoki g’arbligi darajasiga o’z munosabatini bildiradi. Shundan so’ng hadis roviylari, sanadlari va sanadning o’z ichiga olgan ilmlari xususida o’z fikrini bildiradi.

Yuqorida aytilgan fikrimizga misol tariqasida Iso at-Termiziyning “Al-Jome’ as-sahih” asarida “Tahorat” bobida “Safardagi va bir joyda muqim turgan kishi mahsisiga mash tortishi” haqida keltirilgan bir hadis borasida to’xtalib o’tish joizdir.

“Bizlarga Qutayba so’zlab berdi, unga Abu Uvona rivoyat qilgan, u Sa’iid ibn Masruqdan, u Ibrohim at-Tayamiydan, u Amir ibn Maymundan, u Abu Abdulloh al-Jadaliydan, u Xuzayma ibn Sobidan, u payg’ambar alayhissalomdan rivoyat qiladilar. Rasuli akramdan mahsisiga mash tortish haqida savol bilan murojaat qilganlarida, payg’ambar alayhissalom: “Safardagi kishi uchun uch kecha-kunduz, bir joyda muqim kishi esa bir kecha-kunduz o’z mahsisiga mash tortadi”, deb javob qilganlar. Yahyo ibn Mu’iyn mash haqidagi Xuzaymadan rivoyat qilgan ushbu hadisi sahih (ishonchli) deydi. Yuqorida zikri o’tgan Abu Abdulloh al-Jadaliyning ismi esa Abu ibn Abd bo’lib, ba’zan uni Abdurahmon ibn Abad ham deb atashar edi.

Imom Abu Iso at-Termiziy aytadilar: “Bu hadis hasan (ma’qul) va sahihdir”. Shu bob haqida Ali, Abu Bakr, Abu Hurayra, Safvon ibn Ussol, Avf ibn Mo’lik, Ibn Umar va Jariyrdan rivoyat etilgan hadis bor. Bizlarga Xudod rivoyat qildi, u Abul Ahvasdan, u Osim ibn Abi an-Nujudan, u Zar ibn Xubayshdan, u Safvon ibn Ussoddan, u aytdi: “Rasululloh sallolohu alayhi vasallam safarida birga bo’lgan chog’larimizda bizlarga uch kechayu uch kunduzgacha choriq – mahsilarimizni yechmaslikka buyurardilar. Faqat jannub bo’lgandagina yechib, katta va kichik tahorat singanda ham, uyqudan keyin ham

yechimas edik". Abu Iso at-Termiziy aytdilar: bu hadis sahih va hasandir. Al-Hakam ibn Ulayba va Hammad Ibrohim an-Naxayidan, u Abu Abdulloh al-Jadaliydan, u Xuzayma ibn Sobidan rivoyat qilgan hadis sahih emas. Ali ibn al-Mad'iniy xabar beradi: "Menga Yahyo ibn Sa'iid aytdi, unga Shu'ba shunday degan: Ibrohim an-Naxayiy "Mash" haqidagi hadisni Abu Abdulloh al-Jadaliydan hech qachon eshitmagan". Zaida Mansurdan eshitganiga tayanib shunday deydi: "Biz Ibrohim at-Tayamiyning hujrasida o'rganan edik, bizlar bilan birga Ibrohim an-Naxayiy ham bor edi. Shunda Ibrohim at-Tayamiy bizlarga hadis rivoyat qildi, u Amr ibn Maymunda, u Abu Abdulloh al-Jadaliydan, u Xuzayma ibn Sobidan, u payg'ambar alayhissalomdan "Mahsi - choriqqa mash tortish" haqidagi hadis edi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy: "Ushbu bobdagi eng ma'qul hadis Sa'fon ibn Ussol tomonidan rivoyat etilgan hadisdir", deydi.

Abu Iso at-Termiziy aytdilar: Mash bobidagi bu so'z payg'ambar alayhissalomning aksari sahobai ulamolari va tobe'inlari hamda ulardan so'ng o'tgan Sufyon, Ibn al-Muborak, ash-Shof'iy, Ahmad va Ishoq kabi fuqoholarning so'zlaridir. Ular: "Bir joyda muqim turgan kishi bir kecha-kunduz, safardagi kishi esa uch kecha-kunduzgacha mash tortadi", deydi. Ba'zi bir ahli ilmlardan rivoyat qilishlaricha, ular mahs - choriqqa mash tortishda muddatni belgilamaydilar. Bu Molik ibn Anasning so'zidir. (Ammo) Abu Iso at-Termiziy aytganlar: "(Mash tortishda) vaqt (muddat) belgilash va unga rioya qilish to'g'ridir". Darhaqiqat, ushbu hadis (avval zikr qilinganidek) Sa'fon ibn Ussoldan rivoyat qilingan edi.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy roviylarning fikr-mulohazalari, payg'ambar alayhissalomga yaqin bo'lgan sahobalar va boshqa ulamolarning fikriga tayanib hadis haqidagi fikrlarini bayon etadi. Asarga kiritilgan bir necha ming hadisni shunday tadqiq qilish muallifdan tinimsiz mehnat, sabr-toqat, irodani talab qilganligini tasavvur qilish qiyin emas.

Jumladan, Imom at-Termiziy kitoblarida bu xildagi hadislarining birmuncha ko'pligi uning benazir izlanishlaridan dalolatdir. Ushbu asar haqida muallifning o'zi ham: "Al-Jome'"ni yozib tugatib Hijoz, Iroq va Xuroson olimlariga ko'rsatganimda, ular uni mamnunlik bilan bir

ovozdan ma'qul topdilar. Rosidan ham kimning xonadonida bu kitob bo'lsa, go'yoki bu uyda payg'ambar alayhissalomning o'zlari so'zlayotgandek, - deb yozadi.

Mashhur olim Toshko'brizoda Imom at-Termiziy faoliyatiga yuqori baho berib, "Imom at-Termiziyning hadis ilmi sohasida ko'plab asariftlari bor. Ul zotning "As-Sahih" asari ushbu kitoblarning eng yaxshisi va g'oyat foydalisidir. Bu kitobda "sahih", "hasan", "g'arib" kabi turli xildagi hadislar bayon etiladi. Kitobning "Kitob al-Ilal" qismi illati hadislariga bag'ishlangan holda foydali mulohazalarni o'z ichiga olgan. Ushbu asarni mutoala qilgan har bir kishi uning noyob durdonalaridan behavra qolmaydi" - deb yozadi.

Abu Iso Muhammad at-Termiziy zamoniidagi olimlar uning hadis ilmidagi xizmatlarini yuksak baholaganlar. Hadis imomlaridan biri Abdurrahmon ibn Muhammad al-Idrisiy "at-Termiziy hadis ilmidagi iqtido qilmadigan imomlardan biridir", deb yozsa, Taqiuiddin ibn Taymiya "Abu Iso at-Termiziy birinchi bo'lib hadislarini sahih, hasan, zaifga taqsim qilgan olimdir", deb guvohlik beradi.

Hofiz ibn Rajab o'zining "Sharh ilal al-Jom'" nomli kitobida "bilgiki, Imom at-Termiziy birinchilardan bo'lib o'z kitoblarida hadisni sahih, hasan va g'aribga bo'lganlar", deb allomaning hadis ilmidagi xizmatlarini alohida ta'kidlaydi. Imom at-Termiziy asarining barchaga - keng ommaga foydasi haqida al-Hofiz Abul-Fazl Muhammad ibn Tohir al-Mugaddasiy (u 507-hijriy - 1113 milodiy yilda vafot etgan) "men uchun Imom at-Termiziyning "al-Jome'" tasnifi Imom al-Buxoriy va Imom Muslim ibn al-Hajjoj asarlaridan ko'ra ham foydaliroqdir. Chunonchi, al-Buxoriy va Muslimning kitoblaridan ko'pincha faqat o'qimishli, ziyoli kishilargina foydalanadi. Ammo, Iso at-Termiziyning asaridan esa har bir istagan kishi bemalol foydalana oladi", - deb yozgan edi.

Shu narsani alohida qayd etish joizki, Imom at-Termiziyning ushbu asarida hadis ilmining turli masalalari kabi roviylar masalasiga ham alohida e'tibor berilgan. Bu jihatdan mazkur asar muallifning boshqa asarlaridan tubdan farq qiladi.

Abu Iso Muhammad at-Termiziyning "Ash-Shamoil an-Nabaviya" asari va uning musulmon olamidagi ahamiyati. Abu Iso Muhammad at-Termiziyning "Ash-Shamoil an-nabaviyya" ("Payg'ambarning alohida fazilatleri") asari ba'zi manbalarda "Ash-shamoil fi shamoil an-nabiyi sallollohu alayhi vassallam", "Ash-shamoil al-Muhammadiya" kabi nomlar bilan ham keltirilgan. Asar payg'ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u zotning suvrat va siyratlari, ajoyib fazilat va odatlariga oid to'rt yuzi sakkiz hadisi sharifi o'ziga jamlagan qimmatli manbadir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, ushbu mavzu ya'ni payg'ambar alayhissalomning fazilatleri, odatlari haqidagi hadislarini to'plash bilan juda ko'p olimlar, muhaddislar shug'ullanganlar va bu xildagi hadislar turli-tuman kitoblardan o'rin olgan. Lekin Imom at-Termiziy asarining boshqalardan afzalligi va farqi shundaki, muallif imkoni boricha payg'ambar alayhissalom fazilatlariga doir barcha hadislarini muntazam ravishda to'plab, mantiqan izchil bir holatda tartibga keltirgan va o'ziga xos mustaqil, yaxlit kitob shaklida tasnif qilgan. "Ash-shamoil an-nabaviyya" azaldan islomshunos olimlar va tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb qilib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar va hoshiyalar ham yozilgan. Ulardan Abdurau'f al-Munoviy al-Misriyning (vafoti 1003 hijriy yili) "Sharh ush-shamoil", Ali ibn Sulton al-Haraviy al-Qoriyning (vafoti 1192 hijriy yili) "Jam' ul-vaso'il fi sharhi ash-Shamoil", Sulaymon ibn Umar ibn Mansur al-Jumalning "Al-Mavohib al-Muhammadiyya bisharh ash-shamoil at-Termiziyya" kabi asarlari keltirish mumkin. Bu asarning bir qo'lyozmasi Ohiyradagi al-Azhar kutubxonasida 144 hadis ilmi raqami ostida saqlanmoqda, Muhammad ibn Jasus al-Molikiyning (vafoti 1182 hijriy yili) "Al-Favoid al-jalilya al-bahiyya ala Ash-shamoil al-Muhammadiyya" (bu asar 1927 yilda nashr qilingan) va nihoyat al-Azhar universitetining sobiq shayxi Ibrohim al-Bojuriyning (vafoti 1277 hijriy yili) "al-Mavohib al-Laduniyya ala ash-shamoil at-Termiziyya" kabi sharhlarini ko'rsatish mumkin.

Kezi kelganda shuni ham ta'kidlash kerakki, mazkur asar tili oddiy va ravonligi, soddaligi bilan ham ajralib turadi. Muhim tarixiy manba sifatida "Ash-shamoil an-nabaviyya" fors va turk tillariga ham tarjima

qilingan. 1248 hijriy yili Hisomiddin an-Naqshbandiy tomonidan turkiy tilga qilingan tarjimasi arab tilini bilmaydigan turkiy xalqlar uchun g'oyatda foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Abu Iso at-Termiziyning ushbu asariga sharh yozgan shayx Ibrohim al-Bojuriy: "Imom at-Termiziyning "Ash-shamoil an-nabaviyya" kitoblari o'z bobida yakkeyu yagona asardir. Uning ovozasi Mag'ribu Mashriqqa borib yeldi", - deb ta'kidlaydi. Mashhur olim Ali ibn Sulton al-Haraviy al-Qoriy o'zining yuqorida zikr qilingan "Jam' al-vaso'il fi sharh ash-Shamoil" nomli sharhida at-Termiziyning ushbu asari xususida shunday deb yozadi: "Rasululloh sallollohu alayhi vassallamning fazilatleri, axloqlari haqida tasnif etilgan musan-na'otlarning eng chiroyli va yaxshisi bu Imom at-Termiziyning payg'ambar siyratlari haqidagi mukammal va muxtasar kitoblaridir. Bu kitobni mutolaa qilgan har kishi janob payg'ambarini ko'rganday va ul zotning har bobidagi mahosini shariflaridan bahramand bo'lganga o'xshaydi". Oldinroq eslatib o'tganimizdek, asarning Saudiya Arabistonida isitqomat qilgan vatandoshimiz Sayyid Maxmud Taroziy tomonidan ona tilimizga qilingan muxtasar tarjimasi 1990 yili Imom at-Termiziyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan Toshkentda qaytadan nashr qilindiki, bu hol buyuk muhaddisning qimmatli asarini o'rganishda katta ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

"Ash-shamoil an-nabaviyya" asarining tuzilishi va tarkibi haqida so'z ketganda, bu muxtasar asar ellik olti bobga bo'linib u "bobun joa fi xalqi Rasululloh sallollohu alayhi vassallam", ya'ni "Rasululloh sallollohu alayhi vassallamning jismi karimlari haqida rivoyat qilingan hadis shariflar bobid" dan tashkil topgan. Umuman olganda, mazmun-mohiyatiga ko'ra bu asarni ikki asosiy qismga bo'lish mumkin. Birinchi qismga mansub hadislar payg'ambar alayhissalomning suvrat (tashqi qiyofa)lariga bag'ishlangan. Bularga ko'ra, payg'ambarimiz novcha ham, pakana ham bo'lmay, balki o'rta bo'li, yag'rindor, qo'llari bo'lali, go'shdor va doimo jun bilan qoplangan, kaftlari bo'liq, qirg'iyburun, peshonalari keng, ko'zlari katta-katta bir zot bo'lgan.

"Ash-shamoil an-nabaviyya" asarining ikkinchi qismida keltirilgan hadis shariflar esa payg'ambar alayhissalomning siyratlari - ichki

dunyosi va ahloqiy fazilatlarini bayon qiladi. Bu hadislar bilan tanishar ekanmiz. Muhammad alayhissalom axloqiy jihatlardan namunaviy, mukammal bir siyimo ekanligini, muomalada u zotining kattayu kichik, ayol erkak, boy-kambag'allar bilan o'zini bir xil muomalada tutishlarini, ro'zg'or va oila yumushlarida o'z ayollariga astoydil ko'maklashib yordam berishlarini, bosharti biror gunoh qilib qo'ygan kishi uzr so'rasa, uning gunohlarini kechirganlarini, yo'lda uchragan barcha kishilarga birinchi bo'lib salom berib, samimiy hol-ahvol so'rashlarini bilib olamiz.

"Ash-shamoil an-nabaviyya" asarining XVI asrga oid qo'lyozmasi Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. 1980 yilda Toshkentdagi mazkur diniy boshqarmani buyurtmasi bilan "Ash-shamoil an-nabaviyya"ning ushu qo'lyozmasi ofset tarqasida nashr etilgan bo'lib, undagi qisqacha so'zboshi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi hay'atining sobiq raisi, marhum mutfiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari tomonidan yozilgan. Bundan tashqari "Ash-shamoil an-nabaviyya" asarining ayrim qo'lyozmalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham saqlanib kelinmoqda.

6.4. Qaffol ash-Shoshiy buyuk musulmon qonunshunosi

O'rta asrlarda Toshkentdan yetishib chiqqan yirik allomalardan biri mashhur qonunshunos, faylasuf va tishunos olim Abu Bakr Muhammad ibn Ali Ismoil Qaffol ash-Shoshiy al-Kabir (903-976) Toshkent shahrida tavallud topgan.

Qaffol ash-Shoshiyning manbalarda uchragan to'la nomi Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol ash-Shoshiydir. Hatto bu kishining hurmatini bajo keltirish maqsadida ismi yoniga "al-kabir" (katta, ulug' va muhtaram ma'nosini bildiradigan) so'zini ham qo'shib aytishgan.

Qaffol ash-Shoshiy hunarmandlar oilasida dunyoga kelgan bo'lsa kerak, chunki uning ismi buninga dalolat qiladi. "Qaffol" – qulfsiz degani (arabcha "qulf" – bizning tilimizga o'tib buzilgan va "qulf" shaklida talaffuz qilinadi). Manbalarda saqlanib qolgan ba'zi rivoyatlarga qaraganda, Shoshiy qulf yasashga juda usta bo'lib, hatto pashshaning

oyog'iga kishan-qulf yasay olgan, vazni chorak kumush tangga og'itilgidek jaffi qulf yasagan ekan. Bu gaplardan Shoshiy o'z ishiga puxta bo'lgan degan ma'no o'qish mumkin.

Qaffol ash-Shoshiy dastlabki ta'limni o'z yurtida oldi, keyin O'rta Osiyo shaharlariga sayohat qildi. Samarqandda yashadi va ta'lim oldi. Dastlab u fiqhshunoslikni o'rgandi. Bu fan Sharqda juda keng tarqalgan va ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega edi, chunki har bir mamlakatda bu fan sohibiga zaruriyat katta. Bular va uni puxta egallagan kishi o'ta qadrlanardi.

Qaffol ash-Shoshiy mana shunday ilm sohibi edi. Meros taqsim qilish, savdo-sotiq, oldi-berdi, yo bo'lmasa qo'yi-chiqdi kabi son-sanogsiz janjalli masalalarning adolatli, to'g'ri hal qilinishi, fiqhshunoslikka bog'liq edi. Buni hal qilish uchun g'oyat farosati, yuksak did va nafosati, ilm-ma'rifatdan atroficha xabardor, zamonasining barcha masalarini o'z fikr doirasida singdira oladigan shaxslar bo'lishi kerak edi. Qaffol ash-Shoshiy mana shunday fazilatlariga ega bo'lish bilan birga, u falsafa, mantiq kabi fanlarini ham puxta egalladi, ularda munozara qiladigan darajaga erishdi. Qaffol ash-Shoshiy ilm chashmasidan ko'prok bahramand bo'lish maqsadida Yaqin O'rta Sharq mamlakatlariga sayohat qildi. Hijoz, Bag'dod, Damashq kabi shaharlarda bo'ldi va u yerda zamonasining ko'zga ko'ringan olimlardan tahsil oldi. Shoshiyning ustozlariga qarab, ham uning qanday fanlar o'rganganligi haqida ma'lum xulosaga kelish mumkin.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, ash-Shoshiyning fiqhshunoslik va tarix sohasidagi ustozlari mashhur olim va tarixchi at-Tabariy (839-923 yy.) edi. Ma'lumki, Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy Sharq, mamlakatlarining eng yirik tarixchisi bo'lib, ko'p jildli asarlar yozgan. Asli u kishi Tabaristondan bo'lib, ilm-hikmat talabida Ray, Bag'dod, Basra, Kufa, Hijoz, Damashq, Kohira kabi shaharlarni kezib, ularda ta'lim olgan. U Sharq tarixchilari orasida mashhur bo'lgan "Ulehdilar va podshohlar tarixi" kitobining muallifi edi. Bu asar bizga to'la holida yetib kelmagan, qisqargan nusxasigina mavjud. Lekin undan keyin yashagan Ibn Miskaveyyx, (1030 yilda vafot etgan), Ibn al-Asr (1234 yilda vafot etgan) kabi tarixchilar o'zining umumiy tarixiga oid

ko'p jildli asarlarini yozishda undan to'la foydalanganlar. Uning "Tarix ar-rifol" ("Yirik kishilar tarixi"), "Jom' al-bayon" tarjimai kabhi asarlari ham bo'lgan.

Qaffol ash-Shoshiyning ikkinchi ustози Abu-l-Hasan ibn Abu Musa al-Ash'ariy (873-941 yy.) edi. U Sharqda kalomchilar oqimining asoschisi bo'lgan va bu to'g'rida anchagina asarlar yozgan. Al-Ash'ariy Sharqda ash'ariya oqimining asoschisi sifatida mashhur bo'lgan. Arab olimi Tojiddin as-Sabkiyning yozishicha, ilm talabida bo'lgan "Qaffol ash-Shoshiy al-Ash'ariydan kalom ilmini o'rganar ekan, o'z navbatida, al-Ash'ariy undan fiqhshunoslikni o'rgandi".

Qaffol ash-Shoshiyning uchinchi ustози Abu-l-Abbos Ahmad ibn Umar ibn So'rayj (861-928 yy.) edi. Bu kishi ham zamonasining yirik olimi bo'lib, to'rt yuzdan ortiq asarlar yaratgan mashhur alloma edi.

Umuman, Qaffol ash-Shoshiy ko'p o'lkalarga sayohat qilib, qaysi mamlakatlarda zo'r olim bo'lsa, ulardan bilganlarini o'rganishga intilgan. Arab olimi Ibn Xallikon (1211-1182 yy.) o'zining "Vafayod-al-ayon" ("Ulug' kishilar vafoti") asarida Qaffol Shoshiy haqida shularni yozadi: "Qaffol Shoshiy hadis ilmini bilgan, tilshunos, shoir edi. O'sha vaqtda Movarounnahrda u kishiga teng keladigan olim yo'q edi. Bu kishi Xuroson, Iroq, Hijoz, Shom va boshqa o'lkalarga sayohat qilib, hamma yerda ham nom taratdi... u kishining ko'p asarlari bo'lgan".

Qaffol ash-Shoshiy "Adab al-qozi" ("Qozi fe'l-atvor'i"), "Odob al-bahs" ("Bahs odobi") nomi asarlarining muallifi hamdir. Bu haqida arab olimi Ibn Xallikon shularni yozadi: "Qonunshunoslardan dastlab chiqib "Husni jadal" ("Dialektika husni") degan asar yozgan kishi ham shu Qaffol ash-Shoshiy edi".

Qaffol ash-Shoshiy Bag'dodga kelgach, Muhammad al-Xorazmiy asos solgan "Hikmat donish" ("Baytul hikma")da ilmga mashg'ul bo'ladi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, o'zidagi favvulodda iste'dod va chugur bilimi bilan allomalar orasida shuhrat qozonadi. Ayniqsa, fiqhshunoslik ilmi gattiq kirishadi. Zero, fiqh ilmi musulmon olamida keng tarqalgan va ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etgan fanlardan biri edi. U fiqh ilmini egallash bilan birga falsafa, mantiq, adabiyot kabhi fanlarni ham puxta o'zlashtirgan edi. U arab, lotin va hind tillarini o'z

ona tildek bilardi. Binobarin, mazkur tillarga oid mukammal lug'atlar yozgan.

Fiqh ilmidagi (shariat qonunshunosligi) Qaffol ash-Shoshiy o'z zamonasida Bag'dodda yagona alloma bo'lgan. U ko'p muddatlar "Baytul hikma"ga rahbarlik qilgan. Qaffol ash-Shoshiyning dovrug'i halifa muntasir qulog'iga yetib, uni saroyga taklif etib, vaziri a'zamlilik lavozimiga tayinlaydi. U bir necha yillar vazirlik mansabida adolatni mezon qilib siyosat yuritadi.

Qaffol ash-Shoshiy o'z zamonasining buyuk olimi va hoziravob shoiri sifatida qayd etish lozim. Qaffol ash-Shoshiy shunday ulug'vor va dovyurak, ajoyib shaxs edi. Uning adiblik, shoirlik, tilshunoslik faoliyati bilan deyarli hech kim shug'ullanmadi, uning dialektikaga oid asari ham o'rganilgan emas. Uning fiqhshunoslikka doir Shofi'ya mazhabiga tegishli asari va bu sohadagi fikr-mulohazalarigina davr taqozosiga ko'ra islom tarqalgan Sharq mamlakatlarida keng ko'lamda yoyildi. Mana shu sohadagi fikr-mulohazalari tufayli alloma Qaffol Shoshiy ming yil mobaynida odamlar hurmatiga sazovor bo'lib keldi. Uning shoirlik, tilshunoslik va mantiqshunoslik sohalari ham yirik olim ekanini tasdiqlaydi.

Manbalarining ko'rsatishicha, Bag'dodlik Xo'ja Muhammad Nomiyy degan olim Qaffol ash-Shoshiyning qo'lida o'qigan va hatto u bilan juda qalin bo'lib ketgan edi. Bu kishi o'z oilasi bilan birga Shoshiyga ergashib, Toshkentga keladi va umrining oxirigacha bu shaharda qolib ketadi. Qaffol ash-Shoshiy 976 yili Toshkentda vafot etgan. Qaffol ash-Shoshiyning hamsaharlari uni ilmu donish, adolati va fugaroparvarligi tufayli e'zozlab, unga maqbara bunyod etadilar. Qaffol ash-Shoshiyning qabrlari atrofida Toshkent tarixiga dahldor bo'lgan mashhur bo'lgan mo'tabar zotlar dafn etilgan. Qaffol ash-Shoshiyning maqbarasi hozirga qadar musulmonlar tomonidan ziyorat qilinadi. Qaffol ash-Shoshiyning maqbarasining XX-asrga oid birinchi binosi ham saqlanib qolgan. Sag'ana birlamchi shaklida saqlanmagan. 1541-1542 yillarda nurab qolgan dastlabki maqbara o'rniga hozirgi maqbara Toshkent hokimi Baroqxon tahallusli Navro'z Ahmadxon topshirig'i bilan saroy me'mori Gulom Xusayn loyihasi asosida qayta qurilgan. U asimmetrik

gumbazsimon maqbara – honuqodan iborat. Honuqo ziyoratchilarga turar joy sifatida ham berishga mo'ljallangan. Maqbaraning yonida Qaffol Shoshiyning izdoshi bo'lgan Xoja Ahror yashagan uy ham saqlanib qolgan. Ushbu yodgorlik katta tarixiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lib, Hazrati Imom majmui tarkibiga kiradi. 2007 yilda maqbara qayta ta'mirlangan.

Bugungi kunda Qaffol ash-Shoshiyning ilmiy merosi qayta o'rganilmoqda. Uning asarlari qayta nashr etilmoqda. 2007 yilda Bayrutning Dar al-Kutub al-Ilmiyah (Livan) nashriyoti tomonidan islom fiqhi bo'yicha "Mahasinu shariat" kitobi chop etildi.

Qaffol ash-Shoshiyning "Adab al-qozi" (to'liq nomi – "Adab al-qozi ala mazhabi ash-shofi'iya, ya'ni "Shofi'iy mazhabidagi qozining odobi") deb nomlanadi. Qaffol ash-Shoshiyning bu kitobi o'zining davrida juda mashhur bo'lib ketgan.

6.5. Abu Mansur al-Moturidiy kalom ilmining bilimdonlaridan



Buyuk kalom imomi va fiqh olimi bo'lgan Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida (taxminan 870-945) tavallud topgan. Abu Mansur al-Moturidiyning hayoti borasida ma'lumotlar juda oz. Borlari ham bir-birlarini takrorlaydi. Abul Muin an-Nasafiy (942-1114) o'zining "Tabssirat al-adilla" asarida Moturidiy vafot etganida uning shogirdlaridan Abul Qosim Hakim as-Samarqandiy (vafoti 954) uning qabr toshiga mana bu bitiklarni yozdirganligini aytadi: "Bu qabr nafaslari miqdoridagi ilmlarni o'zida jam etgan, bor kuchini u ilmlarni tarqatish va o'rgatish bilan tugatgan, bas, shuning uchun diniy asarlari maqtovg'a sazovor bo'lgan va o'z umridan serhosil mevalarni olishga erishgan zotining qabridir".

Abu Mansur al-Moturidiy o'zining kalom maktabini Imomi A'zam Abu Hanifa (699-767)ning kalom yo'nalishi asosida ishlab chiqdi va ahli sunnat val-jamoa e'tiqodining asosiy ikki ustozidan biri bo'lib qoldi.

Abu Mansur al-Moturidiy o'z davrining hanafiylik mazhabi olimlari

– Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy (vafoti 248/862), Nasir ibn Yahyo al-Balxiy (vafoti 268/881), Abu Bakr Ahmad ibn Is'hoq al-Juzjoniy (IX asr oxiri), Abu Nasr al-Iyoziy (IX asr oxiri) kabilardan dars olgan. Lekin, Imom al-Moturidiy ba'zi adabiyotlarda taxmin qilingandek 870 yilda tug'ilgan bo'lsa, unda Ibn Muqotil ar-Roziydan dars olmagan bo'lib chiqadi.

O'z navbatida u Abul Hasan ar-Rustug'faniy (vafoti 961), Abul Qosim Hakim as-Samarqandiy (vafoti 954), Abul Yusr Abudulkarim al-Pazdaviy (vafoti 999) kabi o'z davrining yetuk olimlariga ustozlik qilgan. Bunday tanikli olimlar ustozlarining ta'limotlarini davom ettirganlari uchun hanafiylik mazhabi ichida kalomga oid Maturidiya yo'nalishi vujudga keldi va hozirgacha davom qilmogda. Abu Mansur al-Moturidiyning barcha asarlari sof islomiy ta'limotga da'vat qilganligi bilan juda ahamiyatlidir, xususan, ulardan ikkitasi muhim.

Quyida Abu Mansur al-Moturidiyning ba'zi asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

"Ta'vilotu ahli as-sunna" (Sunnat ahlining izohlari) asari tafsir ilmiga bag'ishlangani uchun "Ta'vilot al-Qur'on" deb ham ataladi. Sakkiz jildan iborat bo'lgan bu kitobida Abu Mansur al-Moturidiy islomiy aqidaga nisbatan turli qarashlarni bayon etib, ularga ahli sunna aqidasi asosida baho beradi va shu orqali Qur'oni karimni tafsir qiladi. Afsuski, mazkur asarning ba'zi jildlari nashr etilgan bo'lsa-da, biroq to'la chop qilinmagan.

"Kitob at-tavhid" (Allohning yagonaligini isbotlash kitobi) asari Moturidiyga kalom maktabi a'zolarining birlamchi manbalaridan bo'lib kelgan va ahli sunnat val jamoa e'tiqodini bayon etishda, o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Bayonu vahm al-mo'tazila" (Mo'tazilalarning gumonlarining bayoni) asarida mo'taziliylik oqimi vakillarining fikrlari keltirilib, ularning bu fikrlari noto'g'riiligi ko'rsatib beriladi.

"Ar-Raddu 'alo al-qaromita" (Qarnatilyarga raddiya) asarida Qarnatiylik oqimi vakillariga raddiyalar beriladi.

"Raddu avoyil al-adilla" (al-Ka'biyning "Avvalgi dalillar" asariga raddiya) asarida mo'tazililyarning peshvolaridan biri Abul Qosim

Abdulloh al-Ka'biy (vafoti 931)ning "Avoyil al-adilla fiy usul ad-din" (Din asoslarida avvalgi dalillar) nomli kitobiga raddiya berilgan. Al-Ka'biy Samarqandga yaqin shaharlardan Balkda tug'ilib o'sgan va shu yerda vafot qilgan mo'taziliylarning tanqili imonlaridan, ka'biya yo'nalishi namoyandasi edi. Abu Mansur al-Moturidiy uning yana "Vaid al-fussoq" (Fosiqdanni qo'rqitish) va "Tahzib al-jadal" (Muzokaratlarni to'g'rilash) kabi asarlariga ham raddiya bergan.

"Radd al-imonat li ba'z ar-ravofiz" (Rofiziylarning ba'zisi-ga imomat mas'alasida raddiya) asari. Rofiziylar shialikning bir oqimi bo'lib, ular diniy hokimiyat va marosimlar boshqaruvini Hazrati Ali (600-661) va Fotima (605-633) avlodlariga tegishli deb e'tiqod qilar edilar. Bunday e'tiqodning to'g'ri emasligini Imom al-Moturidiy mazkur asarida aqliy va naqliy dalillar bilan isbot qiladilar.

"Radd al-usul al-xamsa" ("Beshta asos" asariga raddiya) asari Abu Umar Said ibn Muhammad al-Balxiyning (IX asr oxiri – X asr boshi) "Beshta asos" asariga raddiya bo'lib, unda islomning besh ustuni bo'lmish imon, namoz, zakot, ro'za va haj mas'alalari bayon etilgan. Bu shofi'iylik mazhabida bo'lgan, mo'taziliy e'tiqodidagi iroqlik Muhammad al-Bohiliy (vafoti 933)ning shu nomdagi asariga raddiya bo'lishi ham mumkin. Imom al-Moturidiy asardagi ba'zi noto'g'ri talqin va fikrlarga raddiyalar bergan. Ba'zilar Abu Muhammad Abdulvohid ibn Muhammad al-Bohiliy (vafoti 1349)ning "Beshta asos" asariga yozilgan raddiya deb noto'g'ri yozishgan.

"Ma'xaz ash-sharoye" (Shar'iy yo'llarning manbasi) asari fiqhga oid bo'lib, hanafiylik fiqhiga bag'ishlangan.

"Kitob al-jadal" (Bahs-munozara kitobi) asarida bahs va munozara qilish qonun-qoidalari, uslublari bayon etilgan. Abu Mansur al-Moturidiyga nisbat qilinadigan "Sharh al-Fiqh al-akbar" ("Eng katta fiqh" ga sharh), "Kitob al-usul" (Asoslar kitobi), "Risola fi-l-aqoyid" (Aqidalar haqida kitob), "Irshod al-mubtade'in" (Boshlovchilarga yo'llanma), "Risolai jonivorloriy" (Jonivorlarni asrash haqida risola) kabi asarlar ham borki, ular ham hozirgacha yetarlicha tahqiq qilinmagan.

Abu Mansur al-Moturidiyning kalam ilmiga qo'shgan hissasini

e'tiborga olib zamonadoshlari va keyingi zamonlar ahli uni "Imom al-hudo" (Hidayatga etuvchi imom), "Qudvatu ahl as-sunna" (Ahli sunna peshvosi), "Musahhibu aqoyid al-muslimin" (Musulmonlar aqidasi-ni isloh etuvchi), "Imom al-mutakallimin" (Kalom ilmi egalari-ning imomi), "Rabibu ahl as-sunna" (Ahli sunna val jamoa tarbiyasini olgan) kabi ilmiy unvonlar bilan ataganlar.

Abu Mansur al-Moturidiyning o'ziga xos ta'limotini o'rganish uchun olimlarimiz oldida katta imkoniyatlar mavjud. Chunonchi, Imom al-Termiziyning asosiy asarlari qo'lyozmalari va ularga yozilgan ba'zi sharhlar nafaqat Misr, Turkiya, Hindiston, Angliya kabi mamlakatlarda, balki respublikamizdagi qo'lyozmalar xazinasida ham saqlanadi.

Mavridi kelganda zo'r mamnuniyat bilan aytish kerakki, Imom al-Moturidiyning hayoti va merosini ilmiy asosda har tomonlama chuqur o'rganib, keng xalq ommasiga yetkazishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida"gi Qarori muhim ahamiyatga molik hujjat bo'ldi.

Xususan, O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan 2000 yilda Abu Mansur al-Moturidiyning 1130 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi, imom qabri ustida yangi maqbara barpo etildi. Birinchi Prezidentimiz tomonidan mazkur maqbara 2000 yilda Samarqandning Chokardiza qabristonida bunyod etildi. Buyuk vatandoshimiz Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi o'rmi beqiyosdir.

Bilib oling!

✓ Fenomen atamasini Aristotel "ko'rnuvchi", "tuguluvchi" ma'nosida ishlagan. Leybnits esa bu so'zni tajribadan ma'lum bo'lgan dalillarga nisbatan qo'llagan. Immanuel Kant "Fenomen" tushunchasi yordamida mohiyatni hodisadan keskin ajratishga uringan va hodisani bilish mumkin, mohiyatni esa bilish mumkin emas deb hisoblagan. "Fenomen" atamasini zamoniaviy falsafaga Immanuel Kant kiritgan.

Mustaqil ta'lim uchun

1. <https://youtu.be/1ZEU00AFgp0?si=R544379pqlw-s-DIG> havolasi orqali "O'zbekiston tarixi" telekanalida efrga uzatilgan "Birinchiligi uyg'onish darining buyuk o'zbek allomalari" mavzusidagi ko'rsatuvni ko'ring va tahlil qiling.



2. <https://www.youtube.com/watch?v=tr-vpDDez4uM> havolasi orqali "O'zbekiston tarixi" telekanalida efrga uzatilgan "Buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariy" mavzusidagi "Buyuk yurt allomalari" ko'rsatuvini ko'rib, fikringizni bildiring.



3. <https://www.youtube.com/watch?v=DJWz5qYYdsQ> havolasi orqali "O'zbekiston tarixi" telekanalida efrga uzatilgan "Shayx Najmiddin Kubro" mavzusidagi "Buyuk siymolar" ko'rsatuvini ko'ring va tahlil qiling.



4. <https://youtu.be/WZKA3eVwdbQ?si=rUJfXtXJC619J> havolasi orqali YouTube kanalida "Imom Al-Buxoriy" nomi o'zbek filmi ko'ring va tahlil qiling.



Glossariy

Daho (arab.) – favqulodda kuchli aql, xotira va ijodiy iste'dod, bilim saviyasi va dunyogarashiga ko'ra o'z davri darajasidan ancha ilgari ketgan shaxs.

Fenomen – (yunon. φαινόμενον, φαινώ *phainō* – "ko'rsataman") har qanday kuzatiladigan hodisaga aytiladi. Kundalik hayotda esa bu atama kamdan-kam kuzatiladigan g'ayrioddiy hodisani anglatadi.

Fenomen (yunon. *phainomenon* – "sodir bo'luvchi"): 1) g'ayri-oddiy, kamdan-kam bo'ladigan hodisa, fakt; 2) his-tuyg'u tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi falsafiy tushuncha (bu ma'noda o'z mohiyati jihatdan intellektual mushohada predmeta sifatida namoyon bo'luvchi noumenning qaramqarshisi).

Hadis – arab tilida "so'z" degan ma'noni anglatadi. Demak, hadis deganda Nabiy sollallohu alayhi vasallamning aytdigan gap so'zlari ko'zda tutiladi va tushuniladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Markaziy Osiyodan etishib chiqqan buyuk daholardan kimlarni bilasiz?
2. Fan va texnika tarixida "Daholik fenomeni" haqida so'zlab bering.
3. "Buyuk muhaddis allomalar va "Hadis ilmi rivojidagi oltin davr" mavzularini "mind map" metodi orqali yoritib bering.
4. Imom al-Buxoriy va uning "Al-Jome' as-sahih", "Al adab-al-mufrad" asarlari haqida qisqacha gapirib bering.
5. Abu Iso Muhammad at-Termiziy va uning "Al-Jome'", "Ash-Shamoil an-Nabaviya" kabi asarlari va ularning butun musulmon olamidagi ahamiyati nimalardan iborat ekanligi haqida so'zlab bering.
6. Qaffol ash-Shoshiy buyuk musulmon qonunshunosi. Qaffol ash-Shoshiyning "Odob al-Qozi" asari haqida nimalarni bilasiz?
7. Abu Mansur al-Moturudiy kalom ilmining bilimdonlaridan haqida taqdimotlar tayyorlang va uni himoya qiling.

Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Ushbu mavzu bo'yicha tarixiy manbalardan birini tahlil qiling.
2. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlang.
3. Ushbu mavzuning kalit so'zlari uchun krossvord yarating.
4. Mavzu bo'yicha Internet-saytlar katalogini tuzing.
5. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha case study-ni ishlab chiqing.

6-mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Muhammadrasul o'g'li A. Qaffol Shoshiy ibrati. – Toshkent: Hidoyat, 2004.
2. Abu Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy shartii. 1-jild. – Toshkent: Irfonnashr, 2021. – B.143.
3. Imom al-Buxoriy. "Al-Jome' us-sahih". 8-jild. – Toshkent, 2013.

4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – Toshkent: Hillol-nashr, 2019. – B. 59, 61.
5. Alloqulov A. Abu Mansur Moturiy. E'tiqod tarbiyachisi: risola / – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 144 b.
6. Ismoilov M. Imom al-Buxoriy. Muhaddidlar imoni: risola / – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 160 b.
7. Xolmurodov R. Birinchi Renessans allomalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangi asr avloidi, 2023. – 192 b.
8. Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. – T.: O'zbekiston 2020. – 424 b.

6-mavzu bo'yicha testlar

1. Dabohlik nima?

- A) Intelektual yoki ijodiy faoliyatning eng yuqori darajasi hisoblanadi.
- B) Aql-idrok, tezkor fikr yuritish qobiliyati va kuchli iroda fazilatlarini hisoblanadi.
- C) Buyuk iqtidor va yuksak ijtimoiy ong mahsuli hisoblanadi.
- D) barcha javoblar to'g'ri

2. Fenomen nima?

- A) G'ayrioddiy, kamdan kam bo'ladigan hodisa, dalil deganidir.
- B) His-tuyg'u tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushunchadir.
- C) Tajribadan ma'lum bo'lgan dalillarga nisbatan qo'llaniladigan tushunchadir.
- D) Barcha javoblar to'g'ri

3. Muso al-Xorazmiyning asarlari ko'rsatilgan qatorni toping?

- A) "Kitob al-jabr val mugobala", "Hind arifmetikasi haqida kitob"
- B) "Astronomiya negizlari", "Usturlab haqida risola"
- C) "Quyosh soatlari to'g'risida risola", "Ma'sud qonuni"
- D) "Musiqaga katta kitob", "Mineralogiya"

4. Ahmad al-Farg'oniyning mashhur asari qanday nomlanadi?

- A) "Astronomiya negizlari"
- B) "Tarix risolasi"
- C) "Quyosh soatlari to'g'risida risola"
- D) "Geodeziya"

5. Abu Nasr al-Forobiyning mashhur asarlari ko'rsatilgan qatorni toping?

- A) "Fozil odamlar shahri", "Musiqaga katta kitob"
- B) "Usturlab haqida risola", "Geodeziya"
- C) "Quyosh soatlari to'g'risida risola", "Saydana"
- D) "Ma'sud qonuni", "Farzlar haqida kitob"

6. Abu Rayhon Beruniyning asarlari ko'rsatilgan qatorni toping?

- A) "Geodeziya", "Hindiston", "Minerologiya"
- B) "Saydana", "Donishnoma", "Farzlar haqida kitob"
- C) "Usturlab haqida risola", "Quyosh soatlari to'g'risida risola"
- D) "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Siyosatnoma"

7. Abu Ali Ibn Sinoning asarlari ko'rsatilgan to'g'ri javobni toping?

- A) "Tib qonunlari", "Musiqaga ilmiy katta to'plan", "Donishnoma"
- B) "Musiqaga", "Devoni hikmat", "Fozil odamlar shahri"
- C) "Saydana", "Siyosatnoma", "Qush risolasi"
- D) "Faqrnoma", "Farzlar haqida kitob", "Donishnoma"

8. Ahmad Yassaviyning mashhur asari qanday nomlanadi?

- A) "Devoni hikmat"
- B) "Faqrnoma"
- C) "Farzlar haqida kitob"
- D) "Rahm-sharf qat haqida"

9. Burxoniddin Marg'inoniyning asarlari ko'rsatilgan to'g'ri javobni toping?

- A) "Bidayatul muhtadiy", "Al mazid", "Kitobul faroiz"
- B) "Devoni hikmat", "Faqrnoma", "Tazkirat ul-hurufoz"
- C) "Saydana", "Hidoya fi furu' al-fukh", "Kitob uz-zuhd"
- D) "Al-loni' al-kabir", "Kitobul faroiz", "Al-ilal fil-hadiys"

10. Ash-Shamoiil an-Nabaviya asarining muallifi kim edi?

- A) Abu Iso Muhammad at-Termiziy
- B) Imom Ismoil al-Buxoriy
- C) Burxoniddin Marg'inoniy
- D) Sulaymon Baqirg'oniy

**7-MAVZI: MARKAZIY OSIYOLIK
QOMUSIY MUTAFAKKIRLARNING
DUNYO SIVILIZATSIVASIDA TITGAN
O'RNI**

Reja:

- 7.1. Muso al-Xorazmiyning "Bayt ul-Hikma" dagi faoliyati.
- 7.2. Ahmad al-Farg'oniy va uning "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum" asari va uning ahamiyati.
- 7.3. Abu Nasr Farobiyning ijodi va faoliyati.
- 7.4. Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar. Abu Rayhon Beruniy Xorazm Ma'mun akademiyasining raisi.
- 7.5. Mustaqil O'zbekistonda Xorazm Ma'mun akademiyasining qayta tiklanishi va uning bugungi kundagi faoliyati.
- 7.6. Mustaqil O'zbekistonda qomusiy allomalarimiz merosini o'rganish va targ'ib qilishning boshlanishi.

Tayanch tushunchalar: Xuroson, "Bayt al-hikma", Algebra, Algoritm, Zij, Asturlab, Fozil shahar, Substansiya, Sillogizm, Kalom, azaliy vujud, Unsur, Devon, Turkiy, Sivilizatsiya, Mustaqillik

7.1. Muso al-Xorazmiy va uning "Bayt ul-Hikma" dagi faoliyati

Buyuk matematik, astronom va geograf olim



Muso al-Xorazmi

Abu Abdullah Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Xorazmning madaniy markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahrida 783 yilda tavallud topdi. U dunyo faniga g'oyat katta hissa qo'shdi, algebra fanining asoschisi bo'ldi. Xorazm fan olamiga ko'pgina mutafakkirlarni yetkazib bera olgan diyov bo'lib, bu haqida xorazmshunos olim S.P. Tolstov shunday deydi: "Qadimiy Xorazm fanining Sharq fani tarixidagi o'rni juda muhim. Xorazmning islomgacha bo'lgan antik va afrigi'y davrini o'ziga birlashtiradi. Ammo madaniy va moddiy

yodgorliklarini astoydir tahlil qilib aytla olamizki, Xorazmda aniq fanlar – geometriya, trigonometriya, astronomiya, topografiya, ximiya, mineralogiya va tabiiy fanlar o'sha davrdayoq yuksak darajada taraqqiy etgan... Xorazm keyinchalik arab halifaligi tarkibiga kiritilgach, xorazmlik olimlar tez orada shuhrat qozonganlar va "arab fani" deb atalgan faning yaratuvchilari orasida eng ilg'or o'rinni egallaganlar".

Muso al-Xorazmiy bolalik va o'smirlilik yillarida boshlang'ich ta'limni vatanida olib, arab, fors, hind va yunon tillarini qunt bilan o'rgandi, bu tillardagi kitoblarni mutolaa qildi va el nazariyaga tushib olim bo'lib yetishdi.

Bag'dod halifasi Horun ar-Rashid o'g'li al-Ma'muni 808 yilda Bag'dod halifaligining sharqdagi noibi qilib tayinlaydi, shahzoda al-Ma'mun noiblikni poytaxti Marv (hozirgi Mari)ga kelib tezlikda unga bo'yisunuvchi o'lkalar (Xuroson va Movarounnahr)da yashovchi olimlar va shoirilarni o'z saroyida to'plab "Mari olimlari yig'ini"ni tashkil qiladi. Ko'pgina olimlar qatori Muso al-Xorazmiy ham Marvga keladi va o'zining samarali ijodiga aynan shu yerda tamal toshini qo'yadi. Al-Xorazmiy bu maskanda zamonasining ko'pgina olimu fuzolalari bilan tanishadi.

Al-Ma'mun otasi o'limidan keyin 813 yilda o'zini halifa deb e'lon qiladi, Bag'dodga qo'shish yuborib o'z akasi halifa al-Aminni taxtdan tushiradi. 819 yilda bir guruh saroy ahli va Marvda to'plangan olimlar bilan Bag'dodga halifalikni markaziga kelib o'z davlatini mustakamlab, boshlagan hayri ishlaridan biri "Donishmandlik uyi" ("Bayt ul-hikma")ni qayta tashkil qilish va kengaytirishga katta e'tibor berdi. Bu ilmiy markaz qoshida ulkan kutubxona mavjud bo'lib, unga halifalikning hamma joyidan fagat arab tilidagi qo'lyozmalar emas, balki yunon, fors, hind, suryoniy va boshqa tillarda yozilgan qo'lyozmalar ham keltirilgan edi. Halifa al-Ma'munning tirishqoqligi va olimlarning say'i-harakatlari bilan ularni asosiy qismi arab tiliga tarjima qilindi va yirik rasadxona qurilishi boshlab yuborildi. Dunyoning turli burchaklariga ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilindi, al-Ma'mun bu ilmiy markazda va halifalikdagi barcha fanlar rahbari qilib Muso al-Xorazmiyni tayinladi.

VIII-IX asrlarda arab halifaligining poytaxti Bag'dod – tarixiy

Madaniat as-Salmon oshkonda-olgan, yuksalgan va savdo-sotiq rivojlangan shahar hisoblangan. Muso al-Xorazmiyning ilmiy faoliyati ana shu Bag'dod shahrida va Bag'dod hufafalari – al-Ma'mun (813-833), al-Mu'tasim (833-842) hamda al-Vosiq (842-847) davrlariga to'g'ri keladi. "Bayt al-hikma"da Muso al-Xorazmiy bilan birga Markaziy Osiyolik mashhur olimlar al-Farg'oniy, Habashi al-Hasib, Xolid ibn Abdumalik al-Marvaziy, Yahyo ibn Abu Mansur, Abbos ibn Sayid Jarhary, Ahmad ibn Abdullo Marvaziy, Muhammad ibn Muso ibn Shokir va boshqalar hamda halifalarning harcha viloyatlaridan chaqirilgan eng yaxshi olim va tarjimonlar ham ishlaganlar.

Muso al-Xorazmiy matematika, geometriya, astronomiya, tarix, geografiya va boshqa fanlarga doir ko'plab risolalar yozgan. Uning bizgacha yetimiga yaqin asarlari yetib kelgan. Bular quyidagilardan iborat:

- ❖ "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val-muqobala" ("Aljabr va almugobala hisobi haqida qisqacha kitob") al-Xorazmiyning bu asari nomidan "algebra" atamasi paydo bo'lgan. Risola XII asrda yoq lotin tiliga tarjima qilinib, "Algorihmi" risolasi nomi bilan butun Yevropaga tarqalgan.

- ❖ "Kitob fi hisob al-hind" ("Hind hisobi haqida kitob") al-Xorazmiyning arifmetikaga oid ushbu risolasini faqat birgina nusxasi lotincha tarjimasi saqlangan. Ushbu risolada hozir biz ishlatadigan birdan to'qizgacha bo'lgan raqamlar va nol yordamida istalgan sonni yozish, ular bilan arifmetik to'rt amalni bajarish, o'sha raqamlar bilan ifodalangan sonlardan kvadrat idliz chiqarish qoidalarini izohlab berilgan.

- ❖ "Kitob al-jami' va-t-tarif" ("Oq'shish va ayirish haqida kitob") al-Xorazmiyning ikkinchi arifmetik risolasi misrlik matematik Abu Komil (850-930) qo'lida saqlangan va o'zining algebraik risolasida bir parchasini to'latilgicha kelirgan.

- ❖ "Zij al-Xorazmiy" yoki "Kichik Sindhind" al-Xorazmiyning astronomik asari. Yevropa mamlakatlarida "Astronomik jadvallar" nomi bilan mashhurdir. Asarni lotin tiliga 1126 yilda Adelard Bat tarjima qilgan.

- ❖ "Kitab sural al-arz" ("Yerning surati" yoki "Geografiya") al-Xorazmiyning geografik asari, yaratilishiga shu davrda Bog'dod halifaligida o'tkazilgan bir qator geografik ishlar, jumladan, al-Xorazmiy boshliq 70 nafar olim 840 yilda yaratgan "Ma'mun dunyo xaritasi" nomi atlasning tuzilishi hamda ko'pgina yunon olimlarining shu mavzuga oid asarlarining tarjima qilinishi kabi omillar sabab bo'lgan.

- ❖ "Kitob al-amal al-asturlab" ("Asturlab yasash haqida kitob").
- ❖ "Zara if min amal Muhammad ibn Musa al Xorazmiyning asturlab as-samt bi-l-asturlab" ("Muhammad ibn Muso al Xorazmiyning asturlab yordamida azimutni aniqlash haqida ajoyib ishlari").

- ❖ "Amal assa at fi basit-ar-ruxama" ("Marmar taxta yuzasida soatlarni yasash haqida risola").

- ❖ "Marifa taqvim samt al-qibla ayyi baladin shita" ("Xohlagan shahar qiblasini azimutning yo'nalishini aniqlash haqida").

- ❖ "Tulu' azimutini aniqlash va soat kvadranti haqida risola".

- ❖ "Risala fi ma rifa avqat as-salat" ("Namoz vaqtlarini aniqlash haqida risola").

- ❖ "Mukhula, tug'ir, binkam va dulab deb ataluvchi soat asboblari haqida risola".

- ❖ "Risala fi mar i hilal" ("Hilol ko'rinishi haqida risola").

- ❖ "Maqala fi-istixraj ta rix al-yahud va a yadhim" ("Yahudiylar kalendari va bayramlarini aniqlash haqida risola").

- ❖ "Kitab at-tarix" ("Tarix kitobi") o'z davridan oldingi vaqtlarda bitilgan tarix kitoblarining yig'indisi va o'z davri tarixi bilan mujassamlashtirilgan risola.

Buyuk matematik vatandoshimiz Muso al-Xorazmiy 850 yilda o'z ijod maskani bo'lmish Bag'dod shahrida olamdan o'tgan. Uning ilmiy asarlari yunon, lotin, nemis, ingliz, golland, rus tillariga qayta-qayta tarjima qilingan, al-Xorazmiyning ilmiy faoliyatiga buyuk olim Abu Rayhon Beruniy, shoir va matematik Umar Hayyom yuksak baho berganlar. Olimning ilmiy merosi hamon o'z qimmatini saqlab, avlodlar o'qishiga sazovor bo'lib kelmogda. Olimning 1200 yillik to'yi jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Xiva shahrida 1983 yilda nishonlandi. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi bir talay ilmiy o'quv dargohlari,

merosiga yuqori baho berganlar.

Amaliyotchi sifatida osmon jismlarini kuzatib, ko'plab kashfiyotlar qildi. U yerning sharsimonligini ilmiy jihatdan isbotladi. Yilning yeng uzun kunini sanasini – 22 yan. yeng qisqasi – 23 dekabr deb belgiladi. Farg'ony, shuningdek, quyosh dog'lari mavjudligini aniqlab, 832 yilda quyosh tutilishini bashorat qildi.

Al-Farg'ony uning oxirini Qohirada o'lkazdi. U yerda u munajjimlar bashorati – yulduzlarning joylashishini aniqlash va ular orasidagi masofani o'lchash asbobi bilan shug'ullandi. Ushkunaga matematik tavsif berdi, takomillashirish bo'yicha takliflar berdi. Qohirada Nilomer yoki Nilometrni qurib ishga tushirilishida ishtirok etdi. Nilometr 861 yilda Nil daryosi suv sathini o'lchash uchun qurildi.

7.3. Abu Nasr Farobiyning ijodi va faoliyati

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug'

Tarvon (873. Farob shahri – 950. Damashq) jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olimdir. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida tarqatqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Farobiy o'z zamonasi imlarning barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib, "Al-Muallim as-soniy" – "Ikkinchi muallim" (Aristotelidan keyin), "Sharq Arastusi" deb yuritilgan.



Abu Nasr Farabi

Farobiy turkiy qabilalardan bo'lgan harbiy xizmatchi oilasida. Sirdaryo qirg'og'idagi Farob – O'tror degan joyda tug'ilgan. U tug'ilgan hudud Somoniylar tomonidan boshqarilib, arab halifaligining shimoliy chegarasi hisoblangan. Farobiy boshlang'ich ma'lumotni ona yurrida oldi. So'ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o'qidi. Keyinroq o'z ma'lumotini oshirish uchun arab halifaligining madaniy markazi bo'lgan Bag'dodga keldi. Bag'dodda bu davrda musulmon dunyosining

turli o'lkalaridan, xususan Markaziy Osiyodan kelgan ko'p ilm ahllari to'planishgan edi. U yerda bora turib Farobiy Eron shaharlari – Hamadon, Rayda va boshqa joylarda bo'ldi. Farobiy Bag'dodda al-Mutadall (829-902), al-Muqtafiy (902-908), al-Muqtafir (908-932) halifalikalari davrida yashadi. U bu yerda o'rta asr fani va ilimning turli sohalarini, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tamiyib, o'ziga diniy e'tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy mulqog'da bo'ldi. Abu Bashar Marja ibn Yunusdan (870-940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Xiydon (860-920)dan tabobat va mantiq ilmini o'rgandi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq ilmi bitgan.

Taxminan 941 yildan boshlab Farobiy Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib, kamtarona kun kechirib, ilm bilan shug'ullangan. So'nggi yillar u Halab (Aleppo) hokimi Sayfuddavla Hamdamid (943-967) ilfotiga sazovor bo'ldi. Tadqiqotchilar uning Halabdagi hayotini eng samarali davr hisoblaydilar. Chunki bu hokim hurfikritiligi, ilm-fanga e'tibor berganligi bilan ajralib turgan. U Farobiyini saroyga taklif etadi, lekin Farobiy bunga ko'nmaydi, oddiy hayot kechirishini afzal ko'radi.

Farobiy 949-950 yillarda Misrda, so'ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va "Bob as-sag'ir" qabristoniga dafn qilingan deyiladi.

Farobiy o'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko'proq qiziqganligi uchun uning asarlarini ikki guruhga ajratish mumkin: 1) yunon faylasuflari, tabiiy-shunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan asarlar; 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Farobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriyalarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari ("Metafizika", "Etika", "Ritorika", "Sofistika" va b.)ni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko'rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Farobiy sharhlari O'rta va Yaqin Sharq ilg'or mutafakkirlarining dunyog'arashini shakllantirishda, ularni Aristotel

g'oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Abu Ali ibn Sino Farobiy sharlari ("Metafizika" – "Moba'diy tabiat")ni o'qib, Aristotel asarlarini tushunganligini alohida ta'kidlaydi. Farobiyning shart yozish faoliyati faqat Sharqningina emas, o'rta asr Ovro'posini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o'ynadi. Bu faoliyat uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu bosqich Farobiyga o'ziga xos maktab xizmatini o'tagan va yangi mavzularda tadqiqotlar olib borish uchun zamin hozirlagan.

Farobiyning bunday asarlarini mazmuniga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1) falsafaning umumiy masalalariga, ya'ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonuniyatlari va turli kategoriyalariga bag'ishlangan asarlar: "Substansiya haqida so'z" ("Kalom fi-l javhar"), "Masalalar manbai" ("Uyunul masoil"), "Qonunlar haqida kitob" ("Kitob fi-l navomis"), "Falak harakatining doimiyliigi haqida" ("Kitob fi-l harakat al-falaka doimatun") va b.:

2) inson bilish faoliyatining falsafiy tomonlariga bag'ishlangan, ya'ni bilishning shakllari, bosqichlari, usullari haqidagi asarlar. Mantiq (logika)ning turli muammolariga doir asarlari ham shunga kiradi: "Kattalarning aqli haqida so'z" ("Kalom fi-l aql al-Kabir"), "Yoshlarning aqli haqida kitob" ("Kitob fi-l aql as-sag'ir"), "Mantiq haqida katta qisqartma kitob" ("Kitob al-muxtasar al-Kabir fi-l mantiq"), "Mantiqqa kirish kitobi" ("Kitob al-madxal ila-l mantiq"), "Isbot kitobi" ("Kitob al-burxon"), "Silloqizim shartlari kitobi" ("Kitob sharoit al-qiyos"), "Jon (ruh)ning mohiyati haqida risola" ("Risola fi mohiyat an-nafs") va b.:

3) falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni, tematikasi haqidagi asarlar: "Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi" ("Kitob fi ixso al-ulum va al-tarif"), qisqacha nomi "IXso al-ulum", "Falsafa tushunchasining ma'nosi haqida so'z" ("Kalom fi ma'oni ism al-falsafa"), "Falsafani o'rganishdan oldin ni-mani bilish kerakligi haqida kitob" ("Kitob fi ashyo allati yaxlo-ju antallama kabl al-falsafa"). "Falsafaga izohlar" ("Ta'oliq fi-l hikmat") va b.:

4) moddaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan, ya'ni matematika fanlari – arifmetika, geometriya,

astronomiya va muzikaga oid asarlar: "Hajm va miqsor haqida so'z" ("Kalom fi-l xiyz va-l miqsor"), "Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob" ("Kitob al-madxal ila-l han-dasat al-vaxmiyati qisqartma"), "Astrologiya qoidalari haqida mulohazalarni to'g'rilash muxtasarsan"), "Maqola fi-l ji-hat allayati yassexxu alayho al qawl usuli haqida maqola" ("Maqola fi-l ji-hat allayati yassexxu alayho al qawl bi ahkom an-nujum"), "Musiq haqida katta kitob" ("Kitob ul-musiq al-Kabir"), "Musiq haqida so'z" ("Kalom fi-l musiqiy"), "Rimlar turkumlari haqida kitob" ("Kitob ul fi ixso-il-iqo") va b.:

5) modda xossalari va turlarini, noorganik tabiatning, hayvonlar va inson organizmining xususiyatlarini o'rganuvchi, ya'ni tabiiy fanlar – fizika, kimyo, optika, meditsina, biologiyaga bag'ishlangan asarlar: "Fizika usullari haqida kitob" ("Kitob fi usul ilm at-tabiat"), "Alkimyo ilmining zarurliigi va uni inkor etuvchilarga raddiya haqida maqola" ("Maqola fi vujub sanoat al-kimyo va-r radd ala mubtiluho"), "Inson a'zolari haqida risola" ("Risola fi a'zo al-insoniya"), "Hayvon a'zolari to'g'risida so'z" ("Kalom fi a'zo al-hayvon") va b.:

6) tishunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, xattotlikka oid asarlar: "She'r va qofiyalar haqida so'z" ("Kalom fi she'r va-l qavof"), "Ritorika haqida kitob" ("Kitob fi-l xioba"), "Lug'atlar haqida kitob" ("Kitob fi-l lug'at"), "Xattotlik haqida kitob" ("Kitob fi san'at al-kitobar") va b.:

7) ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tarbiyaga bag'ishlangan, ya'ni huquqshunoslik, etika, pedagogikaga doir asarlar: "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola" ("Risola fi-t tanbih ala asbob as-saodat"), "Shaharni boshqarish" ("As-siyosat an-madaniya"), "Urush va tinch turmush haqida kitob" ("Kitob fi maoyish va-l xurub"), "Fazilatli xulqlar" ("As-siyarat al-fazila") va b.

Farobiyning ilmiy merosi, umuman, o'rta asr Sharqning madaniy-ma'naviy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma'lumot beradi. Mutafakkir o'z asarlarini o'sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Farobiy shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she'riar ham yozgan.

Farobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng

targalgan. So'nggi asrlarda ko'chirilgan nusxalari ko'p mamlakatlarning kutubxona va muassasalarida saqlanadi. Toshkentda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Farobiyning 16 risolasini (arabcha) o'z ichiga olgan "Hakimlar risolalari to'plami" ("Majmuat rasoi al-hukamo", Qo'lyozmalar fondi, 2385-in.) bor. Bu noyob qo'lyozma Farobiy asarlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. To'plandagi Farobiy risolalari 1975 yili qisman o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etildi.

Farobiyning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari "Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi" asarida batafsil yoritilgan. Kitobda o'ra asrda ma'lum bo'lgan 30 dan ortiq fanning ta'rifi, ahamiyati ko'rsatib beriladi. Barcha fanlar 5 guruhga ajratiladi: 1) til haqidagi ilm (7 bo'lim - grammatika, orfoografiya, she'riyat); 2) mantiq va uning bo'laklari; 3) matematika (arifmetika, geometriya, optika, astronomiya, musiq, og'irliklar haqidagi ilm, mexanika); 4) tabiatshunoslik va metafizika (8 bo'lim - bashorat qilish, tibbiyot, alkimyo); 5) shahar haqidagi fanlar - siyosiy ilm, fiqh, kalom (etika, pedagogika). Fanlarning bu tasnifi o'z davrida ilmiy bilimlarni ma'lum tizimga solishning mukammal shakli bo'lib, bilimlarning keyinga rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu narsa diqqatga sazovor. Farobiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni vazifasidan kelib chiqib to'g'ri farqlagan. Uning talqinicha, matematika, tabiatshunoslik, metafizika fanlari inson aqlini bilimlar bilan boyitish uchun xizmat qilsa, grammatika, mantiq, she'riyat kabi ilmlar fanlardan to'g'ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to'g'ri tushuntirish, ya'ni aqliy tarbiya uchun xizmat qilgan. Siyosat, axloq, ta'lim-tarbiyaga oid bilimlar esa kishilarning jamoalarga birlashuvini, ijtimoiy hayotga tegishli qoidalarni o'rgatadi.

Farobiy insonning amaliy faoliyati uchun tabiiy fanlarning ahamiyatini yaxshi tushunadi. Bunday fanlarni u real narsalar haqidagi ilmlar deb ataydi. U yunon tabiatshunoslari Yevklid, Ptolemey, Galen kitoblariga yozgan sharhlarida, o'zining geometriyaga doir kitobida antik dunyo, o'ra matematik g'oyalarning yirik bilimdoni sifatida mavdonga chiqdi, matematikaning bir qancha murakkab kategoriyalari va mavlum tushunchalarini ilmiy nuqtai nazardan hal etish yo'llarini

qidirdi, xususan son haqidagi ehtimollik nazariyasi to'g'risidagi g'oyalarni boyitdi.

Farobiy "Yulduzlar haqidagi qoidalarda nima to'g'ri va nima noto'g'ri"ligi to'g'risida risolasida osmon jismlari bilan yerdagi hodisalar o'rtasidagi tabiiy aloqalarni, xususan bulutlar va yomg'irlar paydo bo'lishining Quyosh issiqdigi ta'sirida bug'lanishga sababiy bog'liqligini yoki Oy tutilishi Yerning Quyosh bilan Oy o'rtasiga tushib qoqishiga bog'liq ekanligini ko'rsatgan edi. Bu bilan u osmon jismlariga qarab "fol ochuvchilar"ni fosh qildi. Farobiy arzon metallarni qimmatbaho metallarga aylantirishga urinuvchilarni tanqid qilib, kimyoga tabiiy ilmlarning bir qismi sifatida qaradi. Farobiy tabiiylik bilan bevosita shug'ullanmagan bo'lsa-da, nazariy tibbiyotni yaxshi bilgan. Uning tibbiy qarashlari "Inson a'zolari haqida" risolasida bayon qilingan. U inson a'zolarini, turli xil kasalliklar sababini, ularning paydo bo'lish sharoitlarini alohida-alohida o'rganishni, organizmning salomatligini tiklash uchun kerakli oziq-ovqatlarga e'tibor berishni qayd etadi. Insonning ruhiy va jismoniy holati tashqi omillar, muhi ta'sirga bog'liqligiga e'tibor beradi. Uning tibbiyot vazifasi, maqsadi haqidagi qarashlari Ibn Sinoning bu haqidagi qarashlariga katta ta'sir ko'rsatdi.

Farobiy dunyogarashining shakllanishiga asosan Sharqning qadimgi ilg'or madaniyati an'analari, arab halifaligiga qarshi xalq harakatlari, o'ra asr tabiiy-ilmiy tafakkur yutuqlari, Yunonistonning falsafiy merosi ta'sir ko'rsatdi. Farobiy avvalambor Aristotel ta'limotini tiklash, asoslash va ilg'or tomonlarini so'nggi ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, Sharq aristotelizm oqimini vujudga keltirdi. Bu oqimning uslubi, muhim masalalari, kategoriyalarini ishlab chiqdi.

Farobiyning falsafiy ta'limoti mohiyat-e'tibori bilan an'anaviy ilohiyot - kalondan tubdan farq qilib, ilmiy g'oyalar bilan yo'g'rilgandir. Farobiy falsafasiga ko'ra, olam yagona mavjudotdan iborat, yagona vujud-vujudi vojib, ya'ni azaliy vujud - birinchi sabab hamda vujudi mumkin - yaratilgan, kelib chiqqan vujudlar natijalaridan iboratdir. Alloh - azaliy vujud (vujudi vojib) hamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar - vujudi mumkin undan asta-sekinlik bilan pog'onama pog'ona kelib chiqadi, buning so'shhi pog'onasi moddadir. Uning

fikricha, tabiat moddaning turli shakllarining paydo bo'lishi, sabab-oqibat munosabatlari asosida, muayyan izchillik va zarurat bo'yicha kechadigan tadrifiy jarayondir.

Farobiy "Masalalar mohiyati", "O'zgaruvchan narsalar haqida" risolalarida modda fazoda ham, vaqtda ham cheklanmagan, intihosiz degan fikrni ilgari suradi. Shu tarzda panteizmning Sharqdagı ko'rinishi vujudiyun ta'limotini yangı g'oyalari bilan boyıdı.

Borliqning kelib chiqishi haqida Farobiy ta'limotida — mavjudot to'rt unsur — tuproq, suv, havo, olovdan tashkil topadi; osmon jismlari ham shu unsurlarning birikuvidan vujudga keladi. Moddiy jismlarning o'zaro farq qilishiga sabab, ularning ibtidosidagi unsurlarning turlicha bo'lishidir: olov — issiqlik sababi; suv — sovuqlik, namlik; tuproq — qattiqlik sababi. Farobiy butun mavjudotni sabab va oqibat munosabatlari bilan bog'langan 6 daraja (sabab)ga bo'ladi: Alloh (as-sabab al-avval), osmon jinrlari (as-sabab as-soniy), aql (al-aql al-faol), jon (an-nafs), shakl (as-surat), materiya (al-modda). Bulardan Alloh — vujudı vojib, ya'ni zaruriy mavjudlikdir, qolganlari esa — vujudı mumkin, ya'ni imkoniy mavjud narsalardir. Bular bir-birlari bilan sababiy bog'langan.

Farobiy uchun dunyo g'uncha bo'lib, asta-sekin o'zining rang-barang tomonlarini va bimas-tugannas boyliklarini tobora ko'proq namoyon qilib ochila boradi. Borliqning bunday talqini tabiiy-ilmiy g'oyalarning yanada rivojlanishi uchun keng yo'l ochdi. Abu Ali ibn Sino va undan keyingi mutafakkirlar o'zlarining falsafiy qarashlarida shu borliq tizimini asosida ish olib bordilar.

Ilm, bilish va aql haqidagi ta'limot Farobiy asarlarida izchil va mukammal ishlangan. Ilm olish masalasiga u inson mohiyatini tushuntirib berishning tarkibiy qismi sifatida qaradi.

Farobiy fikricha, insonning bilishini, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolari hayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlovchi markazdir, barcha ruhiy "quvvatlar", jumladan bilish qobiliyatı muayyan a'zoga bog'liq.

Farobiy "Ilm va san'atning fazilatları" risolasida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilimlikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibanni bilishga, sifatlardan aksidensiyaga (al-oraz)dan substansiyaga — mohiyat

(javhar)ga qarab borishini ilmning borgan sari orib, chuqurlashib borishini ta'kidlaydi.

Insonning ibtidosida, avvalo "oziqlantiruvchi quvvat" paydo bo'lib, uning yordamida inson ovqatlanadi. Shundan so'ng "tashqi quvvat", ya'ni bevosita tashqi ta'sir natijasida sezgi organlari orqali vujudga keluvchi "quvvatlar" turidir. Bular 5 turga bo'linadi: teri-badan sezgisi, ta'm bilish sezgisi; hid bilish sezgisi; eshitish sezgisi; ko'rish sezgisi. Bularning hammasini Farobiy "hissiyot quvvati" ("quvvai hissiyya") deb atab, hissiy bilish qismlari sifatida qaraydi. "Ichki quvvat"ga esda olib qolish, xayol (xotira, tasavvur), his-tuyg'u, nutq (fikrlash) "quvvat"lari kiradi. "Ichki quvvat"da Farobiy aqliy bilish bosqichini nazarda tutadi. Ilmiy egallash shu quvvatlar orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy egallash shu quvvatlar orqali amalga oshiriladi. Farobiy bilish jarayoni har ikki bosqichga bog'liqligini, aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kelmasligini alohida ta'kidlaydi.

Farobiy "Aql ma'nolari haqida" risolasida aql masalasini chuqur talqin qiladi. U aql bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta'sir — ta'lim-tarbiyaning natijasi ekanligini uqitiradi. Farobiy fikricha, aql faqat insoninggina xos bo'lgan tug'ma quvvat — ruhiy kuch bilan bog'liq.

Farobiyning aql, umuman bilish haqidagi ta'limotida mantiq (logika) ilmi muhim o'rin tutadi. "Mantiq san'ati kishiga shunday qonunlar haqida ma'lumot beradiki, — deb yozgan edi u, — bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog'lom fikr yuritishga o'rganadi". Farobiy mantiq ilmi bilan grammatika o'rtasidagi muhtaraklikni qayd etadi: mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo'ldan olib borish uchun aqlni to'g'rilab turadi.

Farobiy logikasi musulmon Sharqidagi so'nggi mantiqqa oid fikrlarning rivojiga katta turtki berdi.

Farobiyning bilish, mantiq, aql haqidagi fikrlari uning inson haqidagi ta'limoti uchun xizmat qiladi, unga bo'yusundirilgandir. Aqlga ega bo'lish, bilimli, mantiqli bo'lish bilan chegaralanmay, u ma'lum axloqiy prinsiplarga, axloqiy madaniyatga egalik bilan yakunlanishi kerak.

Farobiy aqlli inson haqida gapirib bunday yozadi: "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilati, o'kir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo'r iste'dodga ega, yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydlar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqlli deb bo'lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim".

Farobiy o'ra asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratdi. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari – davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalar qamrab olingan.

Farobiy "Fozil shahar aholisining maslagi" risolasida jamiyat ("inson jamoasi")ning kelib chiqishi haqida bunday yozadi: "Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritib olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerining aholi yashaydigan qisimiga o'rashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi".

Farobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotiga erishishning zaruriy vositasi, deb hisoblaydi. Butun insonlarni o'zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi, mutafakkir inson qadrigimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi. "Davlat arbobining hikmatlari" risolasida esa u doimiy urushlar va boshqinchilikka asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi.

Farobiy o'zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga bo'ladi. Kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda imlarni o'riganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida ortirgan

bilim va ko'nikmalariga katta ahamiyat beradi. Itoatkorlikka da'vat etuvchi ta'limotlarni keskin qoralaydi.

Farobiy "Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola", "Baxt-saodatga erishuv haqida risola" asarlarida o'zining orzu qilgan fozil jamiyatini yana ham yorqin tasvirlaydi. "Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, – deb yozadi u. – bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi". Farobiy davlatni yetuk shaxs (monarxiya), yetuk xislatlarga ega bo'lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) yordamida boshqarish shakllarini qayd etadi.

Farobiy jamiyat o'z rivojida yetuklikka tomon intilishi, shuning uchun kurash olib borishi va nihoyat fozil jamiyat, fozil shahar darajasiga ko'tarilishi haqida fikr yuritadi. U shunday yozadi: "Fozil jamiyat va fozil shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi". Farobiy bunday fozil jamoani boshqaruvchi podshoh, rahbarlarga ham ma'lum talablar qo'yadi. U xalq haqida doimo g'amxo'rlik qilishi, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya bilishi zarur. Bunday jamoani idora etuvchi yoki idora etuvchilar guruh o'zlarida muhim olti xislatni ifodalashlari kerak, ya'ni adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yaratish, kelgusini oldindan ko'ra bilishi, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi kerak.

Farobiyning fozil jamoa haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bilan uzviy bog'lanib ketadi. Fozil jamoada komil inson xislatlari vujudga keladi. Masalan, axloq-odobli yetuk inson o'n ikki fazilatga ega bo'lmog'i lozim. Bu fazilatlar insonlarning o'zaro munosabatlari mustahkamlanib, yaxshilik tomon yo'nalishida vujudga kela boradi. Farobiyning fozil jamoa va komil inson haqidagi ta'limotlari so'nggi olim-mutafakkirlarga katta ta'sir ko'rsatdi.

Umuman olganda Farobiyning fozil jamiyati, komil insoni baxt-saodat, o'zaro yordam, dono boshliq, tenglik haqidagi fikrlari o'z davri uchun xayoliydir. Lekin insonni ma'naviy ozod etishga, uning imkoniyatlarini ochishga, gumanistik yo'nalishni asoslashga qaratilgan

bu ta'limot ilg'or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo'lib qo'shildi. Umumshariy intilishlarni ifodaladi. Uning ijtimoiy g'oyalari keyinchalik so'nggi mutafakkirlar: Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Baxmanyor, Nizamiy, Sa'diy, Abdurahmon Joniy, Alisber Navoiy, Bedil, Iqbol, Ahmad Domish va boshqalar ijodida rivojlanirildi.

Farobiy "Musiqqa haqida katta kitob" degan ko'p jildli asari bilan o'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur bo'ldi. U musiqqa ilmini nazariy, amaliy tarmoqlarga, kuylarning ichki tuzilishi, qonuniyatlarini hisobga olib ta'rif va ilmi iqogga ajratadi. Farobiy musiqqa nazariyasida tovushlar vujudga kelishining tabiiy-ilmiy ta'rifi beribgina qolmay, kuylar garmoniyasining matematik prinsiplarini ochadi, turli jadvallar, geometriya qoidalari asosida ko'plab murakkab chizmalar ketiradi. U Sharq musiqasining ritmik asosini dalillar bilan sharhlab beradi. Farobiy ritmlarni tashkil etgan zarb birliklari bo'lmish naqralar, ularning birikmasidan hosil etiladigan ruknlarining turli xillari asosida yaratiladigan ritm o'lchovlari va turlarini yoritib bergan.

"Musiqqa haqida katta kitob"da faqat musiqqa nazariyasi va tarixi bayon etilmay, Sharqda ma'lum bo'lgan rubob, tanbur, nog'ora, ud, qonun, nay kabi musiqqa asboblari hamda ularda kuy ijro etish qoidalari tafsiloti ham berilgan. Farobiyning o'zi mohir sozanda, bastakor, manbalarda yangi musiqqa asbobini ixtiro etganligi, unda nihoyatda ta'sirchan kuylar yaratgani qayd etiladi. Farobiy musiqqaga inson axloqini tarbiyalovchi, shifot-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musiqqa sohasida qoldirgan merosi musiqqa madaniyati tarixida olamshumul ahamiyatga ega.

Farobiy o'z davridayoq buyuk olim sifatida mashhur bo'lgan. Sharq xalqlarida u haqda turli hikoya, rivoyatlar vujudga kelgan. O'rta asr olimlaridan Ibn Xallikon, Ibn al-Qiftiy, Ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiylar o'z asarlarida Farobiy ijodini o'rganib, uning g'oyalarni rivojlantirganlar. Xususan, Ibn Rushd Farobiy asarlarini o'rganibgina qolmay, ularga sharhlar ham ("Sillogizmga nisbatan al-Farobiyning fikri", "Abu Nasrning mantiqqa doir asarida ifodalangan fikrning bayoni", "Al-Farobiy, xususan uning "Organon" izohlariga turli sharhlar" va b.) yozdi. Averroizm nomi bilan mashhur bo'lgan uning falsafiy

ta'limotning shakllanishi davrlab Farobiy va Ibn Sino faoliyati bilan bog'liq. Averroizm ilmiy tendensiyalarni ifodalovchi ilg'or yo'nalish sifatida keng yoyilgan va Uyg'onish davrining ko'p ilg'or mutafakkirlari dunyogarashiga ta'sir ko'rsatgan.

Taraqqiyparvar insoniyat Farobiy ijodiga hurmat bilan qarab, uning merosini chuqur o'rganadi. Ovro'po olimlaridan B.M.Shtenshneyder, Karra de Vo, T.U.Buur, R.Xammond, R. de Erlanje, F.Deteresi, G.Farmer, N.Rishar, G.Ley, Sharq olimlaridan Nafsiy, Umar Farrux, Turker, M.Mahdi va boshqalar Farobiy merosini o'rganishga muayyan hissa qo'shildilar. Keyingi yillarda uning ijodi va ta'limotiga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar, asarlar yuzaga keldi. O'zbekiston va Qozog'istonda Farobiy nomiga qo'yilgan ko'cha, maktab va kutubxonalar mavjud.

7.4. Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar



Xorazm Ma'mun akademiyasida olimlar faoliyati

Xorazm hududida XX asr oxiri - XXI asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan ilmiy muhit Ma'muniylar davlati (992-1017) tarixi bilan bevosita bog'liq. Siyosiy, iqtisodiy, harbiy qudratga erishgan xorazmshohlar davlati mamlakatni birlashtirish, unda tartib o'rnatish bo'yicha tadbirlarni boshlab yuborgan. Kun tartibida davlat ichki va tashqi siyosatini olib borishda mafkuraviy masalalarni hal qilish turgan.

Ali ibn Ma'mun (997-1010) dono va zukko maslahatchilarga muhtoj bo'lgan. Uning baxtiga tog'asi Abu Nasr Ibn Iroq o'z davrining o'ta bilimdon olimi bo'lgan. 1004 yilning boshida Ibn Iroq taklifi bilan Beruniy Gurganjga qaytib kelgan. Ma'mun saroyida ilm ahli uchun yaxshi sharoit yaratib berilgan. Bu ikki shaxs Yaqin va O'rta Sharqdagi ko'plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada bo'lganlar. Ularning taklifi bilan Nishopur, Balx, Buxoro va hatto arab Iroqidan ko'plab olimlar Gurganjga kelishgan.

Shu tariqa 1004 yildan boshlab Gurganjda "Dorul hikma va maorif" (ba'zi bir manbalarda "Majlisi ulamo") nomini olgan ilmiy muassasa to'la shakllangan. Bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi "Platon", Bag'doddagi "Bayt ul hikmat" akademiyasi faoliyatiga o'xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko'p manbalar to'plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan; hind, yunon, arab olimlarining ishlari o'rganilgan; Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniyning o'lmas asarlari, ilmiy ishlardan foydalanilgan va tadqiq qilingan.

XVIII-XX asr tarixchi olimlari tomonidan ilmiy muassasa har tomonlama o'rganilgan va o'z faoliyati nuqtai nazaridan bu dargoh o'z davrining akademiyasi bo'lganligi isbotlangan va unga "Ma'mun akademiyasi" nomi berilgan.

Xorazm Ma'mun Akademiyasi asosini quyidagi olimlar tashkil etgan: Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al-Jadidiy (X asr - 1034 yil), Abulxayr ibn Hammor (941-1048), Abu Saxl Iso ibn Yah'yo al-Masihiy al-Juroniyy (970-1011), Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy, Abu Ali al-Husayn In Abdulloh ibn Sino, Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Ya'qub ibn Miskavayh (1030 yil), Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Sa'olibiy an-Naysaburiy (961-1038), Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy (1015 yil), Abu Ali al-Hasan ibn Horis al-Hububiy al-Xorazmiy (X-XI asrlar), Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid al-Xorazmiy (X-XI asrlar) va b.

Xorazm Ma'mun Akademiyasi olimlari Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targanlar. Akademiya a'zolarining aksariyati olim sifatida Markaziy Osiyoda shakllanganlar. Ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli Qadimgi Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan.

Masalan, Abu Nasr ibn Iroq, astronomiyaga doir ilmiy asarlari tufayli "Batlimusi soniy" ("Ikkinchi Ptolemy") degan fahriy nom olgan. Abulhavr ibn Hammor esa mantiq, falsafadan tashqari tabobatda ham

juda mashhur bo'lgani uchun "Bugroti soniy" ("Ikkinchi Gippokrat") laqabiga sazovor bo'lgan.

Abu Sahl al-Masihiy tabib, Ibn Siningning ustozlari bo'lgan. Akademiya rahbari Abu Rayhon Beruniy fanning deyarli hamma sohalarini bilan shug'ullangan. Uning geodeziya va matematika sohalarini bo'yicha asarlari bugun ham dolzarbdir. Beruniy O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, tibbiyotga oid, "Kitob as-Saydana fittib" ("Tabobatda dorishunoslik kitobi") asarini yozgan. Beruniy Amerika qit'asi mavjudligini yevropalik olimlardan taxminan 450 yil oldin aytib o'tgan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida qadimgi xalqlar (yunonlar, eroniyalar, sug'diyalar, xorazmiylar va b.) ning yil hisoblari, bayramlari va mashhur kunlari, urf-odatlariga oid qimmatli ma'lumotlar to'plangan.

Xorazm Ma'mun Akademiyasining yana bir zabardast qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Xususan, uning "Tib qonunlari" asari butun dunyoga mashhur bo'lgan. Xorazmda Ibn Sino, asosan, matematika va bilan shug'ullangan. Ibn Sining Aristotel ta'limoti xususida Beruniy bilan va o'zining shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalari tarixda mashhurdir. Bu yozishmalar savol-javob tarzida bo'lib, unda Beruniy va Ibn Sino fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqdan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borganlar. Ibn Sino xorazmshohlar vaziri Abul Husayn as-Sahliy bilan do'stlashib, unga atab alkimyoga oid "Risola aliksir" ("Ikisir haqida risola") asarini yozgan.

Xorazm Ma'mun Akademiyasi olimlari Xorazm tabiati, iqlimi, sug'orish tizimi, mineralogiyasi, yer osti suvlari, Amudaryo deltasining tarixi, korizlar qurish orqali tuproqni tozalash yo'llarini tadqiq etishgan. Akademiya a'zolaridan Abu Bakr al-Xorazmiy, tabib Abul Faraj ibn Hindu she'riyatda yuksak mahoratga erishganlar. Xorazm tarixi, dinlari, taqyimi, bayramlari, urf-odatlari, yozuvi, milliy qadriyatlarini haqidagi qimmatli ma'lumotlar ularning faoliyati tufayli bizgacha yetib kelgan. Ularning o'zlariga xos shiori: "Ilm - insonlar hojatini chiqarmoqlikka xizmat qilsin", - deya atalgan edi. Xorazm Ma'mun Akademiyasi olimlariga ilmda qat'iylik xos bo'lgan. Aristotel yo'l qo'ygan ko'p xatolar tekshirishlar davomida tuzatilgan, qutbdagi davomiy tun va

Kunlar masalasi osonlik bilan falakiyot fani nuqtai nazaridan tushuntirilib, yechilgan. Beruniy qayd etishicha, qadimda Xorazm astronomlari yulduzlar joylashish tartibini arablardan ko'ra yaxshiroq bilishgan.

Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun (Ma'mun II) saroyidagi olimlar shuhrati o'z davrida uzoq o'lkalarga tarqalgan. Bu esa Mahmud G'aznaviyning g'ashiga tekkan. U uyushtirgan suiqasd natijasida 1017 yilning bahorida Ma'mun II o'ldirilgan va o'sha yilning iyunida kuyovi uchun qasos olish bahonasi bilan Mahmud G'aznaviy Xorazmga bostirib kirgan. Katta qirg'in va talon-tarajliklar natijasida Xorazm Ma'mun Akademiyasi faoliyati tugatilgan va bu yerdagi olimlarning ko'pchiligi G'aznaga majburan olib ketilgan.



Abu Rayhon Beruniy

Abu Rayhon Beruniy Xorazm Ma'mun akademiyasining raisi. *Abu Rayhon Beruniy* (973-yil, Kat, Xorazm – 1048-yil, G'aznaq) 1004 yilda Xorazmshoh Ma'mun II ning taklifiga binoan Gurganchga qaytib keladi va Gurganchda shoh nomidagi "Ma'mun akademiyasi"ni barpo etadi. Bu akademiyada Abu Ali ibn Sino, Miskavayx, faylasuf Abu Sahl Masihiy, matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq, tarjimon va

hakim Abul Xayr ibn Xammor, adib va shoir Abu Mansur as-Saolabiy, Zayniddin Jurjoniy va boshqa o'nlab olimlar ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar va ajoyib asarlar yaratdilar. Ma'mun davrida Xorazm iqtisodiy, siyosiy, madaniy jihatdan mislsiz darajada taraqqiy etdi, dunyoning eng nufuzli savdo markaziga aylandi. Xorazm ustidan o'tib, g'arb bilan sharqni bog'lab turgan yo'l orqali savdo karvonlari bu o'lkadan dunyoning turli burchaklariga dehqonchilik, hunarmandchilik mahsulotlaridan tortib, harbiy asbob-anjomlarga ham olib ketishardi. Bu yerda turli kemasozlik korxonalari ham ishlab turganligi ma'lum. Bunday ko'lamdagi xo'jalikni boshqarish va katta savdo-sotiqni yo'lga qo'yish uchun ilm-fan matematika, geometriya, astronomiya, jug'rofiya, botanika, ximiya fanlarining taraqqiyoti zarur edi. Shu zaruriyat tufayli ilm va ijod ahli tashkiliy jihatdan birlashib, faoliyat ko'rsatganlar. Barcha qadimiy ilmiy manbalarda bu jamoa

"Dorul hikma" ("Donishmandlar uyi") deb atalganki, bu "akademiyalar" mazmuniga to'g'ri keladi. Keyingi asrlardagi manbalarda bevosita "akademiyalar" so'zi qo'llanilayotganligi ham buni to'liq isbotlaydi.

Ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot tarixini tahlil qilar ekanmiz, ushbu sohalaridagi meroslar yuzaga kelgan muhit, siyosiy-iqtisodiy sharoitlarga to'xtalib o'tmaslik aslo mumkin emas. Ma'mun akademiyasi allomalari merosini o'rganish, ulardan ta'lim amaliyotida samarali foydalanish uchun ham o'sha davrdagi Xorazm davlati tarixiga nazar solish, u yerda bo'lgan voqealarni tahlil qilish zaruriyati paydo bo'ladi.

Vaholanki, o'tmishni anglash kishi kamolotini ta'minlovchi eng asosiy omildir. Prezidentimiz aytganlaridek, "Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi".

Markaziy Osiyo xalqlari buyuk tarixga ega. 992 yil shimoliy va janubiy Xorazm hukmdorlari o'rtasida boshlangan urush natijasida shimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Muhammad g'alaba qozonadi va 995 yilda Xorazmshoh unvonini qabul qilib, Gurganchni poytaxt deb e'lon qildi. Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Gurganch butun Markaziy Osiyoda yirik iqtisodiy, siyosiy markazlardan biriga aylanadi. Xuroson, Movorounnahr, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlar karvonlari shaharda to'xtab, Ustyurt orqali Volga bo'yiga chiqib, Qora dengiz atrofiga, Yevropa tomon yo'l olardilar. Ustyurtidagi o'sha davrda serqatnov bo'lgan karvon yo'llarining qoldiqlariga ko'ra, ular Xorazmdan chiqib, ikki tomonga ketgan: biri Uchquduq, Buloq, Qo'shbuloq, Belevli orqali shimoliy-g'arbga, ikkinchisi Mang'ishloq tarafga yo'nalgan. Bu yo'llar bo'ylab toshdan tiklangan istehkomlar va karvonsaroylar joylashgan. Shuningdek, bu hududda Alan g'al'a, Shemaxa g'al'a, Devkesgan g'al'a shaharlarini xaroba qoldiqlari topilgan.

Ma'mun ibn Muhammad (995-999), Ali ibn Ma'mun (999-1009)lar davlat mustaqilligini yanada mustahkamlab, uning harbiy qudratini oshirdilar. Endi qo'shni mamlakatlardan Xurosonda yaqinda tashkili topgan G'azna podshohligi, arab halifaligi, Kiyev Rusi ham uni tan olar edi. Xorazm boshqa davlatlar siyosatida ham faol ishtirok etadigan

bo'ldi. Hatto Kiyev hukmdori Vladimir ham islom diniga o'tish istagini bildirib Xorazmga o'z vakillarini yuborganligi haqida ma'lumotlar bor.

Beruniyning ustozlari Abu Nasr ibn Iroq o'z davrining o'ta bilimdon olimi edi. U tirikligidayoq "o'z davrining Prolemeysi" degan laqab olgandi. Undan tashqari Abu Nasr Beruniy o'z xonadonida tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ana shu ikki buyuk siymo turfa'li Gurganch saroyida ilm ahli uchun ideal sharoit yaratiladi. Bu ikki shaxs yaqin va o'rtacha sharqdagi ko'plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada edilar. Ibn Iroq va Beruniyning takliflari bilan 1004 yildan boshlab Nishopur, Balx va Buxorodan va hatto arab Iroqidan ham olimlar Gurganchga kela boshladilar. Shu tariqa Gurganchda "Dorul hikma" nomini olgan ilmiy muassasa to'la shakllanadi. Bu ilmiy muassasada xuddi Bag'doddagi "Baytul hikma"dagi kabi ilmiy barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib boriladi. Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, bu yerda suryon va yunon tillaridan ba'zi tarjimalar ham bajarilgan. Ali ibn Ma'mun vatotidan keyin (1009) uning ukasi Abul Abbos Ma'mun ibn Ma'mun Xorazmshohlar taxtini egallaydi. U Beruniyning saroyga taklif qiladi va o'ziga eng yaqin maslahatchi qilib oladi. Buning oqibatida Ma'mun akademiyasi faoliyati uchun yanada kattaroq imkoniyatlar ochiladi.

Qirgandan oshiq olimlar ishlab faoliyat ko'rsatgan ilmiy markazda o'z davrining yetuk insonlari matematika, astronomiya, ruhiyat, ximiya, mantiq, tibbiyot, falsafa, tarix, tishunoslik, ta'lim-tarbiya, adabiyot, musiqa, geografiya, geodeziya, topografiya, mexanika singari turli fan sohalarini bilan shug'ullanib, ularning kelajakda jahon miqyosidagi rivojiga zamin yaratganlar.

Biroq bu akademiyaning umri qisqa bo'ldi, 1017 yilda Xorazm yirik istilochi Sulton Mahmud G'aznaviy qo'l ostiga o'tdi. Hazorasp shahri yaqinidagi jangda Xorazm qo'shini g'alabaga erishayotgan bir paytda turklar yordamida va Hindistondan yetib kelgan fillar qo'shini yordamida Sulton Mahmud Xorazm qo'shini yanchib tashladi. Xorazm qo'shini lashkarboshilari fillar oyog'i ostida toptaldi, poytaxt Gurganch talandi, Xorazmshohni qat'iy talabi va ko'magi Ila Gurganchdan yunon, yahudiy, arab va boshqa xalqlar vakillaridan iborat kichik ilmiy karvon Abu Ali

ibn Sino boshchiligida chiqib ketdilar. Sulton Mahmud shaharda qolgan olimlarni ba'zilarini dahriylikda ayblab qatl qildirdi, qolgan mashhur olimlarni o'z mamlakatining poytaxti G'azna shahriga olib ketdi va bu yerda Beruniy "Hindiston tarixi" asarini hamda 1025 yilda "Geodeziya", 1030-1041 yillar oralig'ida "Al-Qonun al-Mas'udiy", 1041-1048 yillarda "Mineralogiya" hamda "Kitob as-saydana fi-t-tibb" asarlarini yaratdi. Olimning fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi juda ulkan bo'lib, u 152-ta risola yaratgan, shundan 30 tasi bizgacha yetib kelgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek Abu Rayhon Beruniy bundan ming yil oldin Hindistonda bo'lib, uning tarixi, madaniyatini o'rganish uchun qadimgi hind yozuvi — sanskritni o'rganib, o'zining mashhur "Hindiston" asarini yozgan. "Hindiston" hajmi jihatdan juda katta asar bo'lib, unda hind adabiyoti, falsafasi, aniq fanlar, geografiya, elshunoslik, qonun va urf-odatlar, din, tarixiy-diniy rivoyatlar, hind yozuvining turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu asar to'g'risida yirik hind davlat arbobi Javoharlal Neru jumladan shunday degan: "Beruniy yunon falsafasini o'rganib, hind falsafasini mutolaa qilmoq uchun sanskrit tilini o'rganib boshladi. Beruniy hind va yunon falsafasini bir-biriga solishtirib, bularda mavjud bo'lgan umumiylikni ko'rib hayratda qoldi. Beruniyning kitobi faktik materialni qamrab olish bilan birga, u urush, talon-taroj, ommaviy qirg'inlar bo'lishiga qaramay, fan ahllari o'z ishlarini davom ettirganliklarini ko'rsatib beradi. Ikki orani nafrat va xudbinlik kayfiyatlari buzib turgan paytlarda ham Beruniy begona odam bo'laturib, bu o'lka kishilari ahvolini tushuntirishga harakat qiladi.

Rus olimi V.V. Bartold buyuk vatandoshimiz haqida "Beruniy shunday serqirra olimki, o'z davrida mavjud bo'lgan ilm sohalaridan shug'ullannagani uning shug'ullanganidan kamdir. Uning yozgan asarlari shunchalik ko'p va serqirraki bunga bir odamning umri kifoya qilganiga kishi hayron qoladi". Yana bir buyuk rus sharqshunos olimi, akademik S.P. Tolstov ilmiy anjumanlarning birida Yevropa olimlaridan biri "Beruniy XI asr Leonardo do Vinchisi" degan ta'rifga javoban "Leonardo do Vinchi XV asr Beruniysidir" deb vatandoshimizga ta'rif bergan edi.

Beruniy ilmiy asarlari o'z ahamiyatini yo'qotmasdan avlodlar qo'lida qadrlidir. "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Meneralogiya", "Saydana" va "Geodeziya" kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarini yaxshi bilgan qomusiy olim bo'lib, u o'zining asarlari bilan falsafa, astronomiya, geodeziya, geografya, tarix fanlariga katta hissa qo'shgan.

Abu Rayhon Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalari ham uning Gurangchda turgan davrida bo'lgan. Ularning savol-javoblaridan va Abu Rayhon Beruniyning Ibn Sinoga yozgan e'tirozlaridan bizgacha faqat 18 tasi yetib kelgan. Bu yozishmalar uning tabiat falsafasi va fizika masalalari bilan ham qiziqqanini ko'rsatadi. Bu savol-javoblarda ikki mashhur olim fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqdan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borganlar.

Abu Nasr ibn Iroq Beruniyga ustozlik qilgan buyuk matematik, astronom. U haqda atoqli matematik, shoir va astronom Umar Xayyom "matematika bilan shug'ullanganlar ichida eng ulug'i", - degan edi. Ibn Iroqning "Podsho al-Magesti", "Islah kitob Manalaus", "Geometriyadan savollarga javob" va boshqa asarlari ma'lum. Ibn Iroqning tarjimai holiga oid ma'lumotlar juda kam uchraydi. U haqdagi ma'lumotlar asosan uning shogirdi Beruniy asarlarida saqlangan.

Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy 1048 yilda G'azna shahrida vafot etgan. Buyuk olimni nomini abadiylashtirib yurtimizda ko'pgina ilmiy markazlar, ko'chalar, shahar, qishloqlar faxr ila olim nomi bilan ataladi.

Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Saydana" va "Geodeziya" asarlarining ilmiy ahamiyati. Abu Rayhon Beruniy – qomusiy mutafakkir, tarix, geografya, filologiya, astronomiya, matematika, farmakologiya, geodeziya, mineralogiya, geologiya va boshqalar bo'yicha 150 ga yaqin asarlar muallifidir. Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni "Beruniy asri" deb ta'riflaydi. U quyidagilarni ta'kidlaydi, "Astronomiya va matematika, astrologiya va geografya, antropologiya va etnografiya va falsafa,

arxeologiya va falsafa, botanika va mineralogiya tarixi uning buyuk ismi bo'lmaganida yetim qolardi". Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki. Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea hodisalarga, o'z zamondoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko'p aziyalar chekkan, hatto umrining oxiridaturnush qiyinchiliklariga duchor bo'lgan, ammo har qanday og'ir sharhga qaramasdan, e'tiqodidan qaytmagani uning o'z ma'naviy idealiga nagadar sodiq bo'lganidan dalolatberadi.

Beruniy 973 yil 4 sentyabrda qadimgi Xorazm poytaxti – Kat shahrida tug'ilgan. Hayotining dastlabki yillari haqida juda kam ma'lumotlar mavjud. Yoshlik chog'idan yetim qolgan. Yetim boladagi iqtidorni Xorazmshohning amakivachchasi Iroq payqagan. Beruniy tanazzul yillarida shunday yozadi: "... Iroq oilasi meni suti bilan bog'di va odamlarga qo'shdi..."

Matematika va falsafa fanlarida yaxshi ma'lumot oldi. Beruniyning birinchi ustozlari astronomiya, matematika va trigonometriyaga oid fundamental asarlar muallifi Abu Nasr Mansur ibn Iroq al-Jadidi edi.

Tabiatda hamma narsa bor va o'z qonunlariga ko'ra o'zgarib turishi, bu qonunlarni faqat ilm-fan yordamida tushunish mumkinligiga ishonadi. Borliq besh unsur: makon, havo, olov, suv va tuproqdan tashkil topgan. Yer dumaloq shakliga ega bshlib, uning quyosh atrofida aylanishi tabiiydir. Uning fikriga ko'ra yer qobig'i doimiy ravishda o'zgarib turadi. Suvsiz joylarda asla sekin daryolar, dengizlar paydo bo'ladi. O'z navbatida ular ham joylashgan o'rinni o'zgartirib turadi. O'simliklar va hayvonot olami rivojlanishi imkoniyatlari cheklangan, shu bois tirik mavjudotlar o'rtasida yashash uchun kurash davom etadi, bu ular hayotining mazmunini tashkil etadi. Uning fikriga ko'ra tabiat bron bir turning mavjudlik makonini cheklamasa u butun yer yuzini qoplab oladi. Bunday ko'payishga boshqa organizmlar to'sqinlik qiladi, ular o'rtasidagi kurash sababli, yanada muhitga moslashgan organizmlar yuzaga keladi. Tabiatda doimiy ravishda yashash uchun kurash, tabiiy tanlash ularning evolyusiyasini belgilaydi. Tabiatdagi hamma narsa

uning qonunlariga muvofiq yashaydi va rivojlanadi.

Uning asarlari asosan Xorazmning iqtisodiy hayotini tashkil etgan. Sog'oriладigan dehqonchilik, savdo-sotiq safarlari uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan matematika va astronomiyaga bag'ishlangan Astronomiyaning o'sha davrdagi eng muhim vazifa taqvimni takomillashtirish va uni o'rganish usullarini takomillashtirish edi. Osmonda Quyosh, Oy, yulduzlarning joylashgan o'rmini aniq belgilash, shuningdek, asosiy astronomik konstantalar — ekliptikaning ekvatorga qiyaligini o'lchash kerak edi. Quyosh va yulduz yillarining uzunligini aniqlash va boshqalar. Ushbu masalalarni hal etish, o'z navbatida, matematikani, xususan, tekislik va sferik trigonometriyani, ikkinchi tomondan, aniq kuzatish uchun asboblarni takomillashtirishni talab qildi. Beruniyning bu sohalardagi natijalari va yutuqlari bir necha asrlar davomida beqiyos bo'lib kelgan. Beruniy yerning radiusini (6000 km dan ortiq) katta aniqlik bilan o'lchagan, uning sharimon shakliga ega ekanligini aniqlagan. U Kat va Qo'rg'onda mahalliy hukmdorlar saroyida, keyin Xorazmda Shoh Ma'mun saroyida yashab akademiyani boshqargan. Uning Ibn Sino bilan yozishmalari saqlanib qolgan, unda ular Arastu kitobhari haqida fikr almashibgan.

1017 yildan boshlab, Sulton Mahmud G'aznaviy Xorazmni bosib olgandan so'ng, G'aznda Masud va Maudud saroyida yashagan. Mahmudning Hindistonga yurishlarida g'atnashgan va u yerda bir necha yil yashagan. "G'azna" davri Beruniy ijodida yeng samarali bo'ldi. Bu yillar mobaynida Hindistonga qilingan sayohatlar "aql bilan qabul qilingan yoki rad yetilgan hindlarga tegishi ta'limotlarning izohi" ("Hindiston", 1030 yilda tugatilgan) asarining yozilishiga olib keldi. Sulton Mahmud vafotidan keyin taxtni uning o'g'li Masud egalladi, u saxsiylik bilan Beruniyni in'omlar bergan. Beruniy Masud haqida shunday dedi: "U menga o'zinni butunlay bag'ishlashga imkoniyat berdi. Bu yillarda al-Beruniy o'zining asosiy asarini — "Astronomiya va yulduzlar bo'yicha Masud qoidalari" ni yozdi, unda dunyoning umumiy manzarasi tasvirlangan.

1030 yilda tugatilgan "Hindiston" asarida al-Beruniy hindlarning hayoti, madaniyati va ilmining batafsil ta'rif bergan, ularning diniy va

falsafiy tizimlarini bayon qilgan. Al-Beruniy o'z ishidagi qiyosiy usulni qo'llagan: "Men hindlarning nazariyalarini borligicha keltiraman, yunonlarning nazariyalariga o'zaro yaqinligini isbotlash uchun taqqoslayman". Shu bilan birga, u Gomer, Aflotun, Aristotel, Galen va boshqa yunon mualliflariga murojaat qilib, hind va islom tafakkurini taqqoslab, ayniqsa, so'fiylar ta'limotini hindlarning Samxya va yoga nazariyalariga yeng yaqin deb hisoblagan. Xalqlarning urf-odatlarini qiyoslagan, slavyanlar, tibetliklar, xazarlar, turklar va boshqalarning hayotining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatgan.

Tadqiqotchi sifatida al-Beruniy bilimlarni tajribada sinab ko'rish zarurligini ta'kidlagi: tadqiqot jarayonida paydo bo'ladigan shubhalarni "... tajriba va qayta-qayta sinovlar orqali bartaraf etish mumkin". Al-Beruniy eksperimental bilimlarni mish-mishlarga asoslangan uydirmalardan iborat bilimlarni ajrala olgan. Aristotelning kosmik tizimini shubha ostiga qo'ydi.

7.5. Mustaqil O'zbekistonda Xorazm Ma'mun akademiyasining qayta tiklanishi va uning bugungi kundagi faoliyati

1997 yil 11 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni O'zbekistonning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, uning jahon ilmiy hamjamiyatidagi o'rini mustahkamlash, mintaqalarda



Xorazm Ma'mun akademiyasi

ilm-fanni yanada rivojlantirish hamda iste'dodli va fidoyi olimlarni qo'llab-quvvatlash, yuqori intellektual muhit yaratishdagi milliy an'analarni rivojlantirishda qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. 1997 yil noyabrda akademiyaning tarkibida arxeologiya, tarix va falsafa, til va adabiyot, biologiya muammolari bo'limlari tashkil qilinib, 9 ta ilmiy mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Arxeologiya, tarix va falsafa bo'limining xodimlari "Xorazmda qadimgi va o'rta asrlar o'zbek davlatchiligi tarixi", "O'zbek xalqining etnik tarixida Xorazm

vohasining o'rnini, "Xorazm viloyati arxeologik yodgorliklarini tadqiq qilish" mavzulari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishdi.

Til va adabiyot bo'limida, "IX-XIII asrlarda Xorazm yozma adabiyoti va og'zaki epos", "IX-XIII asrlar Xorazm yodnomalari tili" mavzusi bo'yicha Xorazm yozma adabiyoti va og'zaki afsonalari hamda rivoyatlar Avestodagi mitologik qatlam bilan qiyosiy tahlil qilindi. Og'zaki va yozma namunalar tahlili orqali adabiy va badiiy tillarga xos xususiyatlar, ularning o'zaro ta'siri o'rganildi.

Biologiya muammolari bo'limida esa to'rtta ilmiy mavzu "Xorazm vohasi tuproq – iqlimi sharoitida istiqbolli, serhosil, kasalliklarga va zararkunandalarga chidamli ko'niktirilgan o'simliklar navlarini o'rganish", "Xorazm viloyati sharoitida ekinlarni almashlab ekishning biologik asoslarini ishlab chiqish", "Xorazm viloyati sharoitida asosiy, oraliq va takroriy ekishlarda ozugaviy ekinlarni parvarish etishning samarali texnologiyalarini va makkajo'xorining urug'chilik tizimini barpo qilish", "Quyí Amudaryo mintaqasi tuproqlarining suvtuz rejimini yaxshilaydigan kollektor – zahkash tizimlarining ish rejimini boshqarish usullarini ishlab chiqish" bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Xorazm Ma'mun Akademiyasi jamoasi ilmiy tadqiqotlarni xalq xo'jaligi talablari asosida shakllantirish, ularni dolzarb masalalarni yechishga qaratish, budget mablag'larining samaradorligini oshirishda ustuvor fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishga intilmoqda. 2003 yildan boshlab akademiyada 2 fundamental va 8 amaliy dasturlar bo'yicha 58 xodim, shu jumladan, 2 nafar akademik, 8 nafar fan doktori va 24 nafar fan nomzodlari ilmiy izlanishlarni amalga oshirib kelmogdalar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 noyabrda Qaroriga muvofiq, 2005 yilda Xorazm Ma'mun Akademiyasining 1000 yilligi keng nishonlanishi belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 apreldagi 211-sonli "Xorazm Ma'mun akademiyasining faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'limi – Xorazm Ma'mun akademiyasiga qo'shimcha

vazifalar yuklatildi. Shuningdek, Xorazm Ma'mun akademiyasining tuzilmasi, uning faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tasdiqlandi.

Bundan tashqari, Xorazm viloyatida ilm-fan bilan bog'liq barcha ishlarni zamon talablari darajasida muvofiqdastirish maqsadida Xorazm Ma'mun akademiyasi huzurida Ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etish to'g'risidagi taklif ma'qullandi. Qarordan kelib chiqib, tegishli davlat organlariga topshiriqlar berildi.

2017-2020 yillar mobaynida Ma'mun akademiyasida 4 ta loyiha ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Ular doirasida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

FA-114-001 shiffti "Bino va inshootlar zilzilabardoshligini ta'minlashning aktiv usullarini yaratish (me'moriy yodgorliklar va zamonaviy binolar misolida)" (2016-2018 yillar) loyiha doirasida YUNESKOning butunjahon ro'yhatiga kiritilgan Xiva me'moriy obidalarda ishlatilgan zilzilabardoshlik elementlari aniqlandi, ilk bora paxsa gil xom ashyoli devorlar qurishdagi darzlarni kamaytirib zilzilabardoshligini oshiradigan dispers "modifikatsiyalangan loy qorishmasi" foydalanildi. Mazkur loyiha doirasida 2 ta monografiya tayyorlandi, 5 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy jurnallarida, respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 6 ta maqola nashr etildi. O'zbekiston Respublikasi Intellectual mulk agentligidan 2 ta guvohnomasi olingani hamda tadqiqotlar to'la yakunlangani haqida hisobot berdi.

PZ-2017092435 shiffti "Xorazm viloyati sharoitida dorivor o'simliklarni o'stirish va ular asosida biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqish" (2018-2020 yillar) loyiha doirasida o'rganilayotgan dorivor o'simliklarning vohaning sho'rlangan tuproqlariga chidamliligi va hosildorligi aniqlandi, introduksiyalashirilgan dorivor o'simliklardan makka sano (Sassia acutifolia Del.) va rastoropshaning (Silybum marianum L.) yetishtirish agrotehnologiyasi ishlab chiqildi. Mazkur loyiha doirasida 3 ta respublika ilmiy jurnallarida, 3 ta xalqaro va 1 ta maqola respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida nashr etildi.

FA-F-1-088 shiffti "История обрядов, культа и религии древнего Хорезма (по материалам археологических исследований)"

(2017-2020 yillar) loyiha doirasida Xumbuztepa manzilgohida arxeologik qazishmalar davom ettirilib, stratigrafik tadqiqotlar ml avv VI asrga oid ibodatxonaning shimoliy devorlari tarkibida sopol, hayvon suyaklari va kul qoldiqlari hamda odam skeletining ba'zi fragmentlari (parchalari), ostida 60 sm qalinlikda toza kul qoldiqlari dahmada uch boshqichli qurilish izlari aniqlanib, dahma qoldiqlari arxeologlar shu kungacha tadqiq etilgan zardushiylik dafn marosimlari bilan bog'liq bo'lgan va arxeologiya fanida ma'lum bo'lgan inshootlar ichida eng qadimiyi va noyobi ekanini tadqiqotlarda ma'lum bo'ldi. Mazkur loyiha doirasida 1 monografiya, 4 ta respublika ilmiy jurnallarida, 1 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida maqolalar nashr etildi.

*F4-F-4-002 shifri*li "M-subgarmonik funksiyalar va ularning kalibrlangan geometriyaga tadbirlari" (2017-2020 yillar) loyiha doirasidagi tadqiqotlarda M-subgarmonik funksiyaning potensial xususiyatlari, maksimal funksiyalar uchun Gessian formadagi operator qurilgani, tenglama uchun Dirixle masalasi yechimi haqidagi teoremlari ishbotlandi, operatorning uzluksiz subgarmonik funksiyalar sinfiga davom qilish masalalari tadqiq etildi. Mazkur loyiha doirasida 4 ta xalqaro ilmiy va 3 ta mahalliy nashrlarda, 2 ta xalqaro anjumanlarida maqolalar nashr etildi.

Bugungi kunda Xorazm Ma'mun akademiyasi ilmiy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish, ilm-fan yutuqlaridan xabardor bo'lish, o'zaro tajriba almashish, hamkorlikda ilmiy anjumanlar tashkil etish va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" jirosini ta'minlash maqsadida respublikamizning 20 ga yaqin ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilib kelmog'da.

Xususan, O'zRFA tizimidagi Tarix, Arxeologik tadqiqotlar, Sharqshunoslik, Genetika va O'EBI, O'simlik va hayvonot olami genofondi instituti, Biokimyo, Seysmologiya, QQB Jitimoiy-gumanitar fanlar, QQB tabiiy fanlar institutlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi U'zDU, O'zMU, TDSHI, TDDPU, TAQI, SamDAQI va boshqa vazirliklarga qarashli "Ichon qal'a" DMQ, O'z MDA, TDAU, GIDRONGEO, TTA Urganch

filiali, TATU Urganch filiali hamda boshqa ilmiy, o'quv va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan muntazam aloqalar o'rnatilgan. Hamkorlik aloqalari asosan o'zaro imkoniyatlardan (yuqori salohiyatli olimlar, zamonaviy asbob-uskunalar, tajriba uchastkaları, axborot-resurs markazlari) umumli foydalanish, birgalikda ilmiy anjumanlar, seminarlar tashkil etish, Oliy ta'lim muassasalariga o'quv-uslubiy yordam berish, akademiya yetik olimlarni ma'ruzalarini va amaliyotlarni tashkil etish, magistr va bakalavr yo'nalishi talabalarini ilm-fanga qiziqtirish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

O'zR FA Tarix va Genetika O'EBI institutlari bilan hamkorlikda fan nomzodlari tayyorlash hamda birgalikda seminarlar tashkil etish bo'yicha samarali hamkorlik ishlari ham olib borilmog'da. Jumladan, Xorazm viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bilan akademiya turli o'quv va ilmiy amaliyotlar (arxeologik, manbashunoslik, kimyoviy, agronomiya, kompyuter savodxonligi va h.)ni tashkil etish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborot-resurs markazi va muzeyi barcha talabalar uchun sevimli maskanga aylangan. Ayniqsa, Xiva shahridagi 4-sonli akademik litsey, Xiva pedagogika, Xiva tibbiyot, Xiva qishloq xo'jaligi, Xiva axborot-texnologiyalari kollejlari o'quvchilari akademiya imkoniyatlaridan umumli foydalanmog'dalar. Shuningdek, Navoiy konchilik kolleji bilan hamkorlik haqida bitim tuzilgan. Ayrim ixtisoslashtirilgan maktablarga o'quv-uslubiy, moddiy-texnik tomondan ko'mak berilmog'da, turli tadbirlarda maktab o'quvchilari ham faol g'atnashib kelmog'dalar. Xorazm Ma'mun akademiyasi o'z ustuvor yo'nalishlari (tarix, arxeologiya, tarixiy yodgorliklarni saqlash, ekologiya, biologiya va qishloq xo'jaligi) doirasida turli ilmiy, o'quv va ishlab chiqarish tashkilotlarni hamkorlik qilishga taklif etadi.

7.6. Mustaqil O'zbekistonda g'omusiy allomalarimiz merosini o'rganish va targ'ib qilishning boshlanishi

O'zbekistonda buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy me'rosini o'rganishga doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Keyingi yillarda bu muhim va dolzarb masala bo'yicha e'tiborga molik ko'plab salmoqli

ishlar amalga oshirildi. Respublika va xalqaro miqyosda anjumanlar o'tkazilishi urfga kirdi. Ularning hayot yo'li bilan bog'liq qadamlarini qayta tiklash va me'moriy yodgorliklar bunyod etish ishlari olib borilmoqda. Tabarruk nomlarini abadiylashtirishga harakat qilimogda. Viloyat va tumanlar, ko'chalar, tashkilot va muassasalarga ularning mo'tabar nomlari berilgan.

Yosh avlodni tarbiyalashda buyuk ajdodlarimiz faoliyati, hayoti, o'lmas merosi iborat maktabdir. Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ahamiyatga molik merosini izchil o'rganish va uni yanada kelajakda rivoj toptirish masalasiga to'xtalib, ularning yoshlar tarbiyasiga barakali ta'sir etishiga alohida ta'kidladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlagan "...buyuk ajdodlarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashirish alohida ahamiyatga egadir. Bu masala yoshlarda ilm-fanga va ta'lim olishga intilish tuyg'usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to'g'ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xalqlariga islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish uchun muhimdir", - deb ta'kidlaydi.

Buyuk mutafakkirlar Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud az-Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqalarning, shuningdek, Imom al-Buxoriy, Burxoniddin Marg'inomiy, Imom Iso at-Termiziy, Abu Mansur Moturidiy kabi diniy ulamolarning ilmiy merosi tahliliga alohida e'tibor qaratildi.

Markaziy Osiyoda IX-XII va XIV-XV asrlarda ro'y bergan ilmiy-madaniy uyg'onishning turli jihatlari keng yoritilib kelimogda. Buyuk allomalarimizning dahosi, shaxsiyati, ibratomuz faoliyati behad ulug'vordir. Shu ma'noda, yuqorida ta'kidlanganidek, mamla-katimizda ularning muborak nomlarini tiklash, qadrlash, asarlarini qunt bilan o'rganish maqsadida olamshumul ishlar amalga oshirildi.

Xususan, Imom Buxoriyning maqbarasi bugun dunyoga ko'z-ko'z etsa arzidiygan ziyoratgohga aylantirildi. Xuddi shuningdek, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Mahmud Zamaxshariy

kabi o'nlab fozillarning tavallud sanalari bilan bog'liq tadbirlar o'tkazildi. Bularning barchasi ulug'lariga ehtirom ko'rsatish, ulardan har tomonlama saboq olishga qaratilgan oqilona siyosat tufaylidir.

Mutafakkirlarimizning ilmiy me'rosini o'rganish, tashviqot qilish va yodgorliklarini avlodlarga cha saqlab qolish uchun huquqiy asos yaratildi. O'zbekiston Respublikasi hukumatining "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomil-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida", "Abu Iso Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi.

Vatanimiz tarixining o'chmas sahifalari shu buyuk va mo'tabar zotlarning hayotlariva xizmatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, vatanimizning "O'zbekiston - buyuk allomalar yurti", deb ataladi. Xalqlarni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, O'ra asrlarda yurtimizdan minglab fozil-fuzalolar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqdi. Ularning fan sohalariga oid asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yilning 24 may qarorida "Mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadanjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezuq an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmogda", deb ta'kidlangan.

Abu Abu Saxl Masixiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Said ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Sa'olibiy, Ahmad

Mohammad as-Sa'riy, Zaynuddin Jurjoniy, Abu Muhammad Xorazmiy, Isma'el Mas'uriy, Abubakr Muhammad Xorazmiy, Ahmad ibn Muhammad as-Saxariy al-Xorazmiy kabi yuzlab olimlar hayoti va ijodiga qiziqish boshlandi. Bu bilimlarimiz yurtimizdan yetishib chiqqan olimlarning bir qismi xolos.

Yurtimizdan yuzdan ziyod Termiziyilar, yuzdan ziyod Buxoriyilar, yuzdan ziyod Samarqandiyilar, yigirmadan ziyod Farg'oniyilar, o'n bitta Marg'moniyilar, o'nlab Toshkentiyilar, o'nlab Zominiyilar, G'ijduvoniyilar, Nasratabdiyilar, Nasafiyilar, Navoiyilar, Naqshbandiyilar, Narshaxoniyilar yetishib chiqqan. Atoqli tarixchi Abu Bakr Narshariy yurtimizdan yetishib chiqqan olimlarning nomini yozsa kitoblariga sig'masligini aytib o'tgandi. Yurtimizdan yetishib chiqqan olimlarning minglab qo'lyozmalari turli sahlar bilan chet elarga tarqalib ketgan, shunga qarabmasdan qo'lyozmalar institutida minglab qo'lyozmalar va turli hujjatlar saqlanadi. Ularni ilmiy o'rganish eng dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda qo'lyozma merosining asosiy qismi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Arab, fors, eski o'zbek tili va boshqa Sharq tillarida bitilgan 26 ming jild qo'lyozma, 39 ming jild toshbosma kitob va 10 mingga yaqin tarixiy hujjatlardan iborat fond 2000 yilda noyob ilmiy va madaniy ob'ektlardan biri sifatida YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi.

Mustaqillik yillarida qo'lyozma kiritilgan yutuqlarni ta'kidlagan holda, ularni ilmiy o'rganish talab etilmog'ida. Bu borada nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida g'oyat noyob hisoblangan. YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan qo'lyozmalar fondiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, shuningdek, qadimiy yozma manbalar fondiga ega bo'lgan muassasalar faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta asrlarda hozirgi O'rta Osiyo hududida yashab ijod qilgan zilloma va mutafakkirlarning matematika, astronomiya, fizika kabi aniq fanlar, medisina, kimyo, geografiya singari tabiiy fanlar, tarix, adabiyot,

fanlarga va boshqa ijtimoiy fanlar, islom dini va iktiboriy o'ng merosini tadqiq qilishni kengaytirish va chuqurlashtirish talab etiladi. Ummatimiz o'lganda, mamlakatimiz qadindan iqtidorlarga boy, makkam bo'lib kelgan shonli o'rinishimizdan saqlanib qolgan ilmiy merosimizni o'rganish, ularning tarixiy xotirasi va ko'rsatgan xizmatini e'tirof etilishi bilan birga, munosib yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba vazifasini o'taydi.

Mustaqil ta'lim uchun

1. <https://www.youtube.com/watch?v=Z6ERwCh2vgQ> havolasi orqali "Mahalla" telekanalida e'frrga uzatilgan "Algebra otasi - Muhammad Muso al-Xorazmiy haqida"gi hujjatli filmni ko'rib, o'z fikringizni bayon eting.



2. <https://www.youtube.com/watch?v=A5Zta6wt0JM> havola orqali Youtube kanalida taqdim etilgan "Abu Rayhon Beruniy" (1974) nomli filmni ko'ring va tahlil qiling.



Glossariy

Asturlab – joyning geografik koordinatalarini, vaqtni, ob'ektning azimutini, yulduzlarning chiqish va botish paytlarini, shuningdek amaliy astronomiyaning boshqa masalalarini hal qilishda ishlatiladigan ko'chma astronomik asbob.

Kalom – (arab. ravon nutq, jumla, gap, so'z) – musulmon kishining aqidasi, e'tiqodi, dunyoqarashi qanday bo'lishi kerakligini yoritib beruvchi fandi.

Sivilizatsiya – (lot. *civilis*) – fuqarolikka, davlatga taalluqli, tamaddun demadir. 1) keng ma'noda – ongli mavjudotlar mavjudli-

gining har qanday shakli; 2) madaniyat soʻzining sinonimi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Muhammad al-Xorazmiyning oʻrlik pozitsionli sanʼoq sistemasi deganda nimamatushasiz?
2. Al-Farobiy barcha fanlarni guruhlariga ajratib, tarix fanini u qaysi guruh tarkibiga kiritgan?
3. Al-Beruniy nima sababdan yer qobigʻi joylashgan oʻrnini doimiy oʻzgartirib turadi deb hisoblagan?
4. Mahmud Qoshgʻariy turkiy xalqlarga qanday taʼrif bergan?

Mustaqil taʼlim mavzulari

1. Ushbu mavzu boʻyicha tarixiy manbalardan birini tahlil qiling
2. Oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha taqdimot tayyorlang
3. Ushbu mavzuning kafli soʻzlari uchun krossvord yarating.
4. Mavzu boʻyicha Internet-saytlar katalogini tuzing
5. Oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha case study-ni ishlab chiqing.

7-mavzu boʻyicha tavsifa etiladigan adabiyotlar

1. Axmedov A. Axmad al-Fargʻoniy. Nil jilovlari: risola / – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 160 b.
2. Axmedov A. Muso al-Xorazmiy. Matematika otasi: risola / – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 160 b.
 - Toshkent: Anorbooks, 2023. – 160 b.
3. Zoxidiy A. Abu Ali ibn Sino. Tabiblar sultoni: risola / – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 160 b.
4. Muxiddinova F. Abu Nasr Farobiy. Sharq Aristoteli: risola / – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 160 b.
 - Toshkent: Anorbooks, 2023. – 160 b.
5. Xidirov A. Abu Rayxon Beruniy. Ilm-fan tugʻdori: risola / – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 160 b.
6. Xolmurodov R. Birinchi Rennessans allomalari. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – 192 b.
7. Sadullayev A., Sotliqov A. Xorazm Maʼmun akademiyasining tarixiy iddizlari. – Urganch, 2003.
8. Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. – T.: Oʻzbekiston, 2020. – 424 b.

7-mavzu boʻyicha testlar

1. Al-Maʼmun otasi vafotidan keyin oʻzini nechanchi yilda halifa deb eʼlon qiladi?
 - A) 813 yilda
 - B) 819 yilda
 - C) 808 yilda
 - D) 850 yilda
2. Halifa al-Maʼmun “Bayt ul-hikma” ilmiy markazi va haliqalidagi barcha fanlar guruhiga rahbar qilib kimni tayinlaydi?
 - A) Muso al-Xorazmiy
 - B) Ahmad al-Fargʻoniy
 - C) Abu Rayhon Beruniy
 - D) Abu Ali ibn Sinoni
3. Forobiyning “Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi” asarida barcha fanlar necha guruhga ajratiladi?
 - A) 5 guruhga
 - B) 4 guruhga
 - C) 3 guruhga
 - D) 2 guruhga
4. Abu Nasr ibn Iroq astronomiyaga doir ilmiy asarlari tuʼayli qanday fahriy nomga sazovor boʻlgan?
 - A) “Batimusi soniy” (“Ikkinchi Ptolemey”)
 - B) “Buqroti soniy” (“Ikkinchi Gippokrat”)
 - C) “Al-Muallim as-soniy” (“Ikkinchi muallim”)
 - D) Jorulloh (Allohning qoʻshnisi)
5. 1004 yildan boshlab Gurganjda qanday ilmiy muassasa toʻla shakllandi?
 - A) “Dorul hikma va maorif”
 - B) “Bayt ul hikmat”
 - C) “Xazinat ul-donish”
 - D) “Xizamat ul-hikma”

6. Nechanchi yild Xorazm Ma'mun Akademiyasining faoliyati tugatildi?

- A) 1017 yilda
- B) 1018 yilda
- C) 1019 yilda
- D) 1020 yilda

7. Beruniy Amerika qit'asi mavjudligini yevropalik olimlardan taxminan necha yil oldin aytib o'tgan edi?

- A) 450 yil
- B) 460 yil
- C) 470 yil
- D) 480 yil

8. Nechanchi yilda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi?

- A) 1997 yil 11 noyabrda
- B) 1998 yil 11 noyabrda
- C) 1997 yil 12 noyabrda
- D) 1998 yil 12 noyabrda

9. 1997 yil 11 noyabrda Xorazm Ma'mun akademiyasining tarkibida qanday fanlar muammolari bo'yimlari tashkil qilindi?

- A) arxeologiya, tarix va falsafa, til va adabiyot, biologiya
- B) arxeologiya, matematika, geometriya
- C) tarix va falsafa, fizika, kimyo
- D) kimyo, til va adabiyot, matematika

10. 2005 yilda Xorazm Ma'mun Akademiyasining necha yillik yubileyi keng nishonlanishi belgilandi?

- A) 1000 yilligi
- B) 1100 yilligi
- C) 1200 yilligi
- D) 1250 yilligi

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1-MAVZU: MUSTAQIL O'ZBEKISTON: RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA MUAMMOLARI. FANNING PREDMETI, TADQIQOT DOIRASI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....	6
1.1. Fan tushunchasi. Uning rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari.....	6
1.2. Fanning strukturasi, metodi va tasnifi.....	9
1.3. Fanning ijtimoiy roli va uning rivojlanish istiqbollari.....	14
1.4. Hozirgi zamon fanining o'ziga xos xususiyatlari.....	16
1.5. Fan etikasi va olimlik mas'uliyati.....	19
2-MAVZU: ANTIK DAVRDA ILMIV TAFAKKURNING PAYDO BO'LISHI.....	26
2.1. Insonlarning ilk jamiyati va ilmiy bilimlar manbasi.....	26
2.2. Qadimgi Mesopotamiyada fan.....	27
2.3. Qadimgi Misrda fan.....	30
2.4. Qadimgi Hindistonda fan.....	33
2.5. Qadimgi Xitoyda fan.....	35
3-MAVZU: QADIMGI YUNONISTONDA ILMIV BILIMLARINING RIVOJLANISHI.....	43
3.1. Qadimgi grek mifologiyasining mohiyati. Argonavtlar haqida afsona. Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari. Prometei afsonasi.....	43
3.2. Qadimgi Gretsiyada tabiat haqidagi fanlarning rivojlanishi. Ioniya grek fanining makazi.....	48
3.3. Gerodot "Tarix otasi" ning "Tarix" kitobi va uning qadimgi dunyo tarixini o'rganishdagi ahamiyati.....	51
3.4. Demokrit – yunon faylasufi. Gippokrat va uning tibbiyot fani rivojiga qo'shgan hissasi.....	53
3.5. Aristotel, Pifagor va Sugrotlarning qadimgi dunyo ilmiy tafakkuri rivojida tutgan o'rni. Platon akademiyasi.....	54
3.6. Strabon va uning "Geografiya" asari. Ibridoiy grek maktablari	

va gimnaziyalar.....	58
4-MAVZU: QADIMGI RIMDA ILMIV BILIMLARINING TARAQQIY ETISHI.....	64
4.1. Qadimgi Rimda ilmiy bilimlarning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar.....	64
4.2. Sitseron, Seneka, Mark Avreliy, Avgustin Avreliy, Boetsiy va Pliniylar Rim ilmiy dunyog'arashining peshqadam vakillaridir.....	66
4.3. Eramizdan avvalgi I asrning oxiri va eramizning I asri boshlari Rim she'riyatining "Oltin asri".....	73
4.4. Rimda teatrlar, kutubxonalar, ko'priklar va vodoprovodlar qurilishida aniq fanlarning o'rni.....	76
5-MAVZU: IX-XII ASRDA MUSULMON UYG'ONISH DAVRI. SHARQ ALLOMALARINING DUNYO ILMIV TAFAKKURI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI.....	84
5.1. Islom mintaga xalqlari madaniy munosabatlarini bog'lovchisi sifatida. Musulmon Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlari.....	84
5.2. Bag'doddagi "Bayt-ul-hikma" va unda dunyoviy fanlarning rivojlanishi.....	94
5.3. Sharqda ilk madrasalarning vujudga kelishi. Samarqandda Ibrohim Tamg'achxon tomonidan ilk madrasaning bunyod etilishi. Buxorodagi Farjok madrasasi.....	97
5.4. Musulmon Sharqi olimlari asarlarida ilmlar tasnifi muammosi. Islom sivilizatsiyasining G'arbiy Yevropaga ta'siri....	107
6-MAVZU: MARKAZIV OSIVOLIK ALLOMALARINING BASHARIYAT ILMIV TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN ULUSHI.....	118
6.1. Markaziy Osiyodan etishib chiqqan buyuk daholar. Fan va texnika tarixida "Daholik fenomeni".....	118
6.2. Imom al-Buxoriy va uning "Al-Jome' as-sahih" asari.....	124
6.3. Abu Iso Muhammad at-Termiziy va uning "Al-Jome'", "Ash-Shamoil an-Nabaviya" kabi asarlari va ularning musulmon olamidagi ahamiyati.....	132
6.4. Qaffol ash-Shoshiy buyuk musulmon qonunshunosi.....	144

6.5. Abu Mansur al-Moturudiy kalom ilmining bilimdonlardan.....	148
7-MAVZU: MARKAZIV OSIVOLIK QOMESIV MUTAFAKKIRLARINING DUNYO SIVILIZATSIVASIDA TUTGAN O'RNI.....	156
7.1. Muso al-Xorazmiyning "Bayt ul-Hikma" dagi faoliyati.....	156
7.2. Ahmad al-Farg'oniy va uning "Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum" asari va uning ahamiyati.....	160
7.3. Abu Nasr Farobiyning ijodi va faoliyati.....	162
7.4. Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar. Abu Rayhon Beruniy Xorazm Ma'mun akademiyasining raisi.....	175
7.5. Mustaqil O'zbekistonda Xorazm Ma'mun akademiyasining qayta tiklanishi va uning bugungi kundagi faoliyati.....	183
7.6. Mustaqil O'zbekistonda qomusiy allomalimiz merosini o'rganish va targ'ib qilishning boshlanishi.....	187

D.V. Alimzarova, F.A. Akramova

FAN VA TEXNIKA TARIXI (1-qism)

(Bakalavriat talabalari uchun o'quv qo'llanma)

Muharrir	B. Botirov
Texnik muharrir	Shohruh Botirov
Dizayner	Bahodir To'xliyev
Sahifalovchi	Bekzod Raxmatov

Nashriyot litsenziyasi: AI №234, 11.02.2013.

Bosishga ruxsat etildi: 09.09.2024.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi: 60x84 1/16.

Times garnituras. Ofset bosma.

Hisob nashriyoti t.: 12,5. Shartli b. t.: 9,5.

Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 46.

“BAYOZ” nashriyotida nashrga tayyorlandi

“BAYOZ” MChJ matbaa korxonasida chop etildi.

Toshkent. Lutfkor 1-tor ko'chasi, 1-uy.